

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIJ TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

B. Q. TILABOV

**PLASTIK
DEFORMATSIYA**

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan talabalar uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – 2023

UO‘K 621.017; 669.011; 621.78.011

KBK 40

T-50

B. Q. Tilabov. Plastik deformatsiya. [Darslik]. – T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2023. bet.

ISBN 978–9943–

Mazkur darslikda plastik deformatsiyaning asosiy tabiati, plastik tekisligi davomiyligining nazariy asoslari, materiallarni presslash va shtamplash, pastki va yuqori baholash haqidagi teoremlari keltirilgan. Metallarning tuzilishi, plastik deformatsiyalar haqida tushincha, deformatsion kuchlarni aniqlash usullari, elastik va plastik deformatsiyalar, metallar va qotishmalarning o‘ta yuqori plastikligi, deformatsiyani bartaraf etish, listli materiallarni shtampovkalash va plastik deformatsiyani asosiy qonunlari tavsiya etilgan. Deformatsiyalanish jarayoniga tezlik va haroratlar ta‘siri tahlillari ko‘rsatilgan. Bundan tashqari, darslikda talabalar mustaqil ravishda tayyorlanishlari uchun nazorat savollari ham berilgan.

Darslik 70720803 - «Metallarga bosim bilan ishlov berish (metallarni prokatli ishlab chiqarish)» magistratura mutaxassisligi va boshqa yaqin ta‘lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan. Shuningdek, u texnika OTM ilmiy xodimlari va mustaqil izlanuvchilari hamda ishlab chiqarish korxonalarining muhandis-texnik xodimlari uchun ham mo‘ljallangan.

В настоящем учебнике приведены основная природа пластической деформации, основы теории плоского пластического течения, прессования и штамповки материалов, теоремы о нижних и верхних оценках. Представлены строение металлов, понятие о пластической деформации, методы определения деформационных сил, упругая и пластическая деформация, сверхпластичность металлов и сплавов, устранение деформации, штамповки листовых материалов и основные законы пластической деформации. Показано влияние температуры и скорости на процесс деформирования. Кроме этого, в учебнике даны контрольные вопросы для самоподготовки студентов.

Учебник предназначен для студентов высших учебных заведений, обучающихся по специальностям образования 70720803 - «Обработка металлов под давлением (производство прокатных металлов)» и другим близким направлениям. Он также рассчитан для научных сотрудников и соискателей технических ВУЗов и производственных предприятий.

This textbook presents the basic nature of plastic deformation, the basics of the theory of plane plastic flow, pressing and stamping of materials, theorems on lower and upper bounds. The structure of metals, the concept of plastic deformation, methods for determining deformation forces, elastic and plastic deformation, superplasticity of metals and alloys, elimination of deformation, stamping of sheet materials and the basic laws of plastic deformation are presented. The effect of temperature and speed on the deformation process is shown. In addition, the textbook contains control questions for self-training of students.

The textbook is intended for students of higher educational institutions studying in the specialties of education 70720803 - "Processing of metals under pressure (production of rolled metals)" and other related areas. It is also designed for researchers and applicants for technical universities and industrial enterprises.

UO‘K 621.017; 669.011; 621.78.011

KBK 40

Taqrizchilar:

D.M.Berdiev – Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti «Metallarga bosim bilan ishlov berish» kafedrasi mudiri, texnika fanlari doktori, professor;

J.A.Xo‘jaev – Toshkent «Agregat zavodi» AJ boshqaruv raisi o‘rinbosari, bosh muxandis.

ISBN 978–9943–

© **B.Q.Tilabov, 2023**

©

© «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2023.

KIRISH

Mashinasozlik sanoatlarida xilma-xil materiallardan foydalaniladi, bular ichida metallar va ularning qotishmalari asosiy konstrukcion materiallar bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun fanning asosiy mazmuni va mohiyati plastik deformatsiyaga bag'ishlangan metall materiallarini o'rganishga qaratilgan.

Metallarning deformatsiyasi deb jismga qo'yilgan kuch P ta'siri ostida jismning shakli va o'lchamlarining o'zgarishiga aytiladi. Metallar fizik-kimyoviy, allotropiya hodisalari ta'siri ostida ham deformatsiyalanishi mumkin. Odatda, deformatsiya jismga qo'yilgan tashqi kuchlarning ta'siri bilan yoki jismning o'zida sodir bo'ladigan turli fizik-mexanikaviy jarayonlar bilan chaqiriladi. Qandaydir bir F maydonga qo'yilgan kuch P odatda unga perpendikulyar bo'lmaydi, nisbatan qandaydir bir burchak ostida yo'naladi, shu sababli jismda normal va urinma kuchlanishlar vujudga keladi. Bu kuchlanishlar haqiqiy kuchlanishlar bo'lishi mumkin – qachonki, kuch berilgan deformatsiya momentida mavjud bo'lgan kesimga nisbatlanadi, shartli kuchlanishlar bo'lishi mumkin – qachonki, kuch kesimning boshlang'ich maydoniga nisbatlanadi. Haqiqiy urinma kuchlanishlar t bilan va normal kuchlanishlar S bilan, shartli kuchlanishlar esa mos ravishda τ va σ bilan belgilanadi. Normal kuchlanishlar cho'zuvchi (musbat) va siquvchi (manfiy) kuchlanishlarga bo'linadi.

Ma'lumki, sinovdan o'tkaziladigan namuna yoki detalda mexanik qir qilishlar, yoriqlar, metallar va ular qotishmalarining ichki nuqsonlari (metallurgik, texnologik yoki ekspluatatsion kelib chiqishli), boshdan-oyoq teshiklar, qalin kesimdan ingichka kesimga keskin o'tishlarning bo'lishi kuchlanishlarning notekis taqsimlanishiga olib keladi, qir qilishning asosida normal kuchlanishlarning eng yuqori cho'qqi konsentratsiyasini hosil qiladi. Normal kuchlanishlarning bunday manbalari kuchlanishlar konsentratorlari deb ataladi. Bu σ_k kuchlanishlar cho'qqisi, kuchlanish konsentratorining radiusi qanchalik ko'p bo'lsa, s qir qilishning chuqurligi shunchalik kichik bo'ladi: $\sigma_k = 2 \sigma_n c/r$, bu yerda σ_n – nominal o'rtacha kuchlanish.

Kuchlanishlar turli sabablar bilan chaqirilishi tufayli, tashqi yuklamaning ta'siri bilan shartlanadigan va yuklama olinganda yo'qoladigan vaqtinchalik kuchlanishlar va tashqi yuklamaning ta'sirisiz vujudga keladigan va jismda muvozanatlanadigan ichki qoldiq kuchlanishlarga bo'linadi (yuklama metall namunalari yoki detallarda bo'lishi mumkin).

Shu bilan birgalikda metallarda ichki qoldiq kuchlanishlar ham uchraydi. Ichki qoldiq kuchlanishlar metallni tezkor qizdirish yoki sovutish jarayonida yuza va ichki qatlamlarning notekis kengayishi yoki siqilishi oqibatida vujudga keladi. Bu kuchlanishlar *issiqlik kuchlanishlari* yoki *termik kuchlanishlar* deb ataladi.

Bundan tashqari, kuchlanishlar kristallanish jarayoni, notekis deformatsiyalanish, termik ishlov berishda faza aylanishlarining hajm bo'yicha notekis kechishi oqibatida paydo bo'ladi, ularni odatda *faza kuchlanishlari* yoki *struktura kuchlanishlari* deb ataladi. Metallarda bunday holatlar faza va struktura kuchlanishlari deb yuritiladi. Fazaviy va strukturaviy tuzilishlar asosan metallar va ularning qotishmalarida bo'ladi.

Mazkur fanning asosiy vazifasi plastik deformatsiyaning tabiatini o'rganish, metallarga bosim bilan ishlov berish jarayonlarini bosqichma-bosqich tahlil qilish va bu jarayonlarni ratsional qurishning umumiy prinsiplarini ishlab chiqish, bunda ishlov berishlar faqatgina zagotovkalarini emas, balki ko'pincha talab qilinadigan shakl va o'lchamlardagi tayyor buyumlarni olish imkonini berish bilan bir qatorda metallarda bir qator sifat o'zgarishlari chaqirilishini hisobga oladi. Shu bois plastik deformatsiya yangi innovatsion texnologiyalarning ilmiy bazasi bo'lib hisoblanadi.

Turli operatsiyalarda zagotovkalar shaklining o'zgarish texnologik xarakteri, dastlabki zagotovkaning shakli va o'lchamlari hamda bosim bilan ishlov berishdan keyin olinadigan zagotovkalar va detallarning shakli va o'lchamlari o'rtasidagi ko'proq qo'l keluvchan nisbatlarni qidirish, xususan, buyumlar sifatini yaxshilanishiga hamda metall va elektr energiyasi sarfining qisqarishiga olib keluvchi nisbatlarni qidirish ko'zda tutiladi.

Bosim bilan ishlov berish operatsiyalarida metallning plastik deformatsiyalarga qarshiligi, ya'ni kuchlanishlarning taqsimlanishi, priborlar va asbob-uskunalarni to'g'ri tanlash hamda ishchi uskuna yoki detallarning mustahkamlik hisobini to'g'ri bajarish maqsadida bu operatsiyalarni amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan sa'y-harakatli ishlar bajariladi.

Shu bois metallarga bosim bilan ishlov berishning asosiy bazasi metallarning plastik deformatsiyasi to'g'risidagi fan hisoblanadi. Bu fan metallarga bosim bilan ishlov berish va metall materiallarining plastik deformatsiyasi uchun bir xil muhim ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi o'zaro bog'langan uchta asosiy yo'nalish bo'yicha rivojlanib bormoqda:

1 - metallning plastik deformatsiyalanish jarayonining fizikasi. Bu yo'nalish nazariy va eksperimental tarzda metallning plastik shakl o'zgarishi mexanizmini o'rganadi, turli omillarning, asosan qizdirish harorati, deformatsiya darajasi va tezligi, kuchlanganlik holati turining bu jarayonga ta'sirini aniqlaydi, metall elastik holatdan plastik holatga o'tadigan shart-sharoitlarni aniqlaydi;

2 - deformatsiya jarayonining fizik-kimyosi, plastik deformatsiyaning metallni kimyoviy tarkibi va faza holatiga bog'liqligini ko'rib chiqadi;

3 - plastik deformatsiyaning mexanikasi - kuchlanishli va deformatsiyalangan holat, kuchlanishlarning kattaliklari va ularning plastik deformatsiyalangan jismda taqsimlanishi masalalarini matematik jihatdan ishlab chiqadi va jismning plastik holatga o'tish shart-sharoitlarini tahlil qiladi.

Yuqorida aytilganlardan anglash mumkinki, plastik deformatsiyalar nazariyasi nisbatan yangi fan bo'lib hisoblanadi. Metallarga bosim bilan ishlov berish va metallarni prokatlash nazariyasi yanada ko'proq yangi innovatsion texnologiya bo'lib hisoblanadi, ishlab chiqarish korxonalarida bunday ishlov berishning ahamiyati keskin oshganligi bois ularni ishlab chiqish yaqindagina boshlangan.

Rossiya federatsiyasining taniqli olimlari umuman plastik deformatsiyalar to'g'risidagi fanga va xususan, metallarga bosim

bilan ishlov berish hamda listli metall materiallarni prokatslash nazariyasiga juda katta hissa qo'shganlar.

Masalan, plastik deformatsiyaning fizikasi va fizik-kimyosi sohasida ulkan ishlar qilingan, xususan, V.D.Kuznetsov tomonidan qattiq jismning fizikasi, deformatsiyaning fizikaviy-kimyoviy nazariyasining asoschisi bo'lib hisoblanadigan N.S.Kurnakov tomonidan bosim oqimi va plastik jismlarning qattiqligi, N.N.Davidenkov va boshqa bir qator olimlar tomonidan deformatsiya tezligining deformatsiya jarayoniga ta'siri o'rganilgan.

Bundan tashqari, plastik deformatsiyaning mexanikasi sohasida ham ko'p ishlar bajarilgan bo'lib, ularga rossiyalik olimlar yetakchilik qiladi va uni ko'pincha «Plastiklikning matematik nazariyasi» deb atashadi. Mohiyatiga ko'ra, ular plastik deformatsiya jarayonini matematik tahlil qilish tizimining yaratuvchilari bo'lib hisoblanadi. Bu yo'nalishlar bo'yicha S.A.Xristianovich, L.S.Leybenzon, A.A.Ilyushin, V.V.Sokolovskiy va boshqalar kabi yetakchi olimlar shug'ullanishgan.

Butun dunyoga mashhur Rossiyalik olim D.K.Chernov metallarga bosim bilan ishlov berish nazariyasining asoschisi hisoblanadi, u nafaqat metallarga bosim bilan ishlov berishning mohiyatiga tegishli bo'lgan bir qator masalalarni kun tartibiga qo'yib qolmasdan, ularni asoslab bergan va ilmiy jihatdan hal qilgan hamda kelajakda ularni hal qilish yo'nalishlarini ko'rsatib bergan. D.K.Chernov o'zining ishlaridan birida «Metallarni bosqichma-bosqich qizdirish shuni uchun kerakki, metallni qizdirish rejimlari tashqi va ichki qatlamlarning deformatsiyasida katta farq bo'lmasligi zarur» deb yozgan. Boshqa bir ishida esa plastik deformatsiyada sirpanish chizig'ini ko'rsatib berganki, u ishlarni o'rganish plastiklikning matematik nazariyasi uslublaridan birining asosiga kirgan.

Metallarga bosim bilan ishlov berish va plastik deformatsiya nazariyasi ko'pgina zamonaviy rossiyalik olimlarning ilmiy mehnatlari bilan yaratilgan. Ularning orasidan birinchi navbatda quyidagilarni eslatib o'tish o'rinli bo'ladi: A.A.Bochvar, S.I.Gubkin, N.I.Bezuxov, Ye.P.Unksov, G.A.Smirnov-Alyaev, I.M.Pavlov, N.I.Korneev, A.D.Tomlenov, L.A.Shofman, V.T.Mesherin,

I.A.Noritsin, I.Ya.Tarnovskiy, L.G.Stepanskiy, M.V.Storojev, Ye.A.Papov, S.P.Timoshenko, A.K.Chertavskiy, A.F.Golovin va boshqalar, xorijlik olimlar orasidan esa - U.Unekel, P.Xill, A.Zscheile, E.Shmid, B.Boas va boshqalar.

Amaldagi sanoatlarda fanning kelgusidagi roli, yangi innovatsion texnologiyalar bo'yicha ishlaydigan ishlab chiqarish korxonalarining rivojlanishi bilan shubhasiz ortadi. Ishlab chiqarish korxonalarida davlat standartlariga mos ravishda ishlab chiqarilayotgan barcha metall mahsulotlari, ya'ni detallar va buyumlarning plastiklik holati yoki sifati talab doirasida bo'ladi.

Yuqorida aytilganlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, bugungi kunda Islom Karimov nomli Toshkent davlat texnika universiteti «Metallarga bosim bilan ishlov berish» kafedrasining alohida olimlari tomonidan ham, kafedra jamoasi tomonidan ham bajarilgan metallarga bosim bilan ishlov berish va plastik deformatsiya nazariyasi bo'yicha ko'p sonli nazariy va amaliy eksperimental ishlar o'z aksini topgan hamda juda keng ma'nodagi ma'lumotlar, materiallar va adabiyotlar ommaga taqdim qilingan.

1-BOB. PLASTIK DEFORMATSIYANING ASOSIY TABIATI


1.1. Metallar va ularning tuzilishi

Metallar va ularning qotishmalarini o'rganishga o'tishdan oldin metall materiallarning plastik deformatsiyalanishining tabiatini bilish zarurdir. Barcha metallar va metall qotishmalarining umumiy holati va tuzilishi ularning tabiatiga bog'liq bo'ladi va kristall tuzilish bilan belgilanadi. Shu bois barcha metallar va qotishmalar turlicha kristall tuzilishli jismlarga ega bo'ladi, metallarda atomlar (ionlar), amorf jismlardan farqli o'laroq, qonuniy tartibda joylashadi, amorf jismlarda esa atomlar (ionlar) qo'shni kengliklarda identik (xaotik) tartibda joylashadi. Jismning yuzasida joylashgan atomlardan (ionlardan) tashqari, donalarning chegaralari va ichida to'g'ri kristall tuzilishining buzilishlari mavjud bo'ladi. To'g'ri kristall tuzilishning buzilishlari deformatsiyalanmagan metallda kristall panjaraning alohida uchastkalarida atomlar minimal potensial energiya bilan barqaror muvozanat holatidan siljishiga olib keladi. Bunday siljishlarning bo'lishi shunga olib keladiki, muvozanat holatidan yangi muvozanat holatiga siljigan alohida atomlar guruhlarini ko'chirish uchun bunday siljishlar bo'lmagandagiga qaraganda kichikroq siljituvchi kuchlanishlar talab qilinishi mumkin.

Ko'pgina metallar turli xil usullar bilan olinadi (1.1-rasm,a). Agar metallar odatdagi usul bilan olingan bo'lsa, u holda ular o'zida bir-biriga nisbatan turlicha yo'nalgan ko'p sonli 10^{-1} - 10^{-5} sm mayda kristallardan tashkil topgan polikristall jismlarni taqdim qiladi.

Kristall tuzilishga ega bo'lgan metallar umuman olganda atomlarning (ionlarning) kengligida qonuniyatli va davriy joylashishi bilan tavsiflanadi, bunda har bir atom (ion) xuddi shunday qurshovda joylashadi. Ko'pgina tadqiqotlarning, aynan esa kristallarni rentgenografik tadqiq qilishlarning ko'rsatishicha, metallarda atomlar (ionlar) to'g'ri chiziqlar va tekisliklar bo'yicha joylashadi va nafaqat atomlarning (ionlarning) kenglikda o'zaro joylashishini aniqlash imkonini berib qolmasdan, ular o'rtasidagi masofani aniqlash imkonini ham beradi.

Aksariyat hollarda atomlarning (ionlarning) tekisliklar va to‘g‘ri chiziqlar bo‘yicha joylashishi oqibatida kristallning tuzilishini to‘g‘ri chiziqlardan tashkil topgan uch o‘lchovli to‘r ko‘rinishida taqdim qilish mumkin, ularning kesishish nuqtalarida atomlar (ionlar) joylashadi (1.1-rasm,b). Bunday to‘rni bir xil kattalikdagi umumiy tutashuvchi qirralarga ega bo‘lgan geometrik ko‘p qirrali jismdan (parallelepiped, prizma va boshqalar) tashkil topgan deb hisoblash mumkin. Anglash qiyin emaski, bu to‘rning har qanday ko‘p qirrasini, masalan, ABVGDEJZ parallelepipedni (agar tizim parallelepipedlardan tashkil topgan bo‘lsa) uchta yo‘nalishdan har qandayida (a,b,c) ma‘lum bir masofaga ko‘chirish yo‘li bilan shu to‘rdagi boshqa har qanday parallelepiped bilan to‘liq birlashtirish mumkin. Biz agar 1.1-rasm,a va 1.1-rasm,b ga e‘tibor beradigan bo‘lsak, ularda ko‘proq to‘g‘ri chiziqlardan tashkil topgan uch o‘lchovli to‘rning sxematik tuzilishi va chiziqning kesishish nuqtalarida atomlarning joylashishi yaqqol tasvirlangan.



1.1-rasm. Metall holati (a) va to‘g‘ri chiziqlardan tashkil topgan uch o‘lchovli to‘rni sxematik tuzilishidagi chiziqning kesishish nuqtalarida atomlarning joylashishi (b).

Bu holda uni asosiy kristallografik yo‘nalishlarda uzluksiz ko‘chirish yo‘li bilan butun kenglikdagi to‘rni qurish mumkin bo‘lgan eng kichik ko‘pqirra kristall panjaraning elementar yacheykasi deb ataladi. Uch o‘lchamli kenglikda qirralari bilan bir-biriga tutash holda joylashgan elementar yacheykalar jamlanmasi kenglikdagi panjara deb ataladi.

Kesmalarning ushbu yacheyka atomlarining qo‘shni yacheyka atomlari bilan to‘liq mos tushishi uchun zarur bo‘ladigan, elementar

yacheykani minimal siljitish kattaligini belgilaydigan asosiy uzunliklari (a,b,c) panjaraning parametrlari yoki takrorlanuvchanlik davrlari deb ataladi. Aksariyat hollarda atomlarning yacheykada o‘zaro joylashishi atomlarning metallarning berilgan kenglikdagi panjarasida joylashishini to‘liq belgilaydi.

Kenglikdagi panjaralar oddiy va murakkab bo‘ladi. Kristallarning kenglikdagi oddiy panjaralarida atomlar faqatgina panjaraning tugunlarida (faqatgina asosiy elementar yacheykaning cho‘qqilarida) joylashadi. Kenglikdagi murakkab panjaralarda asosiy elementar yacheykalarining ichida ham xuddi o‘sha joylarda atomlar joylashadi.

Kristallarning tuzilishini yoki kristallarning (metallarniki) kenglikdagi panjaralarini tasvirlash uchun shunday koordinatalar tizimi tanlanadiki, bu tizimning o‘qlari bo‘lib, u bitta nuqtadan (panjaraning tugunidan) o‘tkazilgan, kristallning asosiy tugun to‘g‘ri chiziqlari bilan mos keladigan uchta to‘g‘ri chiziq, masalan, 1.1-rasmda yo‘nalish bo‘yicha a,b,c vektorlar bilan mos keladigan to‘g‘ri chiziqlar xizmat qiladi, bunda kristallografik o‘qlar tizimi kristallning simmetriyasiga muvofiq tanlanadi.


Kristallografik o‘qlar tizimida kenglikdagi panjaraning elementar yacheykasining shaklini panjaraning uchta a, b, c parametrlari va kristallografik o‘qlar o‘rtasidagi uchta α , β , γ koordinata burchaklari bilan tasvirlash mumkin (1.1-rasmga qarang).

Metallarda shuningdek, elementar yacheykalarining xillashgan shakllari ham mavjud bo‘ladi. Metallarning kenglikdagi kristall panjaralarining asosiy elementar yacheykalarining xillashgan shakllari 1.2-rasmda keltirilgan.

Kub panjaralar uchun (1.2-rasm, a,b) burchaklarning tengligi $\alpha = \beta = \gamma$ va panjara parametrlarining o‘zaro tengligi $a = b = c$ xarakterli. Agar kub panjarada elementar yacheyka kubining cho‘qqilarida joylashgan atomlardan tashqari kubning markazida joylashgan atom ham mavjud bo‘lsa, u holda bunday panjara hajmi-markazlashgan kub panjara deb ataladi.

Kubning qirralarining markazida joylashgan atomlarga ega bo‘lgan kub panjara markazlashgan qirrali kub panjara deb ataladi.

Geksagonal panjaraning elementar yacheykasi uchun (1.2-rasm,d) burchaklarning $\alpha = \beta = 90^\circ$ va $\gamma = 120^\circ$ qiymatlari va panjaraning faqatgina ikkita parametrining o‘zaro tengligi $a = b \neq c$ xarakterlidir. Panjaralarning bu uchta xili ko‘pchilik metallarga xos panjaralar hisoblanadi.




1.2-rasm. Kub panjaralardagi burchaklar va panjara parametrlarining o‘zaro tengligi (**a,b**) va geksagonal panjaraning elementar yacheykasidagi burchaklar (**d**).

Yuqorida ko‘rsatilgan hajmi-markazlashgan kub panjaraga, masalan, quyidagi metallar ega: α - va β - temir, litiy, vanadiy, volfram, molibden, xrom, tantal; markazlashgan qirrali kub yacheykali panjaraga quyidagi metallar ega: alyuminiy, γ -temir, oltin, mis, nikel, platina, qo‘rg‘oshin, kumush; prizmaning ichida uchta atomga ega bo‘lgan zich o‘ralgan geksagonal yacheykali panjaraga (1.2-rasm,d) quyidagi metallar ega: magniy, rux, berilliy, kadmiy, kobalt, α -titan va boshqalar.

Kenglikdagi panjaralarning elementar yacheykalarida (shundan kelib chiqqan holda kenglikdagi panjaralarning o‘zlarida ham) ko‘chirish mumkin bo‘lgan tekisliklarni aniqlash uchun shuningdek, kristallografik yo‘nalishlarni aniqlash uchun kristallografiyada indekslash tizimi qabul qilingan.

Ushbu tizimga ko‘ra, kub panjara uchun tekisliklarni indekslash dumaloq qavsga olingan uchta raqam bilan amalga oshiriladi. Bu raqamlar o‘zida a,b,c koordinatalar o‘qlarida tekislik bilan kesiladigan kesmalarga teskari proporsional bo‘lgan oddiy butun sonlarni

taqdim qiladi, bunda kesmalarning o‘lchov birligi sifatida panjara-ning parametrlari qabul qilinadi. Shu bois 1.3-rasmda bu tekisliklar-ning belgilanishini ko‘rsatish bilan elementar kub yacheykada o‘tkazilgan ba’zi bir tekisliklar ko‘rsatilgan.



1.3-rasm. Tekisliklarning belgilanishini ko‘rsatish bilan elementar kub yacheykada o‘tkazilgan ba’zi bir tekisliklar ko‘rinishlari.

Tekisliklarni indekslash dumaloq qavsga olingan uchta raqam bilan amalga oshirilgan kenglikdagi kub panjara-ning elementar yacheykalari 1.3-rasmda ko‘rsatilganligi yuqorida aytib o‘tildi.

Geksagonal elementar yacheykada indekslash to‘rtta kristallografik o‘qlarda ko‘rib chiqilayotgan tekislik bilan kesilgan kesmalar-ning teskari kattaliklari bilan olib boriladi, bu o‘qlardan uchta olti qirrali prizmaning asosini tekislikda (baza tekisligi deb ataluvchi tekislikda) yotadi, to‘rtinchi tekislik prizmaning o‘qiga mos keladi. Geksagonal elementar yacheykada tanlangan kristallografik o‘qlar tizimining yo‘nalishi, shuningdek, ba’zi bir tekisliklarning belgilanishi o‘zida masalan, (0001), (1100), (1120), (1010) va $+a_1, +a_2, +a_3$ [100] va $-a_1, -a_2, -a_3$ yo‘nalishlarni taqdim qiladi. Bundan tashqari, elementar kub yacheykada asosiy yo‘nalishlar va ularning belgilanishlari mavjud: [001], [010], [100], [101], [110], [111] va boshqalar.

Yuqori haroratda eritilgan suyuq metallning qotishida kristallanish jarayoni kuzatilsa, bunda juda katta miqdorda kristallanish markazlari paydo bo‘lishini ko‘rish mumkin, texnik metall o‘zida birgina kristallni emas, kristallit donalarining konglomeratini taqdim qiladi, bu donalarning shakli, o‘lchamlari va kristallografik o‘qlarining yo‘nalishi kristallanish va keyingi ishlov berish shart-sharoitlariga bog‘liq bo‘ladi. Bunday tuzilish polikristall tuzilish deb ataladi.

Har bir donada atomlarning berilgan metallning kenglikdagi panjara-siga mos keladigan tartibli joylashishi kuzatiladi. Biroq turli donalarda ma'lum bir kristallografik tengliklarning yo'nalishi turlicha bo'lishi mumkin. Shu sababli metallar va qotishmalar o'zlarida, qoidaga ko'ra, polikristallarni taqdim qiladi.

Polikristall metallning har bir donasida anizotropiya kuzatiladi. Biroq donalarning turli tomonga tartibsiz yo'naltirilganligi oqibatida polikristall turli yo'nalishlar bo'yicha bir xil xususiyatlarga ega bo'lishi va anizotropiya bo'lmasligi mumkin (ba'zan donalarning o'lchamlari polikristallning o'lchamlaridan ancha kichik bo'lishi va ularning soni juda katta bo'lishi mumkin). Bu holat ko'pgina hollarda polikristall jismga, donani ba'zi bir tarkib toptiruvchilarning xususiyatlarining anizotropiyasiga qaramasdan, izotrop jism (kvaziizotrop jism) sifatida qarash imkonini beradi.

Polikristalldan farqli o'laroq, ularning butun hajmi uchun kenglikda ma'lum bir kristallografik tekisliklarning yo'nalishining doimiyliigi xarakterli bo'lgan jismlar (jismning tashqi shaklidan qat'iy nazar) monokristallar deb ataladi. Hozirgi kunda ba'zi bir metallarning shunchalik katta o'lchamli monokristallarini sun'iy ravishda olish imkoniyati mavjudki, ulardan mexanik sinovlar uchun namunalarni tayyorlash mumkin, bu plastik deformatsiya jarayonini o'rganishni sezilarli darajada osonlashtiradi.

Metall namunalarda hosil bo'ladigan donalarni (kristallitlarni) kristallar bilan adashtirmaslik lozim, ularning tashqi yuzalari ixtiyoriy emas, ma'lum bir burchaklar ostida kesishadigan yassi qirralar ko'rinishida bo'ladi. Bularning barchasi metall materialning tarkibi, kristall tuzilishi va strukturasi, xossalari, xususiyatlari, ishlov berish usullari va ravshanki, eng asosiysi metallning tabiatiga ham bog'liq bo'ladi.

Metallar va ularning tuzilishi. Metall materiallarini o'rganishga kirishishdan oldin avvalambor metall va uning tuzilishi nimaligini bilish zarur bo'ladi. Bir paytlar mashhur rus olimi M.V.Lomonosov metallarning umumiy holati va tuzilishini o'rgangan va oxirida

ularni, ya'ni «Metallar bog'lash mumkin bo'lgan yaltiroq jismlardir» deya ta'riflagan. Bu uslub metallni eng oddiy ta'riflash bo'lgan, biroq hozirgi kungacha ham o'zining ahamiyatini yo'qotmagan.

Biroq metallar va ularning qotishmalarining ko'proq xilli va xarakterli xususiyatlari issiqlik o'tkazuvchanlik va elektr o'tkazuvchanlik bo'lib hisoblanadi, ular qizdirish harorati pasayishi bilan ortadi. Shuningdek, metallarning xususiyatlariga elektron tuzilish (o'tkazuvchanlik elektronlari yoki Frenkel bo'yicha o'tkazuvchanlik elektronlari), yaltiroqlik va boshqalar ham kiradi. Metall qotishmalari xususiyatlari bo'yicha metallar bilan ko'pgina umumiylikka ega bo'lganligi sababli, ba'zan metallar deganda ularning qotishmalarini ham tushinish mumkin.

Metallarning yuqorida aytilgan xususiyatlari ularning elektron tuzilishi bilan shartlanadi. Ko'pgina metallarda tashqi qobiqlarda joylashgan elektronlar (valent elektronlar) ma'lum bir atomlar bilan bog'lanmagan bo'ladi, aksincha, ulardan uzilgan bo'ladi va butun metall bo'lagiga tegishli bo'ladi. Bunday elektronlar odatda, Frenkel o'tkazuvchanlik elektronlari, jamoalashtirilgan elektronlar deb ataladi, chunki ular tashqi elektr maydonida yengil tezlanish olishga qodir bo'ladi va ularning tartibli harakati elektr tokining oqishini ta'minlaydi, bunday harakatni – elektr o'tkazuvchanlik deb tushiniladi. O'tkazuvchanlik elektronlarining zichligi $10^{22} - 10^{23} \text{ sm}^{-3}$ ni tashkil qiladi.

Shunday qilib, metallni - ichki elektronlarga ega bo'lgan atom yadrolari va elektron gazni, yoki aniqrog'i, elektronlarning o'zaro ta'sirlashish imkoniyatini hisobga oladigan bo'lsak – ion o'zakni «yuvib turadigan» elektron suyuqlikni hosil qiladigan jamoalashtirilgan o'tkazuvchanlik elektronlaridan tashkil topgan musbat ion o'zak ko'rinishida tasavvur qilish mumkin. Ion o'zak – davriy bo'lib, kenglikda to'g'ri joylashish bilan kristall panjarani hosil qiladi. Elektron gaz musbat ionlarning o'zaro elektrostatik itarilish kuchlarini kompensatsiyalaydi, ularning qattiq jismda bog'lanishini, ya'ni metall bog'lanishini ta'minlaydi.

Metallarda, yarim o'tkazgichlardan farqli o'laroq, o'tkazuvchanlik elektronlari har doim mavjud bo'ladi, yarim o'tkazgichlarda

ular faqatgina ma'lum bir ta'sirlarda, masalan, qizdirish harorati, sovutish va hokazolar ta'sirida paydo bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda metallarga quyidagicha ta'rif beramiz: «**Harorat pasaygan sari elektr o'tkazuvchanligi ortadigan, elektron o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan, bolg'alanuvchan, issiqlik o'tkazuvchan va yaltiroq moddalarga metallar deb ataladi**». Qora metallar - turiga qarab juda ko'p yaxshi xususiyatlarga ega bo'lgan metallar hisoblanadi.

Ko'pgina metallar qattiq va ba'zan suyuq holatda bir qator xarakterli xususiyatlarga ega bo'ladi:

a – yuqori issiqlik o'tkazuvchanlik va elektr o'tkazuvchanlik;

b – elektr qarshiligining musbat harorat koeffitsiyenti; harorat ortishi bilan toza metallarning elektr qarshiligi ortadi, ko'p sonli metallar (~30) o'ta yuqori o'tkazuvchanlikka ega (bu metallarda absolyut nolga yaqin bo'lgan haroratlarda elektr qarshiligi sapchib o'zgarish bilan amalda nolgacha pasayadi);

d – termoelektron emissiya, ya'ni qizdirganda elektronlar chiqarish qobiliyati;

e – yaxshi qaytarish qobiliyati; metallar shaffof emas va ular metallik yaltiroqlikka ega;

f – oshirilgan plastik deformatsiyalanish qobiliyatiga ega.

Bu yaxshi xususiyatlarning bo'lishi moddalarning metall holati deb ataluvchi holatini tavsiflaydi.

Ma'lumki, materialshunoslikda «tizim», «faza» va «struktura» tushunchalaridan keng foydalaniladi. Muvozanat holatida bo'lgan fazalar jamlanmasi tizim deb ataladi. **Faza deb** tizimning bir xil tarkib, kristall tuzilish va xususiyatlarga, xuddi o'sha bitta agregat holatga ega bo'lgan va tarkibiy qismlardan ajratuvchi yuzalar bilan ajratilgan gomogen tarkibiy qismlariga aytiladi. Struktura deganda metallar va qotishmalarda tegishli fazalarning o'zaro joylashish shakli, o'lchamlari va xarakteri tushuniladi. Metallar va qotishmalarining barcha makro va mikrostrukturalari turlicha kattalashtirishlar bilan optik metallografik mikroskop (yoki makroskop) yordamida kuzatiladigan makronamunalar va mikronamunalarda tadqiqot qilinadi va o'rganiladi.

Ko‘pincha metallar bilan birgalikda turli kimyoviy elementlarga ega bo‘lgan qotishmalardan foydalaniladi. Odatda qotishma deganda ikkita yoki undan ko‘p elementlarni eritish bilan olinadigan modda tushuniladi. Qotishmalarni tayyorlashga quyidagicha ta’rif berish mumkin: «qotishma ko‘proq metall elementlardan tayyorlanadi, metall xususiyatlariga ega bo‘ladi va metall qotishma deb ataladi». Bu qotishmalardan mashinasozlikning turli sohalarida, shuningdek, metall qirqadigan turli uskunalarni tayyorlashda keng foydalaniladi.

1.2. Plastik deformatsiya to‘g‘risida umumiy tushuncha

Metallning qandaydir bir hajmiga qo‘yilgan kuchlar tizimi uning deformatsiyalanishini chaqiradi. Elastik (qayishqoq) va plastik deformatsiyalarga ajratiladi. Agar tashqi kuchlar olingandan keyin deformatsiyalangan jism o‘zining boshlang‘ich shakli va o‘lchamlarini to‘liq qayta tiklasa, bunday deformatsiya elastik deformatsiya deb ataladi. Agar jismning shakli va o‘lchamlarining tashqi kuchlar bilan chaqirilgan o‘zgarishlari bu kuchlar olingandan keyin qolsa, bunday deformatsiya plastik deformatsiya (qoldiq deformatsiya yoki qaytmas deformatsiya) deb ataladi.

Detallarni metallarga bosim bilan ishlov berish yo‘li bilan olish boshlang‘ich tayyorlanmaning plastik deformatsiyalanishiga asoslanadi.

Plastik deformatsiya nafaqat uni yemirmasdan tayyorlanmaning alohida hajmlarini nisbiy siljitish yo‘li bilan detalning berilgan shaklini olish imkonini berib qolmasdan, balki tayyorlanma materialining mexanik va fizikaviy-kimyoviy xususiyatlariga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Odatda metallda qayishqoq deformatsiya atomlarning barqaror muvozanat holatidan chetlashishi hisobiga sodir bo‘ladi, bu muvozanat holati potensial energiyaning minimumi bilan tavsiflanadi. Bu chetlashishning kattaligi qo‘shni atomlar o‘rtasidagi masofadan katta bo‘lmaydi. Atomlar o‘rtasidagi masofalarning o‘zgarishi oqibatida qayishqoq deformatsiya hajmining qaytar o‘zgarishini chaqiradi. Hajmning qaytar o‘zgarishi, masalan, 100 kg/mm^2 bosim bilan har

tomondan siqishda po‘lat uchun $\approx 0,6\%$ ni, mis uchun esa $1,3\%$ ni tashkil qiladi.

Atomlarning barqaror muvozanat holatidan asosiy chetlashishi jismda to‘plangan potensial energiyani oshiradi va ma’lum bir chegaralargacha siljishlarning kattaligi deformatsiyalovchi kuchlarning ortishiga proporsional tarzda ortadi. Har qanday sharoitda ham tashqi kuchlarning jismga ta’siri atomlar o‘rtasidagi kuchlarning qarshi harakati bilan muvozanatlanadi, bu kuchlar atomlarni minimal potensial energiyali holatga qaytarishga harakat qiladi.

Ma’lumki, plastik deformatsiya atomlarning kristall panjaradagi atomlar o‘rtasidagi masofadan anchagina katta masofaga yangi barqaror muvozanat holatiga nisbiy siljishi hisobiga sodir bo‘ladi. Buning oqibatida plastik deformatsiyalashda jismga qo‘yilgan kuchlar bilan chaqirilgan umumiy deformatsiya plastik tarkib toptiruvchini ham, deformatsiyalovchi kuchlar olingandan keyin yo‘qoladigan qayishqoq tarkib toptiruvchini ham o‘z ichiga oladi. Bularning barchasi metallarni (yoki metall materiallarni) plastik deformatsiyalashdan keyin hosil bo‘ladi.

Monokristallning sovuq plastik deformatsiyalanish mexanizmi

Ushbu mexanizm plastik deformatsiyalash bajarilgandan keyin hosil bo‘ladi. Monokristallning plastik deformatsiyalanishi asosan ikkita yo‘l bilan sodir bo‘lishi mumkin: 1-sirpanish yoki sirg‘alish; 2-egizaklanish.

Birinchi yo‘l – sirg‘alish o‘zida monokristallning yupqa qatlamlarining qo‘shni qatlamlarga nisbatan parallel tarzda siljishini taqdim qiladi. Asosiy harakat bir qator tekisliklarni yoki yupqa qatlamlarni (sirpanish polosalarini) qamrab oladi, ularning orasida plastik deformatsiyalanish elementlari bo‘lmaydi. Eksperimental tadqiqotlar bilan shu narsa aniqlanganki, sirg‘alish polosalaridan biri ikkinchisidan o‘rtacha taxminan 1 mk masofaga orqada qoladi, qo‘shni atom tekisliklari o‘rtasidagi masofa esa taxminan 10^{-4} mk ni tashkil qiladi. Monokristallning sirpanish yo‘li bilan deformatsiyalanishining asosiy xarakteri (1.4-rasm, a) da yaqqol ko‘rinib turibdi, surat

cho‘zilishga tortilgan mis va alyuminiy qotishmasi monokristalli namunasida olingan.

Monokristallarda sirpanish - sirg‘alish ma‘lum bir kristallografik tekisliklar bo‘yicha sodir bo‘ladi, bu tekisliklar sirpanish tekisliklari deb ataladi. Odatda atomlarning eng katta joylashish zichligiga ega bo‘lgan tekisliklar sirpanish tekisliklari bo‘lib hisoblanadi, atomlar o‘rtasidagi masofa minimal kattalikka ega bo‘lgan yo‘nalishlar esa sirpanish yo‘nalishlari bo‘lib hisoblanadi. Masalan, markazlashgan qirrali kub kristall panjarali metallarda sirpanish tekisliklari odatda oktaedr xilidagi tekisliklar (111), sirpanish yo‘nalishlari esa [101] xilidagi yo‘nalishlar bo‘ladi.

Geksagonal kristall panjarali metallarda sirg‘alish tekisligi odatda (0001) xilidagi bazis tekislik, sirpanish yo‘nalishlari esa [100] xilidagi oltiburchakning diagonali bilan mos tushadigan yo‘nalishlar bo‘ladi.

Hajmi-markazlashgan kub panjaraga ega bo‘lgan metallda sirpanish bir nechta tekisliklar - (112), (123) va (110) xilidagi tekisliklar bo‘yicha amalga oshishi mumkin, chunki ularda atomlarning joylashish zichligi unchalik ko‘p farq qilmaydi. Sirpanishning ustivor yo‘nalishi [111] yo‘nalish bo‘lib hisoblanadi. Atomlarning qandaydir bir kristall tekisliklar bo‘yicha siljish imkoniyatiga asosan harorat katta ta‘sir ko‘rsatadi. Haroratning ortishi bir qator hollarda shunga olib keladiki, sirpanish jarayoni xona haroratida sirpanish sodir bo‘ladigan tekisliklardan farq qiladigan boshqa tekisliklar bo‘yicha amalga oshishi mumkin. Masalan, zich o‘ralgan geksagonal panjarali metallarda xona haroratida bitta sirpanish tekisligi – (0001) bazis tekisligi mavjud bo‘ladi, 200° dan oshiq haroratda esa qo‘shimcha (1011) yoki (1012) tipidagi tekisliklar bo‘yicha sirpanish imkoniyati paydo bo‘ladi. Barcha bu jarayonlar plastik deformatsiyalanishda sirpanishga kiradi.


Ikkinchi yo‘l – egizaklash o‘zida «egizaklash tekisligiga» parallel tekisliklarda joylashgan atomlarning ushbu tekisliklardan egizaklash tekisligigacha bo‘lgan masofaga proporsional masofaga siljishini taqdim qiladi (1.4-rasm, b) punktir chiziq bilan deformatsiyalash natijasida olingan egizak ko‘rsatilgan, bunda kristall

panjaraning avval-boshda egizaklash tekisligiga qarab $\alpha < 90^\circ$ burchak ostida egilgan qovurg'alari $180^\circ - 2\alpha$ burchakka buriladi.

Kristallning egizaklash bilan deformatsiya olgan qismining asosiy panjarasi kristallning deformatsiyalanmagan qismi panjarasining egizaklash tekisligiga (egizakka) nisbatan oyna tasviri bo'lib hisoblanadi va egizakda atomlarning o'zaro joylashuvi deformatsiyalanmagan metallardagi joylashuv bilan bir xil bo'ladi.

Egizaklash statik yuklash bilan deformatsiyalashda nisbatan kam va zarba bilan deformatsiyalashda anchagina ko'p kuzatiladi. Egizaklanish faqatgina deformatsiyalanadigan jismga tashqi kuchlarning ta'siri natijasida emas, balki plastik deformatsiyadan keyin kuydirish natijasida ham vujudga kelishi mumkin. Bunday hodisa, xususan, mis, latun va markazlashgan qirrali kub panjaraga ega bo'lgan boshqa metallarda kuzatiladi. Egizaklanishga sirg'alish bilan deformatsiyalanish hamrohlik qilishi mumkin. Sirg'alish bilan deformatsiyalashda egizaklash deformatsiyalash uchun talab qilinadigan kuchni sapchib kamaytiradi.

Egizaklash tekisliklari odatda sirg'alish tekisliklari bilan mos tushadi. Markazlashgan qirrali kub panjaraga ega bo'lgan metallar uchun odatda (111) tekislik, hajmi-markazlashgan kub panjarali metallar uchun – (112) tekislik va zich o'ralgan geksagonal panjarali metallar uchun – (1012) tekislik egizaklash tekisligi bo'lib hisoblanadi.



1.4-rasm. Monokristallning sirg'alish bilan hosil qilingan deformatsiyasi xarakterining harakati (a) va metallning tekisliklarining egizaklash bilan hosil qilingan proportsional masofalari (b).

Ma'lumki, ishlov beriladigan metallarda (yoki metall materiallarda) plastik deformatsiyalanish jarayoni asosan sirg'alish hisobiga

amalgaga oshadi. Shu sababli ko'pgina metallarda plastik deformatsiyalanish atomlarning metallarning kristall panjarasida atomlar o'rtasidagi masofadan anchagina katta masofalarga yangi barqaror muvozanat holatiga siljishi hisobiga amalgaga oshadi. Barcha materiallar va asosiy jarayonlar metallarni sirg'alish va egizaklash bilan plastik deformatsiyalashga tegishli bo'ladi.

Polikristallning sovuq plastik deformatsiyasi


Ko'pgina metall materiallar sovuq plastik deformatsiya – polikristallning deformatsiyasiga ega bo'ladi. Bu - plastik deformatsiyada materialning polikristall jismining qoldiq shakl o'zgarishi hisobiga hosil bo'lishi mumkin.

Yuqorida aytib o'tilganidek, monokristallning plastik deformatsiyalanish jarayonida sirg'alish tekisliklarining kenglikdagi davriy yuzalarga aylanishi (sirg'alish tekisliklarining bukilishi), shuningdek, mozaika bloklarining nisbiy burilishi kuzatiladi. Bir paytning o'zida monokristallning metallning alohida bloklarining ichidagi kenglikda panjaraning yaxlitligiga putur yetkazmasdan alohida bloklarga ko'proq yaqqol ifodalangan maydalanishi kuzatiladi (1.5-rasm, a). Bir paytlar N.F.Lishko bu yo'nalishni o'rganish bilan plastik deformatsiyalanish jarayonida bloklar hosil bo'lishining asosiy sababi kristallning alohida qismlarining sirg'alish tekisliklarining bir paytda bukilish bilan sirg'alishiga asoslangan murakkab siljishi bo'lib hisoblanadi degan xulosaga kelgan. Katta plastik deformatsiya natijasida monokristall alohida bo'laklarga bo'linadi, bu bo'laklar to'g'ri kristall tuzilishga ega bo'ladi va sirg'alish tekisliklarining pachkalari bilan chegaralangan bo'ladi, bu bo'laklarda atomlarning kattagina siljishlari oqibatida to'g'ri kristall tuzilish buziladi. Shunday qilib, katta plastik deformatsiyalarda monokristall ma'lum bir sonli donalardan tashkil topgan polikristallga aylanadi.

Polikristall jismning umumiy qoldiq shakl o'zgarishi uni tarkib toptiruvchi donalarning plastik deformatsiyasi va donalarning nisbiy siljishidan tarkib topadi, bunda donalarning shakllari va o'lchamlari o'zgaradi.

Shunga muvofiq polikristallning ichkikristallit va kristallitlararo deformatsiyasi ajratiladi. Polikristallning alohida donalarining deformatsiyasi xuddi monokristalldagi kabi sirg‘alish yoki egizaklanish bilan amalga oshadi. Biroq polikristallda ko‘p sonli donalarning bo‘lishi polikristallning deformatsiyalanish jarayonining ba’zi bir o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lishiga olib keladi.

Polikristallning alohida donalarida asosiy sirg‘alish tekisliklari kenglikda ixtiyoriy yo‘naladi. Alohida donalarning sirg‘alish tekisliklarining kenglikda turlicha yo‘nalganligi shunga olib keladiki, polikristall jism tashqi kuchlar tizimi bilan yuklanganda plastik deformatsiyalanish hamma donalarida bir paytda boshlanmaydi. Plastik deformatsiyalanish birinchi navbatda sirg‘alish tekisliklari ko‘proq qulay yo‘nalgan donalarda, ya’ni sirg‘alish tekisliklari berilgan kuchlar tizimi bilan chaqiriladigan urinma kuchlanishlar kattalik bo‘yicha eng katta ta’sir ko‘rsatish maydonchalari bilan mos tushadigan donalarda vujudga keladi. Qolgan donalar qayishqoq tarzda deformatsiyalanadi va bor-yo‘g‘i nisbiy siljishni olishi mumkin. Chiziqli cho‘zish va siqishda plastik deformatsiya boshlanishi uchun ko‘proq qulay bo‘lgan yo‘naltirilganlikka ularda sirg‘alish tekisliklari tashqi kuchning ta’sir ko‘rsatish yo‘nalishiga 45° burchak ostida joylashgan donalarga ega bo‘ladi. Ko‘proq qulay yo‘nalgan donalarda guruhviy siljishlarning namoyon bo‘lishi birinchi marta D.K.Chernov tomonidan topilgan - ko‘pincha deformatsiyalanadigan jismning yuzasida kuzatiladigan sirg‘alish chiziqlari bo‘lib hisoblanadi. 1.5-rasm, b da qalin metall listni qirqish bilan olingan tayyorlanmaning oksidli plenka bilan qoplangan yuzasida hosil bo‘lgan sirpanish chiziqlari keltirilgan. Donalarda birinchi siljishlar deformatsiyalanadigan jismga eng katta urinma kuchlanishlar ta’sir ko‘rsatadigan yo‘nalishlarda sodir bo‘lishi sababli, polikristall jismning yuzasida aniqlanadigan sirpanish chiziqlari jismda unga qo‘yilgan kuchlar bilan chaqiriladigan maksimal siljituvchi kuchlanishlarning yo‘nalishlari to‘g‘risida fikr yuritish imkonini beradi.



1.5-rasm. Monokristallning yuzasidagi tuzilishi, monokristall metallning va alohida bloklarning ichidagi kenglikda panjaraning yaxlitligiga putur yetkazmasdan alohida bloklarga ko‘proq yaqqol ifodalangan maydalanishi (**a**) va qalin metall listni qirqish bilan olingan tayyorlanmaning oksidli plenka bilan qoplangan yuzasida hosil bo‘lgan sirpanish (sirg‘alish) chiziqlari (**b**). X500

Deformatsiyalovchi kuchlar ortishi bilan kamroq qulay yo‘nalgan sirg‘alish tekisliklarida ta’sir ko‘rsatuvchi urinma kuchlanishlar plastik deformatsiya boshlanishi uchun zarur bo‘ladigan kattalikka erishadi, bunda plastik deformatsiya polikristallning tobora ko‘proq donlarini qamrab ola boshlaydi. Chiziqli cho‘zish yoki siqishda metall donlarining ustivor ko‘pchiligi plastik deformatsiyaga tortilishiga mos keladigan normal kuchlanish oquvchanlik chegarasi bo‘lib hisoblanadi. Polikristall jismning keyingi deformatsiyasi shunga olib keladiki, donalar metall materialining ko‘proq intensiv oqishi yo‘nalishida cho‘zilgan shaklni qabul qiladi.

Plastik deformatsiya natijasida cho‘zilgan donalarning ma’lum bir yo‘nalganligi mikrostrukturaning polosaligi deb ataladi. Demak, donalarning eng katta va eng kichik o‘rtacha kattaliklari o‘rtasidagi asosiy nisbat metall donalarining deformatsiya kattaligini ko‘rsatadi.

Sovuq deformatsiyada metallning mustahkamlanishi

Polikristallning plastik deformatsiyalanishi metallning fizikaviy, kimyoviy va mexanik xossalarining kattagina o‘zgarishlariga olib keladi. Deformatsiya darajasi ortishi bilan deformatsiyaga qarshilikning barcha ko‘rsatkichlari – elastiklik chegaralari, proporsionallik chegaralari, oquvchanlik va mustahkamlik chegaralari ortadi, shuningdek metallning qattiqligi ham oshadi.

Shu bilan bir paytda plastiklik ko'rsatkichlarining kamayishi kuzatiladi (nisbiy uzayish, nisbiy torayish, zarbiy qovushqoqligi, yopishqoqligi va boshqalar); elektr qarshiligi ortadi, korroziyaga qarshilik kamayadi, issiqlik o'tkazuvchanlik kamayadi, shuningdek, ferromagnitik metallarning magnit xususiyatlari o'zgaradi.

Plastik deformatsiyalanish jarayonida metallarning mexanik va fizikaviy-kimyoviy xossalarining o'zgarishi bilan bog'lanadigan hodisalar jamlanmasi mustahkamlanish (yoki qattiqlashish) deb ataladi. Metallarning mexanik xossalarining o'zgarishi, xususan, ularning mustahkamlik tavsiflarining ortishi, yuqorida aytib o'tilganidek, katta darajada deformatsiyalanish ortib borishi bilan ortadigan dislokatsiyalarning siljishga qarshiligi bilan tushuntiriladi. Sirg'alish tekisliklarining kesishish uchastkalari dislokatsiyalarning siljishiga oshirilgan qarshilikka ega bo'lgan asosiy uchastkalar bo'lib hisoblanadi, bu uchastkalarda dislokatsiyalarning kesishuvchi tekisliklar bo'ylab ko'chadigan kuch maydonlarining o'zaro ta'sirlashishi ularning qotishiga va keyinchalik ularning atrofida bir xil belgili dislokatsiyalarning to'planishiga olib keladi. Geksagonal kristall panjarali monokristallar (bitta sirg'alish tekisligi) kub kristall panjaraga ega bo'lgan metallarga qaraganda kamroq shiddat bilan mustahkamlanishi aytilganlarning ko'rgazmali tasdig'i bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birgalikda polikristallda donalarning chegaralari dislokatsiyalarning chiqishi uchun kattagina to'siq bo'lib hisoblanadi va donalarning chegaralarida bir xil belgili dislokatsiyalarning to'planishiga, demak, shundan kelib chiqqan holda, ko'proq shiddatli mustahkamlanishiga ko'maklashadi deb taxmin qilish mumkin. Keyingi fikr geksagonal panjarali metallar uchun adolatli bo'ladi, ularda kuchlanish egri chiziqlari – deformatsiya chiziqlari keskin farq qiladi, kub panjarali metallarda esa bunday farq kuzatilmaydi.

Ma'lumki, D.K.Chernov, G.V.Kurdyumov, S.T.Konobeyevskiy, M.A.Zaxarov, I.A.Oding, S.T.Kishkina, S.S.Nosyrev, M.V.Burakov, A.P.Gulyaev va boshqalar kabi ko'pgina taniqli olimlar va tadqiqotchilar o'z vaqtida plastik deformatsiyalanish jarayonida metallarning mexanik va fizikaviy-kimyoviy xossalarining o'zgarishi va keyingi mustah-

kamlanishi masalalari bilan shug'ullanganlar. Metallning qattiq eritmasining deformatsiyalanish jarayonida sirg'alish tekisliklari bo'ylab dispers zarrachalar va karbidlar ajralishi bilan bu eritmaning parchalanishi sodir bo'ladi, natijada bu karbidlar metallning mustahkamlanishiga olib keladi. Buning uchun qizdirish harorati, tutib turish vaqti va sovitish tezligi zarur bo'ladi, ular metall materiallarning mustahkamlik xossalarini oshiradi.

1.3. Deformatsion kuchlarni aniqlash usullari

Mazkur usullarning mohiyati

Metallarga bosim bilan ishlov berish texnologik masalasini ko'p hollarda statik jihatdan aniqlab bo'lmaydi. Metallning plastik shakl o'zgarishida uning hajmi kuchlanishli-deformatsion holati uchun umumiy bo'lgan holat matematik ko'rinishda quyidagi tenglamalar tizimlari bilan ifodalanadi:

a – uchta differentsial tenglama;

b – deformatsiyalar (deformatsiya tezliklari) va siljishlar (siljish tezliklari) o'rtasidagi bog'lanishni aniqlaydigan oltita tenglama;

d – kuchlanishlar va deformatsiyalar (deformatsiya tezliklari) o'rtasidagi bog'lanishni aniqlaydigan oltita tenglama.

Bu tenglamalar tizimlari 15 ta noma'lumga ega bo'lgan 15 ta tenglamani o'z ichiga oladi. Bu tenglamalardan tashqari, plastiklik holati shartini qanoatlantirish, kuchlanishlarning shiddati va deformatsiyalarning (deformatsiya tezliklarining) shiddati ifodalariga ega bo'lishi, shuningdek, yaxlitlik shartini qanoatlantirish (uchta tenglama) zarur bo'ladi, chunki siljishlar (siljish tezliklari) o'zaro bog'langan bo'lishi va ixtiyoriy tarzda berilmasligi kerak.

Plastiklik holati sharti mexanik tavsiflarning nisbati – berilgan harorat va deformatsiya tezligida θ_s oquvchanlik kuchlanishining ($\tau_s = k$ siljishda oquvchanlik kuchlanishining) σ_1 kuchlanishlar shiddatiga (T urinma kuchlanishlarning shiddatiga) nisbati bilan aniqlanadi.

Bu tenglamalar tizimlarini yechish yengib bo'lmaydigan matematik qiyinchiliklarga duch keladi. Shu sababli, tadqiqotchilar

deformatsiyaning real sxemasini yoki yassi qilib, yoki o'q simmetriyali qilib taqdim qilishga intilishadi. Kuchlanishlarda analitik yo'l bilan yechish faqatgina yassi masala uchun va o'q simmetriyali deformatsiyalangan holatning ba'zi bir masalalari uchun mumkin bo'ladi, chunki bunday masalalarning qo'yilishida noma'lumlarning soni tenglamalarning soniga teng bo'ladi. Ko'pgina o'q simmetriyali masalalarni yechish uchun tenglamalar tizimini to'ldirish (masalan, hajmning doimiyligi shartini hisobga olish bilan deformatsiya tezliklari va kuchlanishlar o'rtasidagi nisbatlar bilan) va qo'shimcha yo'l qo'yilishlarni kiritish (masalan, oraliq normal kuchlanish va eng chekka kuchlanishlardan birini teng deb hisoblash (Xaar-Karman gipotezasi) zarur bo'ladi. Bu holatda ham ta'sir ko'rsatuvchi kuchlanishlarga nisbatan yopiq ko'rinishda matematik jihatdan yetarlicha aniq analitik yechimni olishga muvaffaq bo'lavermaydi.

Tadqiqotchilar odatda bosim bilan ishlov berish texnologik masalalarini yanada soddalashtirish yo'lidan boradilar – metalluskuna kontakt yuzalarida chegara shartlariga tegishli bo'lgan ko'proq yoki kamroq darajada eksperimental yo'l bilan asoslangan yo'l qo'yilishlarni kiritadilar yoki deformatsiyalanadigan jismning kesimlaridan biri bo'yicha urinma yoki normal kuchlanishlarning taqsimlanishining u yoki bu xarakteriga oldindan yo'l qo'yadilar.

1967-yilda Evin sirpanish chiziqlari to‘rini qurish uchun bir qator uslublarni taklif qilgan. Bu yondashuvda egrilik radiusi bir jinsli to‘planadigan ikkitalik darajali progressiya sifatida ifodalangan. Ikkita ortogonal sirpanish chiziqlarining segmentlaridan boshlab to‘rning qolgan qismini ham mazkur taqdim qilishga muvofiq progressiya ko‘rinishida aniqlash mumkin. Bu uslub to‘rni qadamma-qadam qurishga xos bo‘lgan xatolarni kamaytirish imkonini beradi, bu uslubdan foydalanishda birdan-bir mumkin bo‘lgan xatolar

progressiyaning uzilishlari bilan bog‘lanadi. Biroq bu xatolarni aniqlashtirish va nolga keltirish mumkin.

Garchi Evinning ishini maqsadi masalalarni to‘g‘ri usul bilan yechishda hisoblash uslublarini soddalashtirish bo‘lgan bo‘lsada, Kollinz va Devurst uchun sirpanish chizig‘ini progressiyani yoyish koeffitsiyentlarini uning egrilik radiusi bo‘yicha vektor kolonkasi sifatida taqdim qilish uchun bu ish boshlang‘ich ish bo‘lib xizmat qilgan.


Bu usul keyinchalik Kollinz tomonidan rivojlantirilgan, unda aniqlanadigan matritsa operatorlari tizimi Xill tomonidan oddiy chizikli algebraik tenglamalardan foydalanish bilan ishlab chiqilgan to‘rlarning superpozitsiyasi tamoyilini geometrik tarzda ifodalash imkonini bergan. Bu matritsa-operator uslubi masalalarni to‘g‘ri bo‘lmagan usul bilan yechish uchun ayniqsa, qulay. Matritsa operatorlari uslubi yordamida to‘rning ichidagi munosabatlarni ham aniqlash mumkinligi sababli, noma‘lum boshlang‘ich sirpanish chizig‘ini aniqlash masalasi matritsani oddiy inversiyalash masalasiga aylangan. Bunday matritsa-operator uslublari masalalarni to‘g‘ri ifodalash imkonini beradi.

2.2.1. Sirpanish chiziqlarining umumiy tavsif tenglamalari

Yassi deformatsiya sharoitlarida mustahkamlanmaydigan qattiqplastik materialning deformatsiya o‘chog‘ida kuchlanishlar va tezliklarning taqsimlanish tenglamalari tabiatiga ko‘ra giperbolik tenglamalar bo‘ladi. Tavsiflar maksimal burchak deformatsiyalarining tezliklarini va Genki – Prandtl α va β -sirpanish chiziqlari ortogonal to‘rini aniqlaydi (2.6-rasm).

To‘rning ichidagi har qanday P nuqtani yoki Dekart koordinatalaridan (x, u) , yoki tavsifiy yoki egri chizikli koordinatalardan (α, β) foydalanish bilan aniqlash mumkin. Agar OA (α -chiziq) va OV (β -chiziq) egri chizikli o‘qlar bo‘lsa, u holda P nuqtada $F = \alpha + \beta$ ga teng bo‘lgan F burchak soat strelkasiga qarama-qarshi yo‘nalishda 0 nuqtadagi α -yo‘nalish va P nuqtadagi α -yo‘nalish o‘rtasidagi burchak sifatida aniqlanadi. P nuqtaning koordinatalari (α, β) - (α_3, β_3)

sifatida aniqlanadi, bu yerda α_3 – F ning P1 nuqta orqali o‘tadigan β -chiziq OA ning asosiy α -chizig‘ini kesib o‘tadigan nuqtadagi qiymatlari, β_2 – F ning P nuqta orqali o‘tadigan α -chiziq OV chiziqning asosiy β -chizig‘ini kesib o‘tadigan nuqtadagi qiymatlari. Shundan qilib, α - α -chiziq bo‘ylab, β esa - β -chiziq bo‘ylab doimiy bo‘ladi.



2.6-rasm. Genki – Prandtl α - va β -sirpanish chiziqlari to‘ri.

Sirpanish chizig‘ini yoki uning R , S egrilik radiuslari, yoki «harakatlanuvchi koordinatalar» yordamida taqdim qilish qulay bo‘ladi. α va β -chiziqlarning mos ravishda R va S bilan belgilanadigan egrilik radiuslari

$$\begin{cases} \alpha - \text{chiziq bo'ylab} & \frac{1}{R} = \frac{d\Phi}{dS_\alpha} = \frac{d\alpha}{dS_\alpha} \\ \beta - \text{chiziq bo'ylab} & \frac{1}{S} = -\frac{d\Phi}{dS_\beta} = -\frac{d\beta}{dS_\beta} \end{cases} \quad (2.13)$$

ifodalar bilan beriladi.

Bu yerda dS_α va dS_β – mos ravishda α - va β -chiziqlar bo‘yicha yoylarning differensiallari. Ularning ma‘nosi shundan iboratki, ular egri chizikli o‘qlarning o‘ng juftligini aniqlaydi (2.7-rasm,a). S va R keltirilgan egri chiziqlar uchun musbat, chunki $d\beta$ - dS_β uzunlikdagi yoy bo‘ylab slat strelkasi bo‘yicha harakatning natijasi sifatida manfiy bo‘ladi.

Quyida 2.7-rasm,b da egri chiziqli koordinatalar tizimining yo‘nalishini ko‘rsatuvchi o, u, x asosiy chiziqlar ko‘rsatilgan. So‘ngra Genki teoremasidan egrilik radiusi uchun tenglamalar quyidagi ko‘rinishga ega bo‘lishi kelib chiqadi:


$$\begin{aligned} \alpha - \text{chiziq bo‘ylab } ds + R\delta F &= 0 \\ \beta - \text{chiziq bo‘ylab } dR + S\delta F &= 0 \end{aligned} \quad (2.14)$$

α -chiziqda $dF - d\alpha$, β -chiziq bo‘ylab esa $dF - d\beta$ ekanligi sababli (2.14) ga

$$\frac{dS}{d\alpha} + R = 0; \quad \frac{dR}{d\beta} - S = 0 \quad (2.15)$$

binoan (2.15) ni hosil qilish mumkin.

Genking ikkinchi teoremasi shunday deydi, boshqa oilaning sirg‘alish chiziqlarini kesib o‘tuvchi egrilik radiusi berilgan sirg‘alish chizig‘i bo‘ylab harakatlanish bilan bosib o‘tilgan masofaga teng bo‘lgan kattalikka o‘zgaradi.



2.7-rasm. Sirpanish chiziqlari: **a** - α - β egri chiziqli koordinatalar tizimi; **b** - $F=\alpha$ da Mixlinning harakatlanuvchi koordinatalar tizimi.

2.3. Metallarning plastik oqishini chaqiruvchi kuchlarni aniqlashning yaqinlashuvchi energetik uslubi

Yaqinlashuvchi energetik usulining mohiyati va mo'ljallanishi

Metallarning plastik oqishi masalasining to'liq yechimi kuchlanishlar va tezliklarning differensial tenglamalari, chegara shartlari, plastik shakl o'zgarishi energiyasining musbatligi shartini va plastikliklik shartini buzmasdan qattiq zonaga davom ettirish imkoniyatini qanoatlantirishi lozim.

Yaqinlashuvchi usullar uoki uslublarning afzalligi ularning nisbatan oddiyligidan, va shundan kelib chiqqan holda, ko'proq murakkab masalalarni yechish imkoniyatidan iborat. Biroq shuni nazarda tutish kerakki, yaqinlashuvchi uslublarni oshiqcha aniqlashtirish ularni to'liq yechimlarga nisbatan bunday asosiy afzallikdan mahrum qilishi mumkin.

Ko'rib chiqiladigan yaqinlashuvchi uslublar plastiklik nazariyasining teoremlariga asoslanadi, ularda soddalashtirilgan yechish bilan olingan plastik deformatsiyaning quvvati to'liq yechimdan olingan quvvat bilan solishtiriladi.

Teoremlardan biri plastik oqishning quvvati va kuchlari uchun pastki bahoni, ya'ni ko'rsatilgan kattaliklarning pasaytirilgan qiymatlarini beradi. Ikkinchi teorema yuqorigi bahoni, ya'ni bu kattaliklarning oshirilgan qiymatlarini beradi. Ba'zi bir hollarda teoremlar to'liq tenglamalar tizimini yechmasdan turib amaliy masalalarni yechish imkonini beradi. Biroq bunda metallarning plastik oqishi jarayonlarining ba'zi bir ahamiyatli xususiyatlari aniqlashtirilmaganligicha qolishi mumkin.

Metallarning plastik oqishining quvvati va kuchlarining pastki va yuqorigi baholari

Bu paragrafda S yuza bilan chegaralangan qattiqplastik metallarning yassi oqishini ko'rib chiqamiz. Yuzaning S_f qismida to'liq yechimni qanoatlantiradigan tashqi kuchlar F_i ga teng. Yuzaning

qolgan S_u qismida to‘liq yechimni qanoatlantiradigan siljishlar u_i ga teng. ω plastik sohaning ichida to‘liq yechimga javob beradigan kuchlanishlar va deformatsiya tezliklari mos ravishda σ_{ij} va e_{ij} ga teng. Berilgan holatda tashqi va ichki kuchlarning quvvatlarining tengligi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\int_S F_i u_i dS = \int_{S_u} F_i u_i dS + \int_{S_f} F_i u_i dS = \int_\omega \sigma_{ij} e_{ij} d\omega \quad (2.16)$$

Muvozanat va plastiklik shartlarini qanoatlantiradigan, biroq to‘liq yechimga mos kelmaydigan F_i^* kuchlar va σ_{ij}^* kuchlanishlarni kiritamiz. Bu kuchlar va kuchlanishlar uchun (2.17) tenglik quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\int_S F_i^* u_i dS = \int_{S_u} F_i^* u_i dS + \int_{S_f} F_i^* u_i dS = \int_\omega \sigma_{ij}^* e_{ij} d\omega \quad (2.17)$$

(2.16) tenglamadan (2.17) tenglamani ayirish bilan

$$\int_{S_u} (F_i - F_i^*) u_i dS = \int_\omega (\sigma_{ij} - \sigma_{ij}^*) e_{ij} d\omega \quad (2.18)$$

ni olamiz.

Demak, haqiqiy kuchlanganlik holati uchun, ya’ni to‘liq yechimga javob beradigan kuchlanganlik holati uchun plastik deformatsiyaning dissipatsiya tezligi plastiklik sharti bilan yo‘l qo‘yiladigan boshqa qandaydir bir kuchlanganlik holatidagiga qaraganda katta bo‘ladi. Shundan kelib chiqqan holda, (2.19) tenglikning o‘ng qismi noldan katta bo‘ladi, yoki:

$$\int_{S_u} (F_i - F_i^*) u_i ds \geq 0 \quad (2.19)$$

Shundan kelib chiqqan holda

$$\int_{S_u} F_i^* u_i ds \leq \int_{S_u} F_i u_i ds \quad (2.20)$$

(2.21) tenglamadan kuchlarning pastki bahosi to'g'risidagi teorema kelib chiqadi: yuzaning siljishlar tezligi belgilangan qismiga qo'yilgan, statik yo'l qo'yiladigan tashqi kuchlar tizimi bilan rivojlantiriladigan quvvat to'liq yechimga mos keladigan kuchlar bilan rivojlantiriladigan quvvatdan kichik bo'ladi, yoki:

$$F_I^* < F_i \quad (2.21)$$

Yuzaning siljishlar tezligi belgilangan qismiga qo'yilgan, statik yo'l qo'yiladigan tashqi kuchlar tizimi bilan rivojlantiriladigan kuch to'liq yechimga mos keladigan kuchlar bilan rivojlantiriladigan kuchdan kichik bo'ladi.

Shunday qilib, kuchlanishlar uchun ikkita (2.19), (2.20) tenglamalar tizimining yechimi, (2.21), (2.22) tezliklar tenglamalaridan qat'i nazar, kuchlarning ko'rsatilgan to'rtta tenglamalar tizimining birgalikdagi yechimiga mos keladigan pastki bahosini beradi. Kuchlanishlar uchun ikkita (2.19), (2.20) tenglamalar tizimining yechimiga nolli tezliklarga mos keladigan yechim, ya'ni oqishning boshlanishiga javob beradigan yechim sifatida qarash mumkin.

Aytaylik, yuzaning plastik sohani chegaralaydigan S_j qismida F_i tashqi kuchlar ma'lum bo'lsin, yuzaning qolgan S_u qismida esa to'liq tenglamalar tizimi va chegara shartlarini qanoatlantiradigan u_i siljishlar tezliklari ma'lum bo'lsin. ω plastik sohaning ichida σ_{ij} kuchlanishlar va ularga mos keladigan ε_i Deformatsiya tezliklari vujudga keladi. Aytaylik, ω plastik sohaning ichida unda (u_i) tezliklarning tangentsial uzilishlari mavjud bo'lgan va P_s kuchlar qo'yilgan l yuza mavjud bo'lsin.

Yuqorida ko'rsatilgan kuchlar, kuchlanishlar va tezliklarning haqiqiy kattaliklari bilan bir qatorda kinematik mumkin bo'lgan – chegara shartlari va siqilmaslik shartlariga javob beradigan u_i^* va ε_{ij} siljishlar va deformatsiyalar tezliklarini ko'rib chiqamiz. Plastik potensial tenglamasiga ko'ra, kinematik mumkin bo'lgan tezliklarga umumiy holda muvozanat tenglamasini qanoatlantirmaydigan σ_{ij} kuchlanishlar va R_s^* kuchlar mos keladi. Lagranj tenglamasiga muvofiq:

$$\int_{\omega} \sigma_{ij} e_{ij}^* d\omega + \int_l P_S[u^*] dl = \int_f F_i u_i^* ds + \int_{S_u} F_i u_i ds \quad (2.22)$$

Plastik deformatsiya energiyasi dissipatsiyasining maksimal quvvati tamoyiliga muvofiq (2.5) va (2.6) tenglamalardan

$$\sigma_{ij}^* e_{ij}^* \geq \sigma_{ij} e_{ij}^* \quad (2.23)$$

(2.24) tenglama

$$\int_{S_u} F_i u_i ds \leq \int_{\omega} \sigma_{ij}^* e_{ij} d\omega + \int_l P_S^*[u^*] dl + \int_{S_f} F_i u_i^* ds \quad (2.24)$$

kelib chiqadi.

(2.7) tengsizlik kinematik mumkin bo'lgan kuchlar uchun yuqorigi bahoni beradi. Chegara shartlari va siqilmaslik shartiga javob beradigan tezliklar maydoni asosida hisoblangan kuchlar tezliklar va kuchlanishlar uchun tenglamalar tizimini to'liq yechimiga mos keladigan kuchlardan katta bo'ladi.

Pastki va yuqorigi bahoni hisoblash tezliklar va kuchlanishlar uchun to'liq tenglamalar tizimini yechmasdan turib, haqiqiy kuch unda joylashadigan chegaralarni aniqlash imkonini beradi. Aynan kinematik mumkin bo'lgan tezliklar maydoni tufayli minimal yuqorigi bahoni aniqlash va shu tariqa yechimni aniqlashtirish mumkin. Masalalarni kinematik yechish to'liq va statik yechishlarga qaraganda anchagina oson. Agar kinematik mumkin bo'lgan maydon uning ichida tezliklar maydoni bir jinsli bo'lib hisoblanadigan, yuzaning S_f qismi esa kuchlardan holi bo'ladigan bloklardan tashkil topgan bo'lsa, ayniqsa oddiy yechimlar olinadi. Bu holda ushbu (2.25) tenglama quyidagi ko'rinishni qabul qiladi:

$$\int_{S_u} F_i u_i ds \leq \int_l P_S^*[u_i] dl \quad (2.25)$$

v , tezlik bilan ilgarilanma-qaytar harakat qiladigan uskuna bilan amalga oshiriladigan plastik deformatsiya holatida tashqi kuchlarning quvvati uchun yuqoridagi tenglama ifodasi (2.26) ko'rinishga

$$\int_{S_u} F_i u_i ds = qblv \quad (2.26)$$

ega bo'ladi.

Bu yerda q – solishtirma kontakt kuchi; b – kontakt yuzasining uskunaning harakat yo'nalishiga perpendikulyar bo'lgan tekislikka proyeksiyasining kengligi;

t – harakat yo'nalishiga perpendikulyar bo'lgan yo'nalishda kontakt yuzasining o'lchami.

(2.8) tengsizlikning o'ng qismi (2.27) tenglama ko'rinishiga

$$\int_l P_S^*[u_i] dl = kt \Sigma v_i l_i \quad (2.27)$$

ega bo'ladi.

bu yerda k –plastik doimiy; l_i – bloklarning alohida chegaralari-ning uunligi; v_i – bloklarning chegaralari bo'ylab oqish tezliklarining uzilishi.

(2.8) – (2.10) tenglamalaridan (2.28) tenglama

$$\frac{q}{2k} \leq \frac{\Sigma v_i l_i}{2bu} \quad (2.28)$$

kelib chiqadi.

b va v ni birga teng deb qabul qilish bilan formulaga ko'proq oddiy ko'rinishli (2.29) tenglamani berish mumkin:


$$\frac{q}{2k} \leq 0,5 \Sigma v_i l_i , \quad (2.29)$$

bu yerda v_i va l_i – o'lchovsiz tezliklar va uzunlik.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, tezliklarning uzilish chiziqlari kesishadigan nuqtaning atrofida tezliklarning uzilishining vektor yig'indisi nolga teng bo'ladi. Bu kinematik mumkin bo'lgan tezliklar maydonining godografini qurish uchun grafostatik uslublarni qo'llash

imkonini beradi, bunda farq shundan iborat bo‘ladiki, biz o‘zak shaklning o‘rniga sirpanish chiziqlarining uzilishli to‘riga, Maksvellning kuch diagrammasining o‘rniga esa – tezliklar godografiga ega bo‘lamiz.

Shuni qayd qilish lozimki, Maksvell kuch diagrammalaridan farqli o‘laroq, sirpanish chiziqlari maydonining tashqi chegaralarida tezliklar yopiq figura hosil qilmaydi. 2.8-rasmda abc uchburchak blok ko‘rsatilgan, u uning ichida tezliklar maydoni (sirpanish chiziqlari maydoni) bir jinsli bo‘ladigan sohani chegaralaydi.



2.8-rasm. Bir jinsli sirpanish chiziqlari maydoniga ega bo‘lgan sohani chegaralaydigan uchburchak blokining ko‘rinishi.

abc uchburchakka tashqi bo‘lgan tezliklar maydonining v_i tezlik vektori a_b chegarada vab tezlikning uzilish vektori bilan qo‘shilish bilan b_s vektorga kollinear bo‘lgan v vektorni hosil qiladi. ab chegara orqali v_i vektorning L_1 oqimi

$$-L_1 = \bar{u}_1 \bar{m} ab = \bar{u} \bar{m} ab = \psi \bar{bc} \cdot \bar{m} ab = \psi f \quad (2.30)$$

ga teng bo‘ladi.

Bu yerda \bar{m} – ab ga ortogonal bo‘lgan bittalik vektor; ψ – doimiy koeffitsiyent; f – uchburchakning ikkilangan maydoni.

\bar{v} vektor as chegarada \bar{v}_{ac} uzilish tezligi bilan qo‘shilish bilan \bar{v}_2 vektorni hosil qiladi. as tomon orqali vektorning \bar{v}_2 oqimi quyidagiga teng bo‘ladi:

$$L_2 = v_2 \text{ nac} = v \text{ nac} = \psi bc \cdot \text{nac} = \psi f \quad (2.31)$$

Bu yerda n – as ga ortogonal bo‘lgan bittalik vektor.

(2.13) va (2.14) ifodalarni taqqoslash bilan $L_1 + L_2 = 0$ ni topamiz.

Kinematik yo‘l qo‘yiladigan sirpanish chiziqlari maydonini tarkib toptiradigan uchburchaklar tizimi to‘g‘risidagi mulohazani takrorlash bilan quyidagini topamiz:

$$\sum_{i=0}^n L_i = 0 \quad (2.32)$$

Shunday qilib, tezliklar uchun Maksvell o‘zaro diagrammalarini qurishda tashqi tezliklar oqimining nolga tengligi avtomatik tarzda bajariladi va tezliklar maydoni to‘g‘ri qurilganligini tekshirish uchun xizmat qilishi mumkin.


2.4. Plastik deformatsiyaning haqiqiy kuchlanish va mustahkamlanish egri chiziqlari

Plastik deformatsiya jarayonida deformatsiyaga qarshilikning o‘zgarishini tavsiflash uchun deformatsiyaga qarshilik ko‘rsatkichi sifatida odatda haqiqiy kuchlanish deb ataluvchi kuchlanish qabul qilinadi, u o‘zida namunani chiziqli cho‘zishda har bir deformatsiya momentida amaldagi kuchning namunaning ko‘ndalang kesimi yuzasiga nisbatidan hosilani taqdim qiladi (haqiqiy kuchlanishning qiymatini siqilishga sinovlar ma’lumotlari bo‘yicha ham topish mumkin). σ_s haqiqiy kuchlanish mohiyatiga ko‘ra deformatsiyada mustahkamlanish oladigan materilning oquvchanlik chegarasi bo‘lib hisoblanadi va uni oquvchanlik kuchlanishi deb atash mumkin.

Namunalar shakl o‘zgarishining deformatsiya darajasini baholaydigan ko‘rsatkichlari cho‘zishda namunaning nisbiy uzayishi $\varepsilon = \iota - \iota_0 / \iota_0$ namuna yoki ko‘ndalang kesim maydonining nisbiy kamayishi $\psi = F_0 - F / F_0$, namuna bo‘lib hisoblanadi, bu yerda ι_0 va F_0 – namunaning hisobiy uzunligi va uning hisobiy ko‘ndalang kesimi maydonining boshlang‘ich qiymatlari, ι va F – berilgan deformatsiya

momentida namunaning uzunligi va ko'ndalang kesim maydonining joriy qiymatlari.

Oquvchanlik kuchlanishining deformatsiya darajasiga bog'lanish grafiklari mustahkamlanish egri chiziqlari deb ataladi. Ba'zi bir metallar va qotishmalar uchun mustahkamlanish egri chiziqlarining texnologik xarakteri 2.9-rasmda keltirilgan.



2.9-rasm. Turli metallar va qotishmalar (po'latlar va rangli metallar) uchun mustahkamlanish egri chiziqlarining asosiy xarakterlari.

Keltirilgan mustahkamlanish egri chizig'idan ko'rinib turibdiki (2.9-rasmga qarang), oquvchanlik kuchlanishining ko'proq shiddatli ortishi deformatsiyaning boshlang'ich bosqichida bo'ladi. Deformatsiya darajasining ba'zi bir qiymatlarida esa (mustahkamlanish ostonasi) keyingi deformatsiyalash oquvchanlik kuchlanishi kattaligining sezilarli o'zgarishini chaqirmaydi.

Qabul qilingan deformatsiya darajasi ko'rsatkichiga bog'liq ravishda birinchi va ikkinchi turdagi mustahkamlanish egri chiziqlari ajratiladi. Birinchi turdagi mustahkamlanish egri chiziqlarida oquvchanlik kuchlanishi nisbiy uzayishga bog'liq ravishda beriladi, ikkinchi turdagi mustahkamlanish egri chiziqlarida esa nisbiy torayishga bog'liq ravishda beriladi. Demak, 2.9-rasmdan ko'rinib turibdiki, oquvchanlik kuchlanishining deformatsiyaga bog'lanishi murakkab xarakterga ega.

Mustahkamlanishning deformatsiya jarayoniga ta'sirini hisobga oladigan yaqinlashuvchi bog'lanishlarni qidirishda metallarga bosim bilan ishlov berish nazariyasida ko'pincha mustahkamlanish egri

chizig'ini chiziqli approksimatsiyalashdan foydalaniladi. Oquvchanlik kuchlanishining deformatsiyaga bog'liq ravishda o'zgarishini yaqinlashuvchi tarzda tavsiflovchi to'g'ri chiziq sifatida ko'proq chiziqli cho'zishda bir tekis uzayish bosqichining tugashi va bo'yin hosil bo'lishining boshlanishiga mos keluvchi nuqtadan mustahkamlanish egri chizig'iga o'tkazilgan urinma qabul qilinadi.

Ma'lumki, bu momentga kuch-deformatsiya yoki shartli kuchlanish-deformatsiya egri chizig'idagi maksimum mos keladi, bu yerda shartli kuchlanish deganda P cho'zish kuchini F_0 namuna ko'ndalang kesimning boshlang'ich maydoniga bo'lishdan olingan hosila tushuniladi, shunda

$$\sigma_{\text{shartli}} = P / F_0 \text{ namuna ni olamiz} \quad (2.33)$$

Shu bilan birgalikda har qanday deformatsiya momentida kuchni σ_s oquvchanlik kuchlanishi va F namunaning berilgan deformatsiya momentidagi haqiqiy ko'ndalang kesim maydoni orqali ifodalash mumkin:

$$P = \sigma_s F \quad (2.34)$$

Shu tenglamani differensiallash bilan

$$dP = \sigma_s dF + F d\sigma_s \text{ ni hosil qilamiz.} \quad (2.35)$$

(2.35) ifodadan ko'rinib turibdiki, cho'zish jarayonida mustahkamlanish kuchning ortishiga ko'maklashadi ($d\sigma_s$ - musbat), ko'ndalang kesim maydonining kamayishi esa kuchning kamayishiga ko'maklashadi (dF - manfiy). Bir tekis uzayish bosqichida kuch ortadi, bo'yin hosil bo'la boshlashi bilan ko'ndalang kesim maydonining kamayishi ustunlik qiladi va kuch kamayadi. Bo'yin hosil bo'lishining boshlanishi mustahkamlanish hisobiga kuchning ortish shiddati absolyut qiymat bo'yicha ko'ndalang kesim maydonining kamayishi ("barqaror" deformatsiya bosqichining tugashi) hisobiga kuchning kamayish shiddatiga teng bo'lgan momentga mos keladi:


$$dP_{bo'yin} = \sigma_{bo'yin} dF_{bo'yin} + F_{bo'yin} d\sigma_{bo'yin} = 0 \quad (2.36)$$

(2.35) tenglikdan foydalanish bilan, mustahkamlanish egri chiziqlarining koordinata o'qlarida ko'rsatilgan urinma bilan kesiladigan kesmalarning kattaliklari bilan tavsiflanadigan xususiyatlarini aniqlash mumkin, ularni bilish cho'zilishga standart sinovlardan o'tkazish ma'lumotlari bo'yicha ularni qurishni osonlashtiradi.

Endi birinchi turdagi mustahkamlanish egri chizig'ini ko'rib chiqamiz (2.10-rasm). Bo'yin hosil bo'lguncha har qanday deformatsiya momenti uchun oquvchanlik kuchlanishini (2.36) munosabatdan, $\sigma_{shartli}$ kuchlanish va F ko'ndalang kesim maydonining joriy qiymatlari bo'yicha aniqlash mumkin:

$$\sigma_s = \sigma_{shartli} F_{namuna} / F \quad (2.37)$$

Bu munosabatlar bo'yicha birinchi turdagi mustahkamlik egri chiziqlari hosil bo'lgan. Cho'zilishga sinovlarga namunada bo'yin hosil bo'lishining boshlanishiga mos keladigan momentda shartli kuchlanish σ_v oquvchanlik chegarasiga teng bo'ladi (cho'zish kuchi maksimal kattalikka ega bo'ladi).



2.10-rasm. Birinchi turdagi mustahkamlanish grafigining egri chizig'i.

Bu momentga mos keladigan $\sigma_{bo'yin}$ oquvchanlik kuchlanishidan foydalanish quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$\sigma_{\text{bo'yin}} = \sigma_v F_o / F_{\text{bo'yin}} \quad (2.38)$$

bu yerda $F_{\text{bo'yin}}$ – namunani cho‘zishda unda bo‘yin hosil bo‘lish momentida ko‘ndalang kesim maydoni.

Shunday qilib, bo‘yin hosil bo‘lishi boshlanishiga mos keladigan nuqtada mustahkamlanish egri chizig‘iga o‘tkazilgan urinma deformatsiya o‘qining manfiy qismida son jihatidan birga teng bo‘lgan kesmani kesadi, oquvchanlik kuchlanishlari o‘qida esa – son jihatidan mustahkamlik chegarasiga teng bo‘lgan kesmani kesadi. 2.11-rasmda ikkinchi turdagi mustahkamlanish egri chiziqlarining xususiyatlari keltirilgan. Cho‘zishda namunaning ko‘ndalang kesimi maydonining nisbiy kamayishi quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$\begin{aligned} \psi &= F_o - F / F_o, \text{ bundan} \\ F &= F_o (1-\psi) \text{ va } dF = - F_o d\psi \end{aligned} \quad (2.39)$$


kelib chiqadi.

$\psi = \psi_{\text{bo'yin}}$ va $d\psi = d\psi_{\text{bo'yin}}$ (2.36) bo‘lganda (2.38) tenglamadan F va dF ning bo‘yin hosil bo‘lishi boshlanishiga mos keluvchi qiymatlarini o‘rniga qo‘yish bilan quyidagi (2.40) nisbatni olishimiz mumkin:

$$d\sigma_{\text{bo'yin}} / d\psi_{\text{bo'yin}} = \sigma_{\text{bo'yin}} / 1 - \psi_{\text{bo'yin}} \quad (2.40)$$

$d\sigma_{\text{bo'yin}} / d\psi_{\text{bo'yin}}$ nisbat bo‘yin hosil bo‘lishi boshlanishiga mos keluvchi nuqtada mustahkamlanish egri chizig‘iga o‘tkazilgan urinmaning α egilish burchagining tangensi bo‘lib hisoblanadi. Bundan $\text{tg}\alpha = \sigma_{\text{bo'yin}} / 1 - \psi_{\text{bo'yin}}$ bo‘lishi, abstsissalar o‘qiga perpendikulyarda, $\psi = 1$ nuqtada esa – $2\sigma_{\text{bo'yin}}$ ga teng bo‘lgan kesma hosil bo‘lishi kelib chiqadi. Shunday qilib, bo‘yin hosil bo‘lishi boshlanishiga mos keluvchi nuqtada mustahkamlanish egri chizig‘iga o‘tkazilgan urinma abssissalar o‘qiga perpendikulyarda $\psi = 1$

nuqtada son jihatidan bo‘yin hosil bo‘lishi boshlanadigan momentdagi oquvchanlik kuchlanishining ikkilangan qiymatiga teng bo‘lgan kesmani kesadi.



2.11-rasm. Ikkinchi turdagi mustahkamlanish egri chiziqlarining grafikaviy xususiyatlari.

Asosiy mustahkamlanish egri chiziqlaridan metallarga bosim bilan ishlov berishda mustahkamlanishning deformatsiyalash uchun zarur bo‘ladigan kuchlariga ta‘sirining xarakteri va darajasini tahlil qilish uchun foydalanish mumkin.

Mustahkamlanishning deformatsiya kuchining kattaligi va deformatsiyalanadigan jismda kuchlanishlarning taqsimlanishiga ta‘sirini aniqlash masalasini analitik yechishni osonlashtirish uchun mustahkamlanish egri chizig‘ini oquvchanlik kuchlanishini deformatsiya darajasi bilan bog‘laydigan tenglama ko‘rinishida taqdim qilish zarur bo‘ladi.

Oquvchanlik kuchlanishining deformatsiya darajasiga funktsionl bog‘lanishini soddalashtirish maqsadida mustahkamlanish egri chizig‘i to‘g‘ri chiziq yoki darajali egri chiziq bilan almashtiriladi.

Endi mustahkamlanishning oquvchanlik kuchlanishining kattaligiga ta‘sirini yaqinlashuvchi tarzda tasdiqlaydigan to‘g‘ri chiziq sifatida bo‘yin hosil bo‘lishi boshlanishiga mos keladigan nuqtada mustahkamlanish egri chizig‘iga o‘tkazilgan urinma qabul qilingan holatni ko‘rib chiqamiz. Bunda asosiy σ_s – ψ koordinatalarda bu to‘g‘ri chiziqning tenglamasini quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin:

$$\sigma_s = \sigma_{\text{nam oquvch}} + \Pi\psi \quad (2.41)$$

bu yerda $\sigma_{\text{nam oquvch}}$ – ekstrapolirlangan oquvchanlik chegarasi ($\psi = 0$ da ordinatalar o‘qida urinma bilan kesiladigan kesma); P – to‘g‘ri chiziqning abstsissalar o‘qiga egilish burchagining tangensi bo‘lib hisoblanadigan mustahkamlanish moduli.

(2.7) va (2.6) munosabatlardan foydalanish, shuningdek, $\sigma_{\text{bo‘yin}}$ = $\sigma_V F_{\text{o namuna}} / F_{\text{bo‘yin}}$ ekanligini hisobga olish bilan

$$P = \sigma_V / (1 - \psi_{\text{bo‘yin}})^2 \quad (2.42)$$

ni olish mumkin.

σ_s kattalikni Ade uchburchakdan topish mumkin (2.11-rasm) va $\sigma_{\text{nam oquvch}}$ ni aniqlash formulasi $\text{tg}\alpha = P$ ni aniqlaydigan (2.42) ifodadan foydalanish bilan

$$\sigma_{\text{nam oquvch}} = \sigma_V (1 - 2\psi_{\text{bo‘yin}}) / (1 - \psi_{\text{bo‘yin}})^2 \quad (2.43)$$

ko‘rinishni qabul qilishi mumkin.

(1.8) formula bo‘yicha hisoblash bilan aniqlangan σ_s kattaliklar ψ ning $\psi = \psi_{\text{bo‘yin}}$ dan tashqari barcha qiymatlarida mustahkamlanish egri chiziqlari bo‘yicha aniqlanadigan σ_s qiymatlardan biroz katta bo‘ladi, bunda bu kattaliklar o‘rtasidagi farq kichik deformatsiya darajalarida ayniqsa, sezilarli bo‘ladi ($\psi = \psi_{\text{bo‘yin}}$).

Birinchi turdagi mustahkamlanish egri chizig‘i uchun xuddi shunday ifodalarni $\sigma_s = c (\epsilon)$ chiziqli bog‘lanish uchun ham olish mumkin. Oquvchanlik kuchlanishining ψ kattalikka haqiqiy bog‘lanishini

$$\sigma_s = C\psi^n \quad (2.44)$$

ko‘rinishdagi darajali funksiya ko‘proq aniq aks ettiradi.

C va n ning qiymatlarini quyidagicha aniqlash mumkin: $\psi = \Psi_{bo'yin}$ da $\sigma_s = \sigma_{bo'yin}$, shundan kelib chiqqan holda, $C = \sigma_{bo'yin} / \psi n_{bo'yin}$. C ning topilgan qiymatini (2.44) tenglama o'rniga qo'yish bilan

$$\sigma_s = \sigma_{bo'yin} / \psi n_{bo'yin} \psi n \quad (2.45)$$

ni olamiz.

(2.45) ifodani differensiallash va $dP = 0$ tenglashtirish bilan (bo'yin hosil bo'lishi boshlanishi momenti uchun) $n = \Psi_{bo'yin} / 1 - \Psi_{bo'yin}$ ni topamiz.


Mustahkamlanish egri chizig'ini boshqa koordinatalarda approksimatsiyalaydigan tenglamalarni ham xuddi shu tarzda topish mumkin.

Metallarga bosim bilan ishlov berish nazariyasida oquvchanlik kuchlanishi koordinatalarida qurilgan mustahkamlanish egri chiziqlari – logarifmik deformatsiya egri chiziqlaridan (namunaning oxirgi o'lchamining boshlang'ich o'lchamiga nisbatining natural logarifmi bilan ifodalanadi) yoki kuchlanishlarning shiddati koordinatalarida qurilgan – deformatsiyalarning shiddati egri chiziqlaridan ham foydalaniladi.

2.5. Sirpanish va egizaklanish bilan plastik deformatsiyalanish

Ko'pgina hollarda plastik deformatsiyalanish sirpanish va egizaklanish bilan amalga oshadi. Masalan, urinma kuchlanishlarning ta'siriga tortilgan kub strukturali metallning elastik va plastik deformatsiyasining sxematik tasviri 2.12-rasmda keltirilgan.

Sirpanish. Kristall panjarada sirpanish atomlar ko'proq zich o'ralgan – siljishga qarshilik eng kichik bo'lgan tekisliklar va yo'nalishlar bo'yicha kechadi. Bu shu bilan izohlanadiki, bunda qo'shni atom tekisliklari o'rtasidagi masofa, ya'ni ular o'rtasidagi bog'lanish eng kichik bo'ladi. Sirpanish tekisliklari va bu tekisliklarda yotadigan sirpanish yo'nalishlari sirpanishlar tizimini hosil qiladi. Metallarda bitta yoki bir paytning o'zida bir nechta sirpanishlar tizimi amal qilishi mumkin.



2.12-rasm. τ siljish kuchlanishi ta'siri ostida metallning elastik va plastik deformatsiyasining sxematik tasviri: **a** - boshlang'ich kristall; **b** - elastik deformatsiya; **d** - elastik deformatsiyaning ortishi va plastiklik chegarasidan oshiq yuklama berilganda sirpanish bilan chaqiriladigan plastik deformatsiyaning paydo bo'lishi; **e** - siljish paydo bo'lishini shartlaydigan kuchlanish (siljishdan keyin qoldiq deformatsiya saqlangan); **f** - egizak hosil bo'lishi.

Ma'lumki, markazlashgan qirrali kub panjaraga ega bo'lgan metallar – Fe γ , Cu, Al va boshqalarda – sirpanish oktaedrning (111) tekisliklari bo'yicha va kub qirrasining (110) diagonali yo'nalishida sodir bo'ladi.

Hajmi-markazlashgan kub panjarali metallarda – Fe α , Mo, V va boshqalarda – sirpanish (110), (112) va (123) tekisliklar bo'yicha va kubning (111) kenglikdagi yo'nalishida ko'proq oson amalga oshadi.

Hajmi-markazlashgan kub panjarada (2.13-rasm) atom tekisliklarining kristallografik belgilanishlari ko'rsatilgan.

Kenglikdagi kristall panjaralarda atom tekisliklarining (atomlar orqali o'tadigan tekisliklarning) holatini belgilash uchun h , R , u indekslardan foydalaniladi, ular o'zida o'qlarning koordinata o'qlarida berilgan tekislik bilan kesiladigan kesmalariga teskari kattaliklar bo'lib hisoblanadigan uchta butun ratsional sonlarni taqdim qiladi.

O'qlar bo'ylab uzunlik birliklari elementar yacheykalarining qovurg'alarining uzunligiga teng qilib tanlanadi. Bu sonlar dumaloq qavslarga olinadi. Buning uchun tekisliklarni belgilashlarga misollar keltiramiz va kub tekisligi uchun boshlang'ich indekslni o'rnatamiz.

Kubning har bir tekisligi (2.13-rasm,a) faqatgina bitta o'qni kesib o'tadi va bunda kesiladigan kesmalar $(1, \infty, \infty)$; $(\infty, 1, \infty)$; $(\infty, \infty, 1)$ ga teng bo'ladi. Kesiladigan kesmalarning teskari kattalıkları mos ravishda $(1, 0, 0)$; $(0, 1, 0)$; $(0, 0, 1)$ ga teng bo'ladi. (h, R, ι) tekislik indeksleri (100) , (010) , (001) bo'ladi.


Indeksning ustidagi minus belgisi manfiy kesmalarga mos keladi. Kub panjarada kub tekisliklaridan tashqari (2.13-rasm,a) oktaedr tekisligi (111) (2.13-rasm,v) va rombik dodekaedr tekisligi (110) (2.13-rasm,b) ajratiladi. Shuni nazarda tutish kerakki, indekslar qandaydir bir bitta tekislikni emas, butun parallel tekisliklar guruhini tavsiflaydi, shunda ular figurali qavslarga olinadi (kubning oltita kristallografik ekvivalent tekisliklar jamlanmasi qaysidir bir tekislikning figurali qavslarga olingan indeksleri bilan belgilanadi, masalan, $\{100\}$ yoki $\{100\}$ va boshqalar, oktaedrning sakkizta kristallografik ekvivalent tekisliklari jamlanmasi esa mos ravishda $\{111\}$ va boshqalar bilan belgilanadi).

2.13-rasm,g da kub panjarada asosiy yo'nalishlarning indeksleri ko'rsatilgan. Panjara o'qlarining indeksleri $x - [100]$, $y - [010]$ va $z - [001]$, kenglikdagi diagonalning indeksleri esa $[111]$.

Chetlari zich o'ralgan geksagonal (CHZG) panjarali metallar – Mg, Zn, Be va boshqalarda – sirg'alish bazis tekisligi bo'yicha sodir bo'ladi. Kub kristall panjarali metallar (Chetlari zich o'ralgan geksagonal (CHZG) panjarali va hajmli-markazlashgan kub (HMK) panjarali) yuqori plastiklikka ega, chunki ularda sirpanish ko'p yo'nalishlarda sodir bo'ladi.

Geksagonal zich o'ralgan strukturali metallar kamroq plastik va shu sababli shtamplash, prokatlash va boshqa deformatsiya turlariga kub strukturali metallarga qaraganda qiyinroq beriladi.

Asosiy sirpanish jarayonini kristallning bir qismini boshqasiga nisbatan bir paytda siljishi sifatida tasavvur qilmaslik lozim. Bunday qattiq yoki sinxron siljish deformatsiya jarayoni amalda kechadigan kuchlanishlardan yuzlab va hatto minglab marta oshiq bo'ladigan kuchlanishlarni talab qiladi.



2.13-rasm. Hajmi markazlashgan kub panjarada (HMK) kristallografik tekisliklarning (a–v) va yo‘nalishlarning (g) asosiy indeksleri.

Egizaklanish. K12 va G12 zich o‘ralgan panjaraga ega bo‘lgan metallarning plastik deformatsiyalanishi sirpanishdan tashqari egizaklanish bilan ham sodir bo‘lishi mumkin, bunda deformatsiyalanish kristallarning bir qismini egizaklash tekisligi deb ataluvchi tekislikka nisbatan birinchi qismga simmetrik bo‘lgan holatga qaratishga keltiriladi. Egizaklashda, xuddi sirpanishdagi kabi, dislokatsiyalarning kristall bo‘ylab o‘tishi kuzatiladi. Egizaklanish sirpanishga qaraganda kamroq ahamiyatga ega. Chetlari zich o‘ralgan geksagonal (CHZG) panjarali va hajmli-markazlashgan kub (HMK) panjarali metallarda egizaklanish faqatgina deformatsiyaning katta darajalari va past qizdirish haroratlarida kuzatiladi.

2.6. Metallarning yassi deformatsiyasi, yassi kuchlanganlik holati va deformatsiyalarni bartaraf qilish usullari

Uzun silindrik yoki prizmatik jismda yassi deformatsiya qizdirish harorati uning ko‘ndalang kesimi bo‘ylab o‘zgarganda, biroq silindr yoki prizmaning o‘qiga (z o‘q) parallel chiziqlar bo‘yicha o‘zgarmaganda vujudga keladi. Bu holda T - z ga bog‘liq bo‘lmaydi.

Agar (2.46) formulalar bilan aniqlanadigan, nolga teng bo'lgan deformatsiyalarga olib keladigan kuchlangan holatdan yana kelib chiqadigan bo'lsak, u holda zarur bo'ladigan hajmiy kuchlar (2.47) bog'lanishlar bilan aniqlanadi, endi bu yerda $Z = 0$ deb qabul qilish lozim bo'ladi, jismning yuzasiga esa, uning yon tomonlarini ham o'z ichiga olgan holda, (2.48) formula bo'yicha aniqlanadigan bosim qo'yilishi lozim bo'ladi.

$$\sigma_x = \sigma_y = \sigma_z = -p = -\frac{\alpha ET}{1-2\nu}, \quad \tau_{xy} = \tau_{xz} = \tau_{yz} = 0 \quad (2.46)$$

$$X = \frac{\alpha E}{1-2\nu} \frac{\partial T}{\partial x}, \quad Y = \frac{\alpha E}{1-2\nu} \frac{\partial T}{\partial y}, \quad Z = \frac{\alpha E}{1-2\nu} \frac{\partial T}{\partial z}, \quad (2.47)$$

$$\frac{\alpha ET}{1-2\nu} \quad (2.48)$$

So'ngra jismning elementlari bir-biri bilan tutashgan deb hisoblash bilan hajmiy kuchlarni, shuningdek yuzaning egri chiziqli qismiga o'q deformatsiya nolga teng bo'lib qolaveradigan qilib qo'yilgan bosimni olib tashlaymiz. Yuklamani bunday olishning ta'sirini unga ko'rinishdagi hajmiy kuchlar va uning

$$X = -\frac{\alpha E}{1-2\nu} \frac{\partial T}{\partial x}, \quad Y = -\frac{\alpha E}{1-2\nu} \frac{\partial T}{\partial y}, \quad (2.49)$$

yuzasidagi egri chiziqlar qismi bo'ylab

$$\frac{\alpha ET}{1-2\nu}, \quad (2.50)$$

kattalikdagi normal cho'zuvchi kuchlanishlar qo'yilganda jismning yassi deformatsiyasi masalasini ($\varepsilon_z = 0$) yechish bilan olish mumkin. Demak, har bir formula uchun ma'lum kattalikdagi normal cho'zuvchi kuchlanishlar qo'yilsa, shunda tayyor jismning yassi deformatsiyasi yechiladi.

Bu masala, agar yassi kuchlangan holat uchun berilgan formulada tenglikning o'rniga v ni $v / (1 - v)$ bilan almashtirish bilan yassi kuchlangan holat uchun mos keluvchi tenglikdan foydalanish lozimligi hisobga olinmasa, yuqorida ko'rib chiqilgan masalalar tipiga kiradi. Bundan yuqorida ko'rsatilgan tenglamalarning o'rniga

$$\sigma_x - \frac{\alpha ET}{1-2\nu} = \frac{\partial^2 \varphi}{\partial y^2}, \quad \sigma_y - \frac{\alpha ET}{1-2\nu} = \frac{\partial^2 \varphi}{\partial x^2}, \quad \tau_{xy} = -\frac{\partial^2 \varphi}{\partial x \partial y}, \quad (2.51)$$

shuningdek

$$\frac{\partial^4 \varphi}{\partial x^4} + 2 \frac{\partial^4 \varphi}{\partial x^2 \partial y^2} + \frac{\partial^4 \varphi}{\partial y^4} = -\frac{\alpha E}{1-\nu} \left(\frac{\partial^2 T}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 T}{\partial y^2} \right) \quad (2.52)$$

ga ega bo'lamiz.

Qidirilayotgan kuchlanishlar funksiyasi (2.52) tenglamani qanoatlantirishi va chegaraga normal cho'zuvchi kuchlanishni yetkazishi lozim (2.49). φ kuchlanish aniqlangandan keyin formulalar bo'yicha (v) ni topish mumkin. Bu kuchlanishning ustiga (2.50) forsulalar bo'yicha aniqlanadigan kuchlanishlarni qo'yish lozim bo'ladi.

σ_z o'q kuchlanishlarni (2.51) formula bo'yicha aniqlanadigan ifodani (2.52) dagi $v = (\sigma_x + \sigma_y)$ ifoda bilan qo'shish orqali olish mumkin. Natijalovchi o'q kuchi va uchdagi bukuvchi momentni bir o'qli cho'zish va bukishni qo'yish bilan olib tashlash mumkin.

Metallarning yassi kuchlangan holati, agar harorat uning qalinligi bo'ylab o'zgarmasa, yupqa plastinkada vujudga keladi. xy tekislikni plastinkaning o'rta tekisligi sifatida qabul qilish bilan $\sigma_z = \tau_{xz} = \tau_{yz} = 0$ ni qo'yishimiz mumkin. Bundan tashqari, plastinkaning har bir elementini z yo'nalishda erkin cho'ziluvchan deb hisoblash mumkin. Elementlarning birlashuvchanligini ta'minlash uchun x va y yo'nalishlarda kengayishni bartaraf qilish yetarli bo'ladi.

$$\text{Bu} \quad \sigma_x = \sigma_y = -\frac{\alpha ET}{1-\nu}, \quad \tau_{xy} = 0 \quad (2.53)$$

kuchlanishlarni qo'yishni talab qiladi.

Bu ifodalarni muvozanat tenglamalariga o'rniga qo'yish bilan talab qilinadigan hajmiy kuchlarni topamiz:

$$X = \frac{\alpha E}{1-\nu} \frac{\partial T}{\partial x}, \quad Y = \frac{\alpha E}{1-\nu} \frac{\partial T}{\partial y}, \quad (2.54)$$

ularni $\alpha ET/(1 - \nu)$ normal bosim bilan birgalikda plastinkaning chekkalariga qo'yish kerak bo'ladi.

Bu kuchlarni olib tashlash bilan shunday xulosaga kelish mumkinki, harorat kuchlanishlarini

$$X = -\frac{\alpha E}{1-\nu} \frac{\partial T}{\partial x}, \quad Y = -\frac{\alpha E}{1-\nu} \frac{\partial T}{\partial y}, \quad (2.55)$$

hajmiy kuchlar va jismning chekkalari bo'ylab qo'yilgan $\alpha ET/(1 - \nu)$ normal cho'zuvchi kuchlanishlar bilan chaqirilgan yassi kuchlangan holatga (2.54) kuchlanishlar maydonini qo'yish bilan aniqlash mumkin. Bu yassi kuchlangan holatni qidirish bizni yana (2.51) formulada ko'rib chiqilgan tipdagi masalaga olib keladi.


Bizga bor-yo'g'i yuqorida ko'rsatilgan tenglamalarga

$$V = \frac{\alpha ET}{1-\nu}, \quad (2.56)$$

ni qo'yish qoladi, u (2.55) hajmiy kuchlarning potentsiali bo'lib hisoblanadi.

Keltirilgan materiallar va formulalar shuni ko'rsatadiki, harorat o'zgarishi bilan yassi deformatsiya o'zgaradi, biroq silindr va prizmaning o'qiga parallel chiziqlar bo'yicha o'zgarmaydi.

Agar yupqa plastinka uning chegarasida plastinka tekisligiga parallel bo'lgan va qalinlik bo'ylab bir tekis taqsimlangan kuchlar bilan yuklangan bo'lsa (2.14-rasm), u holda kuchlanishlarning σ_z , τ_{xz} , τ_{yz} tarkibiy qismlari plastinkaning har ikkala yuzasida nolga teng bo'ladi va ular plastinkaning ichida ham nolga teng deb taxmin qilish mumkin.



2.14-rasm. Chegarada plastinkaning tekisligiga parallel kuchlar bilan yuklangan yupqa plastinkaning sxematik tasviri.

Shunda kuchlangan holat faqatgina σ_x , σ_u , τ_{xu} tarkibiy qismlar bilan aniqlanadi va yassi kuchlangan holat deb ataladi. Shuningdek, bu uchta tarkibiy qismlar z ga bog‘liq bo‘lmaydi, ya’ni plastinkaning qalinligi bo‘ylab o‘zgarmaydi va faqatgina x va u ning funksiyalari bo‘lib hisoblanadi deb taxmin qilish mumkin.

Deformatsiyani bartaraf qilish uslubi. Yuqorida keltirilgan materialdan tushunarliki, erkin harorat deformatsiyasi, deformatsiyani deyarli to‘liq bartaraf qiladi. Demak, deformatsiyani bartaraf qilish uslubi yordamida ham xuddi shu xulosani olish mumkin.

Jism notekis qizdirishga tortilgan va cheksiz kichik elementlarga bo‘lingan deb tasavvur qilamiz. Aytaylik, bu elementlarning $\varepsilon_x = \varepsilon_u = \varepsilon_z = \alpha T$ erkin harorat deformatsiyalariga har bir elementga qo‘yilgan bir tekis r bosim qarshi harakat qilsin, bu bosimning kattaligi $(\alpha ET / (1 - 2\nu))$ formula bilan aniqlanadi. Shunda erkin harorat deformatsiyasi to‘liq bartaraf bo‘ladi.

Barcha elementlar bir-biriga qarab tortilgan bo‘lib qoladi va boshlang‘ich shakl va o‘lchamlarga ega bo‘lgan uzluksiz (yaxlit) jismni hosil qiladi.

$(\alpha ET / (1 - 2\nu))$ bosimning taqsimlanishini elementlardan tashkil topgan aytilgan jismga qandaydir bir hajmiy kuchlar va yuza bosimlarini qo‘yish bilan amalga oshirish mumkin. Bu kuchlar muvozanat tenglamalari va chegara shartlarini qanoatlantirishi lozim.

Bu tenglamalarga

$$\sigma_x = \sigma_y = \sigma_z = -p = -\frac{\alpha E T}{1-2\nu}, \quad \tau_{xy} = \tau_{xz} = \tau_{yz} = 0 \quad (2.57)$$

ning qiymatlarini o‘rniga qo‘yish bilan elementlardan tashkil topgan jismga uning boshlang‘ich shaklini berish uchun

$$X = \frac{\alpha E}{1-2\nu} \frac{\partial T}{\partial x}, \quad Y = \frac{\alpha E}{1-2\nu} \frac{\partial T}{\partial y}, \quad Z = \frac{\alpha E}{1-2\nu} \frac{\partial T}{\partial z}, \quad (2.58)$$

hajmiy kuchlarni qo‘yish zarurligini topamiz, yuzaga esa $(\alpha E T / (1 - 2\nu))$ bosimni qo‘yish lozim bo‘ladi.

Endi elementlar bir-biri bilan tutashgan deb taxmin qilamiz va (2.58) kuchlarni va $(\alpha E T / (1 - 2\nu))$ yuza bosimini bartaraf qilamiz. Shunda harorat kuchlanishini, ravshanki, $(\alpha E T / (1 - 2\nu))$ bosimga elastic - qayishqoqroq jismdagi

$$X = -\frac{\alpha E}{1-2\nu} \frac{\partial T}{\partial x}, \quad Y = -\frac{\alpha E}{1-2\nu} \frac{\partial T}{\partial y}, \quad Z = -\frac{\alpha E}{1-2\nu} \frac{\partial T}{\partial z}, \quad (2.59)$$

hajmiy kuchlar va yuzalarga teng bo‘lgan normal cho‘zilish bilan chaqiriladigan kuchlanishlarni qo‘yish bilan

$$\frac{\alpha E T}{1-2\nu} \quad (2.60)$$

olish mumkin bo‘ladi.

Shunday qilib, o‘tkazilgan eksperimentlar va keltirilgan formulalar natijasida bunday xulosaga kelish mumkinki, metallar yoki qotishmalarni va ularning elementlarini bir tekis va notekis qizishi, shuningdek, boshqa kamchiliklar erkin harorat deformatsiyasi hisobiga to‘liq bartaraf bo‘ladi. Buni keltirilgan materiallar, ma’lumotlar, o‘tkazilgan eksperimental ilmiy-tadqiqotlar va tavsiya etilgan aniq formulalar tasdiqlab turibdi.

Nazorat savollari

1. Yassi plastik oqish nazariyasi bo'yicha plastik oqish holati va kuchlanganlik holati deganda nimani tushunasiz?

2. O'zida plastik oqishni boshdan kechiradigan material uchun yassi deformatsiyada muvozanat tenglamalari, ya'ni Genki tenglamalari qanday ko'rinishda yoziladi?

3. Materiallarning yassi oqishida Mor aylana kuchlanishlar diagrammasi va sirpanish chiziqlari grafigini chizib tushuntiring.

4. Sirpanish chiziqlari to'rida yassi plastik oqish uchun tezliklarning Godograf rejasini birinchi marta qaysi olim foydalangan?

5. Godograf tezliklar rejasini va godograf tekisligiga ko'chirib o'tkazishda tezliklarning uzilishi grafiklarini chizib tushuntiring.

6. Sirpanish chiziqlari to'rini qanday usullar bilan qurish mumkin?

7. Metallar va qotishmalar uchun mustahkamlanish egri chiziq-larining texnologik xarakterini belgilovchi egri chiziqlarini chizib tushuntiring.

8. Metallarning yassi deformatsiyasi va yassi kuchlanganlik holatlarini qanday bartaraf qilish mumkin?

9. Metallarning egizaklanish deganda nimani tushinasiz va u sirpanishga qaraganda qanday ahamiyatga ega?

10. Chegarasi plastinkaning tekisligiga parallel kuchlar bilan yuklangan yupqa plastinkaning sxematik ko'rinishini chizib tushuntiring.


3-BOB. METALL MATERIALLARINI PRESSLASH VA SHTAMPOVKALASH USULLARI

3.1. Materiallarni presslash va shtampovkalash haqida umumiy tushunchalar

Ko‘pchilik metall materiallari (yoki metallmas materiallari) sovuq va issiq hollarda presslanadi. Metall materiallarini presslashdan maqsad shuki, ulardan turli shaklli va o‘lchamli buyumlar olishdir. Buning uchun har xil konstruksiyali presslash mashinalaridan foydalanishiladi. Odatda, presslash mashinasining konteyneriga, ya’ni havol silindriga kiritilgan materiallarni asosan uni matritsa deb ataluvchi asbobi asbobni ezib siqib chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan texnologik jarayonga presslash deb ataladi.

Presslash mashinasida presslab olinayotgan buyumning ko‘ndalang kesimi matritsa ko‘zi shakliga o‘tadi va bo‘yiga uzayib ketadi. Bu jarayon materialni presslash natijasida amalga oshiriladi. Bu usulda avvalo, zagotovkalarni presslash mashinasining konteynerli silindriga kiritiladi, so‘ngra puanson bilan siqiladi va matritsa asbobi teshigidan ezib chiqarib olinadi (3.1-rasm).


Yuqorida aytib o‘tilganidek, materiallarni yo sovuq holda yoki issiq holda presslab, har xil shaklli va o‘lchamli buyumlar olish mumkin. Shunga asosan plastikligi yuqori bo‘lgan rangli metallar va ularning qotishmalari sovuqlayin, po‘latlar esa ma’lum haroratgacha qizdirilib issiqlayin presslash mashinalarida alohida-alohida presslanadi.



3.1-rasm. Materiallarni presslab buyum mahsulotini olish jarayoni.

Materiallarni presslayotganda diametri 3 mm dan ortiq bo'lgan chiviqlar, devor qalinliklari 1,5mm dan 12mm gacha bo'lgan, ichki diametrlari 20mm dan 400mm gacha bo'lgan quvurlar, ko'ndalang kesim o'lchami 400mm^2 gacha bo'lgan turli shaklli va o'lchamli buyumlar tayyorlanib olinadi. Tayyor buyumlarning uzunligi ishlab chiqarish korxonasi turiga qarab, har xil bo'ladi. Presslab ishlov berishda zagotovkalar sifatida asosan turli quymalar va sortamentlardan unumli foydalaniladi. Ammo shuni esda saqlash kerakki, materiallarni presslashda ko'proq ularning materialiga, diametriga, devor qalinligiga, ichki diametlariga va ko'ndalang kesimi o'lchamlariga e'tibor berish kerak.

Odatda, materiallarni presslash ikki usulda olib boriladi: Shulardan birinchisi materiallarni to'g'ri presslash usuli (3.2-rasm, a) va ikkinchisi materiallarni teskari presslash usuli (3.2-rasm, b) hisoblanadi. Agar sxemalarga e'tibor bersak, ularning birida to'g'ri presslangan mahsulot buyumi, ikkinchisida esa teskari presslangan buyum mahsulotini olish jarayoni tasvirlangan.



3.2-rasm. Materiallarni presslash usullari: **a**-to'g'ri presslash usuli; **b**-teskari presslash usuli; 1-puanson; 2-konteyner; 3-matritsa; 4-buyum; 5-shayba; 6 - zagotovka; 7-pressshayba ko'rinishlari.

Materiallarni to'g'ri presslashda (3.2-rasm, a ga qarang) asosan puanson 1 va matritsa 3 asosiy vazifani bajaradi, konteyner havol silindri 2 ga kiritilgan zagotovka 6, shayba 5 va puanson 1 A strelkasi tomon yurishida uni P kuch bilan siqib matritsa 3 ko'zidan ezib

chiqaradi, chunki o'ng tomondagi tirak shayba 5 matritsaning siljishiga yo'l qo'ymaydi va konteynerni zich berkitib turadi. Bu holda zagotovka konteyner devoriga ishqalanib surilib deformatsiyalanishida ma'lum qarshilikka uchraydi. Shu bilan birga bu usulda chiqindi ham bir muncha ko'proq sarf bo'ladi. Shunga qaramay, birinchi usulda sifatli buyumlar olinadi.

Materiallarni teskari presslashda (3.2-rasm, b ga qarang) matritsa 3 ni puansonning A strelkasi tomon yurishida zagotovka konteynerda siljimay, ezilib, majburan matritsa ko'zidan o'tadi. Bu holda zagotovka konteyner devoriga ishqalanmaydi va unda puansonga qarshilik ko'rsatuvchi ishqalanish kuchi ham yo'q. Shu sababli materiallarni (yoki metallarni) teskari presslab buyum mahsulotlarini olishda sarflangan kuch P to'g'ri presslashga qaraganda 20-30% kichik bo'lib, chiqindi ham 2-3 barobar kam bo'ladi. Ammo teskari presslashni to'g'ri presslashga qaraganda afzalliklari bo'lib, unda puanson konstruksiyasining murakkabligi, olinuvchi mahsulot uzunligining cheklanishi va boshqa sabablarga ko'ra bu usuldan foidalanish birmuncha cheklangan. Lekin ma'lum kamchiliklari bo'lishiga qaramay, ikkala usuldan ham kerakli vaqtlarda foydalanishiladi, ulardan turli shaklli va o'lchamli mahsulotlar olinadi. Har xil shakl va o'lchamlarda tayyorlangan buyum mahsulotlarining ishlash sharoitlariga qarab, kerakli joylarda qo'llaniladi.

Materiallarni presslash uskunalariga asosan gorizont va vertikal gidravlik presslar va ularning asboblari kiradi. Gorizont va vertikal gidravlik presslardan materiallarni (metallarni) presslashda juda keng foydalanishiladi. Gorizont gidravlik presslarning presslash kuchi 600-60000 tonna oralig'ida bo'lsa, vertikal gidravlik presslarning presslash kuchi esa 300 - 1000 tonna oralig'ida bo'ladi. Bu yerda shuni aytib o'tish joizki, metallarni presslashga o'tishdan oldin tayyorlanuvchi buyum materialiga, tarkibiga, xossasiga, shakliga va o'lchamiga ko'ra zagotovka tanlashda uning hajmiga olinuvchi buyum hajmiga yaqinroq bo'lishi kerak. Shunda uning uzunligi (l_3) havol bo'lmagan buyumlar uchun $l_3 = (2-3) \cdot d_{\max}$, havol buyumlar uchun esa $l_3 = (1,5-2) \cdot d_{\max}$ deb olinadi. Undan keyin uning yuza sirti oksid pardalar va kirlardan tozalanadi (buning uchun masalan, 15-

25% sulfat kislotaning suvdagi eritmasi solingan vannaga ma'lum vaqt tushirib, so'ngra yaxshilab yuviladi va quritiladi), ayrim vaqtlarda zaruriyatga ko'ra ma'lum haroratgacha qizdirib, konteynerga kiritiladi. Bunda presslash rejimi zagotovka plastikligiga, deformatsiyalash darajasiga va boshqa omillarning deformatsiyasiga ko'ra belgilanadi.

Agar zagotovkaning asbob matritsa ko'zidan chiqish tezligi (v_3) aniqlanmoqchi bo'linsa, presslash tezligini (v_n), zagotovkaning cho'zilish koeffitsiyentini μ desak, unda biz quyidagi ko'rinishni hosil qilamiz:


$$v_3 = \mu \cdot v_n; \text{ см/с га теги} \quad (3.1)$$

Biz bilamizki, rangli metallardan biri mis qotishmasini presslashda v_3 ning qiymati 12-15 sm/s bo'lsa, alyuminiy uchun esa 8 sm/s ga teng bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tilganlardan ma'lumki, matritsa olinuvchi buyum ko'ndalang kesim shakli, o'lchami va yuza sifatini ta'minlab beradi. Shu sababli bu asboblarning sifatli uglerodli va legirlangan asbobsozlik po'latlaridan, metallokeramik qattiq qotishmalardan, sintetik olmoslardan va boshqa materiallardan tayyorlanadi. Bu asboblarning konstruktsiyasiga kelsak, ularning shakllari va o'lchamlari o'zgarmaydigan yoki o'zgaradigan xillarga bo'linadi hamda ishlash sharoitlariga qarab qo'llaniladi.

Metallar va ularning qotishmalaridan quvurlar (trubalar) tayorlash sxematik jarayoni (3.3-rasm, a) da ko'rsatilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, konteynerdagi zagotovka bir oz siqib ezilsa, puanson ignasi zagotovka orqali matritsa ko'ziga kiradi, so'ngra zagotovkani puanson bilan siqib ular oralig'idan o'tkaziladi. Undan keyingi (3.3-rasm, b) da asosan materiallarni presslab olinadigan turli shaklli va o'lchamli buyumlarning ko'ndalang kesimi yaqqol tasvirlangan. Demak, metallarni (yoki materiallarni) presslash uchun presslash mashinalari, gorizontal va vertikal gidravlik presslar kerak bo'ladi. Bu presslarda har xil ko'rinishdagi buyum mahsulotlari presslab olinadi va ishlatiladi.


Materiallarni presslashda press mashinalarining roli juda kattadir, chunki ular turli shaklli va o‘lchamli konstruksiyali buyumlarni presslab sifatli qilib tayyorlab beradi (3.3-rasm,a,b ga qarang). Sifatli presslangan va kerakli ishlovlar berilgan buyumlar turli zavodlarda va sanoat korxonalarida qo‘llaniladi.



3.3-rasm. Materiallarni presslash usullari: **a**-quvurlar (trubalar) tayyorlash usuli; **b**-presslash yo‘li bilan hosil qilinadigan buyumlar profili usuli; 1-puanson; 2-konteyner; 3-matritsa; 4-buyum; 5-zagotovka ko‘rinishlari.

Materiallarni shtamplash usuli. Odatda, shtamplar metall va qotishmalarga bosim bilan ishlov berishda foydalaniladigan asboblardir, shtamp, puanson, matritsa, rolik va boshqalar uchun ishlatiladigan po‘latlardan tayyorlanadi.


Materiallarga bosim bilan ishlov berish usullaridan biri – bu hajmiy shtamplashdir. Hajmiy shtamplashda zagotovkani shtamp deb ataluvchi asbobning pastki palla oyig‘iga qo‘yib, ustki pallasi bilan zarblab ishlov berishga hajmiy shtamplash deb ataladi. Metall maxsulotini hajmiy shtamplash jarayoni 3.4-rasmda tasvirlangan.



3.4-rasm. Materiallarni hajmiy shtamplash jarayonining ko‘rinishi.

Materiallarni shtamplash jarayonlari konstruktsiyasiga binoan asosan ochiq shtamplash (3.5-rasm,a) va yopiq shtamplash (3.5-rasm,b) usullarida olib boriladi.

Bu usulda asosan ma'lum haroratgacha qizdirilgan metall zagotovkalar ikki palladan iborat shtamp asbobining pastki palla o'yig'iga qo'yilib, ustki palla bilan zarblab ishlov berishda deformatsiyalab, shtamp o'yig'ini to'ldirish jarayoni tushiniladi. Shtamp o'yig'ini to'ldirish jarayonlaridan biri 3.5-rasm,a da ko'rsatilgan va unda: 1-shtamp ochiq holatda; 2-shtamp ishchi yopiq holatda ichki o'yog'i to'ldirilmagan holati; 3-shtamp ishchi yopiq holatda ichki o'yig'i to'ldirilgan holati.




3.5-rasm. Materiallarni ochiq shtamplash (a) va yopiq shtamplash (b) jarayonlari: 1,2-shtamp pallalari; 3-pitr ariqchasi; 4-zagotovka; 5-pokovka holatlari.

Bu usul boshqa usullarga qaraganda, ish unumining yuqoriligi, murakkab shaklli pokovkalar olinishi, shakli va o'lchamlarining aniqligi, sirt yuzasidagi g'adur-budurligining kamligi, yuqori malakali ishchini talab etmasligi kabi afzalliklari bilan ajralib turadi va bu usul turli xil pokovkalar tayyorlanadigan yirik temirchilik tsexlarida juda keng foydalaniladi. Uning kamchiligiga asosan shtamp narxining qimmatligi, qimmat po'lat ishlatilishi, pokovka massasining og'irligi 250-300 kg dan oshmasligi va boshqalar kiradi.

Materiallarni hajmiy shtamplash shtamplari asosan yuqori sifatli legirlangan shtamp po'latlaridan yasaladi. Bu shtamplar ishlash sharoitlariga qarab, sovuq holda (qizimaydigan shtamp po'latlari)

ishlaydigan shtamp po‘latlariga va issiq holda (qiziydigan shtamp po‘latlari) ishlaydigan shtamp po‘latlariga bo‘linadi. Shtamp po‘latlari GOST bo‘yicha alohida-alohida markali po‘latlardan tayyorlanadi va ma’lum termik ishlovlardan o‘tkaziladi va keyin qo‘llaniladi.

Materiallarni hajmiy shtamplashda maxsus shtamp presslaridan (3.6-rasm,a), materiallarni shtamplash jarayonlarida esa konstruksiyasiga ko‘ra ochiq shtampdan (3.6-rasm,b) va yopiq shtampdan (3.6-rasm,d) unumli foydalaniladi.



3.6-rasm. Materiallarni shtamplash uchun ishlatiladigan maxsus shtamp pressi (a), ochiq shtamp (b) va yopiq shtamp (d) ko‘rinishlari.

Hajmiy shtamplash presslarida (yoki uskunalarida) zagotovkalarini shtamplash jarayonlari. Odatda, hajmiy shtamplash metall zagotovkalarini shtamplashda foydalaniladigan asosiy presslar yoki uskunalariga siqilgan bug‘-havoda ishlovchi shtamplash bolg‘alari, bolg‘alash presslari, gorizontaal yoki vertikal bolg‘alash mashinalari, vintli friksion presslar va maxsus zamonaviy presslarni o‘z ichiga oladi. Shulardan biri masalan, siqilgan bug‘-havoda ishlovchi shtamplash bolg‘alari umumiy tuzilishi jihatidan erkin bolg‘alash bolg‘alariga o‘xshash bo‘lib, faqatgina konstruksiyasi bo‘yicha bir-biridan farq qiladi, ammo ishlash prinsipi deyarli bir-biriga o‘xshash bo‘ladi.

3.2. Materiallarni presslash uchun foydalaniladigan asboblardan va uskunalardan

Ma'lumki, metallarni presslashda ko'proq turli uskunalardan va har xil asboblardan unumli foydalaniladi. Masalan, presslash uskunalari gorizontal gidravlik presslar va vertikal gidravlik presslar kiradi. Bu presslar turli xil metall maxsulotlarini ishlab chiqaradigan zavodlarda, korxonalarda, temirchilik tsexlarida va umuman mashinasozlik sanoatlarida juda keng qo'llaniladi. Gidravlik presslar presslanadigan metall buyumning shakli va o'lchamlariga qarab ishlatiladi. Masalan, gorizontal gidravlik presslarning presslash kuchi 600-60000 t gacha, vertikal gidravlik presslarning presslash kuchi esa 300-1000 t gacha bo'ladi. Eslatib o'tish kerakki, metallarni presslashga o'tishdan oldin tayyorlanuvchi buyum materialiga, tarkibiga, xossasiga, shakliga va o'lchamiga ko'ra zagotovka tanlashda uning hajmi olinuvchi buyum hajmiga yaqinroq bo'lishi lozim. Shundagina uning uzunligi (l_3) havol bo'lmagan buyumlar uchun $l_3 = (2-3) \cdot d_{\max}$, havol buyumlar uchun esa $l_3 = (1,5-2) \cdot d_{\max}$ deb olinadi.

Olingan buyumning yuza sirt qismi oksid pardalar va kirlardan tozalanadi. Tozalash uchun 15-25% sulfat kislotaning suvdagi eritmasi solingan vannaga ma'lum vaqt tushirib, keyin yaxshilab yuviladi va quritiladi. Quritilganlari ish vaziyatiga qarab, kerakli haroratgacha qizdiriladi va so'ngra konteynerga kiritiladi. Ana shunda presslash rejimi zagotovka plastikligiga, deformatsiyalash darajasiga va boshqa omillarga ko'ra belgilab olinadi. Aytaylik, zagotovkani asbob matritsasi ko'zidan chiqish tezligi (v_3) aniqlanmoqchi bo'lsa, presslash tezligini (v_n), zagotovkaning cho'zilish koeffitsiyentini μ deb olamiz:

$$v_3 = \mu \cdot v_n; \text{ sm/s} \quad (3.2)$$

Yuqorida aytib o'tilganidek, rangli metall bo'lmish mis qotishmasini presslashda v_3 ning qiymati 12-15 sm/s ga, alyuminiy uchun esa 8 sm/s ga tengdir.


Katta presslash mashinalarida ishlaganda matritsa olinuvchi buyum ko'ndalang kesim shakli, o'lchami va yuza sifatini ta'minlab

beradi. Shuning uchun bu asboblarning sifatli uglerodli va legirlangan asbobsozlik po'latlaridan, metallokeramik qattiq qotishmalardan, sintetik olmoslardan va boshqa materiallardan tayyorlanadi. Bu asboblarning konstruksiyasiga to'xtaladigan bo'lsak, ular shakllari va ko'z o'lchamlari o'zgaradigan yoki o'zgarmaydigan xillarga bo'linadi hamda ishlash sharoitlariga qarab foydalaniladi.

Endi gorizontaal gidravlik presslar va vertikal gidravlik presslarda qanday ishlar bajarilishi bilan tanishib o'tamiz. Masalan, gorizontaal gidravlik presslar presslash kuchiga qarab, ma'lum bir talab etilgan qalinlikdagi metallarni presslaydi va kerakli shaklga va o'lchamga ega bo'lgan buyumlar olinadi. Olingan buyumning ko'rinishi, tuzilishi, og'irligi va puxtaligi uning sifatini belgilaydi. Presslash kuchi katta bo'lgani uchun ular yirikroq ishlab chiqarish korxonalarida ishlatiladi.

Aytaylik, vertikal gidravlik presslarda vertikal holatga ega bo'lgan buyum mahsulotlari presslanadi. Shu bilan birga bu presslar metall buyumning shakli va o'lchamlariga qarab ham ishlatiladi. Pressning presslash kuchi kamroq bo'lgani uchun ular qalinligi kam ingichkaroq metall materiallarini presslaydi va bu presslar kichikroq temirchilik tsexlarida va korxonalarida foydalaniladi.

Materiallarni presslashda laboratoriya pressi (3.7-rasm,a), sovuq holda presslash pressi (3.7-rasm,b), issiq holda presslash pressi (3.7-rasm,d) hamda kerakli shakl va o'lchamlarda (3.7-rasm,e) olingan metall buyumlar yoki detallarning umumiy ko'rinishlari keltirilgan.



3.7-rasm. Materiallarni presslash laboratoriya pressi (a), sovuq holda presslash pressi (b), issiq holda presslash pressi (d) va presslab olingan har xil buyumlar (e).

Metall materiallarini presslash jarayonida asosan press uskunasining sozligiga, ochiq shtamp yoki yopiq shtampning butunligiga, komplektiga ishonch hosil qilish kerak, ya'ni ishni boshlashdan oldin asbob-uskunalarining to'liq sozligini tekshirib chiqish lozim, undan keyin press uskunalarida ishlash mumkin. Yuqorida aytilganidek, bu asboblarda ko'proq sifatli uglerodli po'latlar va legirlangan asbobsozlik po'latlaridan, metallokeramik qattiq qotishmalardan va sintetik olmoslardan yasaladi.

3.3. Materiallarni shtamplash, sovuq va issiq holda shtamplash uchun shtamplar va ularning konstruksiyalari

Metallar va ularning qotishmalaridan hamda metallmas materiallardan turli xil buyumlar olish uchun ular shtamplanadi. Metallarni shtamplashda asosan metall zagotovka shtamp bo'shlig'iga o'tkaziladi, o'tkazilgandan so'ng ular ma'lum bosim ostida plastik deformatsiyalanadi va shu shtamp ichki qismidagi bo'shlig'ini butun hajmi bo'yicha zichlab-presslab to'ldiradi (bu pressning bosim kuchiga bog'liq).

Natijada tayyor va sifatli buyumlar olinadi. Materiallarni shtamplash usuli boshqa usullarga qaraganda ish unumi ancha yuqori, olingan buyumlarning shakli va o'lchamlari aniq, buyumlar yuzasi tekis va g'adur-budurligi judayam kam, bu shtampda murakkab shaklli buyumlar olish qulay, materialni shtamplash uchun yuqori malakali ishchi talab etilmasligi va sifatli buyumlar olinishi shtamplash usulining afzalligidir. Bunday afzalliklarga ega bo'lganligi uchun shtamplash usuli ko'proq temirchilik tsexlarida juda keng qo'llaniladi. Shtampning kamchiligiga ularni tayyorlanishi, narxining qimmatligi, pokovkaning nisbatan og'irligi va boshqalar kiradi.


Materiallarni shtamplashda shtampning ichki o'yiqlari – bo'shliqlari shakli va o'lchamlari pokovkaning tashqi shakli va o'lchamlariga juda yaqin bo'ladi. Asosiy konstruksiyasi bo'yicha shtamplar ikki xilga ajratiladi: 1-ochiq holda; 2-yopiq holda ishlovchi xillarga bo'linadi. Shtamplar yuqori sifatli legirlangan asbobsozlik po'latlaridan tayyorlanadi (eslatma: shtamp tayyorlash jarayoni nihoyatda

qiyin va nozik ish, shu sababli bu ishga yuqori malakali ishchi-asbobsoz bo'lishi kerak). Tayyorlangan shtamplar xillari va konstruksiyalariga qarab, ma'lum bir termik ishlov berish rejimlaridan o'tadi va keyin foydalaniladi.

Odatda, metallarni deformatsiyalaydigan asboblar – shtamplar, puansonlar, matritsalar, roliklar va valiklar metallarni bosim bilan ishlov berish uchun qo'llaniladi. Shu bois shtamplarga quyidagicha ta'rif bersak bo'ladi. Metallar va qotishmalarni bosim bilan ishlov berishda qo'llaniladigan asboblar - shtamplar, puansonlar, matrisalar, roliklar, valiklar va boshqalar tayyorlash uchun ishlatiladigan po'latlarga *shtamp po'latlari* deb ataladi. Ular tashqi ko'rinishi bo'yicha juda keng tarqalgan asboblar turkumiga kiradi.

Metallar va qotishmalarni bosim bilan ishlov berish asboblari ikki gruppaga bo'linadi: 1 - metall va qotishmalarni sovuqlayin deformatsiyalovchi asboblar (3.8-rasm,a); 2 - metall va qotishmalarni qizdirilgan holda deformatsiyalaydigan asboblar (3.8-rasm,b). Shuning uchun bunday asboblar tayyorlash uchun ishlatiladigan po'latlar ham ikki gruppani tashkil etadi. Metall va qotishmalarni qizdirib turib, bosim bilan ishlov berishda asboblar qattiq qiziydi. Demak, bunday asboblar tayyorlanadigan po'latning mexanik xossalari sovuq holatdagina emas, balki qizigan holatda ham yuqori bo'lishi kerak. Ish jarayonida qattiq qiziydigan asboblar tayyorlanadigan po'latlarning oquvchanlik- proporsionallik chegarasi yuqori bo'lishi kerak, aks holda, bu asboblar yuqori bosim ta'siri ostida deformatsiyalanishi mumkin. Temirchilik shtamplari bosim bilan ishlanayotgan metallga zarb bilan urilganda sinib yoki yorilib - ketmasligi uchun bunday shtamplar po'lati qovushqoq bo'lishi ham kerak.

Shtamp po'latlarining hamma turlari ham yeyilishga chidamli bo'lishi shart, chunki po'lat yeyilishga chidamli bo'lgandagina undan yasalgan asboblar ko'p va uzoq muddatga chidaydi va ishlaydi (bu o'z navbatida shtamp po'lati markasi va ishlov berish usullariga bog'liqdir).



3.8-rasm. Shtamlarning umumiy ko‘rinishi: **a**-sovuq holda ishlaydigan shtamp; **b**-issiq holda ishlaydigan shtamp.

Metallarni presslash asboblari zarbsiz ishlaganligi uchun bunday asboblarni tayyorlanadigan po‘lat qizigan holda yeyilishga chidamli bo‘lishi kerak. Shu sababli bolg‘a shtamlari, ya’ni zarb bilan ishlaydigan shtamlar uchun alohida, presslash shtamlari uchun esa alohida markali po‘latlar ishlatiladi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib, bundan buyon sovuqlayin bosim bilan ishlov berishda foydalaniladigan asboblarni sovuq holda, ya’ni *qizimaydigan shtamlar* deb, metall va qotishmalarni qizdirib turib bosim bilan ishlov berishda foydalaniladigan asboblarni esa issiq holda, ya’ni *qiziydigan shtamlar* deb ataymiz.

Sovuq holda, ya’ni qizimaydigan shtamlar tayyorlanadigan po‘lat juda qattiq, ishqalanishga bardosh bera oladigan, qovushqoq (ayniqsa, puansonlar tayyorlash uchun ishlatiladigan po‘lat) bo‘lishi kerak.

Issiq holda, ya’ni qiziydigan shtamlar tayyorlash uchun ishlatiladigan po‘lat mahalliy qizish ta’siriga imkoni boricha chidamli bo‘lishi kerak, chunki yetarli darajada plastik (qovushqoq bo‘lmagan, masalan, yomon bo‘shatilgan po‘latdan yasalgan shtampning ish qismi qizisa, unda darzlar hosil bo‘lishi mumkin.

Asosan bosim ostida detal quyish qoliplari, press-qoliplari ayniqsa, og‘ir sharoitda ishlaydi. Qolipga quyilgan suyuq metall qolipning ish yuzasini qattiq qizdiradi, qolipning ichki qismlariga yuborib turiladigan suv esa shu qismlarni sovitadi, buning natijasida katta issiqlik kuchlanishlari vujudga keladi. Pressqoliplar tayyorlanadigan po‘lat yeyilishga chidamli, qizigan holatda ham yuqori

mexanik xossalarga ega, qolipning ish sirti suyuq metall ta'sirida yeyilmaydigan bo'lishi zarur.

Katta o'lchamli shtamplar tayyorlanadigan po'latlarda, yuqorida aytib o'tilgan xossalardan tashqari, chuqurroq toblanish xossasi ham bo'lishi kerak. Murakkab shaklli shtamplar tayyorlanadigan po'latlar toblash vaqtida imkoni boricha kam deformatsiyalanishi lozim. Bu shtamplarning keyingi ish faoliyatini yaxshi ta'minlaydi. Shuning uchun biz Siz bilan ko'proq qizimaydigan va qiziydigan shtamplar tayyorlash uchun ishlatiladigan shtamp po'latlari bilan alohida-alohida tanishib chiqamiz.

Sovuq holda shtamplash uchun shtamplar (*qizimaydigan shtamp po'latlari*). Asosan sovuq holda, ya'ni qizimaydigan shtamp-larning qattiqligi yuqori bo'lib, Rokvel pribori bo'yicha HRC58-60 va hatto, HRC62 dan yuqori bo'lishi mumkin. Bunday shtamplar tarkibidagi uglerod miqdori 1% dan kam bo'lmagan uglerodli po'latlardan, shuningdek, ba'zilar legirlangan asbobsozlik po'latlaridan tayyorlanadi). Y10, Y11, Y12 markali po'latlardan shakli oddiy bo'lgan, kichikroq o'lchamli shtamplar yasaladi. Y10, Y11, Y12 po'latlarining toblanish chuqurligi katta bo'lmaganligi uchun ularni nisbatan engil sharoitda ishlaydigan shtamplar tayyorlash uchun ishlatish kerak. Shakli ancha murakkab va ancha og'ir sharoitda ishlaydigan shtamplar toblanish chuqurligi katta legirlangan po'latlardan, masalan, X yoki IIX15 markali po'latlardan tayyorlanadi. Sovuqlayin prokatlash jo'valari tayyorlash uchun tarkibida o'rta hisob bilan 1 yoki 2%Cr bo'lgan xromli po'latlar (9X yoki 9X2 po'latlari) ishlatiladi. Bunday jo'valarning ko'ndalang kesim yuzi katta bo'lganligi uchun ular suvda toblanib, past (100-120°C) haroratda bo'shatiladi. Bunday qilinganda jo'vaning 15 mm gacha qalinlikdagi sirtqi qatlamining qattiqligi Rokvel pribori bo'yicha HRC66 ga teng bo'ladi.

Metallarni sovuqlayin deformatsiyalaydigan, ammo zarb bilan ishlaydigan ba'zi asboblarning, masalan, zubilo, pnevmatik asboblarning va boshqalarning qattiqligi, aksincha, Rokvel pribori bo'yicha HRC52-58 bo'lishi kerak. Nisbatan engil sharoitda ishlaydigan bunday asboblarning, masalan, dastaki zubilo, dastaki kleymo va shu

kabilar Y7, Y8, Y9 markali asbobsozlik po‘latlaridan tayyorlanadi va keyin qo‘llaniladi.

Shtamp po‘latlarining eng ko‘p ishlatiladiganlari 4XC, 6XC, 4XB2C, 5XB2C va 6XB2C markali po‘latlardir (bu po‘latlarning kimyoviy tarkibi 3.1-jadvalda, toblanish harorati va qattiqligi esa 3.2-jadvalda ko‘rsatilgan).

3.1-jadval

Legirlangan asbobsozlik po‘latlari kimyoviy tarkibi

Po‘lat markasi	Elementlar miqdori, % hisobida						
	C	Si	Mn	Cr	V	Mo	W
<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>	<i>5</i>	<i>6</i>	<i>7</i>	<i>8</i>
X12	2-2,3	≤0,4	≤0,35	11,5-13,0	-	-	-
X12M	1,45-1,7	≤0,4	≤0,35	11,0-12,5	0,15-0,3	0,4-0,6	-
XГ	1,3-1,5	≤0,35	0,45-0,7	1,3-1,6	-	-	-
X	0,95-1,1	≤0,35	≤0,4	1,3-1,6	-	-	-
X09	0,95-1,1	≤0,35	≤0,4	0,75-1,05	-	-	-
9X	0,8-0,95	0,25-0,45	0,25-0,35	1,4-1,7	-	-	-
X05	1,25-1,4	≤0,35	0,2-0,4	0,4-0,6	-	-	-
7X3	0,6-0,75	≤0,35	0,2-0,4	3,2-3,8	-	-	-
8X3	0,76-0,85	≤0,35	0,2-0,4	3,2-3,8	-	-	-
9XC	0,85-0,95	1,2-1,6	0,3-0,6	0,95-1,25	-	-	-
6XC	0,6-0,7	0,6-1,0	≤0,4	1,0-1,3	-	-	-
4XC	0,35-0,45	1,2-1,6	≤0,4	1,3-1,6	-	-	-
XГC	0,95-1,1	0,5-1,0	0,8-1,2	1,4-1,8	0,2-0,4	-	-
Φ	0,95-1,05	≤0,35	0,2-0,4	-	0,15-0,3	-	-
8XΦ	0,75-0,85	≤0,34	0,2-0,4	0,5-0,8	0,15-0,3	-	-
85XΦ	0,8-0,9	≤0,35	0,3-0,6	0,45-0,7	0,15-0,3	-	-

3.1-jadvalning davomi

1	2	3	4	5	6	7	8
B1	1,05-1,25	≤0,35	0,2-0,4	0,1-0,3	0,2-0,5	-	0,8-1,2
3X2B8	0,3-0,4	≤0,35	0,2-0,4	2,2-2,7	-	-	7,5-9,0
4X8B2	0,35-0,45	≤0,35	0,2-0,4	7,0-9,0	0,15-0,3	-	2,0-3,0
XB5	1,25-1,5	≤0,30	≤0,3	0,4-0,7	-	-	4,5-5,5
4XB2C	0,35-0,44	0,6-0,9	0,2-0,4	1,0-1,3	-	-	2,0-2,5
5XB2C	0,45-0,54	0,5-0,8	0,2-0,5	1,0-1,3	-	-	2,0-2,5
6XB2C	0,55-0,65	0,5-0,8	0,2-0,4	1,0-1,3	-	-	2,2-2,7
XBΓ	0,9-1,05	0,15-0,35	0,8-1,1	0,9-1,2	-	-	1,2-1,6
9XBΓ	0,85-0,95	0,15-0,35	0,9-1,2	0,5-0,8	-	-	0,5-0,8
5XBΓ	0,55-0,7	0,15-0,35	0,9-1,2	0,5-0,8	-	-	0,5-0,8
5XHM	0,5-0,6	≤0,35	0,5-0,8	0,5-0,8	-	0,15-0,3	-
5XΓM	0,5-0,6	0,25-0,65	1,2-1,6	0,6-0,9	-	0,15-0,3	-

Eslatma: **1** - P va S ning miqdori 0,03% va undan ham kam bo'ladi; **2** - X12 va X12M po'latlarida Ni miqdori 0,35% dan, 9X, 7X3, 8X3, 9XC, 4XC, XΓC, 8XΦ, Φ, 3X2B8, 4XB2C, 5XB2C, 6XB2C, XBΓ, 5XBΓ, 5XΓM po'latlarida esa 0,25% dan oshmaydi; **3** - 5XHM po'latida 1,4-1,8% Ni bo'ladi; **4** - X12 va X12M po'latlari o'rniga X12Φ1 po'lati ko'proq ishlatiladi, uning tarkibida (1,2-1,4%C, 0,4% dan kam Si, 0,35% dan kam Mn, 11,0-12,5% Cr, 0,7-0,9% V) bo'ladi. Bu po'latlarning kimyoviy tarkibi ΓOCT 5950-51 da ko'rsatilgan.

3.2-jadval

**Legirlangan asbobsozlik po‘latlarining mexanik xossalarini
qattiqligi**

Po‘lat markasi	Toblanmagan po‘latning qattiqligi, HB	Toblash harorati va sovituvchi suyuqlik (s - suv, m - moy)	Toblangan po‘latning qattiqligi, HRC
<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>
X12	269-217	950-1000 m	60
X12M	255-207	950-1000 m	58
XГ	241-197	800-830 m	61
X	229-187	830-860 m	62
X09	229-179	830-860 m	62
9X	217-179	820-850 m	62
X05	241-187	780-810 s	64
7X3	229-187	850-880 m	54
8X3	255-207	850-880 m	55
9XC	241-197	820-860 m	56
6XC	229-187	840-860 m	56
4XC	207-170	880-900 m	47
XГC	255-207	820-860 m	62
Φ	217-179	780-820 s	62
8XΦ	207-170	800-850 s	61
85XΦ	258-207	840-860 s	42
B1	229-187	800-850 s	62
3X2B8	255-207	1075-1125 s	46
4X8B2	255-207	1025-1075 m	45
XB5	285-229	800-820 s	65

3.2-jadvalning davomi

<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>
4XB2C	217-179	850-900 s	53
5XB2C	255-207	860-900 m	55
6XB2C	285-229	860-900 m	57
XБГ	255-207	800-830 m	62
9XBГ	241-197	800-830 m	62
5XBГ	217-179	850-900 m	57
5XHM	241-197	830-860 m	47
5XГM	241-191	820-850 m	50

Shu po‘latlarning bo‘shatish harorati bilan bo‘shatilgandan keyingi qattiqligini (3.3-jadval) da ko‘rsatib o‘tamiz.

3.3-jadval

Shtamp po‘latlarining bo‘shatish harorati va bo‘shatilgandan keyingi qattiqligi

Po‘lat markasi	Bo‘shatish harorati	Bo‘shatilgandan keyingi qattiqligi, HRC
4XC	240-270	51-51
6XC	240-270	52-53
4XB2C	240-270	50-52
	420-440	44-46
5XB2C	240-270	51-53
	420-440	45-47
6XB2C	240-270	53-55
	420-440	46-48

Qizimaydigan shtamplar, shuningdek, metallni sovuqlayin yoki biroz qizdirib turib deformatsiyalash uchun ishlatiladigan boshqa asboblarda, masalan, sim tortish asboblarning fileralari (ko‘zlari) va shu kabilar yeyilishga va issiqlikka chidamlilik xossalari yuqori, termik ishlov berilganda kam deformatsiyalanadigan ko‘p xromli po‘latlardan, masalan, X12, X12M, X12Φ1, X6BΦ markali po‘latlardan tayyorlanadi, X12, X12M, X12Φ1, X6BΦ po‘latlarining kimyoviy tarkibi (3.1-jadvalda) ko‘rsatilgan. Ular suyuqlantirilgan tuzda qizdiriladi. Ko‘p xromli po‘latlarni toblash haroratlari 3.4-jadvalda keltirilgan.

3.4-jadval

Ko‘p xromli po‘latlarni toblash haroratlari

Po‘lat markasi	Birlamchi qattiqlik hosil qilish uchun toblash		Ikkilamchi qattiqlik hosil qilish uchun toblash		Eng kam deformatsiyalanadigan qilib toblash	
	qizdirish	Qattiq- ligi,	Qizdi- rish	Qattiq- ligi,	qizdirish	qattiqligi HRC

	harorati, °C	HRC	harorati, °C	HRC	harorati, °C	
X12	1000-1040	61-63	-	-	-	-
X12M	1020-1040	62-63	1115-1130	45-50	1040-1060	60-61
X12Φ	1020-1040	61-63	1090-1130	45-50	1040-1060	60-61
X12Φ1	1040-1070	61-63	1100-1140	45-50	1080-1100	60-61

Shtamp po‘latlaridan X12Φ1 markali po‘latining qattiqligi va undagi qoldiq austenit miqdorining toblash haroratiga qarab o‘zgari-shini ko‘rsatuvchi diagramma (3.9-rasm,a) da keltirilgan. Ushbu diagrammadan ko‘rinib turibdiki, toblash harorati ko‘tarilgan sari po‘latning qattiqligi oldin oshib, toblash harorati 1075°C bo‘lganda eng yuqori darajaga etadi, so‘ngra pasayadi. Shuning uchun bu po‘latlardan tayyorlangan asboblar yuqori (1050-1150°C) harorat-gacha qizdirilib, so‘ngra toblanadi. Bo‘shatish harorati toblash haroratiga qarab olinadi. Agar po‘lat 1075°C gacha qizdirilib, so‘ngra toblangan bo‘lsa, po‘latning hosil qilingan yuqori qattiqli-gini saqlab qolish uchun uni bo‘shatish harorati 220°C dan oshmasligi kerak, chunki bo‘shatish harorati 220°C dan yuqori bo‘lsa, po‘latning qattiq-ligi pasayadi. Agar po‘lat 1150°C haroratgacha qizdirilib, so‘ngra toblangan, ya’ni po‘latda ko‘p miqdorda qoldiq austenit hosil qilin-gan bo‘lsa, qoldiq austenitni parchalash va po‘latning qattiqligini oshirish uchun u 525-550°C haroratda bo‘shatiladi.

Asosan ko‘p xromli po‘latlarning qattiqligini oshirish zarur bo‘lsa, ular 1150°C gacha qizdirilib, so‘ngra moyda toblanadi-da, ko‘p miqdorda (30-35%) qoldiq austenit hosil qilinadi, shundan keyin noldan past haroratda ishlov berish va bo‘shatish yo‘li bilan qoldiq austenitning juda ko‘p qismini parchalab yuboradi. Po‘lat shunday termik ishlanganda uning qattiqligi Rokvel pribori bo‘yicha HRC60 dan yuqori bo‘ladi. Ma’lumki, termik ishlashning bu usuli tezkesar

po‘lat uchun qo‘llaniladi, ammo uni ko‘p xromli po‘latlarga ham tatbiq qilish mumkin bo‘ladi.


Biz bilamizki, ko‘p xromli po‘latda qoldiq austenit miqdori keng chegaralarda o‘zgarganligi uchun bunday po‘lat toblanganda uning hajmi ham kuchli darajada o‘zgaradi. Po‘lat martensit strukturasigacha toblanganda uning hajmi ortadi, austenit hosil qilish uchun toblanganda esa kamayadi. Ma’lum bir haroratda, hosil bo‘ladigan martensit miqdori bilan austenit miqdori shunday nisbatda bo‘ladiki, toblangan po‘latning hajmi toblanishdan oldingi hajmidan farq qilmaydi. Ammo amalda, toblash harorati martensit bilan austenitning yuqorida aytilgan nisbatiga to‘g‘ri keladigan haroratdan yuqori yoki past bo‘lishi, sovitish sharoitining o‘zgarishi mumkin, natijada, toblangan po‘latning (shtampning) hajmi toblanishdan oldingi hajmidan farq qilib qoladi. Agar shtamp toblanganda uning hajmi kamayib qolsa, bunday shtamp 520°C da bo‘shatiladi. Bunda qoldiq austenitning bir qismi martensitga aylanib, shtampning hajmi kattalashadi. Agar toblash natijasida shtampning hajmi kattalashib qolsa, shtamp 350°C da bo‘shatiladi, bunday haroratda austenit o‘zgarmay qoladi, tetragonal martensit esa bo‘shagan martensitga aylanib, shtampning hajmi kichrayadi. Aytib o‘tilgan bu usul asbob (shtamp) o‘lchamlarini *termik tiklash* deb ataladi.

Shtamp X12M va X12Φ1 po‘latlari juda kichik deformatsiyalanadi, shuning uchun ularga termik tiklak usuli tatbiq etilsa, ularda toblash natijasida hosil bo‘lgan deformatsiyaga, amaliy jihatdan olganda, barham berilgan bo‘ladi. Demak, bu po‘latlarni toblashda deformatsiyalanishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan murakkab shaklli asboblarni yasash uchun ishlatilishi lozim. X12 markali po‘lat tarkibida karbid fazasining miqdori ko‘p bo‘lganligi uchun uning mexanik puxtaligi pastroqdir. Shuning uchun X12 po‘lati uncha muhim bo‘lmagan, konstruksiyasi jihatidan oddiy bo‘lgan asboblarni tayyorlash uchun ishlatiladi.

Asosan ko‘p xromli po‘latlar gruppasiga kiradigan, ammo tarkibidagi uglerod miqdori bilan xrom miqdori nisbatan kamroq bo‘lgan po‘lat X6BΦ* markali po‘latdir. X6BΦ po‘latida karbidlar miqdori X12 xilidagi po‘latlardagidan ko‘ra kamroq bo‘ladi, shuning

uchun u karbidlar likvatsiyasiga kamroq moyildir. X6BΦ po‘latida xrom karbidi - $(Cr, Fe)_7C_3$, ya’ni M_7C_3 dan tashqari, sementit xilidagi karbid ham bo‘ladi. X6BΦ po‘latidan yasalgan asboblarda X12 xilidagi po‘latlardan ko‘ra pastroq ($900-1010^{\circ}C$) haroratgacha qizdirilib, so‘ngra toblanadi, chunki toblash harorati oshirilgani bilan undagi karbid fazasining eritmaga o‘tishi uncha ortmaydi. X6BΦ po‘lati $900-1010^{\circ}C$ gacha qizdirilib, so‘ngra toblanganda uning qattiqligi eng yuqori Rokvel pribori bo‘yicha HRC63 ga teng bo‘ladi. X6BΦ markali po‘lati qattiqligining toblash haroratiga qarab o‘zgarishini ko‘rsatuvchi egri chiziq (3.9-rasm,b) da keltirilgan (eslatma: *X6BΦ po‘lat tarkibida 1,05-1,14% C, 0,4% gacha Si, 0,5-0,35% Mn, 5,5-7,0% Cr, 1,1-1,5% W, 0,5-0,7% V, 0,03% P, 0,03% S bo‘ladi).

Taniqli rus metallshunos olimlaridan professor A.P.Gulyaev, V.D.Bessonov va A.A.Badaevalar shtamp po‘latlaridan X12Φ1 va X6BΦ bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan va yuqori natijalarga erishgan (3.9-rasmga qarang).




3.9-rasm. Shtamp po‘latlari: **a**-X12Φ1 markali po‘lat qattiqligi va undagi qoldiq austenit miqdorini toblash haroratiga qarab o‘zgarishi; **b**-X6BΦ markali po‘lat qattiq-ligining toblash haroratiga qarab o‘zgarishi grafigi.

Issiq holda shtamplash uchun shtamplar (*qiziydigan shtamp po‘latlari*). Odatda metall va qotishmalarni qizdirib turib deformatsiyalash asboblari tayyorlanadigan po‘latlarda issiqbardoshlik, otashbardoshlik*, termobardoshlik**, chuqur toblanuvchanlik, qovushqoqlik, bo‘shatish vaqtida mumkin qadar kam mo‘rtlashuvlik, yopishmaslik xossalari bo‘lishi kerak (eslatma: *po‘latga harorat uzoq vaqt ta’sir etganda issiqbardoshlik xossasini saqlab qolish xususiyatiga *otashbardoshlik* deb, **po‘latni harorat o‘zgarishiga bardosh berish xossasiga esa *termobardoshlik* deb ataladi).

Asosan yengil sharoitda, ya’ni shtamplash vaqtida shtampning ish yuzasiga tushadigan solishtirma bosim kichik bo‘ladigan sharoitda ishlovchi shtamplar Y7, Y8 va Y9 po‘latlaridan yasaladi; bu maqsadda Y7 po‘lati eng ko‘p ishlatiladi. Og‘irroq sharoitda ishlaydigan shtamplar (bolg‘a shtamlari) legirlangan asbobsozlik po‘latlaridan, masalan, 5XHM, 5XГM, 5XHT va 5XHCB markali po‘latlardan tayyorlanadi XHM va 5XГM po‘latlarining kimyoviy tarkibi 3.1-jadvalda ko‘rsatilgan. Ma’lumki, og‘ir sharoitda ishlaydigan shtamplar tayyorlanadigan po‘latlarning ichida eng yaxshisi va eng ko‘p ishlatiladigani 5XHM markali po‘latdir. Bu po‘lat mexanik xossalari bo‘shatish haroratiga va sinash haroratiga qarab o‘zgarishini ko‘rsatuvchi grafiklar 3.10-rasmda keltirilgan.

Grafikdan ko‘rinib turibdiki, chapda bo‘shatish harorati ko‘tarilgan sari po‘latning puxtaligi pasayib, plastikligi va qovushqoqligi ortib boradi. O‘ngda sinash harorati ko‘tarilganda ham po‘latning puxtaligi pasayadi, ammo plastikligi 400°C haroratgacha pasayib borib, so‘ngra ko‘tariladi-da, harorat 500°C ga yetganda yana pasayadi, zarbiy qovushqoqligi esa ma’lum haroratgacha pasayib boradi va yana ko‘tariladi. Bunday po‘latlarning mexanik xossalari bo‘shatish va sinash haroratlarini o‘zgartirish bo‘yicha taniqli rus olimlari M.V.Pridansev, G.L.Livshits, E.V.Smironov va boshqalar shug‘ullanishgan va ilmiy tomondan yuqori natijalarga erishgan.



3.10-rasm. 5XHM po'lati mexanik xossalari bo'shatish (a) va sinash haroratlariga (b) qarab o'zgarishini ko'rsatuvchi egri chiziqlarning ko'rinishlari.

Shtamp po'latlarini legirlangan asbobsozlik po'latlaridan 5XHT va 5XHCB tayyorlashda quyidagi kimyoviy tarkib tavsiya etiladi: 5XHT markali po'lat 0,5-0,6%C, 0,35% gacha Si, 0,5-0,8%Mn, 0,9-1,25%Cr, 1,4-1,8%Ni, 0,08-0,15%Ti, 0,03%P, 0,03%S; 5XHCB markali po'lat 0,5-0,6%C, 0,6-0,9%Si, 0,3-0,6%Mn, 1,3-1,6%Cr, 0,8-1,2%Ni, 0,4-0,6%W, 0,03%P, 0,03%S bo'ladi.

Aslida 5XHM va 5XHCB po'latlarini toblab, so'ngra 550°C da bo'shatilgandan keyingi mexanik xossalari (normal haroratda) mana bunday bo'ladi: $\sigma = 1200-1300 Mn/m^2$, $\delta = 10-13\%$; $\psi = 40-45\%$; $a_n = 400-500 kJ/m^2$. 5XGM po'lati uchun: $\sigma = 1200-1300 Mn/m^2$; $\delta = 10-13\%$; $\psi = 30\%$, $a_n = 300-400 kJ/m^2$ (plastikligi va qovushqoqligining pasayishiga sabab shuki, bu po'lat marganets o'rniga nikel bilan legirlangan).

5XHT po'latida bo'shatish jarayonini susaytiruvchi elementlar (molibden va volfram) bo'lmaganligidan, bu po'lat 550°C da bo'shatilganda uning puxtaligi pasayib, plastikligi ancha ko'tariladi.

Asosan 600°C haroratda mexanik xossalari kompleksi eng yuqori bo'lgan po'lat 5XHM markali po'latdir. Qizigan holatdagi puxtaligi jihatidan 5XGM va 5XHCB po'latlari 5XHM po'latidan ustun turadi, ammo ularning qovushqoqligi 5XHM po'latinikidan pastroqdir. Ma'lumki, molibden bilan volfram martensitning parchalanish jarayonini kechiktiradi, 5XHT markali po'latda esa bu

elementlar bo‘lmaydi, shuning uchun uning 600°C dagi puxtaligi past bo‘ladi. Bo‘shatish vaqtida mo‘rtlashuv darajasi 5XHT po‘latida yuqori, 5XHM va 5XHCB po‘latlarida esa past bo‘ladi. Toblanish chuqurligi 5XHCB po‘latida eng yuqori, 5XGM po‘latida undan past. 5XHM po‘latida 5XGM po‘latinikidan pastroq, 5XHT po‘latida esa eng past bo‘ladi. Molibden bilan volfram po‘latning termobardoshligini oshiradi, demak, 5XHT po‘latining termobardoshligi qolgan po‘latlarnikidan past bo‘ladi (agar po‘lat tarkibida molibden, volfram, vanadiy, titan va boshqa elementlar bo‘lganida juda ham e‘tiborli bo‘lar edi).

5XHT va 5XHCB po‘latlaridan tashqari, 5XHB markali po‘lat ham bo‘lib, kimyoviy tarkibi quyidagicha bo‘ladi: 5XHB po‘lati 0,5-0,6%C, 0,15-0,35%Si, 0,5-0,8%Mn, 0,5-0,8%Cr, 1,4-1,8%Ni, 0,4-0,6%W, 0,03%P, 0,03%S dan iborat.

Amaliyotdan ma‘lumki, shtamlarga termik ishlov berish (toblash va bo‘shatish) nihoyatda mas‘uliyatli va murakkab ish hisoblanadi. Shtamlarni Ac₃ kritik nuqtadan 20-40°C yuqori haroratgacha qizdirilib, so‘ngra moyda toblanadi. Toblangan shtamlar, masalan, 5XHM po‘latidan yasalgan shtamlar (bolg‘a shtamlari), shtampning o‘lchamiga qarab, 480-580°C haroratda bo‘shatiladi.

Qiziydigan shtamp po‘latlarini toblash va bo‘shatish haroratlari 3.5-jadvalda ko‘rsatilgan.

3.5-jadval

Qiziydigan shtamp po‘latlarini toblash va bo‘shatish haroratlari (bu o‘rtacha o‘lchamli shtamlar uchun)

Po‘lat markasi	Po‘latni toblash usuli		Po‘latni bo‘shatish usuli	
	qizdirish harorati, °C	qattiqligi, HRC	qizdirish harorati, °C	qattiqligi, HB
5XHM	830-850	54-58	530-550	364-402
5XGM	830-850	54-58	530-550	364-402
5XHГ	830-850	54-58	530-550	364-402
5XHT	830-850	54-58	485-510	364-402
5XHCB	850-870	55-59	530-550	364-402


Endi presslash asboblari va gorizontol-bolg‘alash mashinalari bilan tanishib chiqamiz. Presslash asboblari va gorizontol-bolg‘alash mashinalarining shtamlari ko‘proq legirlangan po‘latlardan, masalan, 3X2B8, 4X5B2ΦC ЭИ-9581, 4X2B5ΦM (ЭИ-959), 4X3B2 Φ2 M2 (ЭP-1) po‘latlaridan tayyorlanadi, bu po‘latlarning kimyoviy tarkibi 3.6-jadvalda keltirilgan.

3.6-jadval

Presslash asboblari va gorizontol-bolg‘alash mashinalarining shtamlari tayyorlanadigan po‘latlarning kimyoviy tarkibi

Po‘lat markasi	Elementlar miqdori, % hisobida						
	C	Si	Mn	Cr	W	Mo	V
3X2B8	0,3-0,4	≤0,35	0,2-0,4	2,2-2,7	7,5-9,0	-	-
4X5B2ΦC	0,35-0,45	0,8-1,2	0,15-0,4	4,5-5,5	2,4-2,6	-	0,8-1,2
4X2B5ΦM	0,35-0,45	0,15-0,35	0,15-0,4	2,0-3,0	4,5-5,5	0,6-1,0	0,6-1,0
4X3B2Φ2M2	0,35-0,45	0,15-0,35	0,3-0,5	3,0-3,7	2,0-2,7	2,0-2,5	1,5-2,0

3.6-jadvalda keltirilgan po‘latlar ichida eng ko‘p ishlatiladigani 3X2B8 po‘latidir. 3X2B8 po‘latidan yasalgan shtamp 1100°C gacha qizdirilib, so‘ngra toblanadi. Bunda shtamp po‘latining strukturasi martensitdan va ozroq miqdor qoldiq austenit bilan ortiqcha karbidlardan iborat bo‘ladi; po‘latning qattiqligi Rokvel pribori bo‘yicha HRC51-52 ni, mustahkamlik chegarasi esa $\sigma = 1600 \text{ Mn/m}^2$ ni tashkil etadi. 3X2B8 markali po‘lat xossalari bo‘shatish haroratiga va sinash haroratiga qarab o‘zgarishi grafik (3.11-rasmda) keltirilgan. 3X2B8 po‘latining qattiqligi kabi, uning puxtaligi ham po‘lat bo‘shatish haroratigacha (650°C) qizdirilganda juda kam o‘zgaradi (3.11-rasm, chapdagi grafik), demak, 3X2B8 po‘lati va shu xildagi boshqa po‘latlar issiqbardosh po‘latlardir. Buning sababi shuki, ular volfram va molibden bilan legirlangan, bu elementlar esa 650°C dan yuqori haroratlardagina koagullanuvchi karbidlar (M_6C) hosil qiladi. Shuning uchun po‘latning puxtaligi va qattiqligi ham baland (650°C gacha) haroratlarda (3.11-rasm, o‘ngdagi grafik) yuqori bo‘ladi.



3.11-rasm. 3X2B8 markali po‘latining xossalarini bo‘shatish va sinash haroratlariga qarab o‘zgarishini ko‘rsatuvchi egri chiziqlar.

Qizdirib turib presslash asboblarning detallari tayyorlash uchun 3X2B8, 4X5B2ΦS, 4X2B5ΦM va 4X3B2Φ2M2 po‘latlaridan boshqa po‘latlar ham ishlatilishi mumkin. Masalan, ish vaqtida kamroq qiziydigan, kamroq bosim ta’sirida bo‘ladigan matritsalar, teshish va qoliplash puansonlari (uncha uzun bo‘lmagan, kichikroq diametrlilik puansonlar) 5XHM yoki 30XГC po‘latidan tayyorlanadi. Katta solishtirma bosim va yuqori harorat ta’sir etadigan puanson va matritsalar 3X2B8 po‘latidan yoki shu xildagi po‘latlardan tayyorlanishi kerak.

Zarb ta’sirida ishlaydigan asboblarning uchun ham 3X2B8 po‘lati o‘rniga 5XHM yoki 4X5B2ΦC po‘lati ishlatish lozim, chunki ularning qovushqoqligi 3X2B8 po‘latidan yuqori bo‘ladi. Bu borada professor A.P.Gulyaev, S.L.Rustem va boshqa olimlarning ilmiy ishlari va o‘tkazgan barcha eksperimentlari maqtovga sazovordir.

Yuqorida nomlari qayd etilgan shtamp po‘latlardan tashqari, yana 400-500°C dan yuqori haroratgacha qizimaydigan shtamplar 7X3 markali po‘latdan ham tayyorlanishi mumkin (7X3 po‘latining kimyoviy tarkibi 3.1-jadvalda berilgan). Ammo bu po‘latning kamchiligi shundaki, u ko‘rsatilgan haroratdan yuqorigacha qizimaydi, mabodo qizigan taqdirda ham unda darzlar paydo bo‘lishi mumkin.

Gorizontal-bolg‘alash mashinalarining hamda press shtamplarining 3X2B8 va boshqa po‘latlardan yasalgan detallarini termik ishlash ularni ma’lum haroratgacha qizdirib, moyda toblash va

ma'lum haroratda bo'shatishdan iborat. Ularni termik ishlash rejimlari 3.7-jadvalda keltirilgan.

3.6-jadvalda keltirilgan po'latlar markalaridan tashqari, presslash asboblarning detallarini tayyorlash uchun boshqa po'latlar markalarini ham qizdirib ishlatilish mumkin.

3.7-jadval

Gorizontal-bolg'alah mashinalari va press shtamplarining detallari tayyorlanadigan po'latlarni toblash va bo'shatish haroratlari

Po'lat markasi	Po'latni toblash usuli		Po'latni bo'shatish usuli	
	qizdirish harorati, °C	qattiqligi, HRC	qizdirish harorati, °C	qattiqligi, HB
3X2B8	1000-1065	49-52	600-620	402-474
4X5V2AC	1050-1080	53-56	580-620	387-430
4X2B5ΦM	1050-1080	53-56	600-650	387-402
4X3B2Φ2M2	1050-1080	53-56	600-620	387-402

Buning uchun presslash asboblarning detallari ish vaqtida kamroq qiziydigan, kam bosim ta'sirida bo'ladigan matritsalar, teshish va qoliplash puansonlari (uzun bo'lmagan) tarkibida xrom, nikel, molibden, marganets va boshqa elementlar bo'lgan po'latlardan tayyorlanadi. Bunday tashqari, katta solishtirma bosim va yuqori harorat ta'sir etadigan puanson va matritsalar ham shu xildagi po'latlardan tayyorlanishi mumkin, ammo zarb ta'sirida ishlaydigan asboblarning uchun tarkibida yuqoridagi elementlardan tashqari, bor, vanadiy va boshqalar qo'shiladi.

Bosim ostida quyish press-qoliplari detallari ishining harorat rejimi va qiziydigan shtamp detallari ishining harorat rejimi bir-biriga o'xshash bo'lganligidan press-qolip detallari ham qiziydigan shtamp detallari yasaladigan po'latlardan tayyorlanadi va tegishli joylarda qo'llaniladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, qizimaydigan va qiziydigan shtamp po'latlarining kimyoviy tarkibi, mexanik xossalari, toblash va bo'shatish haroratlari va qattiqliklari keltirildi hamda ularning qo'llanilish joylari haqida to'liq ma'lumotlar berildi.


3.3.1. Listli materiallarni shtampovkalash usullari

Odatda, listli materiallarni shtamplash uchun qalinligi yuqaroq ingichka, o'rta va kattaroq qalinlikka ega metall listlardan foydalaniladi. Ular maxsus shtamp presslarida shtamplanadi va kerakli buyumlar olinadi.

Endi listli materiallarni o'rganishga kirishishdan avval ularning ta'rifini bilib olaylik. *Har xil listlar, lentalar, polosalar holatidagi yupqa qalinligi 100 mm gacha bo'lgan plastik metallar va ularning qotishmalaridan hamda metallmas materiallardan turli xil shaklli va o'lchamli buyumlar tayyorlash texnologik jarayoniga listli materiallarni shtamplash deb ataladi.*

Amaliyotdan ma'lumki, listli materiallardan asosan avtotraktormashinasozligida 50-60% va asbobsozlikda 70-80% gacha xilma-xil ko'rinishdagi buyumlar yoki detallar shtamplab olinadi. Buning sababi shuki, listli materiallarni shtampovkalashda judayam aniq shaklli va o'lchamli, bir tekis yuzali metall buyumlar sovuqlayin shtamplab olinadi, shu bois bu usulning ish unumdorligi ancha yuqori hisoblanadi.

Ishlab chikarish sharoitida listli materiallarni shtamplash yuli bilan buyumlarni tayyorlash texnologik jarayonlari ikki boskichga ajratiladi: 1-listli materiallardan zagotovkalar tayyorlash; 2-tayyorlangan zagotovkalarini shtamplab kutilgan shaklga keltirish. Shuning uchun avvalo, listli materiallaridan kerakli zagotovkalar tayyorlanadi va keyin qanday shakl kerak bo'lsa, zagotovkani shtamplab shu shaklga keltiriladi. Quyida rulonli va metall listli materiallarining (3.12-rasm) umumiy ko'rinishlari keltirilgan.



3.12-rasm. Turli xil metall listli materiallarning umumiy ko'rinishlari.


Ko‘pchilik hollarda listli materiallaridan zagotovkalar tayyorlashda olinuvchi metall buyumlar o‘lchamiga qarab, kam chiqindi chiqishiga alohida e‘tibor berish kerak, chunki ish jarayonida qanchalik e‘tiborli bo‘lsa, oqilona yondashib bichilsa, shu zagotovkadan qanday foydalanilganligi va uni alohida ajratilganligi materialdan foydalanish koeffitsiyenti (K_f) yordamida aniqlash mumkin:

$$K_f = n \cdot F / B \cdot L$$

bu yerda n – zagotovka soni; F – zagotovkaning ko‘ndalang kesimi yuzi, mm^2 ; B – zagotovkaning eni, mm ; L – zagotovkaning uzunligi, mm . Demak, bunday holatda

$$K_f = 0,75 - 0,8 \text{ ga teng bo‘la oladi.}$$

Metall listlardan zagotovkalarni ajratib olishda ko‘proq foydalaniladigan pichoq tig‘i va qiyaroq gilotina hamda diskli qirqish mashinalaridan ishlatiladi. Masalan, o‘tkir metall pichoq tig‘li gilotina (3.13-rasm,a,a¹), metall kesish jarayoni (3.13-rasm,b,b¹), metall kesuvchi qaychi (3.13-rasm,d), pichoqli (3.13-rasm,e) va diskli (3.13-rasm,f) qirqish mashinasida metall listlar juda ko‘plab kesiladi.




3.13-rasm. Metall qirqish dastgohlari: **a,a¹**-metall kesuvchi gilotina; **b,b¹**-metall kesish jarayoni; **d**-metall kesuvchi qaychi; **e**-metall listlarni o‘tkir pichoqli gilotinada kesish; **f**-metall listlarni diskli mashinada kesish usullari.

Agar gilotina qirqish dastgohida zagotovkani ajratib olishda kerakli kuchlarni quyidagicha aniqlash mumkin bo‘ladi:

$$P = 1,25 \cdot 0,5 \cdot s^2 \cdot \tau_{kr} / \operatorname{tg} \alpha, \text{ H (кГ)}$$

bu yerda 1,25 – pichoqning o‘tmaslanish koeffitsiyenti; s – material qalinligi, mm; τ_{kr} – materialning qirqishga qarshiligi, MPa, u odatda, 0,8-0,9 δ_v ga teng; α – ustki pichoqning qiyalik burchagi, gradusda bo‘ladi.

Metall listlardan turli xil shaklli va o‘lchamli shakldor zagotovkalar kesilishi yoki o‘yib tushirilishi mumkin. Masalan, metall listdan berk kontur bo‘yicha aylana, kvadrat yoki boshqa shakldagi zagotovkalarni o‘yib tushirish kerak bo‘lsa, u puanson va matritsalardan foydalanib presslarda ajratib olinadi (3.14-rasm,a,b). Bunda zazor puanson o‘lchami hisobiga zagotovkaning o‘lchamidan 5-10% kichikroq, matritsa ko‘zi o‘lchami esa zagotovka o‘lchamiga teng qilib olinadi.



3.14-rasm. Metall listlarni o‘yib tushirish (a) va teshik ochish (b) jarayonlari.

Metall listlardan teshik ochishda esa zazor matritsa o‘lchami hisobiga olinadi. Bunday ishlarni bajarishda kerakli kuch qiymati quyidagicha hisoblab topiladi:

$$P = 1,25 \pi d s \tau_{kr}, \text{ H (kg)};$$

$$P = 1,25 L s \tau_{kr}, H \text{ (kg)}.$$

bu yerda 1,25 – puanson va matritsa kesuvchi tig‘larning o‘tmaslanish koeffitsiyenti; d – o‘yib tushirilgan zagotovka diametri, mm; L – o‘yib tushirilgan zagotovka perimetri, mm; τ_{kr} – metallni qirqishga qarshiligi, MPa.

Listli materiallarni kesishda puanson va matritsa kesuvchi pichoq tig‘larining o‘tmaslanish koeffitsiyenti, metallni o‘yib tushirish diametri va perimetri hamda metallni qirqishga qarshiligi hisobga olinishi kerak. Shundagina bir tekis yuzali buyumlar kesib olinadi.

Ko‘pchilik temirchilik tsexlarida va shunga o‘xshash korxonalarda asosan mexanik, gidravlik, bug‘-havoda ishlovchi, krivoshipshatunli, friksion va boshqa yangi zamonaviy presslardan unumli foydalaniladi. Bu presslar odatda, bir stoykali bir polzunli oddiy krivoshipli press va ikki polzunli murakkabroq krivoshipli press holatida ishlaydi.

List metallarni shtamplash presslarida turli xil ishlar bajariladi, ya’ni ularda har xil shaklli va o‘lchamli list zagotovkalari yoki bo‘lmasa, tayyor metall buyumlar presslanib-shtamplanib olinadi. Shtamplash presslarida shtamplab olingan buyumlarning sifati va puxtaligi ancha yuqori bo‘ladi.

Bukish operatsiyasi – materialga bukib ishlov berishda kutilgan shakldagi buyum olish uchun zagotovkani matritsa ustiga qo‘yib, shakldor puanson bilan siqib-ezib matritsa ko‘ziga o‘tkazishda uning pallalari yig‘ilib, kutilgan shaklga keladi. Bunda puansonga qo‘yiluvchi kuch quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$P = 0,7 B \cdot S^2 \cdot \sigma_b / r+s, H \text{ (kg)}$$

bu yerda B – zagotovka eni, mm; S – zagotovka qalinligi, mm; σ_b – materialning cho‘zilishga ko‘rsatgan qarshiligi, MPa; r – bukish radiusi, mm.

Botirish operatsiyasi – materialga bukib ishlov berishda matritsaga o‘rnatilgan doiraviy zagotovkaning markaziy qismiga puanson bilan ohista bosib, uni matritsa ko‘ziga botirib o‘tkaziladi.

Bunday ishlov berishda stakan, vtulka va boshqa ko‘rinishli buyumlar olinadi. Shunda burma hosil bo‘lmasligi uchun $D_3 / d_a = 1,2-1,3$ oralig‘ida olinishi kerak bo‘ladi.

Bo‘rt qayirish operatsiyasi – materialga qayirib ishlov berishda teshikli list zagotovkaning sirtqi konturi bo‘yicha bort hosil qiladi. Bunda bort qayirish jarayoni hosil bo‘ladi.

Bo‘rttirish operatsiyasi – materialga bo‘rttirib ishlov berishda puanson bilan elastik materialni siqib, zagotovka matritsa ko‘ziga o‘tib, kutilgan shaklli buyum hosil qiladi.


Siqish operatsiyasi – materialga siqib ishlov berishda hoval silindrik zagotovka uchini perimetri bo‘yicha siqib kichiklashtiriladi, ya’ni zagotovka siqilgan sayin kichiklashib boraveradi.

Demak, listli materiallarni shtamplash operatsiyalarining o‘z maqsadlari va vazifalari borki, ulardan turli shaklli va o‘lchamli metall list buyumlari olinadi.

Bu operatsiyalardan tashqari, listli materiallarni shtamplashning oddiy shtamplash usuli, ilgor shtamplash usuli va boshqa usullari ham mavjuddir.

Metallarni oddiy shtamplash usuli – bu usul asosan elastik materiallar yordamida shtamplashga asoslanadi. Oddiy shtamplash usuli bilan qalinligi 2,0 mm gacha bo‘lgan yuqori plastik materiallardan kichik va o‘rtacha o‘lchamdagi buyumlarni kam seriyalab olishda foydalaniladi. Quyidagi 3.15-rasm,a da konteynerdagi rezina o‘rindiqlik 3 dagi list 2 puanson 1 bilan botirilganda, u zagotovkani puansonga siqib, kutilgan shaklga keltiradi.

Keyingi 3.15-rasm,b da poliuretanning puanson 1 bilan cho‘zib botirishi ko‘rsatilgan, 3.15-rasm,d da metall listni puanson bilan botirib 1 shtamplash jarayoni havola etilgan, 3.15-rasm,e da esa metall listni bosqich bilan bosim ostida ishlov berib, kutilgan shaklga o‘tkazish jarayoni tasvirlangan.



3.15-rasm. Metallarni oddiy shtamplash usullari: **a**-rezina bilan shtamplash; 1-puanson; 2-list; 3-rezina o‘rindiqli; **b**-poliuretanni puanson bilan cho‘zib botirish: I-holda: 1-puanson; 2-detaly; 3-matritsa; 4-turtki; 5-shtok; 6-rezina bufer; II-holda: 1-tashqi polzun; 2-puanson tutkich; 3,6-matritsa; 4-ichki puanson; 5-detaly; **d**-botirish bilan shtamplash; 1-opravka; 2-zagotovka; 3-tirak; 4-bosqich; **e**-bosib shtamplash jarayonlarining ko‘rinishlari.


Oddiy shtamplash usulida ko‘proq plastik materiallardan kichikroq va o‘rtacharoq shakl va o‘lchamlardagi detallar yoki buyumlarni juda kam seriyalab ishlab chiqarishda foydalaniladi. Bu usul asosan rezina bilan shtamplash, poliuretanni puanson bilan cho‘zib botirib shtamplash, botirish bilan shtamplash, bosib shtamplash va zagotovkani bosqich bilan bosib kutilgan shaklga keltirish jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Metall zagotovkani bosqich bilan bosib kutilgan shaklga keltirish usulida zagotovkani u bilan birga aylanuvchi yog‘och opravkaga bosqich bilan siqib borib, u opravka shakliga o‘tkaziladi. Bu usul bilan ishlaganda zagotovka qalinligi o‘zgarishi ham, o‘zgarmasligi ham mumkin, bu holat zagotovkani qanchalik kuch bilan siqish yoki ezish darajasiga ham bog‘liq bo‘ladi (3.15-rasm, g ga qarang).

Metallarni ilg‘or shtamplash usuli – bu usul asosan zagotovkani portlovchi moddalar kuchida shtamplashga asoslangan. Bunda portlovchi moddalar sifatida porox, trotil, bizant va boshqalardan foydalaniladi. Quyidagi 3.16-rasm, a dan ko‘rinib turibdiki, shtamplashni boshlashdan oldin suv bilan to‘ldirilgan basseyndagi matritsa 6 ustiga list o‘rnatiladi. Qisqich 3 bilan siqilgach, matritsa 6

o‘yig‘idagi havo trubka 5 orqali suriladi va osilgan detanatorli zaryad portlatiladi. Hosil bo‘lgan kuchli energiya suvda katta bosimli to‘lqin berib, bu to‘lqin zagotovkani matritsa tomon siqib, shtamplaydi. Ilg‘or shtamplash usulida qimmatbaho asbob-uskunalar va priborlar talab etilmaydi, bu usul shunisi bilan ham unumli usul hisoblanadi.

Ilg‘or shtamplash usulida yana elektrogidravlik shtamplash usuli ham borki, bu portlatib shtamplash usuliga juda o‘xshash bo‘lib, shtamplashda hosil qilingan elektr zaryadi suv to‘lqiniga o‘tib, zagotovkani matritsaga shtamplaydi. Quyidagi 3.16-rasm, b da zagotovka matritsa 1 ga qo‘yilib, chekkasi korpus 2 bilan siqiladi, so‘ngra matritsa o‘yig‘idan havo so‘rilib, korpus suv bilan to‘ldiriladi, undan keyin elektrod 3 orqali elektr impulsi hosil qilinadi. Bu payt suvda zarblovchi to‘lqin hosil bo‘lib, u zagotovkani matritsaga shtamplaydi. Suyuqlik bilan shtamplash jarayoni 3.16-rasm, d da ko‘rsatib o‘tilgan. Suyuqlik bilan shtamplashda plunjer 1 qisqich 2 bilan o‘zaro harakatga kelib, suyuqlik 3 va rezina g‘ilof 4 bilan zagotovka 5 ni matritsa 6 ga jo‘natadi, natijada suyuqlik bilan shtamplash jarayoni o‘tib, tayyor detal hosil bo‘ladi.



3.16-rasm. Metallarning ilg‘or shtamplash usullari: **a**-portlatib shtamplash: 1-detanator zaryad; 2-suv; 3-qisqich halqa; 4-zagotovka; 5-trubka; 6-matritsa; **b**-elektrogidravlik shtamplash: 1-matritsa; 2-korpus; 3-elektrod; 4-kontakt kurulma; 5-to‘g‘rilagich; **d**-suyuqlik bilan shtamplash: 1-plunjer; 2-qisqich; 3-suyuqlik; 4-rezina g‘ilof; 5-zagotovka; 6-matritsa; 7-detal ko‘rinishlari.

Metallarga bosim bilan ishlov berish sexlarida xavfsizlik texnikasi va qoidalarini bilish hamda ularga rioya qilish holatlari. Ishlab

chiqarish zavodlari va korxonalarining ishchilari, muxandis-texnik xodimlari va rahbarlari doimo xavfsizlik texnikasi va qoidalariga qat'iy ravishda rioya qilishlari zarur, bu barcha ishlab chiqarish tsexlari va uchastkalarini o'z ichiga oladi. Ayniqsa, quymakorlik tsexi, mexanika, termik ishlov berish, metallarga bosim bilan ishlov berish va boshqa turdosh sexlar shular jumlasiga kiradi.

Metallarga bosim bilan ishlov berish tsexlarida zagotovkalarni kesishda, avval ularni ma'lum haroratgacha qizdirib, so'ngra bolg'lash va presslashda qator mashinalar, qurilmalar, asbob-uskunalar, moslamalar va boshqalar bilan tsexlari bevosita munosabatda bo'linadi. Shu sababli avvalo, ularni to'g'ri ishlatish tartiblari va qoidalarini bilishlari, ishga to'g'ri rostdashlari, harakatlanuvchi qismlarini himoyalash, oyoq ostida pokovkalar sochilib betartib yotmasligi va ishga halaqit bermasligi kerak.

Ishga kerakli zarur asboblardan, moslamalar, jihozlardan, anjomlardan tegishli joylarda bo'lishi, ishchi korjoma, maxsus kiyimlar, ochkilar va qo'lqop kiyib ishlashlari lozim. Tsex sharoitlarida ajraladigan kuyindining tashqariga ko'p miqdorda chiqib ketishining oldini olishga alohida ahamiyatli bo'lish va qat'iy e'tibor berish kerak. Ishlab chiqarish tsexlarini doimo yorug' tutish, toza va ozodalikka rioya qilish va vaqti-vaqti bilan shamollatib turish zarur, har bir tsexdagi dushlar va boshqa zaruriy joylar har doim normal ishlab turishi kerak.

Ishchi xodimlar ishni boshlashdan avval texnika xavfsizligi qoidalaridan o'tishlari, uni bilishlari va tushinishlari kerak. Ishchilar ishga kelganlarida ular uchun alohida-alohida yechinish xonalari, to'liq ish kiyimlari, qulay ish joylari, ishdan keyin esa yuvinish joylari dushlar bo'lishi lozim. Ishchi ish joyiga kelganida avvalo stanokning sozligini, asboblarning yaroqliligini va texnika xavfsizligini tekshirish kerak, undan keyin ishni boshlash mumkin. Stanok atrofida metall yoki metallmas bo'laklar, moylar, tez yonuvchi yoki alanga oluvchi materiallar, portlovchi moddalar va boshqa zararli elementlar bo'lmasligi lozim. Ishchi ishni tamomlagandan so'ng stanok ishchi qismlarini artib, tozalab, zaruriy joylarini moylab qo'yishi kerak. Shundagina stanoklar ertangi ishga tayyor holatda

turadi. Ishchi xodimlar (muhandislar va rahbarlar) vaqti-vaqti bilan texnika xavfsizligidan o'tishlari kerak, bu barcha ishlab chiqarish xavfsizligini ta'minlaydi va ish unumini anchaga oshiradi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan xulosa qiladigan bo'lsak, zavod yoki korxonaning quymakorlik tsexi, mexanika tsexi, termik ishlov berish tsexi, payvandlash va qoplama qoplash tsexlarida ishlovchi ishchilar texnika xavfsizligiga qat'iy e'tibor bergan holda albatta har kuni maxsus brezent kiyim-boshlarni, oyoq kiyimlarni, qo'lqoplarni kiyib, ochkilarni taqib, ehtiyot choralarni ko'rib ishlashlari kerak, bu ularning xavfsizligini ta'minlaydi va turli xil noxush voqealarning oldini oladi. Zavod yoki korxonaning territoryasiga kirgan har bir ishchi – xodim ayniqsa, ishchilar albatta texnika xavfsizligiga rioya qilgan holda yuqorida nomlari qayd etilgan inventarlarni, ya'ni kiyimlar va qo'lqoplarni kiyib, ko'zlariga ochkilarni taqib, nihoyatda ehtiyot bo'lib ishlashlari shart. Shundagina barcha texnik xavfsizliklardan holi bo'ladi.

3.4. Metall materiallarni erkin kovkalash

Quymakorlik usulida quyib olinadigan quyma pokovkalar yoki prokat zagotovkalaridan olinadigan pokovkalar turli xil shaklli va o'lchamli ko'rinishlarda bo'ladi. Pokovkalar har xil shaklli va o'lchamli bo'lib, ularning og'irligi bir necha grammdan, toki bir necha tonnachaga (masalan, 5-450 gr gacha, 10-100 kg gacha va 250-350 t gacha) va undan ham ortiq bo'lishi mumkin. Bu yerda shuni eslatib o'tish kerakki, odatda, katta o'lchamli pokovkalar quymakorlik usulida quyib olinadi, o'rta va kichik o'lchamli pokovkalar esa prokat zagotovkalaridan tayyorlanadi. Har bir pokovka ishlatiladigan joyiga va maqsadiga qarab, belgilangan joylarda foydalaniladi. Texnologik ishlov berish natijasida hosil qilingan buyumlarga pokovka deb ataladi. Pokovkalarni har xil asboblarda yordamida bolg'alab yoki erkin bolg'alab, kerakli zaruriy ishlovlar berib turli buyumlar yasaladi.

Endi materiallarni erkin bolg'alash usuliga quyidagicha ta'rif beramiz: «Plastik holatdagi materialni bolg'a muhrasi va tegishli


asboblardan zarblab urib yoki press muhrasining bosimi ta'sirida kutilgan shaklli va o'lchamli buyumlar (yoki detallar) olish texnologik jarayoniga erkin bolg'alash deb ataladi».

Insonlar juda qadimdan materiallarni bolg'alash usullari bilan tanish bo'lganlar. Ammo shunga qaramay, bugungi kunda ham bolg'alash usullari yordamida metall buyumlarni donalab yoki juda kam seriyada ishlab chiqaruvchi korxonalarda keng qo'llaniladi. Ayrim ishlab chiqarish zavod – korxonalarida metallarni bolg'alash presslari yordamida buyurtmachilar talabiga ko'ra pokovka buyumlari donalab yoki ko'proq donalab tayyorlanib berishi mumkin, lekin seriyalab ishlab chiqarilmaydi. Buning sababi shuki, jarayon juda murakkab, qiyin va qo'l mehnatini ko'p talab qiladi hamda ish unumdorligi juda past bo'ladi, shu bois bu usuldan kam foydalaniladi.

Materiallarni bolg'alash usuli mexanizatsiyalashganlik darajasiga ko'ra dastaki va mashinalarda bolg'alash turlariga bo'linadi: 1-metallarni dastagi bolg'alashda mayda prokat zagotovkasini tajribali usta bir uchini chap qo'lidagi qisqich bilan qisadi, sandon ustiga qo'yadi, o'ng qo'lidagi bolg'acha bilan ura boshlaydi, shogirdiga esa kuvalda bilan urush joyini ko'rsatadi, shogirdi ustozi ko'rsatgan joyga kuvalda bilan uradi va natijada kutilgan shaklli va o'lchamli buyum tayyorlanadi (*eslatma*: buyumni tayyorlaydigan usta yoki ustalar nihoyatda sog'lom, baquvvat va kuchli bo'lishlari kerak).

Metallarni bolg'alashda tegishli ishlarni bajarish uchun turli xil asboblardan, masalan, bolg'alar, qisqichlar, tekislagichlar, sandonlar, zubilalar, metall qaychilar, ombirlar, kleshikilar (3.17-rasm) va boshqalardan unumli foydalaniladi; 2-metallarni mashinalarda bolg'alashda asosan mashinasozlik zavodlari yoki kichik temirchilik tsexlarida zagotovkalardan kichik va mayda hajmli pokovkalar olishda foydalaniladi. Pokovkaning shakli va o'lchamlari buyum qo'llaniladigan joyga bog'liq bo'ladi.

Metallarni bolg'alashda qo'llaniladigan barcha asboblardan va uskunalardan soz va ishga yaroqli bo'lishi kerak, shunda ish unumi juda yaxshi bo'ladi.



3.17-rasm. Metallarni dastaki bolg‘alashda ishlatiladigan har xil asboblarning ko‘rinishlari: **a**-bolg‘a; **b**-bosqon; **d**-sandon; **e**-ombirlar, **f**-silliqlagichlar; **g**-qisqichlar; 1-ustki; 2-ostki; **h**-podboykalar; 1-ustki; 2-ostki; **i**-zubilalar.

Metallarni qizdirishda ko‘proq gazli pechlardan (yoki kam hollarda elektr pechlaridan) foydalaniladi. Tajribali va malakali usta kerakli me'yorigacha qizigan metallni pechdan ombir yoki kleshi yordamida chiqarib oladi va sandon ustiga qo‘yadi. Qizigan metall tez sovib qolmasligi uchun usta va uni shogirdi tezlik bilan qo‘lda bolg‘alaydi va chizma talabiga ko‘ra kutilgan shakl va o‘lchamga keltiradi (agar metall sovib qolsa, bu jarayon bir necha marta qaytariladi, ya’ni metall qayta-qayta qizdiriladi va bolg‘alanadi). Pokovkadan yasalgan metall buyumlar sifati usta tajribasiga va malakasiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun zavod yoki korxonalar tsexlarida ham, temirchilik tsexlarida ham yoki kichik ta’mirlash ustaxonalarida ham tajribali va malakali temirchi ustalar ishlagani ma’qulroq, chunki ular sifatli bolg‘alangan metall buyumlar tayyorlashni biladilar.

Materiallarni erkin bolg‘alashga quyidagi asosiy operatsiyalar kiradi:

1-cho‘ktirish operatsiyasi. Bunda metall zagotovka bo‘yiga kichraytirilib, buning hisobiga ko‘ndalang kesim o‘lchamlari kattalashtiriladi (3.18-rasm,a). Bu operatsiya bilan ishlov berishda metall zagotovka bo‘yicha egilmasligi uchun uni bo‘yi diametridan yoki qalinligidan 2-2,5 martadan ortiq olinmasligi lozim. Odatda kesim yuzi kvadrat va to‘g‘ri to‘rt burchakli zagotovkalarni boshqa kesimli shaklga o‘tkazishda ularni avvalo, yumaloq shaklga o‘tkazish uchun harakat qilishga va eng kichik perimetr qoidasi bo‘yicha ishlov berishga cho‘ktirish deb ataladi.

Bu operatsiya bo‘yicha ishlov berilganda kutilgan maqsad va natijalarga tezroq erishiladi.

Agar zagotovkaning ayrim joylari cho‘ktirilsa, bunday ishlov berishga mahalliy cho‘ktirish deb ataladi. Bu ishlovda zagotovkaning cho‘kish koeffitsiyenti qiymatini quyidagi formuladan aniqlash mumkin:

$$K_r = H / h \quad (3.3)$$

bu yerda H – zagotovkani cho‘ktirilguncha balandligi, mm;

h – zagotovkani cho‘ktirilgandan keyingi balandligi, mm.

Zavod yoki korxonalar sexlarida yoki temirchilik ustaxonalarida mas’uliyatli pokovkalarni olishda $K_r = 3-5$ va undan ham ortiqroq bo‘lishi mumkin;

2-cho‘zish operatsiyasi. Bunda metall zagotovkaning ko‘ndalang kesim o‘lchamlari hisobiga bo‘yi uzaytiriladi (3.18-rasm,b). Bunday ishlov berishda zagotovkaning ko‘ndalang kesimi cho‘zil-magan joyini ketma-ket cho‘zishda uni o‘qi atrofida aylantirilib boriladi.

Agar zagotovkaning bir joyigina cho‘zilsa, unga mahalliy cho‘zish deb ataladi. Bu ishlovda uzayish koeffitsiyenti quyidagi formuladan aniqlash mumkin:

$$K_y = L / l \quad (3.4)$$

bu yerda L – zagotovkani cho‘zilgandan keyingi uzunligi, mm;
 l – zagotovkani cho‘zgungacha uzunligi, mm.

Zavod yoki korxonalar sexlarida yoki temirchilik ustaxonalarida zagotovkalardan pokovkalarni olishda $K_y = 1,3-2$ oralig‘ida bo‘lishi mumkin;

3-teshish operatsiyasi. Bunday ishlov berishda zagotovkadan ma’lum hajmdagi metall teshgich asbob bilan siqib chiqarilib, teshik ochiladi (3.18-rasm,d). Zaruriyatga ko‘ra qalin metallda teshik teshiladigan bo‘lsa, oldin zagotovkaning bir tomonidan chuqurcha qilinadi, so‘ngra orqa tomonidan ishlov berilib teshik ochiladi. Amaliyot tahlillariga qaraganda, zagotovka diametri 50 mm dan kichik teshiklar ochish iqtisodiy tomondan ma’qul emas;


4-raskatkalash operatsiyasi. Odatda, halqali zagotovka teshik-chani kattalashtirish uchun raskatkalanadi. Buning uchun maxsus opravkaga kiydirilgan zagotovka uzluksiz aylantirish yo‘li bilan zarblanadi. Shunda metall zagotovkalar to‘liq raskatkalanib bo‘ladi, raskatkalangan metall buyumlardan foydalanish mumkin;

5-bukish operatsiyasi. Bunda metall zagotovka maxsus shtamp bo‘shlig‘i konturi bo‘ylab eguvchi mashinalarda bukiladi (3.18-rasm,e);

6-burash operatsiyasi. Bu operatsiyada metall zagotovkaning bir qismini ikkinchi qismiga nisbatan maxsus moslamalarda o‘qi bo‘yicha ma’lum burchakka buriladi (3.18-rasm,f);

7-kesish operatsiyasi. Bu ishlovda o‘lchamlari katta bo‘lgan zagotovka bir necha mayda bo‘laklarga kesib ajratiladi (3.18-rasm,g). Bu ishlov berishni bajarishda temirchilik boltalari va zubilaridan unumli foydalaniladi;

8-payvandlash operatsiyasi. Bu ishlovda kam uglerodli po‘latlarning zagotovkalarini 1100-1300°C haroratgacha qizdirilgandan so‘ng, ularni ustma-ust, qiya kertilgan yuzalari bo‘yicha yoki uchma-uch qilib payvandlash uchun po‘lat zagotovkalarining tashqi yuzalari chang, kir, moy va zanglardan tozalangach, bolg‘a yoki press ostida siqiladi (3.18-rasm,h). Odatda, tashqi yuzalari chang, kir, moy va zanglardan tozalangan po‘latlarni – metallarni uchma-uch qilib, siqib payvandlash mumkin, shunda ikkala metall bir-biriga yaxshi birikib payvandlanadi.



3.18-rasm. Metall zagotvokalarining asosiy bolg‘alash operatsiyalari: **a**-cho‘ktirish; **b**-cho‘zish; **d**-teshish; **e**-bukish; **f**-burash; **g**-kesish; **h**-payvandlash jarayonlarining ko‘rinishlari.

Demak, materiallarni erkin bolg‘alash operatsiyalariga cho‘ktirish, cho‘zish, teshish, bukish, burash, kesish, payvandlash va boshqalar kiradi. Bu operatsiyalar o‘z ahamiyatiga ega bo‘lib, ulardan turli xil shaklli va o‘lchamli buyumlar tayyorlanadi va belgilangan maqsadlar uchun qo‘llaniladi.

Materiallarni erkin bolg‘alash presslari va ularda bajariladigan ishlar. Umuman mashinasozlik sanoatlarida ishlatiladigan mexanik, pnevmatik, gidravlik va boshqa nomli presslar yoki press uskunalar asosan metall zagotvokalarini turli shakl va o‘lchamga keltirish uchun xizmat qiladi. Odatda, oddiy va kam uglerodli po‘latlarning zagotvokalari sovuq yoki issiq holda chizma talabi bo‘yicha bolg‘alab presslanadi.


Metall zagotvokalarni bolg‘alarda dinamik zarb bilan kattaroq 6-7 m/s tezlikda ishlov berilsa, presslarda esa sekinroq 0,1-3 m/s tezlikda statik yuklamada katta bosim bilan ishlov beriladi.

Metall bolg‘alash presslari yoki uskunalari konstruksiyasining oddiyligi, juda oson rostlanishi, har xil tezlikda va turli kuch bilan ishlashi hamda boshqa ko‘rsatkichlariga ko‘ra ishlab chiqarish korxonalarining bolg‘alash-presslash tsexlarida juda miqdorda foydalaniladi.

Odatda, bolgʻalarning pnevmatik siqilgan havoda siqilgan bugʻ-havoda, mexanik tarzda ishlovchi va boshqa xillari boʻlsa (3.19-rasm), presslarning esa gidravlik siqilgan suvda, siqilgan bugʻ-havoda, krivoship, friktsion va boshqa xillari boʻladi (3.20-rasm).

Bolgʻalar yoki presslarning qaysi biridan foydalanish olinuvchi pokovkalar materialiga, shakli va oʻlchamlariga bogʻliq boʻladi. Masalan, mayda ogʻirligi 25-30 kg gacha boʻlgan pokovkalar olishda asosan pnevmatik bolgʻalardan, oʻrtacha ogʻirlikdagi pokovkalar olishda siqilgan bugʻ-havoda ishlovchi bolgʻalardan va yirik pokovkalar olishda esa gidravlik presslardan unumli foydalaniladi va turli xil ogʻirlikdagi har xil shaklli va oʻlchamli pokovka buyumlari olinadi.

Ishlash printsipiga qarab, bolgʻalar ham, presslar ham turli xil konstruktsiyali boʻladi. Aytaylik, siqilgan bugʻ-havoda ishlovchi bolgʻalar umumiy tuzilishiga koʻra oddiy va murakkab xillarga boʻlinadi: 1-oddiy xilli bolgʻalarda siqilgan bugʻ-havo zarb beruvchi qismlarni faqat yuqoriga koʻtarish uchun xizmat qiladi; 2-murakkab xilli bolgʻalarda esa siqilgan bugʻ-havo zarb beruvchi qismlarni faqat yuqorigagina koʻtarmay, balki pastga tushishida porshenga qoʻshimcha bosim ham beradi va bolgʻaning zarb quvvatini anchaga oshiradi. Shuning uchun bu bolgʻalar ishlab chiqarish sanoatlarining turli tarmoqlarida keng qoʻllaniladi.




3.19-rasm. Ishlab chiqarish sanoatlarida qoʻllaniladigan pnevmatik bolgʻaning umumiy koʻrinishi (a) va ishlash sxemasi (b): 1-pedal; 2-shabot; 3-yostiqla; 4-pastki boyoq; 5-ustki boyoq; 6,7-havo taqsimlovchi mexanizm; 8-ish silindri; 9-kompressor silindri; 10-reduktor; 11-elektr dvigateli; 12-ish silindri porsheni; 13-kompressor porsheni; 14-krivoship-shatunli mexanizm; 15-ustki boyoq babasi.

Pnevmatik bolg‘a (3.19-rasmga qarang), siqilgan havoda ishlashi bilan bir qatorda, uning ikkita silindri bo‘ladi, ulardan biri kompressor silindri bo‘lsa, ikkinchisi ish silindri, ular siqilgan havoni taqsimlovchi mexanizmlari orqali bog‘langan bo‘ladi. Bolg‘aning kompressor silindridagi porshenga ilgarilama-qaytma harakat elektr dvigateli, reduktor va krivoship-shatunli mexanizmi orqali uzatiladi. Bolg‘aning ishlash printsipti bo‘yicha barcha mexanizmlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir.

Bolg‘aning kompressor silindri porsheni pastga harakatlanganda uning tagidagi siqilgan havo taqsimlovchi mexanizmi orqali ish silindri porsheni tagiga o‘tib, uni yuqoriga ko‘taradi va aksincha, porshen yuqoriga harakatlanganda siqilgan havo taqsimlovchi mexanizm orqali ish silindridagi porshening yuqorisiga o‘tib, uni pastga yurgizadi. Bunda u bilan bog‘langan baba boyoq pastga harakatlanadi va pastki boyoq ustidagi zagotovkani zarblab presslaydi. Agar juda zarur bo‘lsa, ustki boyoqni havo taqsimlovchi mexanizm yordamida ko‘tarilgan yoki tushirilgan holda saqlay oladi. Bu bolg‘alardan ko‘pincha mayda pokovkalar olishda foydalaniladi, sababi bu bolg‘alarda tushuvchi qismlar massasi 75-1000 kg gacha bo‘ladi va ular minutiga 95-225 martagacha zarba beradi. Hozirgi zamonaviy bolg‘alarda esa zarba berish kuchi bularga qaraganda, bir necha barobar ko‘proqdir.

Bu bolg‘alardan tashqari, siqilgan bug‘-havoda ishlovchi bolg‘alar ham bo‘ladi (3.20-rasmga qarang). Ular umumiy tuzilishi va ishlash printsipti bo‘yicha bir stoykali va ikki stoykali ko‘rinishda yasaladi.



3.20-rasm. Ishlab chiqarish sanoatlarida qo'llaniladigan ikki stoykali bug'-havoda ishlovchi bolg'aning umumiy ko'rinishi va ishlash printsipti: 1-richag; 2-tortqi; 3-zolotnik; 4-taqsimlovchi mexanizm; 5-tsilindr; 6-porshen; 7-yo'naltiruvchi; 8-shtok; 9-bolg'a staninasi-stoykasi; 10-babasi; 11-ustki boyoq; 12-pastki boyoq; 13-po'lat plitasi shabot.

Ma'lumki, siqilgan bug'-havoda ishlovchi bolg'alar ishlash qobiliyatiga ko'ra oddiy bug' uskunasi o'xshash bo'ladi va unda ham siqilgan bug' yoki havoni ikki tomonga taqsimlovchi mexanizmi, ya'ni zolotniki bo'ladi va u bug' yoki havoni (3.20-rasm) kerakli tomonga taqsimlab turadi.

Ikki stoykali bug'-havoda ishlovchi bolg'ani ishga tushirish uchun richagni, u bilan bog'langan tortqini pastga o'tkazilganda bug' yoki havoni taqsimlovchi mexanizmi orqali 0,7-0,9 MPa bosimda silindr porsheni tagiga kirib porshenni va u bilan bog'langan shtokni, baba va ustki boyoqni yuqoriga ko'taradi va aksincha, richagni, u bilan bog'langan tortqini yuqoriga o'tkazilganda bug' yoki havoni taqsimlovchi mexanizm orqali 0,7-0,9 MPa bosimli siqilgan bug' yoki havo silindri porsheni yuqorisiga kirib porshenni va u bilan bog'langan shtokni, baba va ustki boyoqni pastga harakatlantiradi. Bunda pastga harakatlanuvchi detallar massasiga bug' yoki havo

bosimi qo‘shilib, pastki boyoq muhrasi ustida qo‘yiluvchi zagotovkani zarblaydi-presslaydi.

Bunday holatda bolg‘a harakati va uni qanday holda saqlanishi zolotnikli taqsimlovchi mexanizm yordamida boshqariladi. Ana shunday bolg‘alash uskunalarning pastga tushuvchi qismlari massasi 0,5 dan 5 tonnagacha boradi. Bu uskunalarda massasi o‘rtacha 20-350 kg va ayrim paytlarda 2-3 tonnagacha bo‘lgan pokovkalar olinadi. Bir yoki ikki stoykali bug‘-havoda ishlovchi bolg‘alarda bolg‘alanadigan zagotovka pokovkalaridan turli xil shaklli va o‘lchamli metall buyumlar tayyorlanadi. Aslida metall buyumlarni tayyorlash ko‘proq ishlab chiqarish zavod-korxonalarida, kamroq esa kichik temirchilik tsexlarida amalga oshiriladi (bunda bolg‘alarning xillari katta ahamiyatga egadir).

Bolg‘alash presslari va uskunalarida zagotovka pokovkalaridan tayyorlanadigan buyumlar ancha puxta va sifatli bo‘ladi, chunki ularning shakllari va o‘lchamlari chizma talabidagi metall buyumlar talabiga mos keladi. Bolg‘alash presslarida pokovkalardan tayyorlangan ayrim po‘lat buyumlarga turli xil mexanik ishlovlar beriladi va termik jihatdan puxtalanadi, ayrimlariga esa mexanik ishlovlar berilmaydi va termik jihatdan puxtalanmaydi, bu po‘lat buyumlarining ishlash joylariga ham bog‘liqdir. Maboda talab qilinsa, yuqoridagi ishlovlar beriladi.


Bolg‘alash presslarida pokovkalarni bolg‘alash yordamida oddiyroq va oddiy, o‘rtaroq va o‘rta kichik, yirikroq va yirik massasi 10 kg dan 400 kg gacha va undan ortiq hamda ish zaruratlariga qarab, 2-3 tonnagacha bo‘lgan buyumlarini olish mumkin. Pokovkalardan tayyorlangan buyumlarning qattiqliklari Brinell (HB) yoki Rokvellda (HRC) o‘lchanadi. Davlat ST GOST bo‘yicha po‘lat buyumlarning chizmasida ko‘rsatilgan qattiqligi necha bo‘lsa, shu talabga yetkaziladi. Po‘lat buyumlarning qattiqliklari shu po‘latlar markasiga, kimyoviy tarkibiga va mexanik xossalriga hamda struktura tuzilishlariga bog‘liqdir. Qattiqliklari chizma talabida bo‘lgan po‘lat buyumlarning puxtaligi yuqori va sifatli bo‘ladi.

3.5. Metallarni presslash va shtamplash kuchlarini aniqlash usullari

Butun ketma-ketlik bo‘ylab materiallarga ishlov berish kuchlarini kinematik mumkin bo‘lgan sirpanish chiziqlari maydoni belgilaydi. Yassi puansonni plastik yarim kenglikka kiritish holati uchun tezliklarning uzilish chiziqlari bilan hosil bo‘lgan kinematik mumkin bo‘lgan sirpanish chiziqlari maydoni 3.21-rasmda keltirilgan. Uzluk-siz sirpanish chiziqlari maydoni va unga mos keluvchi tenglama Prandtl tomonidan yechilgan. Shunda bir xil tezlikka va 0, 1, 2, 3, 4, 5 raqamlarga ega bo‘lgan uchastkalarni chegaralaydigan simmetrik sohalarni belgilash mumkin bo‘ladi, godografni qurish esa 3.21-rasmning pastki qismida ko‘rsatilgan.

Qandaydir bir 0 nuqtadan boshlab godografni qurish uchun yo‘nalish va v_1 tezlikning kattaligi bo‘yicha puansonning 0 qo‘zg‘almas sohaga nisbatan harakatiga teng bo‘lgan 01 kesma qo‘yiladi.

Godografning 0 va 1 nuqtalaridan 2 nuqtada kesishguncha sirpanish chiziqlari maydonining 0-2 va 1-2 sohalarini ajratadigan chiziq-larga parallel qilib 0-2 va 1-2 chiziqlarni o‘tkazamiz. Godografning 0 va 2 nuqtalaridan 3 nuqtada kesishguncha sirpanish chiziq-lari maydonining 0-3 va 2-3 sohalarini ajratadigan chiziq-larga parallel qilib 0-3 va 2-3 chiziqlarni o‘tkazamiz. Godografning 0 va 3 nuqtalaridan 4 nuqtada kesishguncha sirpanish chiziqlari maydoni-ning 0-4 va 3-4 sohalarini ajratadigan chiziq-larga parallel qilib 0-4 va 3-4 chiziqlarni o‘tkazamiz. Nihoyat, godografning 0 va 4 nuqta-laridan 5 nuqtada kesishguncha sirpanish chiziqlari maydonining 0-5 va 4-5 sohalarini ajratadigan chiziq-larga parallel qilib 0-5 va 4-5 chiziqlarni o‘tkazamiz. Godografning simmetrik chap qismi ham xuddi shu tariqa quriladi. Puansonning v_i tezligi va uning b kengligini o‘lchov birligi sifatida qabul qilish juda qulay bo‘ladi.



3.21-rasm. Yassi puansonni kiritish uchun tezliklarning kinematik mumkin bo‘lgan maydoni.

Qurilmadan ko‘rinib turibdiki, sirpanish chiziqlari maydonining har bir sohasiga godografning qandaydir bir nuqtasi mos keladi. Maksvell diagrammalarining o‘zarolik xususiyati ana shundan iborat.

Puansonni kiritishning solishtirma kontakt kuchini (3.5) formula bo‘yicha aniqlaymiz, bunda $b = 1$, $v = 1$ deb taxmin qilamiz. Hisoblashlarni 3.8-jadvalga yozish qulay bo‘ladi. 3.8-jadvaldan foydalanish bilan (3.6) formula bo‘yicha

$$\frac{q}{2k} \leq \frac{\sum v_i l_i}{2bv} \quad (3.5)$$

ni topamiz.

Solishtirma kuchning aniq qiymati

$$\frac{q}{2k} = 1 + \frac{\pi}{2} \quad (3.6)$$

ni tashkil qiladi.

Sirpanish chiziqlari maydonining tashqi chegaralari orqali o‘tadigan tezliklar oqimining nolga tengligi sharti mazkur holatda (3.7) formula bo‘yicha bajarilishiga ishonch hosil qilish qiyin emas

$$\frac{\sum l_i v_i}{3} = 3 \quad (3.7)$$

Bu yerda $\sum l_i v_i$ – butun maydon uchun ko‘paytmalarning yig‘indisi.

3.8-jadval

Puansonni kiritishda formula bo‘yicha kuchni hisoblash uchun ma‘lumotlar


Belgilashlar (3.21-rasmga qarang)	l_i	v_i	$l_i v_i$
0–2	$\frac{\sqrt{2}}{4}$	$\sqrt{2}$	0,5
0–3	0,5	2	1
0–4	$\frac{\sqrt{2}}{4}$	$\sqrt{2}$	0,5
2–3	$\frac{\sqrt{2}}{4}$	$\sqrt{2}$	0,5
3–4	$\frac{\sqrt{2}}{4}$	$\sqrt{2}$	0,5

Hisoblashda qabul qilingan sirpanish chiziqlarining uzilish to‘ri, solishtirma kuch kattaligining yuqorigi bahosi yetarlicha aniq bo‘lishiga qaramasdan, sirpanish chiziqlari uzluksiz maydonining yetarlicha qo‘pol yaqinlashishi bo‘lib hisoblanadi.

3.22-rasmda metallni $\frac{b-a}{b} = 0,57$ ga teng bo‘lgan qisish kattaligida devorlari 40 grad egilish burchagiga ega bo‘lgan matritsa orqali presslash, mos keluvchi sirpanish chiziqlarining uzilish maydoni va godografning sxemalari ko‘rsatilgan.

Sirpanish chiziqlari maydonini qurishda 6 burchak o‘zgaruvchan parametr deb qabul qilingan. Godograf oldingi misolda ko‘rib chiqilgan usul bilan quriladi. Bunda (3.8) formula bo‘yicha kuchni hisoblashda suratga matritsaning devorlariga ishqalanishni hisobga oluvchi qo‘shiluvchilar qo‘shiladi.

$$\frac{q}{2k} \leq \frac{\sum v_i l_i}{2bv}. \quad (3.8)$$




3.22-rasm. Presslash uchun sirpanish va tezliklar chiziqlarining kinematik mumkin bo‘lgan maydonlari.

Xuddi oldingi misoldagi kabi, hisoblashda b kattalikni o‘lchov birligi deb qabul qilish qulay bo‘ladi. Simmetriya oqibatida kuch faqatgina matritsaning yarmi uchun hisoblanadi. θ burchakni 25 dan 60° ga o‘zgartirish va mos keluvchi solishtirma kuchlarni hisoblash bilan solishtirma kuchlar egri chizig‘ini qurish mumkin. Bu egri chiziq bo‘yicha (3.23-rasm) (3.9) formula bo‘yicha solishtirma kuchning kattaligining minimal yuqorigi bahosi aniqlanadi:

$$\frac{q}{2k} < 1,62 \quad (3.9)$$

Sirpanish chiziqlarining uzluksiz maydonini qurish yo‘li bilan olingan yechim bu kattalikning qiymatini beradi (formula 3.10).

$$\frac{q}{2k} = 1,48 \quad (3.10)$$




3.23-rasm. Solishtirma kuchning θ parametrga bog‘lanishi.


Ilgari dumaloqlangan puansonni kiritish uchun statik mumkin bo'lgan sirpanish chiziqlari maydoni qurilgan va (3.11) formula bo'yicha silindrik puansonni ishqalanishsiz kiritish solishtirma kuchi aniqlangan:

$$\frac{q}{2k} = 2 \quad (3.11)$$

Quyidagi 3.24 va 3.25-rasmlarda kinematik mumkin bo'lgan sirpanish chiziqlari maydoni va kinematik mumkin bo'lgan tezliklar maydoni ko'rsatilgan.



3.24-rasm. Dumaloqlangan puansonni kiritish uchun kinematik mumkin bo'lgan sirpanish chiziqlari maydoni.



3.25-rasm. Dumaloqlangan puansonni kiritish uchun kinematik mumkin bo'lgan tezliklar maydoni.

Bu rasmlar dumaloqlangan puansonning mos keluvchi kinematik mumkin bo'lgan sirpanish chiziqlari maydoni va kinematik mumkin bo'lgan tezliklar maydonini aniqlaydi.

3.5.1. Kuchlarni baholash uslubi

O'zgaruvchan parametr sifatida puansonning konturiga urinma chiziqlarning yo'nalishi va 2-3, 4-5, 6-7 sirg'alish chiziqlari o'rtasidagi α burchak tanlangan.

3.9-jadvalda parametrning solishtirma kuch minimal bo'ladigan $\alpha = \pi/4$ qiymati uchun tuzilgan hisoblash keltirilgan. Solishtirma kuch yuqorida ko'rsatilgan formula bo'yicha hisoblanadi. Formulaga b kenglikning o'rniga (3.12) formula bo'yicha aniqlanadigan silindrik puansonning d diametri qo'yiladi:

$$\frac{q}{2k} = \frac{0,5 \sum v_i l_i}{dv} = \frac{2,79}{1,1} = 2,79 \quad (3.12)$$

3.9-jadval

Dumaloqlangan puansonni ishqalanishsiz kiritish kuchini hisoblash uchun ma'lumotlar (puansonning diametri va tezligi birlik sifatida qabul qilingan)

Belgilashlar (3.24-rasmga qarang)	l_i	v_i	$l_i v_i$	Belgilashlar (3.24-rasmga qarang)	l_i	v_i	$l_i v_i$
0-2	0,17	1,17	0,20	0-5	0,27	1,43	0,39
2-3	0,16	0,73	0,12	5-6	0,29	0,20	0,06
0-3	0,21	1,17	0,25	6-7	0,33	0,37	0,12
3-4	0,21	0,17	0,04	0-7	0,71	1,43	1,01
4-5	0,25	0,68	0,17	7-8	0,66	0,65	0,43

Shunday qilib, yuqorida ko'rsatilgan formulalarga muvofiq solishtirma kuchning haqiqiy kattaligi (formula 3.13) bo'yicha

$$\frac{q}{2k} = 2 \div 2,79 \quad (3.13)$$

oraliqda bo'lad.

O'rtacha qiymatni qabul qilish bilan yakunda (formula 3.14) bo'yicha

$$\frac{q}{2k} = 2,4 \quad (3.14)$$

ni olamiz.

Solishtirma kuchning kontakt ishqalanishi bilan chaqiriladigan ortishini (3.15)

$$\frac{\Delta q}{2k} = \frac{\mu \sum v_r l_r}{dv} \quad (3.15)$$

formula bo'yicha hisoblash mumkin.

Bu yerda v_r – puanson konturining uchastkalari bo'ylab sirpanish tezliklari;

l_r – puanson konturi uchastkalarining mos keluvchi uzunliklari.

3.10-jadvalda (3.16) formulaning suratiga kiradigan kattalikni hisoblash keltirilgan. Topilgan qiymatlarni (3.16) formula o'rniga qo'yish bilan

$$\frac{\Delta q}{2k} = \mu \frac{2 \cdot 1,23}{1 \cdot 1} = 2,46\mu \quad (3.16)$$

ni olamiz.

Ishqalanishni hisobga olish bilan to'liq solishtirma kuch quyidagini tashkil qiladi:

$$\frac{q_\mu}{2k} = \frac{q + \Delta q}{2k} = 2,4 + 2,46\mu \quad (3.17)$$

Yuqorida ko'rsatilgan formulalardan

$$q_\mu \approx q(q + \mu) \quad (3.18)$$

ni olish lozim bo‘ladi.

Shunda (3.15) ni munosabati topiladi:

$$q_{\mu} = q\sqrt{1 + 2\mu}. \quad (3.19)$$

Formuladagi munosabat (3.12) tenglamaning yaqinlashuvchi ifodasi bo‘lib hisoblanishiga ishonch hosil qilish qiyin emas.

3.10-jadval

Solishtirma kuchning ishqalanish bilan chaqiriladigan kattaligini hisoblash uchun ma’lumotlar (puansonning diametri va tezligi birlik sifatida qabul qilingan, $l_r=0,196$)

No t/r	Belgilashlar	v_r	$l_r v_r$
1.	1—2	0,83	0,16
2.	1—4	1,58	0,30
3.	1—6	2,06	0,40
4.	1—8	1,89	0,37

Yaqinlashuvchi uslub nisbatan oson solishtirma kuch kattaligining minimal yuqorigi bahosini topish imkonini beradi. Bir qator masalalarning aniq yechimlari bilan solishtirish shuni ko‘rsatadiki, bunday usul bilan topilgan yuqorigi baholar aniq qiymatlarga yaqin bo‘ladi. Pastki bahoni statistik yo‘l qo‘yiladigan sirg‘alish chiziqlari maydoni beradi. Agar bu maydon kinematik yo‘l qo‘yiladigan maydon ham bo‘lib hisoblansa, u holda pastki baho haqiqiy qiymat bilan mos tushadi.

Kinematik mumkin bo‘lgan sirg‘alish chiziqlari maydonlari va tezliklar maydonlarini qurishda yuqorida ko‘rsatilgan formulalarga kiradigan v va l kattaliklarni qurish paytida tanlangan qandaydir bir 0 parametrning funksiyasi ko‘rinishida analitik tarzda ham ifodalash mumkin. Bu holda parametrning q solishtirma kuchning minimal yuqorigi bahosiga mos keladigan qiymatini

$$\frac{dq}{d\theta} = 0 \quad (3.20)$$

formula bo'yicha aniqlash mumkin.

Bu holda minimumni grafik tarzda aniqlashga hojat bo'lmaydi va solishtirma kuchning kattaligini jadval qiymati bilan emas, analitik ifoda bilan ifodalash mumkin.

3.5.2. Yuqorigi va pastki baholash uslublarining mohiyati

Oldingi boblarda ko'rsatib o'tilganidek, plastik deformatsiyalanadigan tayyorlanmaning ichidagi σ_{ij} kuchlanishlar, u_j zarrachalarining tezliklari va ε_{ij} deformatsiya tezliklari ba'zi bir shartlar yoki chegaralashlarni qanoatlantirishi lozim. Ular 3.26-rasmda ramkalarining ichiga yozilgan, bu yerda tenzor belgilashdan foydalanilgan va to'g'ri burchakli koordinatalar tizimida yig'indilash qoidalari keltirilgan.

Ellips ramkalarda σ_{ij} , ε_{ij} va u_i o'zgaruvchilar qanoatlantirishi lozim bo'lgan shartlar ko'rsatilgan. Keltirilgan tavsif tenglamasi (3.26-rasm), u o'zida plastiklik shartini taqdim qiladi, shuningdek, jarayonning kechish qonuni faqatgina kitobxonga to'liq tasavvurni berish maqsadida yozilgan.

Bu yerda tayyorlanmaning materiali qattiqplastik va siqilmas deb taxmin qilinadi. Muvozanat tenglamasida V_i – birlik hajmiy kuch. Yuza qatlami uchun muvozanat tenglamasida n_i – yuzaga o'tkazilgan tashqi normalning birlik vektori.

To'g'ri to'rtburchak ramkada tayyorlanmaning yuzasiga qo'yiladigan shart, ya'ni chegara sharti keltirilgan: $S = S_f + S_c$. S_p yuzada F_i kuchlar to'liq ma'lum. $F_i=0$ bo'ladigan erkin yuz S_f ga tegishli (3.27-rasm). S_c da yoki u_i zarrachaning tezligi yoki uning tarkibiy qismning yuzasiga ip normal ma'lum, chunki bu uskuna-tayyorlanmaning kontakt yuzasidir. Bu yuzada shuningdek, ishqalalanish kuchlari ham berilishi lozim.


Metallarning deformatsiyalanish jarayonlarini tahlil qilish yoki loyihalash uchun boshlang'ich shartlardan boshlab deformatsiyalarning kichik ortishlarining ketma-ket bosqichlari (qadamlari) uchun


yuqorida sanab o‘tilgan shartlarni qanoatlantiradigan σ_{ij} , ε_{ij} va u_i larni aniqlash zarur bo‘ladi. Bu ko‘rib chiqiladigan holatlarning ko‘pchiligi uchun o‘ta murakkab masala bo‘lib hisoblanadi. EHM lardan foydalanish boshlanguncha bunday masalalar faqatgina ba’zi bir maxsus holatlar uchun yechilgan.

Yuqorigi va pastki baholar uslublari a_i va u uchun chegara shartlarini qanoatlantirishga intilishda qiyinchiliklarni istisno qilish uchun taklif qilingan, bu tariqa olingan natijalar o‘zining tabiatiga ko‘ra yaqinlashuvchi bo‘lib hisoblanadi, biroq ishlab chiqarish maqsadlari uchun yetarlicha foydali, shu bilan birgalikda hisoblashga ketadigan vaqt sarflari oxirgi element uslubi yoki boshqa uslubni qo‘llashga qaraganda anchagina kam. Bu yuqorigi va pastki baholar uslublari hozirgi kungacha ham katta ommaviylikka ega ekanligining sabablaridan birini izohlaydi. Boshqa bir sabab shundan iboratki, bu uslublar, ayniqsa, yuqorigi baho uslubi ishlab chiqarish muhandislariga oson tushuniluvchan, chunki ular (uslublar) ularning (muhandislarining) ishlab chiqarish faoliyati davomida olingan intuitsiyasiga tayanadi.


Yuqorigi va pastki baho uslublarining asoslarini, shuningdek, ularning metallarni deformatsiyalashning turli texnologik masalariga nisbatan qo‘llanilishini kitobxon mazkur uslublarga urg‘u berilgan turli kitoblar va maqolalardan topishi mumkin.

Mazkur bobda muallif yuqorigi va pastki baholar to‘g‘risidagi mavjud teoremlarni baholash va tizimlashtirishga va ularni deformatsiyalash muammolariga nisbatan qo‘llashga, bu uslublarning bugungi kundagi holatini ko‘rsatish uchun so‘nggi yutuqlardan foydalanishga, kitobxonga kelajakda bu yo‘nalishning rivojlanish yo‘llarini ko‘rsatishga harakat qiladi. Mazkur bobda rus tilidagi ishlarga ko‘pgina yo‘llanmalar tushirib qoldirilgan, chunki muallif, taassufki, ularni tushunmaydi, shuningdek, ushbu kitobda ushbu mavzuga bag‘ishlangan – rus millatiga mansub hammuallif tomonidan yozilgan boshqa bob bor.





3.26-rasm. Yuqorigi va pastki baholash uslubi bilan yechish ketma-ketligi.



3.27-rasm. Yuqorigi va pastki baholash uslubida qabul qilingan ramzlar va belgilashlar sxemasi: 1-orqa tortish; 2-uskuna (jo‘va); 3-tayyorlanma; 4-old kuchlanish; 5 va 7-qattiq soha; 6-plastik (deformatsiyalanadigan) soha.

Mazkur uslubning asosiy kontseptsiyasi. Yuqorigi va pastki baholash uslublarining mohiyati 3.26-rasmda keltirilgan yechish sxemasi bilan belgilanadi. u tezliklarining material elementida tezliklar uchun joriy chegara shartlarini qanoatlantiradigan har qanday taqsimlanishini “kinematik mumkin bo‘lgan tezliklar maydoni” deb ataymiz va u^k_i bilan belgilaymiz. Agar kuchlanishning taqsimlanishining haqiqiy kechishi uchun tayyorlanmaning geometrik shakli va chegara shartlari (τ_f , ishqalanish kuchlanishi ham) ma‘lum bo‘lsa, u holda W_d plastik deformatsiya energiyasining (quvvatining) sochilish (dissipatsiya) tezligini, W_f , kontakt yuzasida ishqalanish bilan yo‘qolish quvvatini hisoblab topish mumkin, ular $[u^k_i]$ nisbiy sirg‘alish tezligi va namunada S_f ga ko‘rsatiladigan F_1 kuch bilan rivojlantiriladigan W_F quvvat bilan bog‘lanadi.

Bu quvvatlarning o‘zida tanlangan uki uchun uskuna-tayyorlanma tizimining ichida to‘liq energiyaning (yoki to‘liq quvvatning) sochilish (dissipatsiya) tezligini taqdim qiladigan algebraik yig‘indisini, S_f ga ko‘rsatiladigan kuchlarning quvvatini ayirib tashlash bilan, W^k_c bilan belgilaymiz. Deformatsiya tezligiga ta‘sirchan bo‘lmagan materiallar uchun yuqorigi baho to‘g‘rsidagi teorema shunday deydi: W^k_c quvvat hech qachon tizimning tashqi kuchlar bilan S_c da rivojlantiriladigan

haqiqiy quvvatidan kichik bo‘la olmaydi, ya’ni $W_c^k - W_c$ uchun yuqorigi baho bo‘lib hisoblanadi.

$$W_c = \int_{S_c} F_i u_i dS \quad (3.21)$$

Boshqacha qilib aytganda, barcha kinematik mumkin bo‘lgan oqish tezliklari maydonlari orasida u_i^k va u_i haqiqiy maydon sochilishning (dissipatsiyaning) eng kichik (minimal) quvvatini (energiyaning tezligini) ta’minlaydi. Kechish tezliklarining haqiqiy maydoni deb shunday maydonga aytiladiki, u σ_{ij}^k kuchlanishlar maydoniga, u bilan bog‘langan oqish tezligi-deformatsiya tezligi nisbatlariga va bog‘lanish tenglamalariga mos keladi va jismning ichidagi muvozanat tenglamasini hamda S_f va S_s dagi kuchlanishlar uchun chegara shartlarini qanoatlantiradi.


Ko‘pgina hollarda W_c^k ni bilish bilan S_c ga ko‘rsatiladigan P texnologik yuklamaning yuqorigi bahosini ham olish mumkin.

Muvozanat tenglamasi, plastiklik shartining tengsizligi va S_f va S_c ga qo‘yilgan F_i va τ_j ning chegara shartlarini qanoatlantiradigan, biroq kinematik shartlarni qanoatlantirishi shart bo‘lmagan σ_{sij} kuchlanishlar maydonini ko‘rib chiqamiz; σ_{sij} statik mumkin bo‘lgan kuchlanishlar maydoni deb ataladi. Pastki baho to‘g‘risidagi teorema shunday deydi: S_c ga ko‘rsatiladigan, σ_s bilan muvozanatlangan F_{si} kuchlar bilan rivojlantiriladigan W_{sc} quvvat hech qachon W_c haqiqiy kuchlanishdan kichik bo‘la olmaydi, ya’ni $W_{sc} - W_c$ uchun pastki baho bo‘lib hisoblanadi. Barcha statik mumkin bo‘lgan kuchlanishlar maydonlari orasidan σ_{sij} haqiqiy maydon S_j da tezliklar uchun berilgan – bog‘lanish tenglamasi va oqish tezligi-deformatsiya tezligi nisbatidan kelib chiqadigan chegara shartlarini qanoatlantiradigan u_{sc} tezliklar maydoni bilan bog‘lanadi.

Ixtiyoriy tanlangan u_i^k va σ_{ij} lar uchun W_w^k va W_{sc} ning qiymatlari kamdan-kam hollarda mos tushadi. Ko‘pchilik hollarda ularning farqi katta bo‘ladi (3.28-rasmdagi l^k va l^s ga qarang).

Biroq yaxshisi, u_i^k va σ_i^s ning yangi qiymatlarini tanlash yoki ularni aniqlashtirish bilan $W_c^k - W_c^s$ farq yetarlicha kichik bo‘lmaguncha ko‘proq past yuqorigi bahoni va ko‘proq yuqori pastki

bahoni olamiz. Shu tariqa biz W_c uchun yaqinlashishni va mos keluvchi yaqinlashuvchi texnologik yuklamani olamiz. Bu jarayon sxematik tarzda 3.28-rasmda ko'rsatilgan, bunda u_i^k va σ_{ij}^s ning qiymatlari birgina k va s mustaqil parametrlar (argumentlar) bilan tasvirlanadi deb taxmin qilinadi.



3.28-rasm. Yuqorigi va pastki baholarning yaqinlashish sxemasi.

Agar u_i^k va σ_{ij}^s ning qiymatlari u_i va σ_{ij} haqiqiy qiymatlar bilan mos tushsa, W_c^k va W_c^s ning ekstremal qiymatlari mos tushadi, va biz aniq yechimni olamiz (3.28-rasmdagi shtrix chiziq'larga qaralsin). Biroq bu kamdan-kam hollarda sodir bo'ladi. W_c^k va W_c^s chegaralashlar yordamida texnologik yuklamani aniqlash yuqorigi va pastki baholar uslubi deb, shuningdek, maydonning sxemasini qurishda chegaraviy tahlil qilish deb ataladi.

Ko'pchilik deformatsiyalash jarayonlari uchun yaxshi (ya'ni past) yuqorigi bahoni olish yaxshi (ya'ni yuqori) pastki bahoni olishga qaraganda anchagina oson.

Bu shu sababli sodir bo'ladiki, bizga tezliklar maydoni qanday bo'lishi lozimligini kuchlanishlar maydoni qanday bo'lishi lozimligiga qaraganda tasavvur qilish osonroq. Boshqa bir sabab shundan iboratki, σ_{ij} ikkita shartni – muvozanat shartini va plastiklik holati shartini qanoatlantirishi lozim. Shu sababli shakl berish jarayonlarining ko'pchilik tadqiqotchilari, mazkur bobning muallifi ham shular

qatoriga kiradi, pastki bahoni aniqlashdan voz kechadilar va o‘zlarining sa’y-harakatlarini imkon qadar yaxshiroq, ya’ni ko‘proq past yuqorigi bahoni olishga qaratadilar.

Bunday yondashuvning kamchiliklaridan biri shundan iboratki, biz haqiqiy quvvatni yoki texnologik yuklamani qay darajagacha oshiqcha baholayotganimizni bilmaymiz. Ikkinchi kamchilik – W_c^k uchun eng kichik qiymatni beradigan tezliklar maydoni haqiqiy qiymatga yetarlicha yaqin bo‘lishiga kafolat yo‘q. Uchinchi kamchilik yuqorigi baho uslubi bilan olingan yechim umuman olganda kuchlanishlarning taqsimlanishini aniqlash imkonini bermaydi. Oxirgi, biroq oldingilardan kam bo‘lmagan, shakl berishgacha bo‘lgan jarayonlarni tahlil qilish uchun ushbu uslubdan foydalanishda ma’lum bo‘ladigan, pastki baho uslubi ham shundan aziyat chekadigan kamchilik shu bo‘lib hisoblanadiki, ko‘pincha yuqorigi va pastki baholar to‘g‘risidagi teoremlarning adolatiligi ham shubha ostida qoladi. Bular shu bilan bog‘lanadiki, biz tayyorlanmaning haqiqiy shaklidan oldingi shaklini va oldingi kuchlanishlarning taqsimlanishini bilmaymiz, ular esa deformatsiyalashning keyingi bosqichida W_c^k va W_c^s ni hisoblash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shu sababli muallif, agar tayyorlanmalar doimiy kuchlanishlarga ega bo‘lgan mutlaqo plastik bo‘lmasa va tayyorlanma yuzasining shakli qat’iy o‘zgarmas bo‘lmasa, deformatsiyalash masalalarini ko‘rib chiqishda bu analitik protseduralarni yuqorigi va pastki baholar uslublari deb atamaslikni ma’qul ko‘radi, Ehtimolki, bu uslublarning mohiyatini ta’riflash uchun “energetik uslub” yoki “variatsion uslub” degan atamalar ko‘proq to‘g‘ri keladi. Shunga qaramasdan, tajribaning ko‘rsatishicha, hatto σ_{ij} ning minimumiga mos keladigan nisbatan oddiy kinematik mumkin bo‘lgan tezliklar maydoni ham texnologik yuklama uchun, qoidaga ko‘ra, aniq yechimning natijasi yoki eksperimental qiymatdan 15% dan oshiq bo‘lmagan yuqorigi bahoni topish imkonini beradi. Bundan tashqari, real deformatsiyalash sxemalari, nuqsonlar hosil bo‘lishi va haroratlarning taqsimlanishi nisbatan oddiy tezliklar maydonlari bilan yaxshi tasvirlanishi ko‘p marta isbotlangan.

Shu sababli mazkur bobda yuqorigi va pastki baholar to‘g‘risidagi teoremlarni metallarni deformatsiyalash masalalariga nisbatan qo‘llashga misollar muhokama qilinadi.

Yuqorigi va pastki baholash to‘g‘risidagi teoremlar
(Yopishqoq bo‘lmagan qattiqplastik jismni kvazistatik deformatsiyalash)

Aytaylik, tayyorlanmaning materiali, masalan, Mizes plastiklik shartini qanoatlantiradigan materiallar kabi qattiqplastik bo‘lsin, tavsif tenglamasi esa plastik deformatsiya energiyasining maksimal sochilish (dissipatsiyalanish) tamoyiliga bo‘ysunsin:

$$(\sigma_{ij} - \sigma_{ij}^s) \dot{\epsilon}_{ij} \geq 1 \text{ va } \int_V (\sigma_{ij} - \sigma_{ij}^s) \dot{\epsilon}_{ij} dV \geq 0 \quad (3.22)$$

Bu tamoyil plastik potensial va materialning $f(\sigma_{ij})=k_f$ plastiklik sharti teng va shartni to‘qqiz o‘lchamli σ_{ij} – kenglikda tasvirlaydigan yuza bo‘rtik deb taxmin qilishdan kelib chiqishini ko‘rsatish mumkin.

Aytaylik, kuchlanishlar yuzasi yoki F_i yuza kuchlarining yuzasi V to‘liq hajmga va S to‘liq yuza maydoniga ega bo‘lgan jismning yuzasining S_f qismida aniqlangan bo‘lsin va tezliklar yuzasi yuzaning boshqa S_c qismida aniqlangan bo‘lsin. Ixtiyoriy tanlangan, kenglikdagi koordinatalar bo‘yicha oxirgi birinchi ko‘paytmalarga ega bo‘lgan va S_c da ilgari aniqlangan uik tezliklar maydoniga teng bo‘lgan ik kinematik mumkin bo‘lgan tezliklar maydoni uchun yuqorigi baho to‘g‘risidagi teorema quyidagi ifoda bilan aniqlanadi (Xill, Prager, Druke va boshqalar tomonidan aniqlangan, uni virtual ish va tengsizlik tamoyilidan chiqarish mumkin):

$$\begin{aligned} \dot{W}_C &= \int_{S_C} F_i u_i dS \leq \int_V \sigma_{ij}^k \dot{\epsilon}_{ij}^k dV + \int_{r^k} k [\dot{u}_i^k] dS - \\ &- \int_{S_F} F_i \dot{u}_i^k dS \equiv W_d + W_n - W_F \equiv \dot{W}_i^k \end{aligned} \quad (3.23)$$

Tengsizlikda o'ng qismdagi birinchi va uchinchi a'zolar yuqorida aniqlangan, W_s bilan belgilangan ikkinchi a'zo kinematik mumkin bo'lgan tezliklarning uzilishlarining yuzalari bo'ylab ichki siljish bilan rivojlantiriladigan quvvatni bildiradi, Γ^k , k va $[u^k_i]$ mos ravishda urinma oquvchanlik kuchlanishi va uzilishning kattaligi yoki tezliklarning sapchishini bildiradi. Chunki sapchish cheksiz kata ϵ^{k}_{ij} deformatsiya tezligiga, ba'zi hollarda cheksiz to'liq deformatsiyaga olib keladi. Yopishqoq yoki deformatsiya tezligiga ta'sirchan bo'lgan materiallarni ko'rib chiqishda fizikaviy mulohazalardan kelib chiqish bilan G^k ni chiqarib tashlash lozim bo'ladi. Agar maydon Γ^k da $u^k_i = 0$ bo'lsa deformatsiya jarayonida mustahkamlanadigan materiallar uchun ham shunday qilish talab qilinadi.

Xuddi yuqorigi va pastki baholar uslublariga taalluqli ko'pchilik ishlardagi kabi, qisqacha bo'lishi uchun Mizes plastiklik sharti va Levi-Mizes kechish qonuniga bo'ysunadigan materiallarni ko'rib chiqish bilan cheklanamiz. Shunda uki hajmning doimiyligi shartini qanoatlantirishi lozim va tengsizlikdagi W_d ni quyidagicha yozamiz:

$$\dot{W}_d = \int_V \overline{\sigma^k \dot{\epsilon}^k} dV = \int_V k_f \dot{\epsilon}^k dV \quad (3.24)$$

Bu yerda $\overline{\dot{\epsilon}^k}$ – deformatsiya tezliklarining shiddati (intensivligi) $\left\{ \left(\frac{2}{3} \right) \dot{\epsilon}^k_{ij} \cdot \dot{\epsilon}^k_{ij} \right\}^{1/2}$;
 $\overline{\sigma^k}$ – urinma kuchlanishlarning shiddati

$$\left\{ \left(\frac{3}{2} \right) \dot{\sigma}^k_{ij} \cdot \dot{\sigma}^k_{ij} \right\}^2$$

$\sigma^k_{ij} - \dot{\epsilon}^k_{ij}$ ga mos keluvchi kuchlanishlar diviatori.

Postulatlangan (postulirovaniye) plastiklik shartidan σ^k oquvchanlik kuchlanishiga yoki k_f siljish oquvchanlik kuchlanishiga teng bo'lishi kelib chiqadi, albatta.

Agar tayyorlanmaning materiali ideal qattiqplastik bo'lsa va k_f butun deformatsiyalanadigan jismda bir xil bo'lsa, u holda tenglama quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\dot{W}_d = k_j \int_V \overline{\dot{\epsilon}^k} dV \quad (3.25)$$

Bu ifoda birinchi marta Markov tomonidan olingan. Ixtiyoriy tanlangan, S_f yuzada chegara shartlarini, plastiklik sharti tengsizligini va materialning hajmida muvozanat tenglamasini qanoatlantiradigan σ ki statik mumkin boʻlgan kuchlanishlar maydoni uchun pastki baho toʻgʻrisidagi teoremani

$$\dot{W}_C = \int_{S_C} F_i \dot{u}_i dS \geq \int_{S_C} F_i^s \dot{u}_i dS \equiv \dot{W}_C^s \quad (3.26)$$

tengsizlikka muvofiq ifodalash mumkin.

Bu yerda F_i^s – S_C da σ_i^k da σ_i^k ni qanoatlantiradigan yuza kuchlari.

Shuni qayd qilamizki, S_c da ustivor boʻlgan τ_c^s statik mumkin boʻlgan urinma kuchlanish τ_f siljishda oquvchanlik kuchlanishidan oshiq boʻlmasligi lozim. Bunda σ ki tangentsial kuchlanishlarning uzilish yuzalari boʻlishi mumkin. Biroq bu tengsizlikni oʻzgartirmaydi.

3.5.3. Godografning tezliklar rejasini ketma-ket qurish

Bir paytlar sirpanish chiziqlari toʻriga mos keladigan asosiy tezliklar rejasini godograf bilan taqdim qilingan (2.4-rasmga qarang).

Baʼzi bir maʼlumotlarga koʻra, godografdan birinchi boʻlib Grin foydalangan. U yassi-plastik oqish uchun tezliklar planini sirgʻalish chiziqlari toʻriga qayta qurish mumkinligini koʻrsatgan, u ushbu chiziq boʻyicha cheksiz kichik masofada joylashgan ikkita P va Q nuqtalarga ega (2.4-rasm, a ga qarang).

Sirpanish chizigʻiga urinma yoʻnalishida asosiy choʻzilish tezligi nolga teng, shundan kelib chiqqan holda, Q tezlikning P ga nisbatan yoʻnalishi QP ga perpendikulyar boʻladi. Godografning tekisligida qutbning qoʻzgʻalmas koordinatalar boshi sifatida unda tezlik nolga teng boʻladigan nuqta tanlanadi. Qutbning koordinatalaridan sirgʻalish chiziqlari toʻrining nuqtalarida tezliklarni belgilaydigan vektorlar oʻtkaziladi.

Sirpanish chiziqlari toʻrining nuqtalari mos keluvchi vektorlarning eng chekka nuqtalari sifatida godografga koʻchirib

o'tkaziladi. Masalan, P va Q nuqtalar godograf tekisligiga P' va Q' sifatida ko'chirib o'tkaziladi (2.4-rasmga qarang), bu $OP = v_p$ va $OQ' = v_q - P$ ba Q nuqtalarning tezligi. $O'Q'$ – $v_{q/p}$ tezlik vektori Q nuqtalarning P ga nisbatan tezligini belgilaydi va PQ ga perpendikulyar bo'ladi. Sirg'alish chizig'ining PQ elementi godograf tekisligiga P'Q' sifatida qayta quriladi. Agar α -chiziq, masalan, godograf tekisligida α' -chiziqqa, β -chiziq esa – β' -chiziqqa mos kelsa, u holda α' va β' -chiziqlar sirpanish chiziqlari to'ri ega bo'lgan xuddi o'sha xususiyatlarga ega bo'lgan ortogonal to'rni hosil qilishini ko'rsatish mumkin.

Faqatgina ko'chadigan deformatsiyalanmaydigan sohalar godograf tekisligida bittayu-bitta nuqtaga mos keladi; unda tezlikning uzilishi sodir bo'ladigan α – chiziq godograf tekisligiga ko'chirib o'tkazishda tezlik uzilishining qiymatiga teng bo'lgan bir xil uzunlikdagi β' -chiziqlar bilan bog'langan ikkita parallel α' -chiziqlar bilan taqdim qilinadi. AV egri chiziq unda tezlikning uzilishi sodir bo'ladigan sirpanish chizig'ini taqdim qiladi (2.4-rasm,b,v larga qarang).

O nuqtada qutbga ega bo'lgan godograf tekisligida ab va a'b' chiziqlar - AV sirpanish chizig'iga ortogonal bo'lgan, tezlikning uzilish kattaligi bilan farq qiladigan ikkita ekvidistant egri chiziqlardir; masalan, aa va bb' chiziqlarning v tezligi mos ravishda A va V nuqtalarda sirpanish chizig'iga o'tkazilgan urinma ega bo'lgan yo'nalishga ega bo'ladi va tezlik uzilishining kattaligini belgilaydi.

Agar qaysidir bir sirpanish chizig'ida tezlik uzilishining kattaligi aniqlangan bo'lsa, u holda bu sirpanish chizig'ining har qanday davomida tezlikning uzilishi har doim mavjud bo'ladi. Sirpanish chizig'i qattiq shtampning yoki uskunaning ishchi yuzasining tekisligiga urinma bo'lib hisoblanadigan holat bundan mustasno.

Berilgan nuqtada yuzaga normal bo'lgan sirpanish chizig'i tezlik uzilishining chizig'i bo'lmasligi mumkin. Unda tezlikning tangensial tarkib toptiruvchisining uzilishi sodir bo'ladigan sirpanish chiziqlariga taalluqli bo'lgan yana bir umumiy qoida shundan

iboratki, bu sirpanish chiziqlari yoki deformatsiyalanadigan sohaning chegarasini hosil qiladi, yoki maydonning ichidagi kuchlanishning sigulyarlik nuqtasida boshlanadi yoki tugaydi. Bu chegaralashlar, qoidaga ko'ra, zarur, aks holda kinematik yechimning birlashuvchanligi buziladi. Shunda e'tiborni yana bir marta shunga qaratamizki, kuchlanishning uzilishi hech qanday holatda sirpanish chiziqlariga ko'ndalang tarzda sodir bo'lmasligi lozim. Kuchlanishlarning uzilishlari sirpanish chiziqlari to'ring ichida mavjud bo'lishi mumkin va ularni balkalar (to'sinlar) va konstruksiyaning boshqa elementlarini bukishda kuzatish mumkin.

Jamlangan kuchlar bilan yuklangan yarim halqani bukish uchun sirpanish chiziqlari to'ri - O nuqtada uchrashadigan to'rtta sirpanish chiziqlaridan tashkil topgan sirpanish chiziqlari to'ri bo'lishi mumkin (2.5 rasimga qaralsin). Bu nuqtada gidrostatik bosimning uzilishi sodir bo'ladi, buni Genki integralidan osongina ko'rish mumkin. Bu oquvchanlik zonalarida yoki O nuqtaning har ikkala tomonida σ_{xx} va σ_{yy} kuchlanishlarning uzilishiga olib keladi. Grin singulyar nuqtada tezliklarning uzilishi sodir bo'lmasligini ko'rsatib bergan. Hozirgi kunda sirpanish chiziqlari to'riga mos keladigan tezliklar planini turli usullar bilan aniqlash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

3.5.4. Yuqorigi va pastki baholash uslublarining rivojlanishi va ularning qo'llanilishi

Xaytsorntsvaytning fikriga ko'ra, Gvozdev birinchi bo'lib konstruktsiyalarning ko'taruvchanlik qobiliyatini aniqlash uchun yuqorigi va pastki baholar to'g'risida teoremani taklif qilgan. Bu 1936-yilda bo'lgan. 40-yillarning oxiridan 50-yillarning boshigacha yuqorigi va pastki baholar, shuningdek, elastik va qattiqplastik materiallar uchun turli variatsion tamoyillar to'g'risida bir qator ekstremal teoremlar taklif qilingan. Bu teoremlar Markov, Xill, Prager va ular xodimlarining ishlari bo'lgan.

Bu teoremlarni plastik deformatsiyalash masalalariga nisbatan qo'llash birinchi bo'lib 1957-yilda Xill va Grin tomonidan yassi deformatsiya sharoitlarida chizish va yassi deformatsiya sharoitlarida

silliqlik yassi plitalar orasida yupqa qatlamni siqish uchun taklif qilingan. To'g'ri burchakli yoki dumaloq ko'ndalang kesimli sillikli yassi oldga ega bo'lgan puansonni mustahkamlanmaydigan materialning yassi materialiga bosib kiritish uchun zarur bo'ladigan deformatsiyalovchi kuchlarning Treskning plastiklik shartini qanoatlantiradigan yuqorigi va pastki baholari 1953 va 1955-yillarda Schild, Druker va Levin tomonidan olingan. Mizes plastiklik shartida ideal qattiqyopishqoqplastik jism uchun ekstremal teoremlar 1954-yilda Prager tomonidan taklif qilingan va 1956-yilda Xill tomonidan umumlashtirilgan. 1954-yilda Druker birinchi bo'lib Sc ga Kulon ishqalanishi sharoitida yuqorigi va pastki baholar to'g'risidagi teoremlarni taklif qilgan.

1955 va 1957-yillarda Kudo birinchi bo'lib yuqorigi baho uslubidan halqani o'q simmetriyalik siqish va ideal Mizes qattiqplastik materialini to'g'ri bosish uchun deformatsiyalovchi kuchning yaqinlashuvchi qiymati va deformatsiya sxemalarini olish uchun foydalangan. Garchi uning ishqalanish kuchlarini yengish uchun sarflanadigan quvvatni baholashi o'ta mavhum bo'lsada, natijalar eksperimental ma'lumotlarga teng bo'lib chiqqan.

1958-yildan 1960-yilgacha yuqorigi baho uslubini yassi deformatsiyada statsionar va nostatsionar zarb qilish va bosish jarayonlarining turli masalalariga nisbatan qo'llashga bag'ishlangan maqolalar seriyasi chop qilingan (Kudo va Jonson xodimlari bilan birgalikda, shuningdek, Kudo – o'q simmetrik jarayonlar uchun). Hatto kvadrat diskni o'tirg'izishning uch o'lchovlari masalalari ham ko'rib chiqilgan (Xeddou va Jonson). Ular eng kichik W_c^k ga mos keladigan u_i^k tezliklar maydonidan foydalanish bilan hatto tashqi qatlamning yopishishi, burmalar va ichki yoriqlar hosil bo'lishi kabi nuqsonlar mavjud bo'lishini oldindan ayta olganlar. Natijalar eksperimentlarning ma'lumotlari bilan yaxshi tasdiqlangan.

Tezliklar maydonidan shuningdek, oquvchanlik kuchlanishi haroratga bog'liq bo'lmaydi deb taxmin qilish bilan haroratning adiabatik o'zgarishini hisoblash uchun ham foydalanilgan. Mustahkamlanadigan materiallar uchun yaqinlashuvchi deformatsiyalovchi kuchlar turli olimlarning materiallarida rivojlantirilgan $\overline{\varepsilon_m^k} =$

$\int \overline{\varepsilon_m^k} df$ o'rtacha ekvivalent deformatsiya uchun olingan k_{fm} o'rtacha oquvchanlik kuchlanishi yordamida mustahkamlanmaydigan materiallarga qo'yiladigan yuklamalarning yuqorigi baholarining qiymatlaridan topilgan.

Yuqoridagi ishlarda foydalanilgan kinematik tezliklar maydonlari yetarlicha oddiy bo'lgan, ya'ni tezliklar maydonlarini tasvirlaydigan, W^k ni minimallashtirishda variatsiyalangan parameterlarning soni nisbatan unchalik katta bo'lmagan, shu sababli minimalashtirishni analitik yo'l bilan bajarish imkoniyati paydo bo'lgan. Yassi kesim uchun plastik deformatsiyalar bir-biriga nisbatan sirg'aladigan qattiq uchburchaklarning cheklangan soni bilan taqdim qilingan. O'q simmetriya mavjud bo'lganda yoki shunga o'xshash maydonlardan, yoki ularning meridional kesimlari deformatsiyalashdan oldin yoki keyin to'g'ri to'rtburchak yoki parallelogramm ko'rinishida bo'lgan bir nechta halqasimon sohalardan tashkil topgan maydonlar qo'llanilgan. Keyingi maydonlar parallel deformatsiya maydonlari deb atalgan.

Tezliklar maydonlarining ular uchun tezlikning tarkibiy qismlari oddiy polinomlar yoki o'tirg'izishda tayyorlanmaning yon yuzasining bochkasimon qiyshayishini tasvirlaydigan ikkita kenglikdagi koordinatalarning trigonometrik funksiyalari bilan ifodalangan boshqa tiplarini Tarnovski va boshqalarning monografiyasidan topish mumkin. Monografiyada yuqorigi baho uslubining yassi deformatsiya jaryonlari, o'q simmetriyali jarayonlar uchun olingan natijalar, shuningdek, 50-yillarning o'rtalaridan boshlab Rossiyada uch o'lchovli zarb qilish texnologik masalalari uchun olingan keng natijalar to'plangan.

Shu yillarda Sc ga Kulon ishqalanishi sharoitlarida yuqorigi va pastki baholar to'g'risidagi teoremlarni yaxshilashga urinishlar bo'lgan (Yamada, Kudo, Shindo va Oksli). Kudo va Gakaxashi 1964-yilda kontakt yuzasida siljish tipidagi ishqalanish sharoitlarida, ya'ni $\tau_f = mk$ da yuqorigi va pastki baholar to'g'risidagi teoremani isbotlaganlar, bu yerda m – ko'effitsiyent ishqalanish omilini va k – siljishda oquvchanlik kuchlanishini bildiradi.

1952-yildan boshlab yuqorigi baho uslubiga taalluqli bo'lgan juda ko'p maqolalar chop qilingan, va bor-yo'g'i bir nechta maqolalardagina pastki baho uslubi ham ko'rib chiqilgan. Bu uslubning rivojlanishi u^k_i ning eng kichik qiymatini olish W_j^k uchun ko'proq murakkab va noto'g'ri geometriyani tasvirlash uchun, shuningdek, materialning haqiqiy oqishini tasvirlash uchun asosan ko'proq murakkab va o'zgaruvchan uki tezliklar maydonlaridan foydalanish yo'lidan borgan.

1963-yilda Stepanskiy va Avittsur tomonidan o'q simmetriyali chizish va ponali va konus matritsalar orqali to'g'ri bosishda yassi deformatsiya uchun radial va markazga intilma oqish sxemalarining qo'llanilishiga bir nechta ajoyib misollar keltirish mumkin. O'q simmetriya sharoitlarida parallel oqish uchburchaklaridan tashkil topgan tezliklar maydonlari uchun godografni qurish uslubiyati 1965-yilda Xolding va Mitchell tomonidan rivojlantirilgan va Adbe va Aleksander tomonidan umumlashtirilgan.

Lambert va Kobayashi 1967-yilda birinchi bo'lib yassi deformatsiyaning o'q simmetrik statsionar masalalarining yuqorigi bahosini aniqlash uchun oqish funksiyasi uslubini kiritganlar, ular shuningdek, yuqorigi bahoni yaxshilash uchun funksiyalarning superpozitsiyasini ham taklif qilganlar. Nagnal va Altay 1975-yilda uch o'lchovli masalalar uchun dual oqish funksiyalaridan foydalana boshlaganlar.

Ixtiyoriy shakldagi kesimli matritsa orqali o'tadigan oqim yuzalarining ifodasi uchun konform qayta shakllantirish 1978-yilda Yaig va boshqalar tomonidan bajarilgan. 1979-yilda kuchlarning yuqorigi va pastki baholarini aniqlash uchun Kntaxara, Osakada va boshqalar, Tomita va Souyerbi oxirgi elementlar uslubida foydalanilganga o'xshash diskret uchburchak va to'g'ri to'rtburchak elementlar qatoridan tashkil topgan tezliklar va kuchlanishlar maydonlarini kiritganlar. Shundan keyin yuqorigi va pastki baholar uslubi bilan oxirgi element uslubi (OEU) o'rtasidagi farq yo'qola boshlagan.

Tezliklar yoki kuchlanishlar maydonlarini tasvirlaydigan parametrlarning soni oshganligi sababli hisoblash texnikasining

yutuqlari tufayli yangi minimallashtirish yoki maksimallashtirish uslubiyati kiritilgan.

Hozirgi kunda analitik hisoblashlar talab qilinmayapti, ularning o'rnini simpleks uslubi va chiziqli dasturlashtirish uslubi kabi sonli optimallashtirish uslublari egallagan. Hatto avtomatik jarayonlarni tasvirlash uchun «Tubext» (Laxotn va Altan) va «Aksiform» (Avittsur, Makdermott va boshqalar) tipidagi mashinalar uchun dasturlar ham yaratilgan. Biroq shu bilan birgalikda, bu - fizikaviy jarayonlarni tushinishda bizning intuitsiyamizning o'tmaslashishi xavfining ortishiga olib keladi.

Ideal qattiqplastik materiallarning boshlang'ich oqishi uchun aniqlangan yuqorigi baho to'g'risidagi teoremlar ularda teoremaning shartlari bajarilmaydigan deformatsiya jarayonlarini tahlil qilishda qo'llash uchun shiddat bilan o'zgartirilgan yoki modifyatsiyalangan. 1964-yilda Xolling va Mitchell mustahkamlanadigan materialni bosishda yassi deformatsiya uchun oqish chizig'i bo'ylab oquvchanlik kuchlanishi o'zgarishini hisobga olish bilan qattiq uchburchaklarning tezliklar maydonini birinchi optimallashtirishni bajarganlar. *uki* yordamida hatto bosilgan quymada qattqlikning taqsimlanishi ham hisobga olingan va muhokama qilingan.

Deformatsiya tezligiga ta'sirchan bo'lgan materiallarni to'g'ri bosish uchun zarur bo'ladigan bosim o'rtacha oquvchanlik kuchlanishi yordamida birinchi marta 1967-yilda Avittsur tomonidan, so'ngra 1975-yilda oquvchanlik kuchlanishining oqish chizig'i bo'ylab o'zgarishi yordamida Kristesku tomonidan yaqinlashuvchi tarzda hisoblangan. Har ikkala holdayam sferik qattiqplastik chegaralarga ega bo'lgan qotirilgan markazga intilma tezliklar maydonidan foydalanilgan. Deformatsiyaga va deformatsiya tezligiga ta'sirchan materiallarni o'tirg'izish va to'g'ri bosish ideal plastik materiallar uchun yuqorigi baho to'g'risidagi teoremani biroz o'zgartirish yordamida Laxoti va Altan va Fenton tomonidan ko'rib chiqilgan (har ikkala ish 1975 yilda bajarilgan). Bu ishlarda issiqlikni generatsiyalash va issiqlik o'tkazuvchanlik natijasida hosil bo'ladigan haroratlarning taqsimlanishi ham ko'rib chiqilgan. Yopishqoqplastik materiallar uchun yuqorigi baho to'g'risida birinchi bo'lib

Xill tomonidan aniqlangan haqiqiy teorema 1979-yilda Tomito va Souyerbi tomonidan yon tomondan bosish uchun qo'llanilgan.

Kukunsimon metallni presslash jarayoni qiziqish uyg'otganligi sababli 1974-yilda Oyin va uning xodimlari tomonidan g'ovak materiallar uchun yuqorigi baho to'g'risidagi teorema taklif qilingan va qo'llanilgan.

Tayyorlanmaning inertsia kuchlarining texnologik yuklamaga ta'siri ideal qattiqplastik materialni deformatsiyalash energiyasining (quvvatining) sochilish (dissipatsiya) tezligiga kinetik energiyani hisobga oladigan qo'shiluvchini qo'shish bilan 1972-yilda Avittsur va boshqalar tomonidan yaqinlashuvchi tarzda baholangan. Tirosh va Kobayashi 1976-yilda kuchlarning yuqorigi bahosi to'g'risidagi teoremani dinamik masalalarda ifodalashga urinib ko'rganlar. O'zlarining kvaziyuqorigi baho yondashuvi asosida ular ba'zi bir deformatsiyalash jarayonlarida sodir bo'ladigan kinematik hodisalar ustida bir qator qiziqarli kuzatishlarni o'tkazganlar, ular mazkur bobda batafsil ko'rib chiqiladi.

Yuqorida ko'rsatilganidek, yuqorigi baho to'g'risidagi teoremlarni katta deformatsiyaga ega bo'lgan nostatsionar jarayonlar uchun qo'llash to'g'risidagi masala hatto tayyorlanmaning materiali ideal qattiqplastik bo'lgan va uning oquvchanlik kuchlanishi deformatsiyalash tarixiga bog'liq bo'lmagan holat uchun ham yetarlicha muammoli, chunki ketma-ket keladigan deformatsion sxemalar hisoblangan oldingi shakllar asosida aniqlanadi. Pastki baho to'g'risidagi teoremlarda deformatsiya umuman ko'rib chiqilmaydi, shu sababli ularni qo'llash tayyorlanmaning shaklining o'zgarishini oldindan aytish imkonini bermaydi. Bu ayniqsa, halqani o'tirg'izish, ochiq va yopiq shtamlarda shtamplash, ko'p sonli teshiklar orqali to'g'ri va teskari bosish kabi jarayonlar uchun adolatli bo'ladi, bu jarayonlarda tayyorlanma katta oqish erkinligi darajasiga ega bo'ladi.

Shunga qaramasdan, ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan tayyorlanmaning joriy shakli yoki haqiqiy shaklga yaqin bo'ladi yoki keyingi qadamda optimal tezliklar maydoniga unchalik katta ta'sir ko'rsatmaydi deb umid qilish bilan deformatsiyaning ortishlarini katta qiymatlargacha ketma-ket yig'indilash bajarilgan. Ular

o‘ylaganidek, kuchlarning oldindan aytilgan yuqorigi baholari va mikroskopik oqish sifat jihatidan yaxshi chiqqan, ko‘pgina hollarda esa miqdoriy jihatdan ham mustahkamlanmaydigan va mustahkamlanadigan materiallar uchun olingan - masalan halqani o‘tirg‘izish, ochiq va yopiq shtamlarda shtamplash, kombinatsiyalan to‘g‘ri bosishda olingan eksperimental ma’lumotlar bilan tasdiqlangan. Biroq shuni qayd qilish lozim bo‘ladiki, bunday jarayonlarda materialning mikroskopik oqishi nazariy jihatdan ham, eksperimental jihatdan ham kontakt yuzasida ishqalanish bilan chaqiriladigan – odatda aniq ma’lum bo‘lmaydigan τ urinma kuchlanishlarga katta darajada bog‘liq bo‘ladi.


3.6. Oxirgi elementlar uslubi

Sonli yechish uslublari. Turli jarayonlar va hodisalarni matematik modellashtirish ko‘pgina hollarda differensial tenglamalarning ma’lum bir tizimlari uchun eng chekka masalalarni ifodalashga keltiriladi. Bunday tizimlarni to‘g‘ri integrallash faqat eng oddiy holatlardagina mumkin bo‘ladi. Vujudga keladigan qiyinchiliklarni yengish uchun bir qator muqobil qo‘yilmalar va yaqinlashuvchi yechish uslublari ishlab chiqilgan. Ulardan variatsion uslublari, matematik fizikaning to‘g‘ri uslublari, integral tenglamalar uslublari eng katta rivojlanishga ega bo‘lgan. Bu uslublari spetsifikligi va o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lganligi sababli ko‘rib chiqiladigan masalalar klassini kengaytirgan, biroq prinsipial xarakterdagi ko‘pchilik ziddiyatlarni bartaraf qila olmagan. Katta progressga eng chekka masalalarni zamonaviy EHM larda sonli yechish uslubini qo‘llash tufayli erishilgan.

Sonli yechishning birinchi qadami muhitni diskretlash bo‘lib hisoblanadi, u cheksiz erkinlik darajalari soniga ega bo‘lgan, kontinual yondashuv uchun xarakterli bo‘lgan masalalarni noma’lumlarining oxirgi soniga ega bo‘lgan masalalarga keltirish imkonini beradi. Odatda diskretlash qidiriladigan parametrlarga ega bo‘lgan tugun nuqtalarning qandaydir bir sonini tanlashni va differensial yoki integral operatorlarni tugundagi o‘zgaruvchilar

orqali ifodalangan ko‘proq oddiy algebraik operatorlar bilan almashtirishni o‘z ichiga oladi. Diskretlashning to‘rli, oxirgi elementli va chegara elementli sxemalari ma’lum. To‘rli diskretlashda (3.29-rasm,a) sohani Dekart yoki maxsus koordinatalar to‘ri bilan tugun nuqtalarda noma’lum kattaliklarga ega bo‘lgan bo‘laklarga ajratishdan foydalaniladi.


Tugun nuqtalar o‘rtasidagi farq munosabatlari aniqlanadi. Oxirgi elementli diskretlashda soha ixtiyoriy o‘lcham va shaklga ega bo‘lgan qandaydir bir sonli elementlarga ajratiladi, zaruriy operatorlar esa maxsus approksimatsiyalash funksiyalari yordamida tugundagi o‘zgaruvchilar orqali ifodalanadi (3.29-rasm,b). Chegara elementli diskretlash uchun bunday protsedura faqatgina sohaning chegarasida joylashgan tugun nuqtalarda bajariladi (3.29-rasm,d).



3.29-rasm. Diskretizatsiyalash (diskretlash) sxemasi: **a**-to‘rli; **b**-oxirgi-elementli; **d**-chegara-elementli.

Shu tariqa xususiy hosilalardagi differensial tenglamalar tugunlar ketma-ketligi uchun yozilgan algebraik tenglamalar tizimlari bilan, maxsus funkcionallar esa – tugundagi o‘zgaruvchilarning oxirgi sonining funksiyalari bilan almashtiriladi. Qidirilayotgan kattaliklarni keyingi hisoblash va holat parametrlarini aniqlashni sonli tahlil qilishning standart uslublari bilan bajarish mumkin. Ko‘rsatilgan operatsiyalar ketma-ketligi jamlanmasi: eng chekka masalaning qo‘yilishi – diskretlash sxemasi – hisoblashlar protsedurasi – sonli yechish uslubini belgilaydi (3.30-rasm).

Oxirgi farqlar uslubida (OFU) to'rtli sxemalar va OFU differentsial tenglamalarining mos keluvchi oxirgi farqli analoglaridan foydalaniladi, u gidrodinamika, issiqlik o'tkazuvchanlik masalalari va boshqa masalalarda muvaffaqiyatli qo'llanilgan birinchi sonli uslub bo'lib hisoblanadi. Uslubning kattagina chegaralanishlari chegara shartlarini hisobga olishning qiyinligi, mayda to'rtlardan foydalanish zarurligi, hisoblash jarayonining beqarorligi bilan bog'lanadi.



3.30-rasm. Eng chekka masalalarning qo'yilishi va sonli yechish uslublarining tasnifi.

Variatsion-farq uslubi (VFU) farq sxemalarini masalalarning differentsial qo'yilishiga nisbatan emas, variatsion (funksional) qo'yilishiga nisbatan qo'llashga asoslanadi, u iteratsion jarayonlarning barqarorligini, keng taxmin qilishlarda yechimning mavjud bo'lishi va o'xshash bo'lishini ta'minlaydi. Biroq to'rtli diskretlash tufayli chegara shartlarini approksimatsiyalashda va sohaning geometriyasida qiyinchiliklar saqlanib qoladi, variatsion shakl universal bo'lib hisoblanmaydi.

Oxirgi elementlar uslubining (OEU) paydo bo'lishi qurilish mexanikasi masalalari bilan chaqirilgan. Biroq OEU ni qayishqoqlik nazariyasi masalariga nisbatan qo'llashga bo'lgan dastlabki urinishlar butun yaxlit muhitlar mexanikasida revolyutsiya sodir bo'lishiga olib kelgan, va oxirgi 15 yilda bu yo'nalishda intuitsiyadan umumiylikkacha bo'lgan katta yo'l bosib o'tilgan.

Hozirgi kunda OEU shunday rivojlanish va ommaviylik darajasiga erishganki, imkoniyatlar va amalga oshirishning oddiyliги bo'yicha unga raqobat qila oladigan boshqa yondashuvlar borligiga shubha tug'iladi. Uslubning afzalliklariga tugun nuqtalarni erkin tanlash, soha va chegara shartlarining ixtiyoriy shakli, jismlarning turli modellari va har qanday o'lchamli masalalarga umumlash-tirishning oddiyliги, xususiyatlar va boshqa mahalliy effektlarning bir xil emasligini tabiiy hisobga olish, masalalarning butun boshli klassi uchun standart dasturlardan foydalanish kiradi.

Oxirgi elementlar uslubi qat'i asoslangan, uning turli shakl-larining differentsial va variatsion qo'yilishlarga, shuningdek, Ritts, Bubnov-Galerkin, eng kichik kvadratlar uslublarining maxsus holatlariga ekvivalentliги isbotlangan. Oxirgi holat oxirgi elementlar uslubiga matematik fizikaning universal uslubi sifatida qarash imkonini beradi. OEU ga ko'plab adabiy manbalar bag'ishlangan, uslubning qo'llanilish sohalari uzluksiz o'smoqda.

Chegara elementlari uslubi (ChEU) keyingi vaqtlarda OEU ga nisbatan elementlar sonining va hisoblash vaqtining kamayishi tufayli (taxminan 5-10 martaga) o'ziga e'tiborni tobora ko'proq jalb qilmoqda. Bunda yechim faqatgina sohaning chegarasida quriladi, har qanday ichki nuqtada esa yechim chegaralardan aniq integrallash bilan topiladi. Biroq uslubni masalalarning faqatgina chegara integral tenglamalariga keltiriladigan va sohada uzluksiz yechimga ega bo'lgan tor klassi uchun qo'llash mumkin.

Yechish uslubini tanlash, sanab o'tilgan xususiyatlardan tash-qari, katta darajada ko'rib chiqiladigan masalaning spetsifikasi bilan belgilanadi.

Plastiklik nazariyasi tenglamalarining chiziqli emasligi, yechimni noma'lum chegarali sohada qidirish zarurligi, rivojlangan

qattiq sohalarning bo'lishi, oqimning mahalliylishishi, turlicha uzilishlarning mavjud bo'lishi va hokazolar sababli to'rtli diskretlashga asoslangan oddiy hisoblash sxemalari kam samarali bo'lib chiqqan va sonli uslublarning boshqa sohalardagi muvaffaqiyatlariga qaramasdan, oxirgi elementlar uslubi keng tarqalish va rivojlanishga ega bo'lmaguncha ular plastiklik nazariyasida sezilarli rol o'ynamagan.

Quyida oxirgi elementlar uslubining (OEU) plastiklik nazariyasining metallarning shaklini o'zgartirish jarayonlari bilan bog'lanadigan texnologik masalalariga qo'yilishi ko'rib chiqilgan. Bunday jarayonlar uchun sohaning geometriyasi va materialning xususiyatlarining o'zgarishiga olib keladigan katta deformatsiyalar xarakterli bo'ladi, bu hollarda plastik holatning ko'pchilik o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi, ular sonli yechishda qiyinchiliklarni chaqiradi. Vujudga keladigan hamma muammolar ham hali muvaffaqiyatli hal qilingan yo'q, biroq plastik shakl o'zgartirish jarayonlarini oxirgi elementli tahlil qilish usullari shiddat bilan rivojlanmoqda, hozirgi kunda ularning yuqori ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligiga shubha yo'q. OEU texnologiyani qat'iy prognozlanadigan va turli parametrlar bo'yicha optimal qilish uchun metallarga bosim bilan ishlov berish jarayonlarini yetarlicha aniqlik va to'liqlik bilan matematik modellashtirish uchun real asosni beradi. Ko'rib chiqilayotgan masalalarning batafsil sharhi mamlakatimizdagi adabiyotlar orasida mazkur kitobda keltirilgan.


Oxirgi elementlarni diskretlash. Kontinual tasvirlashdan farqli o'laroq, oxirgi elementlar uslubida muhitni diskretlash bevosita eng boshidan boshlab kiritiladi, kontinium mexanikasi esa diskret mexanika bilan almashtiriladi.

Muhitni diskretlash. Ko'rib chiqilayotgan D sohani qandaydir bir sonli tagsohalarga - λ ($\lambda = 1, 2, \dots, N$) tugun nuqtalarga ega bo'lgan ω^m ($m = 1, 2, \dots, M$) oxirgi elementlarga ajratamiz (3.29-rasm,b). Elementlarning geometriyasini masalaning o'lchamliligini hisobga olish bilan tanlaymiz: yassi geometriya – yassi kuchlangan va yassi deformatsiyalangan holatlar uchun, halqa geometriya – o'q simmetriyali holat uchun, uch o'lchamli geometriya – hajmli holat

uchun. Tirqishlarsiz va bir-birini yopmasdan tutashadigan elementlar jamlanmasi soha va uning chegaralarining shaklini approksimatsiyalaydi. Elementlarning shakli odatda standart shablonlardan biriga – to‘g‘ri chiziqli yoki egri chiziqli uchburchaklar, to‘rtburchaklar, tetraedrlar va hokazolarga mos keladi.


Har bir shablon uchun tugun nuqtalarning ma’lum bir to‘plami mavjud, bu nuqtalar elementlarning cho‘qqilari, qirralari yoki chegaralariga qo‘yiladi. Alohida elementlarning o‘lchamlari, to‘rning quyuqligi va turli sohalarning soni ixtiyoriy o‘rnatiladi, bu fizikaviy va intuitiv old yo‘llanmalar, shuningdek, to‘plangan tajriba va jarayonni tushunish asosida holatning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi. Barcha hollarda elementlarga ajratish chegaralarning shakli, chegara shartlari, xususiyatlarning taqsimlanishi, maxsus nuqtalarning borligiga muvofiq amalga oshiriladi.

Oxirgi elementlarni approksimatsiyalash. Oxirgi elementli diskretlash asosida qidiriladigan funksiyalarning o‘zini haqiqiy tutishi uchun yaqinlashishni quramiz. Oddiy bo‘lishi uchun D sohada berilgan ikkita $z-z(x, u)$ o‘zgaruvchilarning skalyar funksiyasini ko‘rib chiqamiz, bu sohaga x, u, z uch o‘lchamli kenglikda P yuza mos keladi (3.31-rasm).



3.31-rasm. Yechimni oxirgi elementli approksimatsiyalash.

Sohani λ ($\lambda=1,2,\dots,N$) tugun nuqtalarda tutashadigan ω^m ($m=1,2,\dots,M$) oxirgi elementlarga ajratamiz. Aytaylik, D sohaning ixtiyoriy x, u nuqtasida uning qiymatlariga mos keladigan erkinlik darajalarining cheksiz soni o‘rniga $\lambda(z^1, z^2, \dots, z^N)$ tugun nuqtalarda z ning qiymatlarining diskret sonini beramiz. Har bir element doirasida $z(x, u)$ funksiyani ma’lum turdagi bo‘lakli-silliq tekisliklar bilan approksimatsiyalaymiz, bu tekisliklar tugun nuqtalarda z^λ funksiya-ning berilgan qiymatlari orqali o‘tadi va tutashadigan elementlarning chegaralarida uzluksizlik shartini qanoatlantiradi (3.32-rasm). Shu tariqa qidirilayotgan $z(x, u)$ funksiya alohida “qiyqimlar” dan – o‘zlarining tagsohalarida aniqlangan oddiy funksiyalardan “tikilgan” bo‘lib qoladi.



3.32-rasm. Oxirgi elementli uslubdagi almashinishning tarqalishi (a) va uzellisi (b) ko‘rinishlari.

Bu holat D elementga etarli kichik sohani egallashga va zaruriy funksiyalar yaqinlashuvini qulay bir sharoitga moslab qurishning printsiptial imkoniyatlarini ta’minlab beradi. z^λ va boshqa miqdorlarni hisoblash proseduralari, elementlar ichidan approksimatsiyalash funksiyalarini tanlash, sonlar va uzelli nuqtalar joylashuvi, elementlar shakllari, D sohaning sxemasini egallash, z funksiya o‘zini tutishi va oxirgi elementli uslub sonlari hamda boshqa faktorlar uchun ko‘rsatilgan imkoniyatlarni amaliy tomondan to‘liq realizatsiya qilish mumkin bo‘ladi. Bunday holatlar har bir element doirasida va

ma'lum funksiyalar atrofidagi bo'lakli-silliqlik tekisliklar bilan amalga oshirilishi mumkin.

Nazorat savollari

1. Metall materiallari (metallmas materiallar) qanday hollarda presslanadi?

2. Metall materiallarini presslashdan maqsad nima?

3. Materiallarni presslayotganda diametri necha mm dan ortiq bo'lgan chivichlar, devor qalinliklari va ichki diametrlari necha mm dan necha mm gacha bo'lgan quvurlar, ko'ndalang kesim o'lchami necha mm gacha bo'lgan turli shaklli va o'lchamli buyumlar tayyorlab olinadi?

4. Materiallarni presslashning necha xil usuli bor, shularni sxematik holda chizib tushuntiring.

5. Materiallarni shtamplash deb nimaga aytiladi va uning qanday usullarini bilasiz?

6. Sovuq va issiq holda shtamplash uchun ishlatiladigan shtamplar markalarini yozib bering.

7. listli materiallarni shtamplash deb nimaga aytiladi?

8. Yuqorigi va pastki baholash uslublarining mohiyati nimadan iborat?

9. Muhitni diskretlash mohiyatini va elementlar geometriyasi o'lchamlarini hisobga olish va tanlash jarayonlarini yozib bering.

10. Oxirgi elementlarni approksimatsiyalash jarayonini tushuntiring va uni sxematik ko'rinishini chizib bering.

4-BOB. YUQORIGI VA PASTKI BAHOLASHLAR TO‘G‘RISIDAGI TEOREMLAR

4.1. Yopishqoq bo‘lmagan qattiqplastik jismni kvazistatik deformatsiyalash

Aytaylik, zagotovkaning materiali, masalan, Mizes plastiklik shartini qanoatlantiradigan materiallar kabi qattiqplastik bo‘lsin, tavsif tenglamasi esa plastik deformatsiya energiyasining maksimal sochilish (dissipatsiyalanish) tamoyiliga bo‘ysunsin:

$$(\sigma_{ij} - \sigma_{ij}^s)\varepsilon_{ij} \geq 1 \quad \text{yoki} \quad \int_V (\sigma_{ij} - \sigma_{ij}^s)\varepsilon_{ij} dV \geq 0 \quad (4.1)$$

Bu tamoyil plastik potensial va materialning $f(\sigma_{ij}) = k_f$ plastiklik sharti teng va shartni to‘qqiz o‘lchamli σ_{ij} – kenglikda tasvirlaydigan yuza bo‘rtik deb taxmin qilishdan kelib chiqishini ko‘rsatish mumkin. Aytaylik, kuchlanishlar yuzasi yoki F_i yuza kuchlarining yuzasi V to‘liq hajmga va S to‘liq yuza maydoniga ega bo‘lgan jismning yuzasining S_F qismida aniqlangan bo‘lsin va tezliklar yuzasi yuzaning boshqa S_c qismida aniqlangan bo‘lsin. Ixtiyoriy tanlangan, kenglikdagi koordinatalar bo‘yicha oxirgi birinchi ko‘paytmalarga ega bo‘lgan va S_C da ilgari aniqlangan u^k_i tezliklar maydoniga teng bo‘lgan u^k_i kinematik mumkin bo‘lgan tezliklar maydoni uchun yuqorigi baho to‘g‘risidagi teorema quyidagi ifoda bilan aniqlanadi (Xill, Prager, Druke va boshqalar tomonidan aniqlangan, uni virtual ish va tengsizlik tamoyilidan chiqarish mumkin):

$$W_C = \int_{S_C} F_i u_i dS \leq \int_V \sigma_{ij}^k \varepsilon_{ij}^k dV + \int_{G^k} k [u_i^k] dS - \int_{S_F} F_i u_i^k dS = W_d + W_S - W_F = W_C^k \quad (4.2)$$

Tengsizlikda o‘ng qismdagi birinchi va uchinchi a‘zolar yuqorida aniqlangan, W_S bilan belgilangan ikkinchi a‘zo kinematik mumkin bo‘lgan tezliklar uzilishlarining yuzalari bo‘ylab ichki siljish

bilan rivojlantiriladigan quvvatni bildiradi, G^k , k va $[u^k_i]$ mos ravishda urinma oquvchanlik kuchlanishi va uzilishning kattaligi yoki tezliklarning sapchishini bildiradi. Chunki sapchish cheksiz katta $\dot{\varepsilon}^k_{ij}$ deformatsiya tezligiga, ba'zi hollarda cheksiz to'liq deformatsiyaga olib keladi. Yopishqoq yoki deformatsiya tezligiga ta'sirchan bo'lgan materiallarni ko'rib chiqishda fizikaviy mulohazalardan kelib chiqish bilan G^k ni chiqarib tashlash lozim bo'ladi. Agar maydon G^k da $u^k_i = 0$ bo'lsa deformatsiya jarayonida mustahkamlanadigan materiallar uchun ham shunday qilish talab qilinadi. Xuddi yuqorigi va pastki baholar uslublariga taalluqli ishlardagi kabi, qisqacha bo'lishi uchun Mizes plastiklik sharti va Levi-Mizes kechish qonuniga bo'ysunadigan materiallarni ko'rib chiqish bilan cheklanamiz. Shunda u^k_i hajmning doimiyliги shartini qanoatlantirishi lozim va tengsizlikdagi W_d ni quyidagicha yozamiz:

$$W_d = \int_V \overline{\sigma^k} \overline{\varepsilon^k} dV = \int_V k_f \overline{\varepsilon^k} dV \quad (4.3)$$

Bu yerda $\overline{\varepsilon^k}$ – deformatsiya tezliklarining shiddati (intensivligi) $\left\{ \left(\frac{2}{3} \right) \dot{\varepsilon}^k_{ij} \cdot \dot{\varepsilon}^k_{ij} \right\}^{1/2}$;

σ^k – urinma kuchlanishlarning shiddati $\left\{ \left(\frac{3}{2} \right) \dot{\sigma}^k_{ij} \cdot \dot{\sigma}^k_{ij} \right\}^2$;
 $\sigma^k_{ij} - \varepsilon^k_{ij}$ ga mos keluvchi kuchlanishlar divigatori.

Postulatlangan plastiklik shartidan σ^k oquvchanlik kuchlanishiga yoki k_f siljish oquvchanlik kuchlanishiga teng bo'lishi kelib chiqadi, albatta.

Agar zagotovkaning materiali ideal qattiqplastik bo'lsa va k_f butun deformatsiyalanadigan jismda bir xil bo'lsa, u holda tenglama quyidagi ko'rinishni oladi:

$$W_d = \int_V k_f \overline{\varepsilon^k} dV \quad (4.4)$$

Bu ifoda birinchi marta Markov tomonidan olingan. Ixtiyoriy tanlangan, S_F yuzada chegara shartlarini, plastiklik sharti tengsizligini

va materialning hajmida muvozanat tenglamasini qanoatlantiradigan σ^k_i , statik mumkin bo‘lgan kuchlanishlar maydoni uchun pastki baho to‘g‘risidagi teoremani

$$W_C = \int_{S_C} F_i u_i dS \geq \int_{S_C} F_i^s u_i dS = W_C^s \quad (4.5)$$

tengsizlikka muvofiq ifodalash mumkin.

Bu yerda F_i^s – S_C da σ^k_i ni qanoatlantiradigan yuza kuchlari.

Shuni qayd qilamizki, S_C da ustuvor bo‘lgan τ^s_C statik mumkin bo‘lgan urinma kuchlanish τ_f siljishda oquvchanlik kuchlanishdan oshiq bo‘lmasligi lozim. Bunda σ^k_i tangensial kuchlanishlarning uzulish yuzalaribo‘lishi mumkin, biroq bu tengsizlikni uzaytirmaydi.

4.2. Tugunlardagi va elementning ichidagi o‘zgaruvchilar

Yuqorida keltirilgan materiallar shuni ko‘rsatadiki, oxirgi elementli diskretlash ikkita xildagi kattaliklarni–tugundagi o‘zgaruvchilarning diskret soni va qidirilayotgan parametrlarning elementlarning ichida taqsimlanishini approksimatsiyalaydigan maxsus turdagi funksiyalarni kiritish bilan bog‘lanadi. Bunda tugundagi o‘zgaruvchilar mustaqil parametrlar hisoblanadi, elementlarning ichidagi taqsimlanishlar esa ular orqali aniqlanadi. Kelgusida noma’lumlar sifatida kinematik kattaliklar–tugunlardagi tezliklar va siljishlarni tanlaymiz, chunki masalalarning shunday ifodalanishi OUE da ustuvor bo‘lib hisoblanadi.

Elementlarning ichida siljishlarning (tezliklarning) taqsimlanishini funksiyalar bilan tasvirlaymiz (3.32-rasm, a ga qarang):

$$u_i^m = u_1(a_i^1, a_i^2, \dots, a_i^p; x_i), \quad i = 1, 2, 3 \quad (4.6)$$

Bu yerda u_i^m – m elementning ichida siljish vektorning Dekart koordinatalar tizimining x_i o‘qiga proyeksiyasi;

a_i^λ – m ($\lambda = 1, 2, \dots, p$) ko‘rib chiqilayotgan elementning λ tuguniningi yo‘nalishi bilan bog‘langan approksimatsiya koefitsiyentlari.

Tugun nuqtalardagi siljishlarni $u_i^\lambda = q_i^\lambda$ bilan belgilaymiz.

Formulani m elementning λ tugunlaridagi tezliklarning barcha proyeksiyalari uchun yozish va olingan tenglamalar tizimini a_i koeffitsiyentlarga nisbatan yechish bilan formulani quyidagi ko‘rinishga keltirish mumkin:

$$u_i^m = \sum_{\lambda=1}^p N_i^\lambda q_i^\lambda \quad (4.7)$$

Bu yerda N_i^λ – formulani approksimatsiyalaydigan funksiyani tanlash, elementning shakli va tugunlarning soni bilan aniqlanadigan funksional koeffitsiyentlar, ular shaklining funksiyalari deb ataladi.

Formuladan elementning ichida deformatsiyalarning taqsimlanishini aniqlaymiz:

$$\varepsilon_{ij}^m = \frac{1}{2} \left(\frac{\partial u_i^m}{\partial x_j} + \frac{\partial u_j^m}{\partial x_i} \right) \quad (4.8)$$

Differentsiallashtirishni bajarish va a’zolari tugunlardagi siljishlar bo‘yicha guruhlashtirish bilan

$$\varepsilon_{ij}^m = \sum_{\lambda=1}^p B_{i/\gamma}^\lambda q_\gamma^\lambda, \quad i, j, \gamma = 1, 2, 3 \quad (4.9)$$

ni olamiz.

Formulada takrorlanuvchi indekslar bo‘yicha yig‘indilash qoidasidan foydalanilgan; $B_{i/\gamma}^\lambda$ koeffitsiyentlar ε_{ij}^m deformatsiyaning tarkibiy qismlarini ν elementda turli yo‘nalishlarda q_γ^λ tugunlardagi ko‘chishlarning proyeksiyalariga bog‘lanishini aniqlaydi ($\gamma = 1, 2, 3$).

Xuddi shu tariqa elementning ichida σ_{ij}^m taqsimlangan kuchlanishlar va C_F^m elementning chegaralarida berilgan t_i yuza kuchlanishlarini jamlangan tugun qiymatlariga keltirishni bajarish mumkin. Mos keluvchi keltirish kriteriyasi t elementning tugunlaridagi kuchlarning har bir tarkib toptiruvchisi uchun virtual ish tamoyili bilan aniqlanadi, ya’ni har bir λ tugunga elementga qo‘yilgan ichki va tashqi kuchlanishlarning ularning ishi berilgan tugundagi q_γ^λ

siljishlarga bog‘liq bo‘lgan qismi keltiriladi. m elementning ichki kuchlarining ishining variatsiyasi uchun ifodani tuzamiz:

$$\delta W_{BH}^m = \int_{\omega_m} \sigma_{ij}^m \delta \varepsilon_{ij}^m dw \quad (4.10)$$

Bu yerda ω_m – t elementning hajmi.

Bu yerga quyidagi formulani o‘rniga qo‘yamiz:

$$\delta W_{BH}^m = \sum_{\lambda=1}^p \delta q_{\gamma}^{\lambda} \int_{\omega_m} B_{ij\gamma}^{\gamma} \sigma_{ij}^m dw \quad (4.11)$$

Shu bilan birgalikda, σ_{ij}^m taqsimlangan kuchlanishlarga ekvivalent bo‘lgan, m elementning λ tuguniga i yo‘nalishda qo‘yilgan $p_i^{m\lambda}$ tugun kuchlari bilan tugunlardagi siljishlarning variatsiyalarida bajariladigan ish:

$$\delta W_{BH}^m = \sum_{\lambda=1}^p p_i^{m\lambda} \delta p_i^{m\lambda} \quad (4.12)$$

Olingan ifodalarni tenglashtirish bilan

$$p_i^{m\lambda} = \int_{\omega_m} B_{ij\gamma}^{\gamma} \sigma_{ij}^m dw \quad (4.13)$$

ni topamiz.

Xuddi shunday, t elementning ularda t mi taqsimlangan tashqi yuklama berilgan C_F^m chegaralari bo‘ylab yuza kuchlanishlari ishining variatsiyasi:

$$\delta W_t^m = \int_{C_F^m} t_i^m \delta u_i dS \quad (4.14)$$

Yoki yuqorida keltirilgan formulalarni hisobga olish bilan:

$$\delta W_t^m = \sum_{\lambda=1}^p \delta q_i^{\lambda} \int_{C_F^m} N_i^{\lambda} t_i^m dS \quad (4.15)$$

Xuddi shunday ish $\overline{t_i^{m\lambda}}$ ko'chishlarning mos keluvchi variatsiyalarida λ tugunlarda i yo'nalishda t element tomonidan qo'yilgan δq_i^λ jamlangan tugun kuchlari bilan ham bajarilishi lozim. Bundan

$$\overline{t_i^{m\lambda}} = \int_{C_F^m} N_i^\lambda t_i^m dS \quad (4.16)$$

ni olamiz.

Bu tenglamalar σ_{ij}^m taqsimlangan ichki kuchlanishlar va t_i^m berilgan yuza yuklamalarini ekvivalent tugun kuchlari bilan almashtirish imkonini beradi.

Elementlar jamlanmasi. Elementlar tutashtirilganda ixtiyoriy X tugunda barcha $t = 1, 2, \dots, s$ elementlar tomonidan q_i^λ tugunlardagi siljishlarning tengligi avtomatik tarzda qanoatlantiriladi, ular uchun bu tugun umumiy cho'qqi bo'lib hisoblanadi (3.32-rasm,b ga qarang). Shu tariqa formulada funksiyalarni tanlash hisobiga elementlarning umumiy chegaralari bo'ylab siljishlarning (tezliklarning) uzluksizligi ham qanoatlantiriladi. Shu sababli alohida elementlarning kinematik parametrlari ularning jamlanmasi uchun ham saqlanadi.

σ_{ij}^m kuchlanishlar taqsimlanishining elementlarning chegaralari bo'ylab uzluksizligi kinematik qo'yilishda odatda ta'minlanmaydi, chunki bu shartning bajarilishi yo'l qo'yiladigan funksiyalar klassiga kuchli chegaralashlarni qo'yadi. Shu sababli buning o'rniga elementlarning tugunlaridagi jamlangan kuchlarning mos keluvchi tarkibiy qismlarini qo'shish amalga oshiriladi. $m = 1, 2$ va S elementlarning umumiy cho'qqisi bo'lib hisoblanadigan qandaydir bir X tugunni tanlaymiz (3.32-rasm,b ga qarang). Har bir element tomonidan λ tugunga yuza kuchlanishlari va ichki kuchlanishlarga ekvivalent bo'lgan, λ tugunga har bir element tomonidan ta'sir ko'rsatuvchi $t_i^{m\lambda}$, $p_i^{m\lambda}$ kuch vektorlari qo'yilgan. λ tugundagi kuchlarning mos keluvchi tarkibiy qismlarini yig'indilash bilan jamlangan

yuza kuchlari va ichki kuchlarning to‘liq tarkib toptiruvchilarini topamiz

$$T_i^\lambda = \sum_{m=1}^s \bar{t}_i^{m\lambda}, \quad P_i^\lambda \sum_{m=1}^s p_i^{m\lambda} \quad (4.17)$$

Demak, tugundagi kuchlarning mos keluvchi tarkibiy qismlarini yig‘indilash bilan jamlangan yuza kuchlanishlari va ichki kuchlanishlarni topish mumkin. Bu elementlarning ekvivalent holatini aniqlash imkonini beradi.

4.2.1. Elementlarni tanlash va konkret shaklni qabul qilish

Elementning xili tanlangandan keyin OEU ning asosiy nisbatlari konkret shaklni qabul qiladi. Elementning xili dasturlashtirish bosqichida ham, keyingi hisoblashlarni bajarishda ham katta rol o‘ynaydi. Elementlar va approksimatsiyalaydigan funksiyalarni tanlashga qo‘yiladigan umumiy talablarni OEU ning yaqinlashuvchanlik kriteriysi o‘rnatadi.

Uslubning yaqinlashuvchanligi. Sonli uslublarning asosiy tavsifi aniqlik, ya’ni hisoblangan qiymatlarning haqiqiy qiymatlarga yaqinligi bo‘lib hisoblanadi. Aniqlikning ob’ektiv bahosini maxsus tanlangan masalalarning (test masalalarining) sonli va analitik yechimlarini taqqoslash beradi. Agar uning yaqinligi ta’minlansa, odatda uslubning aniqligi yetarli deb hisoblanadi, yaqinlashuvchanlik deganda qurilgan yechimning elementlarning maydalanishi va ularning soni ortishiga qarab aniq yechimga juda yaqin yaqinlashishi tushuniladi.

Elementlarning o‘lchamlari kichrayganda diskretlash xatolari (soha va uning chegaralarining yaqinlashishining noaniqligi) avtomatik tarzda bartaraf bo‘ladi; approksimatsiya xatolarini (elementlar doirasida funksiyalarning yaqinlashishining noaniqligi) bartaraf qilishga esa “chegaralangan yaqinlashuvchanlik kriteriylarini” bajarish bilan erishiladi:

a) elementning ichidagi o'zgaruvchini n darajaning minimumi sifatida to'liq polinomlar ko'rinishida taqdim qilish, bu yerda n – funksionalga kiruvchi hosilalarning eng yuqori tartibi;

b) elementlarning chegaralari orqali o'tishda funksiyaning o'zi va uning hosilalarining to $(n - 1)$ tartibgacha uzluksizligini ta'minlash.

Elementlarning xillari. Masalaning spetsifikasiga bog'liq ravishda elementning talab qilinadigan aniqlikka erishish uchun minimal vaqt sarfini ta'minlaydigan qandaydir bir optimal varianti mavjud deb hisoblanadi. Biroq mavjud tavsiyalar, yetarli yaqinlashuvchanlik kriteriyalari ham elementning xilini tanlash uchun katta erkinlik beradi, bu tanlash elementlarning murakkabligi va ularning soni o'rtasida mutanosiblikni o'rnatishdan tashkil topadi.

Shu sababli oxirgi elementlarning keng nomenklaturasi ishlab chiqilgan, ularni bir qator alomatlar bo'yicha tasniflash mumkin:

1) elementlarning chiziqli o'lchamliligi bo'yicha: ikki o'lchamli (yassi, yuzali), hajmli;

2) geometrik shakl bo'yicha – uchburchakli, to'rtburchakli, tetraedrik, prizmatik;

3) chegaralarning shakli bo'yicha – to'g'ri chiziqli, yassi, egri chiziqli, izoparametrik;

4) approksimatsiyalaydigan funksiyaning tartibi bo'yicha – simpleks, kompleks va multipleks-elementlar, yuqori tartibli elementlar;

5) approksimatsiyalaydigan funksiyaning matematik turi bo'yicha – Lejandr polinomlari, Ermit polinomlari, splaynlar, Sirendipov ko'paytuvchilari.

Har xil tipdagi elementlarning detalli tasvirlanishi, shuningdek, ularni qurishning umumiy nazariyasi oxirgi elementlar uslubi bo'yicha asos bo'lib hisoblanuvchi ko'pgina ishlarda keltirilgan.

Yuqori tartibli elementlarning afzalliklariga o'zgaruvchilarning soni va boshlang'ich ma'lumotlar hajmining kamayishi, hisoblash vaqtining qisqarishi va xatolar ehtimolining kamayishi kiradi. Biroq bunda yechimning yuqori aniqligi faqatgina shaklning standart

funksiyalarining o'zini qanday tutishining xarakteri tadqiq qilindigan kattaliklarning haqiqiy o'zgarishiga mos kelgan hollardagina ta'minlanadi. Yuqori tartibli (ikkinchi, uchinchi) elementlar yetarlicha silliq funksiyalarni yaqinlashtirish uchun yoki elementning tipi moslashtirilganda, masalan, plastinkalar va qobiqlar nazariyasidagi kabi ko'rib chiqiladigan masalaning spetsifikasiga moslashtirilganda samarali bo'lib hisoblanadi.

Agar tadqiq qilinadigan funksiyalarning o'zini qanday tutishining xarakteri oldindan ma'lum bo'lmasa va uning unchalik silliq emasligi kutilayotgan bo'lsa, u holda qanoatlanarli yaqinlashishning birdan-bir kafolati mayda elementlarda bo'lakli-silliq approksimatsiyalardan foydalanish bo'lib hisoblanadi. Ularga ko'ra elementlarni maydalash effektlari ularning tartibini oshirishga qaraganda kattaroq rol o'ynashi mumkin bo'ladigan bir qator boshqa sabablar ham bor.

Tugunlardagi o'zgaruvchilarning ta'siri tugun nuqtalar elementlarning cho'qqilari bilan mos tushganda eng kuchli va tugun nuqtalar elementlarning ichida joylashganda eng kuchsiz bo'ladi.

Elementlarning oxirgi sonida ko'pchilik tugunlar cho'qqilar bilan mos tushishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday holat past tartibli elementlar uchun ta'minlanadi.

Yaqinlashuvchanlik kriteriysiga muvofiq, elementlarning o'lchamining kichrayishi har doim yechimning aniqligining ortishiga olib keladi, approksimatsiyalarni yaxshilashning bunday tendentsiyalari esa noma'lumligicha qolmoqda.

Xususan, global approksimatsiyaning butun soha bitta element bilan mos tushadigan eng chekka vaziyati murakkab koordinata funksiyalaridan foydalanilishiga qaramasdan qoniqarli natijalarga olib kelmaydi.

Elementlarning tartibi faqatgina funksionalga kiradigan hosilalarni hisoblashni ta'minlashi lozim. Bunda tenglamalarning bir qismi (siqilmaslik tenglamasi, muvozanat tenglamasi) elementlarning alohida ichki nuqtalarida bajariladi. Oraliq nuqtalarda mos keluvchi kattaliklarni interpolyatsiyalash aniqligi elementning o'lchami kichrayishi bilan ortadi.

Nostatsionar jarayonlarni tahlil qilish ketma-ket bosqichlarni katta gradiyentlarga va oqish yo‘nalishining keskin o‘zgarishlariga ega bo‘lgan sohalarni mayda elementlarga ajratish bilan ko‘rib chiqishni talab qiladi. Bunday sohalarning holati oldindan ma‘lum bo‘lmasligi, elementlarni qayta qurish protsedurasi esa ko‘p mehnat qilishni talab qilishi sababli, butun sohani mayda bo‘laklarga ajratishni qo‘llashga to‘g‘ri keladi.

Yemirilish va nuqsonlar hosil bo‘lishi bilan bog‘lanadigan hodisalarni tahlil qilishda matematik modelning yechish qobiliyati jismning xarakterli o‘lchamlaridan bir necha tartibga kichik bo‘lgan mahalliy hajmlarda holatni baholash uchun yetarli bo‘lishi lozim. Bu hollarda muhitni yetarlicha mayda masshtablarda diskretlash zarur bo‘ladi. Shundan kelib chiqqan holda, aksariyat hollarda past tartibli mayda standart elementlardan foydalanish strategiyasi o‘zini oqalaydi, ular dasturlashtirishning oddiyligini, zaruriy aniqlikni, qabul qilsa bo‘ladigan vaqt tavsiflarini ta‘minlaydi. Qayishqoqlik va plastiklik masalalari uchun variatsion funktsionallar birinchi tartibdan oshiq bo‘lmagan ($n = 1$) siljishlardan (tezliklardan) olingan hosilalarni o‘z ichiga oladi, ya‘ni yaqinlashuvchanlik kriteriysi chiziqli polinomlar uchun bajariladi.

Mos keluvchi eng oddiy simpleks-elementlar tugunlarning soni masalaning o‘lchamidan barga oshiq bo‘lganda amalga oshadi. Shunday qilib, optiaallik sharti bilan belgilangan ikki o‘lchamli holatlarni (yassi yoki o‘q simmetrik) yassi yoki halqa uchburchak elementlar, hajmli holatni esa – tetraedlar qanoatlantiradi.

Yassi uchburchak elementlar. Yassi oqishning kinematikasi siljishlarning (ko‘chishlarning) u_x, u_y (v_x, v_y) tarkibiy qismlarga ega bo‘lgan vektor maydoni bilan x, u koordinata o‘qlari yo‘nalishida beriladi. i_x, i_i skalyar funksiyalarning har biri t uchburchak elementlarda berilgan bo‘lakli-uzluksiz chiziqli funksiyalar bilan approksimatsiyalanadi:

$$u_y^m = a_0^m + a_1^m x + a_2^m y;$$

$$u_y^m = b_0^m + b_1^m x + b_2^m y, \quad (4.18)$$

Bu yerda $a^{m_0}, a^{m_1}, a^{m_2}, b^{m_0}, b^{m_1}, b^{m_2} - m$ elementga tegishli bo'lgan approksimatsiya koeffitsiyentlari.

Keyinchalik t indeks tushirib qoldiriladi. x, u tekislikda uchburchak elementlarni tanlash va approksimatsiyalash sxemasi 4.1-rasmda keltirilgan. Formulaga muvofiq approksimatsiya koeffitsiyentlarini tugundagi o'zgaruvchilar – elementning i, j, k cho'qqilarida siljishlarning qiymatlari orqali ifodalaymiz (aylanish yo'nalishi soat mili yo'nalishiga teskari). Buning uchun har bir cho'qqi uchun (4.19) formulani yozamiz:


$$\begin{aligned} u_{xi} &= a_0 + a_1x_i + a_2y_i; \\ u_{xj} &= a_0 + a_1x_j + a_2y_j; \\ u_{xk} &= a_0 + a_1x_k + a_2y_k; \end{aligned} \quad (4.19)$$

va xuddi u_y ning proyeksiyasidagi kabi, olingan (4.19) tenglamalar tizimini a_0, a_1, a_2 ga nisbatan yechish bilan

$$\begin{aligned} a_0 &= \frac{1}{2w} [(x_jy_k - x_ky_j)u_{xi} + (x_ky_i - x_iy_k)u_{xj} + (x_iy_j - x_jy_i)u_{xk}]; \\ a_1 &= \frac{1}{2w} [(y_j - y_k)u_{xi} + (y_k - y_i)u_{xj} + (y_i - y_j)u_{xk}]; \\ a_2 &= \frac{1}{2w} [(x_k - x_j)u_{xi} + (x_i - x_k)u_{xj} + (x_j - x_i)u_{xk}], \\ w &= \frac{1}{2}(x_iy_k - x_ky_i + x_iy_j - x_jy_i + x_jy_k - x_ky_j) \end{aligned} \quad (4.20)$$

ni topamiz.

Bu yerda $u_y - m$ elementning maydoni; b_0, b_1, b_2 uchun ifodalar formula bo'yicha shu formulaga muvofiq o'zgaruvchilarni oddiy Me bilan topiladi.



4.1-rasm. Yassi uchburchak elementlar bilan approssimatsiyalash.

Formulani o‘rniga qo‘yish elementning ichida siljishlarning proyeksiyalarining taqsimlanishining mos keluvchi tugun siljishlari va tugunlarning koordinatalari orqali ifodalangan tenglamalarini beradi. Bu tenglamalar x, u ka nisbatan chiziqli bo‘lib, elementlarning cho‘qqilarida tugunlardagi siljishlarning tengligini va qo‘shni elementlarning chiziqli chegaralari bo‘ylab siljishlarning uzluksizligini ta‘minlaydi (bundan ularning butun sohada uzluksizligi kelib chiqadi). Ko‘rib chiqilayotgan elementda deformatsiyalarning tarkibiy qismlarini hisoblaymiz:

(4.28) va (4.32) munosabatlardan shu narsa kelib chiqadiki, jismning berilgan zarrachasining shaklining o‘zgarishining kinematikasi ma’lum bo‘lsa, u holda har doim faqatgina kuchlanishlar tenzori deviatorining tarkibiy qismlarining kuchlangan holatning shiddatiga nisbatlarining qiymatlarini aniqlash mumkin bo‘ladi.

Oddiy yuklashda shakl o‘zgarishi kinematikasining parameterlarini kuchlangan holatning bosh o‘qlarining yo‘nalishi o‘rnatadi va bor-yo‘g‘i kuchlangan holatning turini ko‘rsatuvchi uchinchi invariant tavsifni belgilaydi. Kuchlangan holatning birinchi ikkita

invariant tavsiflari $\sigma_{sr} = -r$ (p–gidrostatik bosim) va σ_i o‘zgarmasdan qoladi. Umumiy holatda, deformatsion nazariyaga muvofiq, kuchlangan holatning turi deformatsiyaning turiga mos kelmasligi mumkin, deformatsiyalar va kuchlanishlarning bosh o‘qlari mos tushishi shart emas.

Kichik elastikplastik deformatsiyalarda elastik zonada $\sigma_i/\varepsilon_i = Y_e$ bo‘ladi (E – birinchi turdagi qayishqoqlik moduli, Yung moduli). Puasson koeffitsiyenti 0,5 ga teng bo‘lganda plastik zonada ε_i (4.27) bog‘lanish bilan aniqlanadi. Odatda σ_i kattalik ε_i bilan $\sigma_i = F(\varepsilon_i)$ ko‘rinishda bog‘langan deb taxmin qilinadi.

Umumiy ko‘rinishda deformatsiya parametrlariga bog‘liqlik, deformatsiyalanadigan jismning o‘zini qanday tutishining tanlangan reologik modeliga muvofiq, real jarayonni modellashtiradigan termotezlik sharoitlarida jismning namunalarini bir o‘qli cho‘zish-siqish sinovlarining natijalari bo‘yicha aniqlanadi. Bu (4.28) va (4.32) munosabatlardan kuchlanishlar deviatorining tarkibiy qismlarini aniqlash imkonini beradi. ε_i – σ_i bog‘liqlikdan foydalanish bilan ε deformatsiya ε_{qay} va ε_{pl} tarkib toptiruvchilarga ajratiladi.

Agar plastik sohaga tegishli bo‘lgan egri chiziqning nuqtasidan egri chiziqning boshlang‘ich (elastik) uchastkasiga parallel bo‘lgan va abstsissalar o‘qiga ($\varepsilon_{o'q}$) perpendikulyar bo‘lgan ikkita nur o‘tkazilsa, u holda abstsissalar o‘qida boshlanish nuqtasi va parallel nur bilan kesishish nuqtasi o‘rtasidagi kesmaning uzunligi ε_{pl} ga mos keladi, nurlarning abstsissalar o‘qi bilan kesishish nuqtalari o‘rtasidagi kesma esa – ε_{qay} ga mos keladi. E_{pl} va ε_{qay} ga mos keluvchi kuchlanishlarning teng bo‘lishini ko‘rsatish mumkin.

Kuchlanishlar tenzorining normal tarkibiy qismlarining qiymatlarini aniqlash $\sigma_{o'rt} = -r$ ni bilishga bog‘liq bo‘ladi. Ideal plastik jismning ($\sigma_i = \sigma_s = \text{const}$) yassi deformatsiya, yassi kuchlangan holat va yassi plastik oqish sharoitlarida kichik qayishqoqplastik deformatsiya masalalarini yechish uchun sirg‘alish chiziqlarining xususiyatlaridan foydalaniladi. Shunday qilish mumkin, chunki ko‘rsatilgan uchta sharoitlarda deformatsiyani ko‘rsatuvchi differentsial tenglamalar tizimini kuchlanishlarni ko‘rsatuvchi tenglamalar tizimiga keltirish mumkin.

Ma'lumki, sirpanish chiziqlari material tolasining ko'proq tez uzayish yoki qisqarish yo'nalishi bilan 45° li burchak tashkil qiladigan urinma kuchlanishlarning absolyut qiymatlar bo'yicha maksimal trayektoriyalari bo'lib hisoblanadi. Bitta oilaning har bir chizig'i bo'ylab $r + 1,15\sigma_i$, φ shart saqlanadi. Ortogonal oilaning chiziqlari bo'ylab $r + 1,15\sigma_i$, φ shart saqlanadi, bu yerda φ – Oxy koordinatalar tizimida sirg'alish chiziqlariga urinmaning burchagi. Sirpanish chiziqlari mantiqiy xulosalardan yoki tavsiflar uslubi bilan differentsial tenglamalar tizimini sonli yoki analitik integrallash priyomlari yordamida topiladi.

Ideal plastik moddaning plastik oqishi o'q simmetrik masalasi kuchlanishlar tenglamalar tizimiga keltirilmaydi. Bunda v_p va v_z oqish tezliklarining ko'chishlarning tarkibiy qismlari bilan bog'lanishini chegaralashlar bilan ikkita yechishga misol keltiriladi. Ideal yopishqoq o'q simmetrik oqishda r uchun differentsial tenglamalar nisbatan oddiy bo'lib hisoblanadi. r ni aniqlashda ko'chishlarning koordinatalarga bog'lanishini aniqroq approksimatsiyalaydigan ifodalarni qidirish uchun variatsion uslublardan foydalanish istiqbolli yo'nalish bo'lib hisoblanadi. Kuchlanishlar tenzorining tarkibiy qismlarini r ni aniqlamasdan oxirgi deformatsiyaning munosabatlari bo'yicha aniqlash yuqorida keltirilgan.

Koordinatalar to'ri uslubining yutug'i nisbatan katta deformatsiyalar, yuqori haroratlar va yuqori dinamik yuklamalarda deformatsiyalarni tadqiq qilish imkoniyati bo'lib hisoblanadi. Uning kamchiligi – burchak kattaliklarini o'lchashning aniqligi yuqori emasligidan iborat. Aniqroq natijalar to'r tugunlarining faqatgina chiziqli koordinatalarini o'lchashda hisobga olinadi.

Nazorat savollari

1. Yuqorigi va pastki baholashlar deganda nimani tushunasiz?
2. Mizes plastiklik sharti va Levi-Mizes kechish qonuniga bo'ysunadigan materiallarni tushuntirib bering.
3. Elementlarni tanlash va konkret shaklni qabul qilish jarayonlarini aytib bering.

4. Elementlarning xillari deb nimaga aytiladi va spetsifikasiyaga bog‘liq ravishda elementning talab qilinadigan aniqlikka erishish uchun minimal vaqt sarfini ta‘minlaydigan qandaydir bir optimal varianti mavjud bo‘lishini tushuntiring.

5. Oxirgi elementlarning beshta nomenklaturalarini yozib bering.

6. Oxirgi element usulining differensial va variatsion shakllari qanday amalga oshiriladi?

7. Genki elastik-plastik jismidagi model uchun kuchlanishlar va deformatsiyalar o‘rtasidagi munosabatlar formulasini yozib bering.

8. Plastiklikning energetik shartini geometrik ma‘nosi nimadan iborat?

9. Geometrik tadqiqot qilish uslublari qanday amalga oshiriladi?

10. Genki deformatsiyalarining tarkibiy qismlarini tushuntirib bering.

5-BOB. METALLARNI DEFORMATSIYALASH JARAYONIGA DEFORMATSIYA HARORATI VA TEZLIGINING TA'SIRI

5.1. Yoqori haroratlarda deformatsiyalash, metallarning qaytishi va rekristallanishi

Oldingi bobda mustahkamlanish hamrohlik qiladigan sovuq deformatsiyalash mexanizmi tasvirlangan edi. Mazkur bobda esa oshirilgan haroratlarda deformatsiyalash, metallarning qaytishi (dam olishi) va rekristallanishini tasvirlaymiz.

Deformatsiyalanadigan metallning harorati oshirilganda metalda mustahkamlanishga qarama-qarshi bo'lgan yangi jarayonlar, aynan esa metallarning qaytishi (dam olishi) va rekristallanishi sodir bo'ladi. Shunday qilib, oshirilgan haroratlarda deformatsiyalash jarayonida bir paytning o'zida mustahkamlanish jarayonlari ham, mustahkamlikning kamayish jarayonlari ham sodir bo'ladi.

O'tkazilgan ilmiy-tadqiqot eksperimentlarining ko'rsatishicha, sovuq deformatsiyalashda alohida donalarda sirpanish tekisliklarining turlicha yo'nalganligi, tayyorlanmaning hajmida deformatsiyalarning notekis taqsimlanishi, donalarning shakli, o'lchamlari va xususiyatlaridagi farqlar oqibatida donalar kattaligi bo'yicha turlicha qayishqoq deformatsiyani oladi. Natijada tashqi kuchlar olingandan keyin sovuq deformatsiyalangan metallda qoldiq kuchlanishlar vujudga keladi.

Ma'lum bir haroratlargacha qizdirish bilan deformatsiyalashda atomlarning issiqlik tebranishlarining amplitudasi shunchalik ortadiki, bu atomlarning muvozanat holatiga qaytishini osonlashtiradi.

Shu bois deformatsiyalashda vujudga keladigan donalarning yuqorida ko'rsatilgan elastik deformatsiyalari katta darajada tenglashadi, bu tashqi kuchlar olingandan keyin qoldiq kuchlanishlarning kamayishini ta'minlaydi (agar deformatsiyalashdan keyin tayyorlanmani notekis sovutishda vujudga kelishi mumkin bo'lgan termik kuchlanishlar hisobga olinmasa). Bu hodisa metallning qaytishi (dam olishi) deb ataladi.

Ma'lumki, toza metallar uchun qaytish (0,25-0,30) T_{erish} dan yuqori absolyut haroratlarda namoyon bo'ladi, bu yerda T_{erish} – absolyut erish harorati. Metallarda eruvchan aralashmalarning bo'lishi metallning qaytish (dam olish) haroratining ortishiga olib keladi.

Ishlov berish jarayonida qaytish deformatsiyaga qarshilikning biroz kamayishiga va plastiklikning ortishiga olib keladi. Shunga qaramasdan, metallning qaytish (dam olish) haroratlarida deformatsiyalashga mustahkamlanish hamroqlik qiladi, biroq uning shiddati biroz pastroq bo'ladi.

Qaytish donalarning shakliga va o'lchamlariga ta'sir ko'rsatmaydi, ular qaytishning (dam olishning) bo'lishi bilan deformatsiyalashda, xuddi qaytish (dam olish) bo'lmagandagi kabi, metallning ko'proq shiddatli oqishi yo'nalishida cho'ziladi. Qaytish shuningdek deformatsiyalashda tekstura hosil bo'lishiga ham to'sqinlik qilmaydi.

Qaytish vaqtda kechadi; harorat ortishi bilan qaytish (dam olish) tezligi ortadi. Shu bois qaytish hodisasi deformatsiyalash harorati va tezligi o'rtasidagi munosabatga bog'liq bo'ladi. Berilgan haroratda deformatsiya tezligining ortishi qaytish hodisasini kamaytirishi mumkin. Qaytish shuningdek, metall sovuq deformatsiyalanganidan keyin uni sovutishda (bo'shatishda) ham sodir bo'ladi.

Sovuq deformatsiyalangan metallni qaytish haroratigacha bo'lgan harorat bilan qizdirish uning mexanik ko'rsatkichlarining xususiyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi (mustahkamlik ko'rsatkichlari biroz kamayadi, plastiklik ko'rsatkichlari esa biroz ortadi).

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqish bilan shuni qayd qilish lozimki, qaytish sovuq deformatsiyalangan metallning korroziyaga qarshiligini oshiradi va o'z-o'zidan darz ketish imkoniyatini keskin kamaytiradi. Darz ketish hodisasi sovuq shtamplash bilan olingan detallarda, ayniqsa, latundan olingan detallarda kuzatiladi va metallning kristallitlararo korroziyalanishi hisobiga yemirinishga qarshilik kamayganda qoldiq kuchlanishlar ta'siri ostida sodir bo'ladi.

Shu bilan birga aytib o'tish zarurki, ba'zi bir metallar va qotishmalarda, masalan, uglerodli po'latda qaytish haroratlarida qaytishning mexanik xususiyatlarga ta'siriga teskari bo'lgan eskirish

hodisasi vujudga kelishi mumkin, Eskirish mustahkamlik ko'rsatkichlarining ortishiga va shu bilan birgalikda plastiklik ko'rsatkichlarining kamayishiga olib keladi.

Eskirishning fizikaviy tabiati hali oxirigacha aniqlanmagan. Eskirish jarayonida mexanik xususiyatlarning o'zgarishi aralashmalarining kichik dispers zarrachalarining sirpanish tekisliklariga to'kilishi oqibatida sodir bo'ladi deb taxmin qilinadi.

Deformatsiyalanadigan metallning haroratini qaytish haroratidan yuqoriga yanada oshirish rekristallanish jarayoni vujudga kelishiga olib keladi.

Plastik deformatsiyada rekristallanish deformatsiyalangan metallarning o'rniga homilalarning vujudga kelishi, o'sish paytida yangi donalarning vujudga kelishidan iborat bo'ladi.

Rekristallanishning asosiy imkoniyati shu bilan shartlanadiki, deformatsiyalanadigan metallning haroratining ortishi atomlarning energetik potensialini shunchalik oshiradiki, natijada atomlar qayta guruhlashish va shiddatli joy almashish imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Yangi donalarning homilalari deformatsiyalanadigan metallda mavjud bo'ladigan – deformatsiya jarayonida og'ishmagan, nisbatan to'g'ri panjarali kataklar (mozaikaning alohida bloklari, sirpanish tekisliklaridagi, chegara qatlamlaridagi va donalararo qatlamlardagi don bo'laklari) bo'lib hisoblanadi.

Bu homilalarga, panjaraning parametrlariga muvofiq, donalarning homilalari bilan qo'shni atomlar birika boshlaydi va yangi donlar o'sib chiqa boshlaydi. Donalarning o'lchami ortadi va vaqt o'tishi bilan deformatsiyalangan donalarning atomlarini to'liq yutishi mumkin. Homilaning atrofida donalarning barcha yo'nalishlar bo'yicha o'sish imkoniyati bir xil bo'lishi oqibatida homilalardan yangi hosil bo'lgan donalar teng og'irlikli bo'ladi, ya'ni hamma yo'nalishlar bo'yicha o'rtacha bir xil o'lchamlarga ega bo'ladi.

Shunday qilib, metallni rekristallanish haroratidan yuqori haroratda deformatsiyalash ikkita qarama-qarshi va bir paytda ta'sir ko'rsatuvchi ikkita jarayon – donalarning mustahkamlanish bilan deformatsiyalanishi va ularning rekristallanishi bilan birgalikda kuzatiladi.

Rekristallanish jarayoni qandaydir bir tezlik bilan vaqtda sodir bo‘ladi, bu tezlikning kattaligi deformatsiyalash harorati va deformatsiya darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Deformatsiyalanadigan jism oladigan deformatsiyalash harorati va deformatsiya darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, rekristallanish tezligi shunchalik yuqori bo‘ladi.

Yakuniy natija deformatsiya tezligi va rekristallanish tezligi o‘rtasidagi nisbatga bog‘liq bo‘ladi.

Agar deformatsiya jarayonida rekristallanish deformatsiyalangan metallning barcha donlari natijada teng o‘qli shaklni oladigan, ularning kristall tuzilishi esa deformatsiyalanmagan donalarning tuzilishiga mos keladigan tezlik bilan borsa, u holda metallning xususiyatlarining mustahkamlanish bilan chaqiriladigan o‘zgarishlari sodir bo‘lmaydi.

A.A.Bochvarning ma’lumotlariga ko‘ra, toza metallar uchun rekristallanishning boshlanish harorati $T_{\text{rekr}} \sim 0,4 T_{\text{erish}}$ munosabatdan aniqlanadi, bu yerda T_{rekr} – absolyut rekristallanish harorati; T_{erish} – absolyut erish harorati.

Eruvchan aralashmalarning bo‘lishi rekristallanish haroratini biroz oshiradi. Qotishmalarda rekristallanishning boshlanish harorati odatda qotishmani tashkil qiladigan metallarga qaraganda yuqori bo‘ladi, biroq erish harorati – past bo‘ladi. Bu aftidan, turli atomlardan kelib chiqqan panjaraning qayta qurilishi yuqoriroq energetik potensialni talab qilishi bilan tushuntiriladi.

Rekristallanish jarayonida kristallitlarning ichida ham, donlarning chegaralari bo‘ylab ham atomlarning diffuziyalanishi oshadi, bu donalarning kimyoviy bir jinsli emasligining tekislanishiga va donalarning chegaralari bo‘ylab kristallitlararo deformatsiya natijasida vujudga keladigan shikastlanishlarning bartaraf bo‘lishiga ko‘maklashadi.

Rekristallanish bor bo‘lganda deformatsiyalangan metallda teng o‘qli donalarning ko‘pgina o‘lchamlari rekristallanish sodir bo‘ladigan haroratga, deformatsiya darajasiga, shuningdek, deformatsiya tezligiga bog‘liq bo‘ladi. Rekristallanish bilan deformatsiyadan keyin donaning o‘lchami, deformatsiyalash harorati va deformatsiya darajasi o‘rtasidagi bog‘lanish odatda ikkinchi turdagi

rekristallanish hajmiy diagrammalari bilan taqdim qilinadi, ular maxsus o'tkaziladigan eksperimentlarning natijalari bo'yicha quriladi va har bir metall va qotishma uchun xarakterli bo'ladi. Past uglerodli po'latning rekristallanish hajmiy diagrammasi 5.1-rasmda keltirilgan.

Diagrammada donaning kattaligi, deformatsiya va qizdirish harorati ko'rinib turibdi. Boshqa metallar va ularning qotishmalari uchun ham rekristallanish diagrammalari xuddi shunday xarakterga ega bo'ladi. Rekristallanish hajmiy diagrammasi bo'yicha past uglerodli po'latda donaning kattaligi (mikronlarda MK), deformatsiya (% larda) va qizdirish haroratining nisbatlarini esa ($^{\circ}\text{C}$ da) aniqlash mumkin bo'ladi.

Rekristallanish bilan deformatsiyadan keyin donaning kattaligini deformatsiya darajasiga bog'liqligining o'ziga xos xususiyati kritik deformatsiya darajalarining bo'lishi bo'lib hisoblanadi, bu deformatsiyalarda rekristallangan donalarning o'lchamlarini keskin ortishi kuzatiladi. Kritik deformatsiya darajasining kattaligi rekristallanish boshlanadigan haroratga yaqin haroratlarda odatda 8-10% dan oshmaydi va harorat ortishi bilan kamayadi (kritik deformatsiya darajalari zonasi koordinatalar boshiga qarab siljiydi).

Kritik deformatsiya darajalarining bo'lishini quyidagicha tushuntirish mumkin. Deformatsiyaning boshlang'ich bosqichida deformatsiya donani o'rab turadigan kristallitlararo moddaga putur yetkazmasdan kristallitlarning ichidagi jarayonlar hisobiga sodir bo'ladi. Buning oqibatida rekristallanishda birlashish yo'li bilan donalarning o'lchamlarini ortishi qiyin bo'ladi. Bundan tashqari, deformatsiya kattaligi nisbatan kichik bo'lganda hosil bo'lgan bloklar – kristallit siniqlarining soni unchalik katta bo'lmaydi, demak mumkin bo'lgan rekristallanish markazlarining soni ham unchalik katta bo'lmaydi. Kritik darajalarda rekristallanish markazlarining soni kichikligicha qoladi (biroz oshadi), biroq kristallitlararo modda qisman yemiriladi, bu kristallitlarning bevosita bir-biriga tegishiga olib keladi. Rekristallanish jarayonidagi bu holat qo'shni donalarning atomlarini rekristallanish markazidan o'sib chiqayotgan yangi donaga qo'shilishini osonlashtiradi, bu pirovardida bir nechta

deformatsiyalanadigan donalarning bitta bo‘lib birlashishiga, ya’ni rekristallangan donalarning o‘lchamlarining ortishiga olib keladi. Deformatsiya darajasining keyingi ortishi rekristallanish markazlari sonining ortishiga olib keladi, va shundan kelib chiqqan holda, rekristallangan donalar sonining ham ortishiga olib keladi, bu jismning berilgan hajmida donalarning o‘lchamlarining kichrayishini beradi.

Harorat ortishi bilan kristallitlararo moddaning mustahkamligi kamayadi, kristallitlarning bir-biriga bevosita tegishi endilikda kichikroq deformatsiya darajalarida sodir bo‘ladi. Bu kritik deformatsiya darajalarining koordinatalar boshiga qarab siljishini chaqiradi. Bundan tashqari, harorat ortishi bilan atomlarning harakatchanligi ortadi, bu rekristallanish jarayonida qo‘shni donalarning birlashishini osonlashtiradi, bu barcha deformatsiya darajalarida rekristallangan donaqlarning o‘lchamlarining ortishiga olib keladi.

Ma’lumki, po‘latlarning ba’zi bir sortlarida o‘ta yuqori deformatsiya darajalarida rekristallanish egri chiziqlarida ikkinchi maksimumning paydo bo‘lishi kuzatiladi. Rekristallanishdan keyin donaning kattaligi qizdirilgan metallni rekristallanish haroratidan yuqori bo‘lgan haroratlarda ushlab turish davomiyligiga ham bog‘liq. Uzoq vaqt ushlab turilganda, ilgari ishlov berish rekristallanishidan farqli o‘laroq, to‘planma rekristallanish kuzatiladi, uning mohiyati shundan iboratki, ishlov berish rekristallanishi natijasida olingan turlicha o‘qli donalarning o‘lchamlari ularning birlashishi hisobiga ham ortadi. To‘planma yoki yuzadagi rekristallanish ishlov berish rekristallanishiga qaraganda sekinroq kechadi. To‘planma rekristallanishda donalarning o‘sish imkoniyati qayta qurilish jarayonida atomlarning potensial energiyaning minimumiga javob beradigan holatni egallashga intilishi bilan shartlanadi. Donalarning yuza qatlamlarida mavjud bo‘lgan atomlarning o‘zaro to‘g‘ri joylashishdan chetlashishi polikristallda to‘plangan potensial energiyani oshiradi.

Donalarning o'lchamlari oshganda ularning yig'indi yuzasi kamayadi, va shundan kelib chiqqan holda, jismda to'plangan potensial energiya ham kamayadi. To'planma rekristallanish rekristallanish boshlanadigan haroratdan anchagina yuqori bo'lgan haroratlarda ayniqsa shiddat bilan sodir bo'ladi.

Rekristallanish shuningdek, sovuq deformatsiyalangan metallni metall materiallarning rekristallanishi boshlanadigan haroratdan biroz yuqori haroratda qizdirishda ham (past yoki rekristallash bilan kuydirish) sodir bo'ladi. Sovuq deformatsiyalangan metallning rekristallanishi natijasida olingan donlarning kattaligi tayyorlanma yoki uning alohida uchastkalari olgan deformatsiya darajasi, rekristallanish harorati va shu haroratda ushlab turish vaqtiga bog'liq bo'ladi.

Donaning kattaligini bu omillarga bog'liqligining xarakteri oldin ko'rib chiqilgan holat bilan bir xil. Bu holda ham kritik deformatsiya darajalari mavjud bo'ladi, bu deformatsiyalarda rekristallangan donalarning o'lchamlari kattagina ortishi kuzatiladi, bunda metallni qizdirish harorati qanchalik yuqori bo'lsa, donalarning o'lchamlarini ortishi shunchalik katta bo'ladi. Demak, shuni aytish mumkinki, dastlabki sovuq deformatsiya darajasi ortishi bilan rekristallanish harorati biroz kamayadi. Bu deformatsiyalangan metall atomlarining mustahkamlanishda energetik potensialining ortishi bilan tushuntiriladi.

O'ta katta deformatsiya darajasini olgan va deformatsiya teksturasiga ega bo'lgan metallni sovuq deformatsiyalangan rekristallizatsion kuydirish teksturaning yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Biroq rekristallanish har doim ham uning yo'qolishiga olib kelavermaydi. Deformatsiya teksturasiga ega bo'lgan metallni rekristallizatsion kuydirish natijasida rekristallangan teng o'qli donlarning kristallografik o'qlari kenglikda asosan bir tomonga qarab qoladigan rekristallanish teksturasi hosil bo'lishi mumkin (ko'pchilik donlar kristallografik o'qlarning kenglikda bir tomonga yo'nalgan joylashishiga ega bo'ladi). Rekristallanish teksturasi deformatsiyaning boshlang'ich teksturasi bilan bir xil bo'lishi mumkin, biroq

undan farq qilishi ham mumkin, ya'ni rekristallanishdan keyin jismda kristallografik o'qlarning qaratilish yo'nalishlari o'zgaradi.

Rekristallanish teksturasining vujudga kelishi shu bilan tushuntiriladiki, deformatsiyalangan metallda mavjud bo'lgan yangi don homilalari kenglikda kristallografik o'qlarning asosan bir tomonga qaratilishiga ega bo'ladi. Rekristallanish teksturasi, shuningdek deformatsiya teksturasining kuydirishdan keyin yangi tekstura hosil qilmasdan yo'qolish imkoniyati qotishmaning tarkibi va aralashmalar miqdoriga, sovuq deformatsiyalashda olingan deformatsiya darajasiga, deformatsiya teksturasining xarakteriga, kuydirish harorati va kuydirish davomiyligiga bog'liq bo'ladi.

Rekristallanish teksturasining bo'lishi kuydirilgan metallda mexanik xususiyatlarning anizotropiyasiga olib kelishi mumkin, bu bosim bilan ishlov berish bilan olingan detalning xizmat xususiyatlariga yoki keyingi plastik deformatsiyalashda kuydirilgan tayyorlanmaning o'zini qanday tutishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, dumaloq yassi tayyorlanmadan stakanni cho'zishda festonlar (quloqlar) hosil bo'lishi yoyilgan (va kuydirilgan) metallda (metall listda) rekristallanish teksturasi bo'lishining oqibati bo'lib hisoblanadi.

5.2. Metallarga bosim bilan ishlov berishda deformatsiyaning asosiy turlari

Yuqorida aytib o'tilganlardan ko'rinib turibdiki, metallga bosim bilan ishlov berishda umumiy holatda bir paytning o'zida bir-biriga qarama-qarshi jarayonlar kechishi mumkin: mustahkamlanish jarayoni va mustahkamlikning kamayish jarayoni (qaytish va rekristallanish). Unisi ham, bunisi ham ma'lum bir tezliklar bilan vaqt oralig'ida kechadi, bu tezliklar deformatsiya sharoitlari (harorat, deformatsiya tezligi va deformatsiya darajasi) va deformatsiyalanadigan metallning tabiati bilan shartlanadi.

Jarayonlardan qaysi biri ustun bo'lishiga bog'liq ravishda deformatsiyaning natijalari turlicha bo'lishi mumkin. S.I.Gubkinning ma'lumotlariga ko'ra, qaynoq, to'liq qaynoq bo'lmagan, to'liq sovuq

bo‘lmagan va sovuq deformatsiyalarga ajratiladi. Issiq yoki qaynoq deformatsiya deb shunday deformatsiyaga aytiladiki, bunda rekristallanish to‘liq sodir bo‘lishga ulguradi. Issiq deformatsiya natijasida metall to‘liq rekristallangan teng o‘qli makrostrukturani oladi, bunda biror-bir mustahkamlanish izlari bo‘lmaydi.

To‘liq issiq bo‘lmagan deformatsiyada rekristallanish to‘liq sodir bo‘lmaydi. To‘liq issiq bo‘lmagan deformatsiyada, shuningdek metallni deformatsiyalash tugagandan keyin metall bir paytning o‘zida ikkita turli tipdagi mikrostrukturaga ega bo‘ladi: 1 - rekristallangan (turlicha o‘qli donalar bilan) va 2 - rekristallanmagan (cho‘zilgan donalar bilan).

Deformatsiyalangan donalar bilan bir qatorda rekristallanmagan donalarning bo‘lishi deformatsiyaning notekisligining ortishiga olib keladi, bu metallning plastikligining kamayishiga va yemirilish ehtimolining ortishiga yordam beradi.

To‘liq issiq bo‘lmagan deformatsiyaga tortilgan metall qiymati bo‘yicha kattagina qoldiq kuchlanishlarga ega bo‘ladi, bu kuchlanishlar plastiklik yetarlicha bo‘lmaganda metallning yemirilishini chaqirishi mumkin. Termik ishlov berish yordamida qoldiq ichki kuchlanishlarni keskin kamaytirish mumkin.

To‘liq issiq bo‘lmagan deformatsiya rekristallanish boshlanadigan haroratdan unchalik oshiq bo‘lmagan deformatsiya haroratlarda o‘rinli bo‘lishi mumkin, bunda deformatsiya tezligi ortishi bilan uning vujudga kelish ehtimoli ortadi. Amaliyotda to‘liq qaynoq bo‘lmagan deformatsiyadan iloji boricha qochish kerak bo‘ladi, chunki u past bosish sifatini shartlaydi. Deformatsiyaning bu turi kichik rekristallanish tezligiga ega bo‘lgan qotishmalarda (masalan, ko‘p fazali, metabarqaror tizimlarni taqdim qiladigan ba’zi bir alyuminiy va magniy qotishmalarida hamda boshqa qotishmalarda) oson vujudga keladi. Shu sababli ularni deformatsiyalash kichik tezliklar bilan amalga oshiriladi.

To‘liq sovuq bo‘lmagan deformatsiya deb bunda rekristallanish bo‘lmaydigan, biroq qaytish jarayoni sodir bo‘lishga ulguradigan deformatsiyaga aytiladi. To‘liq sovuq bo‘lmagan deformatsiya natijasida metall rekristallanish izlarisiz polosali mikrostrukturani

oladi, katta deformatsiyalashda esa – deformatsiya teksturasini oladi. Uning plastiklik xususiyatlari qaytish bo‘lmaganda deformatsiyalangan metallga qaraganda yuqori, mustahkamlik xususiyatlari esa biroz pastroq bo‘ladi.


To‘liq sovuq bo‘lmagan deformatsiya qaytish boshlanadigan haroratga qaraganda kattaroq deformatsiya haroratida o‘rinli bo‘lishi mumkin, bunda deformatsiya tezligi shunday bo‘lishi kerakki, bunda qaytish to‘liq sodir bo‘lishga ulgursin. Sovuq deformatsiyada rekristallanish va qaytish butunlay bo‘lmaydi va deformatsiyalangan metall mustahkamlanishning barcha alomatlariga ega bo‘ladi. Sovuq deformatsiya qaytish boshlanadigan haroratdan pastroq haroratlarda kechadi.

Shunday qilib, harorat-tezlik shartlari deformatsiyalangan metallning tuzilishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

5.2.1. Metallarning plastikligiga va deformatsiyalanish qarshiligiga haroratning ta’siri

Metall haroratining ortishi, hammasidan tashqari, uning mexanik tavsiflariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Harorat ortishi bilan mustahkamlik ko‘rsatkichlarining, ular bir paytning o‘zida deformatsiyaga qarshilikni ham tavsiflaydi, va plastiklik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishining borishi to‘g‘risida 5.1-rasmda keltirilgan grafiklar bo‘yicha fikr yuritish mumkin. Grafiklardan ko‘rinib turibdiki, uglerodli po‘latning haroratini taxminan 100° gacha oshirish plastiklik ko‘rsatkichlarini biroz oshiradi va deformatsiyaga qarshilikni kamaytiradi.

Haroratni taxminan 300° gacha yanada oshirish plastiklik ko‘rsatkichlarining kattagina kamayishini va mustahkamlik ko‘rsatkichlarining ortishini beradi. Bu taxminan karbidlarning mayda zarrachalarining xuddi eskirish jarayonidagi kabi sirpanish tekisliklari bo‘ylab to‘kilishi bilan tushuntiriladi. Haroratning yanada ortishi mustahkamlik ko‘rsatkichlarining asta-sekin, biroq kattagina kamayishiga olib keladi.



5.1-rasm. Harorat ortishi bilan mustahkamlik ko‘rsatkichlarini va ular bir paytning o‘zida deformatsiyaga qarshilikni tavsiflagan holda plastiklik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi.

Bizga ma’lumki, agar harorat 1000° atrofida bo‘lsa, unda mustahkamlik chegarasi 10 martadan ko‘proqqa kamayadi.

Plastiklik ko‘rsatkichlariga keladigan bo‘lsak, to‘liq issiq bo‘lmagan deformatsiya mumkin bo‘ladigan haroratlar sohasida va faza aylanishlari haroratlari sohasida (ko‘pincha bu ikkala hodisa deyarli bir xil haroratlarda sodir bo‘ladi) ularning biroz kamayishi kuzatiladi. Faza aylanishlari sohasida plastiklikning kamayishi deformatsiyalanadigan jismda bir paytning o‘zida turlicha xossalarga ega bo‘lgan ikkita fazaning bo‘lishi bilan tushuntiriladi, bu kuchlangan holatning notekisligining ortishiga olib keladi.

Shuni qayd qilish lozimki, erish haroratidan biroz pastroq haroratlarda plastiklik ko‘rsatkichlarining keskin kamayishi kuzatiladi, bu donaning anchagina kattalashishi va keyinchalik metallning kuyishi (donalar chegaralarining oksidlanishi) natijasi bo‘lib hisoblanadi.

Boshqa metallar va qotishmalar uchun ham mustahkamlik va plastiklik ko‘rsatkichlarining bog‘lanish grafiklari ham xuddi shunday xarakterga ega bo‘ladi.

Bundan shuni aytish mumkinki, barcha metallar va ularning qotishmalari uchun umumiy qoida shu bo‘lib hisoblanadiki, ular eng katta plastiklikka rekristallanish haroratlarida, ya’ni issiq deformatsiya sharoitlarida ega bo‘ladi, bu sharoitlarga bir paytning o‘zida mustahkamlik ko‘rsatkichlarining kichik qiymatlari va shundan kelib chiqqan holda deformatsiyaga qarshilikning ham kichik qiymatlari mos keladi. Shuni qayd qilish lozimki, plastiklikning kamayishi kuzatiladigan xavfli harorat zonalari ularda faza aylanishlari, to‘liq issiq bo‘lmagan deformatsiya yoki eskirish va mo‘rtlik hodisasi sodir bo‘lishi mumkin bo‘ladigan zonalar hisoblanadi.

Issiq yoki qaynoq deformatsiya haroratlarigacha qizdirishda plastiklikning ortishi atomlarning harakatchanligining ortishining oqibati bo‘lib hisoblanadi, biroq plastiklikning ortishiga yana boshqa ba’zi bir hodisalar ham ko‘maklashadi. Masalan, qaynoq deformatsiya sharoitlarida odatda oshirilgan aralashmalar miqdorini o‘z ichiga oladigan kristallararo qatlamlarning plastikligi anchagina ortadi. Bu shu bilan tushuntiriladiki, oshirilgan aralashmalar miqdoriga ega bo‘lgan chegara qatlamlari kichikroq termodinamik barqarorlikka ega bo‘ladi va asosiy metallning donalarining erish haroratiga qaraganda kichikroq erish haroratiga ega bo‘ladi.

Issiq yoki qaynoq deformatsiya haroratlarigacha qizdirishda donalararo qatlamlarning mustahkamligi donalarning mustahkamligiga qaraganda ko‘proq shiddat bilan kamayadi, metallning umumiy deformatsiyasida kristallitlararo deformatsiyaning ulushi esa ortadi.

Bir paytning o‘zida bu qatlamlarning mo‘rtligi kamayadi va shundan kelib chiqqan holda ularda mikroyoriqlarning hosil bo‘lishi ham kamayadi. Mikroyoriqlar hosil bo‘lishi xavfining kamayishi deformatsiya jarayonida ularning “davolanishi” mumkinligi bilan tushuntiriladi.

Ikki fazali qotishmalarni deformatsiyalash jarayonida mikroyoriqlarning “davolanishi” mumkinligini tushuntirishda A.A. Bochvar tomonidan aniqlangan bir faza kristallitlari atomlarining boshqa fazaning kristallitlariga sapchib o‘tishi hodisasi katta ahamiyatga ega. A.A. Bochvar bu hodisani plastik deformatsiyaning eritmali-cho‘kindili xili deb atagan.

Atomlarning fazalararo ko‘chishida mikroskopik yoriqlarning “davolanishi” sodir bo‘ladi, chunki mikrog‘ovakliklarda metallning cho‘kishi osonroq sodir bo‘ladi. Harorat ortishi bilan atomlarning harakatchanligi ortishi sababli, mikroyoriqlarning “davolanishi” ham metallarni issiq (qaynoq) deformatsiyalash haroratlarida osonroq amalga oshadi.

5.2.2. Issiq deformatsiyani metallarning mexanik xossalariga ta’siri

Har qanday metall zagotovkalari metallurgik quyish usuli bilan olinadi. Quyilgan strukturaga ega bo‘lgan tayyorlanmalar (masalan, quyilgan zagotovkalar yoki tayyorlanmalar, slitkalar-yombilar yoki prokat) odatda issiq deformatsiya sharoitlarida bosim bilan ishlov berishga tortiladi. Quyilgan strukturaga ega bo‘lgan quyma zagotovkalar-tayyorlanmalar ularda birlamchi kritallanishning yirik kristallitlarining bo‘lishi bilan tavsiflanadi, ularning chegaralari bo‘ylab aralashmalar va nometall moddalarga boy bo‘lgan qatlamlar joylashadi.

Quyma strukturaning deformatsiyalanishi kristallitlarning maydalanishiga va ularning metallning ko‘proq shiddatli oqish yo‘nalishida cho‘zilishiga olib keladi. Shu bilan bir paytda xuddi shu yo‘nalishda nometall moddalarni o‘z ichiga oladigan kristallitlararo qatlamlarning ham cho‘zilishi sodir bo‘ladi (bunday o‘zgarishlar faqatgina metallda bo‘lishi mumkin).

Deformatsiya darajasi yetarlicha katta bo‘lganda bu nometall moddalar metallning ko‘proq shiddat bilan oqish yo‘nalishida cho‘zilgan o‘rimlar ko‘rinishini oladi, makrostrukturaning polosaliligini hosil qiladi (biroq makrostrukturaning polosaliligi qaynoq deformatsiya sharoitlarida bo‘lmaydi). Makrostrukturaning polosaliligi shlifni eritishda namoyon bo‘ladi va nometall moddalar miqdori katta bo‘lganda qurollanmagan ko‘z bilan ham, yoki biroz kattalashtirilganda (o‘n martagacha) ko‘rinadi Bunda makronamunada metallning tuzilishi tolasimon ko‘rinishni oladi. Bunday

makrostruktura 5.2-rasmda ko'rsatilgan. Makrostruktura polosaliligining vujudga kelishi bir paytning o'zida mexanik xossalarning vektorialligiga (anizotropiyasiga) olib keladi.



5.2-rasm. Tolasimon tuzilishga ega bo'lgan metall namuna (detal).

Plastiklikning asosiy ko'rsatkichlari tolalarning bo'ylama va ko'ndalang yo'nalishlari bo'yicha kattagina farq qiladi, bunda bu ko'rsatkichlarning qiymatlaridagi farq deformatsiya darajasi ortishi bilan ortadi. Bo'ylama yo'nalishda (tolalar bo'ylab) plastiklik ko'rsatkichlari deformatsiya darajasi ortishi bilan ortadi, biroq bu ortishning shiddati asta-sekin kamayadi.

Agar deformatsiya darajasining ko'rsatkichi sifatida nisbiy siqilish (boshlang'ich ko'ndalang kesim maydonining uning joriy qiymatiga nisbati) qabul qilinsa, u holda bo'ylama yo'nalishda plastiklik ko'rsatkichi $F_0/F_1 \leq 4$ siqilish darajasigacha ortadi, so'ngra $F_0/F_1 = 10$ gacha sekin ortadi, siqilish darajasi yanada oshganda esa – amalda o'zgarmaydi. Tolaga nisbatan ko'ndalang yo'nalishda plastiklik ko'rsatkichi siqilish darajasi ortishi bilan kamayadi ($F_0/F_1 \leq 6$ siqilish darajasigacha ko'proq shiddat bilan va siqilish darajasi yanada oshganda kamroq shiddat bilan).

Bo'ylama va ko'ndalang yo'nalishlarda plastiklik ko'rsatkichlari o'rtasidagi asosiy farq ko'ndalang kesim maydonining nisbiy kamayishida kamroq yaqqol ko'zga tashlanadi (po'lat uchun $F_0/F_1 \approx 10$ da farq taxminan 10% ni tashkil qiladi), nisbiy cho'zilishda esa biroz ko'proq ko'zga tashlanadi va zarba yopishqoqligi uchun eng katta qiymatga ega bo'ladi (po'lat uchun $F_0/F_1 \approx 10$ da farq 20% ga yetadi).

Metallning mustahkamlik tavsiflari tolalarning bo'ylama va ko'ndalang yo'nalishlari bo'yicha unchalik ko'p farq qilmaydi, bunda

deformatsiya darajasining ortishi amalda ularning kattaligiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Shunday qilib, metallarning plastik deformatsiyalanishiga metallning mexanik xususiyatlariga ta'sir ko'rsatadigan, shuningdek, ularning fizikaviy-kimyoviy xususiyatlarining o'zgarishiga olib keladigan bir qator hodisalar hamrohlik qiladi. Ularni anglangan tarzda hisobga olish va boshqarish bilan metallarga bosim bilan ishlov berishda olingan detal eng yaxshi xizmat tavsiflariga ega bo'ladigan deformatsiya sharoitlarini ta'minlash mumkin.

Metallarga bosim bilan ishlov berishda odatda deformatsiya jarayonini makrostrukturaning tolalari ishlash sharoitlarida detal zo'riqqanda vujudga keladigan eng katta normal kuchlanishlar yo'nalishida joylashadigan qilib olib borishga harakat qilinadi.

Shunday qilib, bir qator hollarda mustahkamlanish hodisasidan metallning mustahkamlik ko'rsatkichlarini oshirish uchun foydalaniladi. Demak, deformatsiya jarayoniga haroratdan tashqari, deformatsiya tezligi ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Hajmning doimiyligi sharti bilan dastlabki tanishish


Ma'lumki, deformatsiya tezligining deformatsiya jarayoniga ta'siri to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishda avvalambor, deformatsiya tezligini qanday qilib aniqlash kerakligini aniqlab olish lozim bo'ladi. Buning uchun dastlab hajmning doimiyligi sharti va deformatsiya darajasi va siljigan hajm tushunchalari bilan tanishamiz. Plastik deformatsiya natijasida metallning zichligi unchalik ko'p o'zgarishsizligi sababli va bu o'zgarish amalda ahamiyatga ega bo'lmasligi sababli, kuchlanishlar va deformatsiyalar bilan bog'lanadigan masalalarni yechishda odatda quyidagi shart qabul qilinadi: deformatsiyalanadigan jismning hajmi o'zgarishsiz qoladi, yoki boshqacha qilib aytganda, jismning deformatsiyadan oldingi hajmi uning deformatsiyadan keyingi hajmiga teng bo'ladi.

Bu bosim bilan oldindan issiq ishlov berishga tortilgan metallga tegishli bo'ladi. Quyilgan metallni birlamchi deformatsiyalash

natijasida uning zichligi unda mavjud bo'lgan g'ovakliklarning bartaraf bo'lishi hisobiga biroz (0,1% gacha) ortadi.

Bunday jismning hajmi plastik deformatsiyalash paytida unga tashqi kuchlar qo'yilganda yuklama olingandan keyingi hajmga teng bo'lishi kelib chiqmaydi.

Jismning plastik deformatsiyasiga har doim uning qayishqoq deformatsiyasi hamrohlik qiladi, bu qayishqoq deformatsiyaning kuchlanishlarga bog'lanishi **Guk qonuni** bilan aniqlanadi. Demak yuklanishning oxirgi momentida jismning o'lchamlari yuklama olingandan keyingi o'lchamlardan farq qiladi. 5.3-rasmda sinov mashinasida olingan cho'zilishning odatdagi diagrammasi keltirilgan. Ordinatalar o'qiga – kuchlar, abstsissalar o'qiga – deformatsiyalar qo'yilgan. Qandaydir bir momentda O_a kesma bilan belgilanadigan kuch qo'yilganda deformatsiya O_c kesma bilan ifodalanadi.



5.3-rasm. Sinov mashinasida olingan cho'zilish diagrammasi (kuchlar va deformatsiyalar bo'yicha).

Agar A nuqtadan OB parallel to'g'ri chiziq o'tkazilsa, bu yerda B nuqta proporsionallik (elastiklik-qayishqoqlik) chegarasiga mos keladi, u holda absissalar o'qidagi o'zida namuna yuklangan holatda to'liq deformatsiyani taqdim qiladigan O_s kesma ikki qismga bo'linadi.

Birinchi bc qism o'zida qayishqoq deformatsiyani taqdim qiladi, ikkinchi Ob qism esa plastik deformatsiyani taqdim qiladi.

Yuklama olingandan keyin namunaning uzunligi bc kattalikka kamayadi, biroq bu uzunlik boshlang'ich uzunlikdan Ob kesma bilan

belgilanadigan qoldiq (plastik) deformatsiya kattaligiga katta bo‘ladi. Ravshanki, BOs va Abc burchaklarning tangenslari o‘zida Yung modulini (E) ifodalaydi.

Metallarga bosim bilan qaynoq ishlov berishda plastik deformatsiya katta bo‘lganda qayishqoq deformatsiyaning bo‘lishini hisobga olmaslik mumkin. Aksincha, ba’zi bir hollarda, masalan, sovuq bukishda qayishqoq deformatsiya juda sezilarli bo‘ladi.

Amaliyotda bu hodisa prujinalanish deb ataladi. Texnologik jarayonlarni loyihalashda u bilan hisoblashish zarur bo‘ladi. Masalan, sovuq bukishda shtampning burchagini prujinalanish burchagini hisobga olish bilan talab qilinadigan bukish burchagidan biroz farq qiladigan qilib yasash kerak bo‘ladi. Shundagina texnologik jarayonlarni loyihalash, hisoblashish va boshqa ishlarni bemalol bajarish mumkin bo‘ladi.

5.2.3. Deformatsiya tezligining deformatsiyaga qarshiligi va plastikligiga ta’siri

Metallarning mexanik xossalarini odatdagi aniqlashlar 10 mm/sek dan oshmaydigan deformatsiya tezliklari bilan sinov mashinalarida amalga oshiriladi. Metallarga presslar va bosish mashinalarida bosim bilan ishlov berish mashinaning ishchi organining 0,1 dan 0,5 m/sek atrofida oraliqdagi o‘rtacha tezligi bilan olib boriladi.

Bolg‘a (molot) bilan ishlov berishda metallga ko‘rsatiladigan ta’sir dinamik xarakterga ega bo‘ladi: bolg‘aning zarba berish momentidagi tezligi 5-10 m/sek ni tashkil qiladi, bir zarba paytida butun deformatsiya jarayoni esa bor-yo‘g‘i sekundning yuzlik ulushlari davomida davom etadi. Sekundiga yuzlab metrlar bilan o‘lchanadigan katta deformatsiya tezliklari bugungi kunda sanoatga muvaffaqiyatli joriy qilinayotgan portlash bilan shtamplash jarayonlarida vujudga keladi.

Shu sababli bosim bilan ishlov berish jarayonlarini loyihalash va tahlil qilishda metallarning mexanik xususiyatlari to‘g‘risidagi odatdagi sinovlar yo‘li bilan olingan ma’lumotlardan foydalanish mumkinmi yoki yo‘qligini bilish muhim bo‘ladi. Boshqacha qilib

aytganda, deformatsiya tezligi plastiklik va oquvchanlik kuchlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishini bilish juda muhim bo'ladi.

Birinchi yaqinlashish bilan shuni aytish mumkinki, deformatsiya tezligi oshirilganda oquvchanlik kuchlanishi ortadi, plastiklik esa kamayadi. Deformatsiya tezligi ortishi bilan ba'zi bir magniy qotishmalari, yuqori legirlangan po'lat va mis qotishmalarining plastikligi ayniqsa, keskin kamayadi. Ko'pchilik alyuminiy qotishmalari, past legirlangan uglerodli konstruksion po'lat deformatsiya tezligiga nisbatan anchagina kam sezuvchan. Bu po'latlar qaynoq ishlov berishda amalda qo'llaniladigan har qanday deformatsiya tezliklarida yetarlicha plastiklikka ega bo'ladi.

Bosim bilan sovuq ishlov berishda deformatsiya tezligining ta'siri issiq yoki qaynoq ishlov berishdagiga qaraganda anchagina kam. Bu ta'sirning o'sish shiddati kichik tezliklar diapazonida (mm/min) katta va katta tezliklar diapazonida juda kichik bo'ladi. Biroq keltirilgan ma'lumotlar aniqlashtirishni talab qiladi. Avvalambor ikkita muhim holatni hisobga olish zarur bo'ladi: 1 – issiq plastik deformatsiyalashda ikkita qarama-qarshi jarayonlar – mustahkamlanish va mustahkamlikning kamayishining (qaytish va rekristallanish) bo'lishi; 2 – plastik deformatsiyaning issiqlik effekti.

Qaytish va rekristallanish to'g'risida ilgari gapirib o'tilgan edi. Issiqlik effekti shunda ifodalanadiki, bunda plastik deformatsiyalashga sarflanadigan energiya asosan issiqlikka aylanadi. Boshqa sharoitlar teng bo'lganda issiqlik effekti deformatsiya harorati ortishi bilan ortadi, chunki harorat ortishi bilan oquvchanlik kuchlanishi pasayadi va shu sababli deformatsiyalash uchun talab qilinadigan energiya kamayadi. Shu sababli berilgan namunaning sovuq va qaynoq holatdagi xuddi o'sha bitta deformatsiya darajasida keyingi holatda issiqlik kamroq ajralib chiqadi.

Agar deformatsiya tezligi kichik bo'lsa, u holda issiqlik sochiladi va jarayon deyarli izotermik tarzda kechadi. Aksincha, katta deformatsiya tezliklarida ajralib chiqayotgan issiqlik jismning haroratini oshiradi, boshqacha qilib aytganda, harorat effekti kuzatiladi.

Yuqorida aytilganlarga muvofiq, issiq deformatsiyada harorat effekti kamroq issiqlik ajralib chiqishi tufayli ham, ajralib chiqadigan

issiqlik qizigan metallning issiqlik miqdoriga nisbatan kichik bo'lishi tufayli ham kichikroq bo'ladi.

Bosim bilan sovuq ishlov berishda mustahkamlikni kamaytiradigan jarayonlar sodir bo'lmaydi. Oquvchanlik kuchlanishi mustahkamlanish natijasida deformatsiya darajasi bilan birgalikda ortadi, tezlikning ba'zi bir oraliqlarda o'zgarishi jarayonning borishiga kam ta'sir ko'rsatadi. Bosim bilan sovuq ishlov berishning ba'zi bir hollarida esa deformatsiya tezliklari katta bo'lganda harorat effekti natijasida qaytish hodisasi vujudga kelishi mumkin.

Pastroq tezliklardagiga qaraganda oquvchanlik kuchlanishi kamayadi, plastiklik esa ortadi.

Issiq deformatsiyada rekristallanish jarayoni boradi. Deformatsiya tezligi qanchalik katta bo'lsa va rekristallanish tezligi qanchalik kichik bo'lsa, oquvchanlik kuchlanishi shunchalik katta va plastiklik shunchalik kichik bo'ladi.

Po'lat past qizdirish haroratlarida va magniy qotishmalari normal bosish harorati intervalida juda kichik rekristallanish haroratiga ega bo'ladi. Shu sababli deformatsiya tezligining ortishi ishlov berishning xarakterini o'zgartirishi mumkin: u qaynoq ishlov berishdan to'liq qaynoq bo'lmagan ishlov berishga aylanishi mumkin, bu plastiklikning keskin kamayishi va bir paytning o'zida oquvchanlik kuchlanishining ortishini chaqiradi.

Agar ishlov berish mo'rtlik zonalariga yaqin haroratlarda amalga oshirilsa, deformatsiya tezligining o'zgarishi boshqa hodisalarga olib kelishi mumkin. Masalan, texnik toza temirda (armko-temir) mo'rtlik zonasi 825-1100 °C harorat intervalida yotadi. Agar masalan, 825°C haroratda katta deformatsiya tezligi bilan bosish amalga oshirilsa, u holda deformatsiyaning harorat effekti oqibatida metall mo'rtlik zonasida bo'lib qoladi. 1100°C ga yaqin haroratda xuddi o'sha harorat effekti metallni mo'rtlik zonasidan olib chiqishi mumkin.

Shunday qilib, tezlikning ortishi ba'zi bir hollarda oquvchanlik kuchlanishining ortishi va plastiklikning kamayishiga olib keladi, boshqa hollarda esa – harorat effekti tufayli teskari natijalarga olib kelishi mumkin.

Bu yo‘nalishlar bilan ko‘pgina tadqiqotchilar shug‘ullanishgan va berilgan harorat va deformatsiya darajasida oquvchanlik kuchlanishining deformatsiya tezligiga bog‘lanishini analitik tarzda ifodalashga urinishgan. P.Lyudvik tomonidan taklif qilingan.

$$\sigma_s = \sigma_{s0} + n \ln \omega / \omega_0, \text{ va A.Reyto tomonidan taklif qilingan}$$

$$\sigma_s = \sigma_{s0} (\omega / \omega_0)^m.$$

formular eng katta e'tiborga molik, bu yerda σ_s va σ_{s0} – mos ravishda ω va ω_0 deformatsiya tezliklarida oquvchanlik kuchlanishi, n va m – eksperimental tarzda aniqlanadigan konstantalar.

Rossiyalik olim S.I.Gubkinning fikriga ko‘ra, birinchi formuladan to‘liq va to‘liq bo‘lmagan mustahkamlanish bilan deformatsiyalash haroratlarida foydalanish, ikkinchi formulani esa mustahkamlikning to‘liq va to‘liq bo‘lmagan kamayishi bilan deformatsiyalash haroratlari uchun qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Amaliy hisoblashlarda deformatsiya tezligining ta’sirini tezlik koeffitsiyenti deb ataluvchi koeffitsiyent yordamida hisobga olish mumkin. Bu koeffitsiyent deformatsiya tezligi qanchaga oshganda oquvchanlik kuchlanishi necha martaga ortishini ko‘rsatadi. Bu ma’lumotlar 5.1-jadvalda keltirilgan.

5.1-jadval

S.I.Gubkin bo‘yicha tezlik koeffitsiyentining qiymatlari

Deformatsiya tezliklarining nisbati ω_2/ω_1	Deformatsiya haroratlari, °C			
	$T/T_{erish} < 0,3$	$T/T_{erish} = 0,3 \div 0,5$	$T/T_{erish} = 0,5 \div 0,7$	$T/T_{erish} > 0,7$
10	1,05 – 1,10	1,10 – 1,15	1,15 – 1,30	1,30 – 1,30
100	1,10 – 1,22	1,22 – 1,32	1,32 – 1,70	1,70 – 2,25
1000	1,16 – 1,34	1,34 – 1,52	1,52 – 2,20	2,20 – 3,40
$\omega = 10^{-1} \text{ cek}^{-1}$ tezlikdan o‘tishda	1,10 – 1,25	1,25 – 1,75	1,75 – 2,50	2,50 – 3,50

Eslatma: T- absolyut deformatsiya harorati; T_{erish} - absolyut erish harorati.

O'ta katta deformatsiya tezliklarida, masalan, portlash bilan shtamplash jarayonlarida metallning o'zini qanday tutishi hali yetarlicha o'rganilmagan. Masalan, ba'zi bir tajribalarning ko'rsatishicha, uglerodli va legirlangan konstruksion po'latlar, shuningdek, rangli metallarning plastik qotishmalari yuqori deformatsiya tezliklarida cheklanmagan deformatsiya darajasiga yo'l qo'yadi. Past plastiklikka ega bo'lgan qotishmalarda esa plastiklikning sezilarli darajada ortishi kuzatilmaydi. Boshqa tomonlama esa, ma'lumki, odatdagi sharoitlarda qiyin deformatsiyalanadigan ba'zi bir qotishmalarga portlash ta'siri ostida muvaffaqiyatli ishlov beriladi.

Shunday qilib, ko'pgina metallar va ularning qotishmalari, jumladan, uglerodli va legirlangan, konstruksion va mashinasozlik po'latlari, shuningdek, rangli metallarning plastik qotishmalari cheklanmagan deformatsiya darajasiga yo'l qo'yadi. Bu holda portlash bilan shtamplash jarayonlariga mos keladigan katta deformatsiya tezliklarida metallning o'zini qanday tutishini yetarlicha to'liq o'rganish mumkin bo'ladi.

5.3. Materiallarning plastik deformatsiyalarga qarshiligi usuli

Materiallarning plastik deformatsiyaga qarshiligining asosiy usullari, aynan esa ularning nazariy asoslari G.A.Smirnov-Alyaev va V.M.Rozenberg tomonidan ishlab chiqilgan. Mazkur usullardan oxirgi shakl o'zgarishi masalalarini yechishda, xususan, berilgan shakl o'zgarishi bo'yicha kuchni, berilgan yuklama yoki tashqi kuchlarning berilgan ishi bo'yicha deformatsiyani, jismning oxirgi shakli ma'lum bo'lganda uning oraliq o'tishlardagi shaklini aniqlash uchun foydalaniladi. Bunda ko'proq G.A.Smirnov-Alyaev va V.M.Rozenberg usullari qo'l keladi.

Integrallash doimiysi puansonidagi qattiq va plastik zonalarning chegarasi bo‘ylab doimiy bo‘lgan va $\sigma_{z_0} = Q/\pi R_0^2$ ga teng bo‘lgan o‘rtacha solishtirma kuch sifatida aniqlanadi, bu yerda Q – “yurish-kuch” diagrammasining gorizontaal uchastkasida qayd qilinadigan bosish kuchi.

Kuchlanishlar tenzorining boshqa tarkibiy qismlari (5.26) bog‘lanishlar bo‘yicha aniqlanadi:

$$\begin{aligned} \sigma_\rho &= \sigma_z + 2 \frac{\sigma_i}{3\dot{\epsilon}_i} (\dot{\epsilon}_\rho - \dot{\epsilon}_z) = \sigma_{cp} + 2 \frac{\sigma_i}{3\dot{\epsilon}_i} \frac{1}{\rho^2} \frac{\partial F}{\partial z} - 2 \frac{\sigma_i}{3\dot{\epsilon}_i} \frac{1}{\rho} \frac{\partial^2 F}{\partial \rho \partial z}; \\ \sigma_\varphi &= \sigma_z + 2 \frac{\sigma_i}{3\dot{\epsilon}_i} (\dot{\epsilon}_\varphi - \dot{\epsilon}_z) \sigma_{cp} - 2 \frac{\sigma_i}{3\dot{\epsilon}_i} \frac{1}{\rho^2} \frac{\partial F}{\partial z}; \\ \sigma_z &= \sigma_{cp} + 2 \frac{\sigma_i}{3\dot{\epsilon}_i} \frac{1}{\rho} \frac{\partial^2 F}{\partial \rho \partial z}. \end{aligned} \quad (5.26)$$

Belgilangan z da oqish chiqirlari maydonini r yo‘nalishda approksimatsiyalash uchun M.V.Storojevning ishida $F_{ij}^{(\rho)} = a_j \rho^{b_j} e^{c_j \rho}$ bog‘lanishdan foydalanilgan. Belgilangan ρ da $F_{ij}^{(\rho)}$ qiymatlar z yo‘nalishida Lagranj polinomi bilan approksimatsiyalangan

$$F_{ij}^{(z)} = d_i z^5 - f_i z^4 + k_i z^3 + m_i z^2 + n_i z - q_i \quad (5.27)$$


Har ikkala approksimatsiyalovchi bog‘lanishlarning a, b, s, d, fk, m, n, q koeffitsiyentlari eng kichik kvadratlar uslubi bilan aniqlangan. Approksimatsiyalashning sifati ikkinchi hosilaning o‘zgarish xarakteri buyicha baholangan. U belgisini o‘zgartirmasligi lozim. Bu deformatsiya o‘chog‘ida belgisini navbatma-navbat

almashtiradigan kuchlar yoʻqligini koʻrsatadi va jarayonning statsionar xarakteriga mos keladi. Eksperimental maʼlumotlarni approksimatsiyalash toʻgʻrisida koʻproq batafsil maʼlumotlar N.A.Chinenevning ishida keltirilgan.

5.6. Muar uslubi va yorugʻlik kvaziinterferentsiyasi hosil boʻlishining natijalari

Muar uslubi. Muar hodisasi 1874-yilda Rele tomonidan yozilgan. Uslub XX asrning 40-yillarida, mayda va aniq toʻrlarni sanoat miqyosida tayyorlash oʻzlashtirilgandan keyin qoʻllanila boshlagan. Uslub yorugʻlikning kvaziinterferentsiyasi (geometrik) hodisasiga asoslangan, u yaqin davriylik tartibiga ega boʻlgan ikkita yoki undan koʻp ixtiyoriy rastr tizimlar birlashtirilganda kuzatiladi. Rastr deb plastinkadan yorugʻlik oʻtganda yoki qaytganda plastinkada hosil boʻlgan navbatlashuvchi oq va qora polosalar tizimiga aytiladi. Tizimlardan biri deformatsiyalanadigan jismga kiritiladi, ikkinchi tizim – etalon boʻlib hisoblanadi. Ikkita zich chiziqlar tizimi qoʻyilganda (1 mm ga 2... 10 ta yoki 1 mm ga 4...40 ta) bu chiziqlarning qadami va yoʻnalishi mos tushmaydigan polosalar manzaralari hosil boʻladi. Muar polosalarining hosil boʻlishi yorugʻlik panjaralarning shaffof boʻlmagan polosalari orqali oʻtganda uning shiddatining (intensivligining) taqsimlanishining oʻzgarishi bilan tushuntiriladi. Odamning koʻzi obyektning koʻrinish burchagi bir minutdan kichik boʻlgan detallarini payqamaydi, faqatgina ob'ektdan kelayotgan yorugʻlikning oʻrtacha muddatini qabul qiladi; bunda birlamchi panjaralarning chiziqlarini koʻrmaydi. Agar panjaralar yetarlicha zich boʻlsa, u holda ularni qurollanmagan koʻz bilan kuzatishda muar polosalari uzluksiz boʻlib koʻrinadi, birlamchi panjaralarning chiziqlari esa koʻrinmaydi. Muar polosalari jismning zarrachalarining etalon rastrning chiziqlariga perpendikulyar yoʻnalishda siljish darajalari – izotekalar sifatida talqin qilinadi. Bunda koordinatalar toʻridan farqli oʻlaroq, oʻlchanadigan kattaliklarning diskret qiymatlari emas, balki uzluksiz maydonlar mavjud boʻladi.

Bukiladigan to‘sinning (balka) yon yuzasiga rastr – h qadam bilan chiziqlar panjarasi kiritilgan (5.7-rasm). To‘sinning har qanday nuqtasida f_y vertikal ko‘chish deformatsiyadan oldin va keyin nuqtaning koordinatalarini ayirish bilan aniqlanadi. Etalon rastrni deformatsiyalangan rastrga qo‘yish bilan ham xuddi shu natija olinadi. Deformatsiyalangan rastrning chiziqlarining raqamlarini k_j orqali, etalon rastrnikini esa – k_{ej} orqali belgilash bilan $f_y = (k_j - k_{ej})h = nh$ ni olamiz, bu yerda n – kesishish nuqtasining raqami (yoki tartibi).




5.7-rasm. Teng vertikal ko‘chishlar polosalariga ega bo‘lgan muar manzarasini hosil qilish sxemasi.

h ni kamaytirish bilan bir xil f_y ga ega bo‘lgan nuqtalarni yaxlit chiziq qilib birlashtirishga muvaffaq bo‘linadi, bu muar polosasi deb ataladi. Ko‘chishlarning ikkinchi tarkibiy qismini olish uchun vertikal rastr kiritiladi. Gorizontaal ko‘chish $f_x = (l_i - l_{3i})h = nh$ ni tashkil qiladi, bu yerda l_i – deformatsiyalangan va nazorat rastrlari chiziqlarining indeksleri.

Bir xil geometrik parametrlarga ega bo‘lgan ikkita panjara bir-biriga ustma-ust qo‘yilganda ko‘p sonli oq va qora romblar hosil bo‘ladi. Qora romblar orasidan oddiy qora va birlamchi panjaralarning ikkita qora chiziqlari bir-birini yopganda vujudga keladigan ikki baravar qora romblarni ajratish mumkin (5.8-rasm). Har ikkala panjaraning qora chiziqlari ingichka chiziqlar bilan taqdim qilingan, ularning tasvirlari esa oshirilgan masshtabda ishlangan. I–I uzluksiz chiziqlar bilan oddiy qora romblarning kichik diagonallarining

ketma-ketligi bilan mos tushadigan to'g'ri chiziqlar ko'rsatilgan. II–II shtrix chiziqlar navbatlashuvchi oq va ikki baravar qora romblarning kichik diagonallarining ketma-ketligiga mos keladi. Bir-bining ustiga qo'yilgan panjaralarni I–I uzluksiz chiziq bo'ylab kuzatishda ko'z uzluksiz qora polosani ko'radi, II–II shtrix chiziq bo'ylab kuzatishda esa – yorug' uzluksiz polosani ko'radi.



5.8-rasm. Yorug'lik bir-birining ustiga burchak ostida qo'yilgan ikkita bir xil chiziqli panjaralar orqali o'tganda muar polosalarining hosil bo'lish sxemasi (a) va o'tayotgan yorug'likning o'rtacha shiddatining taqsimlanishi (b).

Bir-birining ustiga qo'yilgan, har birining shaffofligi 50% ga teng bo'lgan panjaralar orqali o'tadigan yorug'likning I o'rtacha shiddatining taqsimlanishi uchburchak qonuniga bo'ysunadi. Garchi geometrik qurilishdan qora muar polosaning kengligi nolga tengligi kelib chiqsada, amalda ko'rinadigan (samarali) kenglik anchagina

katta bo‘ladi, bu ko‘zning yechish qobiliyati bilan bog‘lanadi. O‘rtacha shiddat chiziqli tarzda o‘zgarishi sababli qora muar polosaning samarali kengligi sifatida uning ichida shiddatning (intensivlikning) qiymatlari uning maksimal kengligining yarmidan oshmaydigan polosa qabul qilinadi. Boshqa bir holatda qora va yorug‘ muar polosalarining samarali kengligi bir xil bo‘ladi va $d = ye = f/2$ ga teng bo‘ladi. ABCF va CDEF parallelogrammlardan yorug‘ polosa 6 ta oq va 10 ta qora elementar uchburchaklarni, qora polosa esa – 2 ta oq va 14 ta qora elementar uchburchaklarni o‘z ichiga olishi kelib chiqadi. Xuddi shu tarzda, o‘rtacha shiddatning taqsilanishidan qora muar polosa tushayotgan yorug‘likning bor-yo‘g‘i 12,5 % ini o‘tkazishi, yorug‘ muar polosa esa – 37,5 % ini o‘tkazishi kelib chiqadi. Shundan kelib chiqqan holda, qora va yorug‘ muar polosalar ko‘proq darajada qora sohalardan tashkil topadi va sof oq yoki sof qora bo‘lib hisoblanmaydi (5.8-rasmga qarang).

5.9-rasmdan oq romblarning diagonallari bilan beriladigan ikkita muar bo‘lishi geometrik jihatdan mumkin bo‘lishi kelib chiqadi, bunda har ikkala muarning polosalarida oq va qora rangning miqdori bir xil bo‘ladi. Biroq barcha romblarning kichik diagonallari orqali o‘tadigan yorug‘ muar polosalari o‘rtasidagi masofa shu romblarning katta diagonallari orqali o‘tadigan polosalar o‘rtasidagi masofadan katta bo‘ladi. Ko‘z polosalar o‘rtasidagi masofalar eng katta bo‘lgan muarni ko‘radi. Shu sababli muar polosalari kesishadigan bir xil rastrlarning to‘g‘ri chiziqlari o‘rtasidagi α burchakning bissektrisasiga perpendikulyar bo‘ladi va ularning qadami quyidagiga teng:

$$f = h_1 / (2 \sin \alpha / 2) \quad (5.28)$$

α burchak oshganda polosaning qadami kichrayadi va aksincha bo‘ladi. Agar α burchak 0 yoki 60° ga teng bo‘lsa, muar polosalari g‘oyib bo‘ladi. Biroq amaliy diapazon kichik bo‘lib hisoblanadi va yetarlicha yaxshi manzarani 40° dan kichik bo‘lgan burchaklarda olish mumkin.


Chiziqlarning yoʻnalishi mos keladigan va turlicha qadamga ega boʻlgan ($h_1 > h_2$) rastrlar ustma-ust qoʻyilganda vujudga keladigan muar polosalari - panjaraning chiziqlariga parallel boʻlgan va

$$f = h_1 h_2 / (h_1 - h_2) \quad (5.29)$$


qadam bilan joylashadigan toʻgʻri chiziqlar boʻladi.

Oʻtadigan yorugʻlikning shiddatining taqsimlanishini turlicha kenglikdagi toʻgʻri toʻrtburchaklar koʻrinishida taqdim qilish mumkin (5.10-rasm). Yorugʻlikning shiddati oʻrtachalashtirilgan kattalik boʻlib hisoblanishi sababli, maydonning kuzatiladigan yorugʻligi koʻproq yoki kamroq silliq funksiya boʻladi. Bu funksiyaning choʻqqilari oʻrtacha shiddat maksimumga erishgan joylarda boʻladi va koʻz faqatgina yorugʻ polosalarni qayd qiladi.

Chuqurliklar oʻtgan yorugʻlikning oʻrtacha shiddatining minimumiga mos keladi va qora muar polosalari koʻrinishida qayd qilinadi. (5.28) va (5.29) formulalarni tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, panjaralarning qadamidagi kichik nisbiy burchak siljishlari va farqlariga muar polosalarining nisbatan katta qadami mos keladi. bu hodisadan kichik siljishlarni oʻlchash uchun foydalaniladi.



5.9-rasm. Toʻgʻri chiziqli panjaralar uchun qora (1,2) va yorugʻ (3,4) muar polosalarining hosil boʻlish sxemasi.



5.10-rasm. Yorug'likning (strelkalar) ustma-ust qo'yilgan turlicha qadamli ikkita parallel panjara orqali o'tish sxemasi (shtrix chiziq bilan yorug'likning qayd qilinadigan o'rtacha shiddati ko'rsatilgan).

Turli rastrlar α burchak ostida ustma-ust qo'yilganda muar polosalari o'zida φ burchak ostida joylashgan va f qadamga ega bo'lgan to'g'ri chiziqlar tizimini taqdim qiladi.

$$\operatorname{tg} \varphi = h_1 \sin \frac{\alpha}{(h_1 \cos \alpha - h_2)}; f = \frac{h_1 h_2}{\sqrt{h_1^2 + h_2^2 - 2h_1 h_2 \cos \alpha}}. \quad (5.30)$$

h_1 qadamga ega bo'lgan konsentrik aylanalardan h_2 qadamli parallel to'g'ri chiziqlardan tashkil topgan rastrga qo'yilganda ellipslar ($h_1 < h_2$), giperbolalar ($h_1 = h_2$) va parabolalar ($h_1 > h_2$) ko'rinishidagi muar polosalari olinadi.

Barcha zaruriy ma'lumotlar fotosuratlarda bo'ladi, bu fotosuratlar ma'lum bir vaqt momentida tadqiq qilinayotgan yuzadagi holatni qayd qiladi, bu muar uslubini sekin va tez kechadigan jarayonlarni tahlil qilish uchun qo'llash imkonini beradi. Muar polosalarining ikkita qayd qilingan manzaralari bo'yicha grafik tarzda yoki jadvallar ko'rinishida to'rtta funksiya aniqlanadi:

$$\begin{aligned} f_{y_1} &= \varphi(x, y = \text{const}); f_{y_2} = \varphi(y, x = \text{const}); \\ f_{x_1} &= \varphi(y, x = \text{const}); f_{x_2} = \varphi(x, y = \text{const}). \end{aligned} \quad (5.31)$$

Muar polosalari deformatsiyalangan holatni tavsiflaydi, shu sababli ko'chishlar Eyler koordinatalarining funksiyalari sifatida

qayd qilinadi. Keyingi ishlov berishlar x va u bo'yicha f_y va f_x xususiy hosilalarni olish bilan bog'lanadi.

Qo'shni polosalar o'rtasida deformatsiyalarning taqsimlanishi bir tekis deb hisoblash bilan differensiallash oxirgi farqlar bilan almashtiriladi. f_y va f_x qiymatlar orqali silliq egri chiziqlar o'tkaziladi va har qanday nuqtada hosilalar urinma chiziqlarning egri chiziq'larga nisbatan egilish burchaklarining tangenslari sifatida aniqlanadi. Hosilalar shuningdek, deformatsiyalangan rastrning ikkita bir xil tasvirini Δh siljish bilan ustma-ust qo'yish bilan ham topiladi. Vujudga keladigan muar polosalari xususiy hosilaning darajasining to'g'ri chiziqlari bo'lib hisoblanadi, bunda doimiy polosalar $h/\Delta h$ ni tashkil qiladi.

Vaqtda qo'shni bo'lgan bosqichlarda deformatsiyalangan rastrlar birlashtirilganda muar polosalari tezlikning O_x va O_u yo'nalishlardagi proyeksiyalarining daraja chiziqlari bo'lib hisoblanadi. Xususiy hosilalarni ularning zichligi kam bo'lgan joylarda kasr tartibli muar polosalarini kiritish bilan har bir polosani bo'lakli-chiziq'li approksimatsiyalash yo'li bilan olish mumkin.

h rastrning qadami kutiladigan o'rtacha deformatsiya va $h = \Delta l/n$ bog'lanish bo'yicha muar polosalarining p kutiladigan sonidan kelib chiqish bilan tanlanadi, bu yerda Δl – namunaning absolyut siqilishi yoki cho'zilishi.

Rastrlar, tirnash, qirish, eritish ($h \geq 40$ mkm), eritilgan rastrni galvanik vannada qoplash ($h \geq 80$ mkm), yoyish, ko'chib tushadigan asosga ega bo'lgan plenkani yopishtirish, namunaga fotoemulsiya surkash bilan suratga olish va keyinchalik unda bevosita rastrni suratga olish bilan hosil qilinadi. Yopishtirilgan plenkalar $t \leq 200^\circ\text{C}$ haroratda ε deformatsiyani 20 % gacha, foto – rastrlar – 40% gacha ushlab turadi. Xromlangan rastrlar $t \leq 800^\circ\text{C}$ haroratda ishlaydi.

5.7. Elektrogidrodinamik analogiya uslubi

Buralishda deplanlanish tenglamalari, kuchlanishlarda deformatsiyalarning uzluksizligi tenglamalari va boshqa shu kabilar Laplas


tenglamalari bo‘lib hisoblanadi. Bu tenglamalarni yechishning analitik, grafik, sonli va analogli uslublari ma’lum. Analitik yechimlarning har xil turlari garmonik funksiyalar bo‘lib hisoblanadi. Grafik yechishda oqimning kesimlarida sarflarni hisoblash bilan ketma-ket yaqinlashiishlar uslubi yordamida oqish chiziqlari va tezliklarnng teng potentsiali ortogonal to‘ri qurmladi. Sonli uslub, ehtimolki, eng keng tarqalgan bo‘lib hisoblansa kerak. Uning asosida hisobiy to‘rning har bmr tuguni uchun differentsial tenglamaning hosilalarini oxirgi farqlar tenglamalar tizimi bilan almashtirish yotadi. EHM da amalga oshirish qulay bo‘lishi uchun iteratsion yechish uslublaridan foydalaniladi.

Analogli yechish muhitning singdiruvchanligi doimiy bo‘lganda va siqilmaydigan suyuqlik potentsial oqqanda yassi bmr jinsli elektr yoki magnit maydonlarining tenglamalari Laplas qonuniga bo‘ysunishiga asoslanadi.

“Minus” belgisi bilan olingan U elektr potentsialiga matematik analogiya mavjud va bunda ψ_m magnit potentsialiga ψ oqish tezligi potentsiali mos keladi, elektr maydonining J solishtirma zichligi va magnit maydonining H kuchlanganligiga esa – suyuqlikning v oqish tezligi mos keladi. Maydonlar va oqimning geometrik o‘xshashligida va teng chegara shartlarida parametrlarning geometrik o‘xshash ortogonal to‘rlariga ega bo‘lgan teng yechimlar olinadi. Bu o‘lchana-digan (oqish tezligining potentsialidan farqli o‘laroq) elektr va magnit potentsiallariga ega bo‘lgan elektrogidrodinamik analogiya (EGDA) va magnitogidrodinamik analogiya (MGDA) deb ataladi.

Metallning plastik oqishida oqish chiziqlarining manzaralarini siqilmaydigan suyuqlikning potentsivl oqimining oqish chiziqlarining manzaralari bilan approksimatsiyalash mumkin. Hajmiy plastik oqishni yassi potentsial oqish orqali modellashtirishda yassi potentsial maydonda oqish chiziqlari hajmiy oqish ularga ajraladigan alohida oqimlarning chegaralarining projektsiyalari deb hisoblashga yo‘l qo‘yiladi. Bunday oqimlar, masalan, silindrik tayyorlanmadan turlicha shaklli profillar ko‘rinishidagi presslangan buyumlarni bosishda (ugoloklar, shvellerlar, dvutavrlar va boshqalar) hosil bo‘ladi.

Uslub birinchi marta V.V.Pavlovskiy tomonidan ishlab chiqilgan qurilmaga o'xshash qurilmada amalga oshiriladi. Qurilma uchta asosiy qismdan tashkil topgan: elektr modeli, oziqlantiruvchi zanjir va o'lchash zanjiri (5.11-rasm). Elektr modeli yassi va uning oqish sohasi ideal suyuqlikka geometrik o'xshash bo'lishi lozim. Model mis yoki yumshoq listli po'latdan ishlangan shinalarga ega bo'lgan elektr o'tkazuvchan qog'ozdan tayyorlanadi, bu shinalar chegara ekvipotensiallariga mos keladigan konturlar bo'ylab o'rnatiladi.




5.11-rasm. EGDA uslubini amalga oshiradigan qurilmaning sxemasi. Bosishni modellashtirishda oqish (a) va ekvipotensiallar (b) chiziqlarini aniqlashda elektr modeli elementlarining joylashuvi: 1-3—elektr modeli (1,2—shinalar, 3—elektr o'tkazuvchan qog'oz); 4-7—oziqlantiruvchi zanjir (4—voltmetr, 5—doimiy tok manbai, 6—ampermetr, 7—reostat); 8-10—o'lchash zanjiri (8—galvanometr, 9—reostat, 10—o'lchash ninasi).

Elektr o'tkazuvchan qog'ozda teng elektr potentsiali chizig'ini qurish uchun R_2 reostatni kerakli belgiga qo'yish va qog'ozda o'lchash ninasi bilan galvanometr nol qiymatlarni beradigan nuqtalarni belgilash kerak bo'ladi. Bu nuqtalar orqali o'tadigan to'g'ri chiziq teng potensial chizig'i bo'ladi, bunda shinadan chiziqqacha potensial tushishi R_2 reostatda berilgan kuchlanish tushishiga mos keladi. Boshqa chiziqlarni qurish uchun shinalarni oziqlantirish zanjiriga parallel bo'lgan o'lchash zanjiridagi reostat ma'lum bir belgilarga qo'yiladi va u bilan galvanometr orqali bog'langan o'lchash ninasi bilan elektr o'tkazuvchan qog'ozda galvanometrning nol ko'rsatkichlariga ega bo'lgan nuqtalar belgilanadi.

Shinalarni 5.11-rasm, a da ko'rsatilganday qilib matritsa voronkasining konturlari va bosish o'qi bo'ylab joylashtirishda ekvipotensiallar oilasi oqish chiziqlari deb ataladi. Har bir oqish chizig'i bo'ylab $F_i = \text{const}$; $\partial\psi_j/\partial n = 0$ shartlar bajariladi. Ilgari qurilgan ekvipotentsiqlarga ortogonal bo'lgan ekvipotensiallar to'rini qurish uchun shinalar oqish sohasi modelining boshiga va oxiriga o'rnatiladi (5.11-rasm, b). Ekvipotensiallarning har biri bo'ylab $\psi_j = \text{const}$; $\partial F_i/\partial n = \text{const}$ shartlar bajariladi. Kenglikda modellashtirishda hajmli model elektrolitli vannaga yoki o'tkazgichlar tizimiga ega bo'lgan magnet maydoniga o'rnatiladi.

EGDA 9-60 qurilmada plastik oqishni modellashtirishga "ugolok" tipidagi profillarni to'rt ipli bosishda 95 mm diametrli yassi matritsaning oynasida shakl hosil qiluvchi elementlar - ochkolarning optimal holatini aniqlash masalasi misol bo'lib xizmat qila oladi (5.12-rasm). Bir tomondan, ochkolarning bosish o'qiga nisbatan ko'chish imkoniyatlari matritsaning ochkolari o'rtasidagi tutashmalarga qo'yiladigan mustahkamlik talablari bilan chegaralanadi. Ikkinchi tomondan, yassi matritsaning har bir ochkosining bosish o'qidan uzoqligi metallni "o'lik" zona hajmidan bosishda profil yuzasida g'adir-budurliklar hosil bo'lmasligi uchun 0,75...0,80 radiusdan oshiq bo'lmasligi lozim. Shunday qilib, matritsaning ochkolari bir-biriga maksimal yaqinlashtirilganda tutashmaning kengligi 10 mm ni, minimal yaqinlashtirilganda esa – 22 mm ni tashkil qiladi. Ochkolarning o'rtacha joylashuvida ularning o'rtasidagi tutashmaning kengligi 15 mm ni tashkil qiladi.



5.12-rasm. 95 mm diametrli konteynerdan 20x20x2 mm kesimli ugolokni to'rt ipli bosishda matritsa ochkosining joylashuviga bog'liq ravishda oqish chizig'ining proyeksiyalarini aniqlash sxemasi (a) elementma-element μ_i cho'zilishdarning o'zgarishi (b).

Elektr o'tkazuvchan qog'ozdan ishlangan modellarda ochkoning yarmi uning simmetriya o'qi bo'ylab turlicha joylashishga ega bo'lgan matritsa oynasining 1/8 qismiga elektroshinalar o'rnatiladi. So'ngra yuqorida tasvirlangan tarzda konteynerdan (ko'rsatilmagan) A, B, V, G oqish sohalari chegaralarining matritsa ochkolarining turli elementlariga (ularning chegaralari 5.12 b-rasmda qalin chiziq bilan ko'rsatilgan) oqish ekvipotensiallarining (oqish chiziqlarining) holati aniqlanadi. So'ngra elementma-element μ i cho'zilishlar hisoblanadi, ular qo'shni oqish chiziqlari va sakkiz qismga bo'lingan matritsa ochkosining mos keluvchi elementlari o'rtasidagi nisbat bilan aniqlanadi.

5.12-rasmda keltirilgan natijalarni tahlil qilishdan matritsa oynasining diametri va o'lchamlari va ochkolar sonining berilgan geotetrik nisbatlarida barcha to'rtta sohada μ i ning tengligiga erishib bo'lmasligi kelib chiqadi. 5.12-rasmdagi egri chiziqlar ikkita oqish sohalari maydonlari yig'indisining ochkoning mos keluvchi chora-giga nisbati sifatida aniqlanadigan elementma-element cho'zilishlarning o'zgarishini ko'rsatadi. Shuni qayd qilamizki, tutashmaning kengligi 21 mm bo'lganda ($s=10,5$ mm) A + B va V + G sohalari uchun elementma-element cho'zilishlar taxminan 19 birlikka teng bo'ladi. Biroq ochkoning xuddi o'sha holatida A + V va B + G sohalari uchun cho'zilishlar keskin farq qiladi va mos ravishda 11 va 19 birlikni tashkil qiladi. Amaliyotda kompromiss variant – 10,5 mm dan foydalaniladi.

5.7.1. Qutblanish-polyarizatsiya – optik usullari

Qutblanish - polyarizatsiyalash – optik uslublarga fotoqayish-qoqlik, fotoplastiklik, optik-sezuvchan qoplamalar va golografiya usullari kiradi. Endi ulardan ba'zilarini ko'rib chiqamiz.

Optik-sezuvchan material (OSM) deb shunday shaffof materialga aytiladiki, undan ishlangan modelning har bir nuqtasida tashqi kuchlar ta'siri ostida ular bo'ylab yorug'lik turlicha tezlik bilan tarqaladigan ikkita o'zaro perpendikulyar bosh optik o'qlar paydo bo'ladi, bu tezliklar nominal deformatsiyalovchi kuchga bog'liq

bo‘ladi. Bu hodisa sun‘iy qo‘shaloq nur sinishi deb ataladi va Vertgeym fotoqayishqoqligi qonuni deb ataluvchi ifoda bilan tasvirlanadi:

$$\Delta = 2\pi s_M (c_1 - c_2) (\sigma_1 - \sigma_2) / \lambda, \quad (5.32)$$

Bu yerda s_m – model plastinkasining qalinligi; λ – yorug‘likning to‘lqin uzunligi; c_1 va c_2 – model materialining xususiyatlari va λ bilan belgilanadigan optik-mexanik koefitsiyentlar.

Tashqi yuklamaning ta‘siriz material xususiyatlarining anizotropiyasi hisobiga Δ ning vujudga kelishi tabiiy qo‘shaloq nur sinishi deb ataladi.

Muhandislik amaliyotida (5.32) Vertgeym qonuni quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\sigma_1 - \sigma_2 = m \sigma_0^{1,0} / s_M \quad (5.33)$$

bu yerda $m = \Delta/2\pi$ – yurishning nisbiy farqi, interferentsion polosalarning soni bilan o‘lchanadi; $\sigma_0^{1,0} = \lambda/(c_1 - c_2) = (\sigma_1 - \sigma_2)s_M/m$ – polosaning kuchlanishlar bo‘yicha bahosi, bosh kuchlanishlarning modelda $s_m = 1$ sm qalinlikdagi polosa paydo bo‘lishiga olib keladigan farqiga teng; MPa/sm.

Guk qonuniga bo‘ysunadigan materiallar uchun deformatsiyalarda Vertgeym qonuni

$$\varepsilon_1 - \varepsilon_2 = m \varepsilon_0^{1,0} / s_M \quad (5.34)$$

ko‘rinishda yoziladi.

Bu yerda $\varepsilon_0^{1,0} = \frac{(1+\mu)}{E} \sigma_0^{1,0}$ material polosasining deformatsiyalar bo‘yicha bahosi; sm/polosa.

Oxirgi deformatsiyalarning plastik sohasi uchun ($\varepsilon < 30\%$) Vertgeym qonuni

$$\Delta = c_e s_M (e_1 - e_2) \quad (5.35)$$

ko‘rinishda yoziladi.

Bu yerda $c_e = 2\pi E(c_1 - c_2)/(1 + \mu)\lambda$ - deformatsiyalar bo‘yicha optik doimiy.

Qonunni o‘shirlarda yozish ko‘proq umumiy bo‘lib hisoblanadi:

$$\delta\Delta = c_e s_M (\delta e_1 - \delta e_2) \quad (5.36)$$

bu yerda $\delta\Delta$ – optik-sezuvchan material deformatsiyalanganda ikkita ketma-ket yuklama berish bosqichlari nuqtasida Δ qiymatlarining farqi; δe_1 va δe_2 – joriy momentda deformatsiyalarning ortishi.

Qonun yassi va aylana qutblagichlarda amalga oshiriladi, ular tushayotgan va qaytarilgan yorug‘likdan foydalanadi va yorug‘lik manbai, qutblagich va yorug‘lik vektori bilan belgilanadigan qutblash tekisliklarida yorug‘likni o‘tkazadigan analizatoridan tashkil topadi. Yassi qutblashda yorug‘lik vektori bu tekislikda tebranadi. Aylana va ellipssimon qutblashda yorug‘lik vektorining oxiri tekislikda yorug‘likni tarqalish yo‘nalishiga perpendikulyar bo‘lgan aylana yoki ellips chizadi.

Yassi qutblangan yorug‘lik nuri optik-sezuvchan materialdan (OSM) ishlangan modelning ikkita bosh optik o‘qlariga nisbatan $\theta = 0$ yoki $\theta = \pi/2$ burchak ostida yo‘naltirilganda, yorug‘lik to‘g‘ri chiziqli qutblanadi. $\Delta = \pi/2$ da aylana ($\theta = \pi/4$) yoki ellipssimon ($\theta = 0; \pi/4; \pi/2$) qutblanish olinadi. Qutblagich va analizatorning o‘qlarini turlicha joylashtirish bilan, o‘qlar perpendikulyar joylashganda ekranda yorug‘likning so‘nishi (qora maydon) yoki kuchayishi (oq maydon) olinadi. Yorug‘lik nuri optik-sezuvchan materialdan (OSM) ishlangan qutblagich orqali $2\pi vt$ (A – amplituda, v – yoritishning rangiga bog‘liq bo‘lgan chastota, t – vaqt) garmonik ko‘ndalang tebranishlar ko‘rinishida o‘tganda, u mm tekislikda qutblanadi (5.13-rasm) va Ox va Oy tekisliklarda mos ravishda $OA_1 = A \cos \theta$ va $OA_2 = A \sin \theta$ amplitudali tarkibiy qismlarga yoyiladi. Bunda yorug‘lik vektori ko‘chishining tarkibiy qismlari

$x_1 = A \cos \theta \cos 2\pi vt$; $y_1 = A \sin \theta \cos 2\pi vt$ ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Shuni qayd qilamizki, Ox va Oy tekisliklar σ_1 va σ_2 bosh kuchlanishlar joylashadigan tekisliklar bo'lib hisoblanadi.

Yuklangan modelda p'ezooptik hodisa tufayli yorug'lik vektori ikkita o'zaro perpendikulyar bo'la oladigan, modelning chiqishida bosh yo'nalishlar bo'yicha $\Delta=2\pi vt$ (t_1-t_2) ga ega bo'lgan tarkib toptiruvchilarga ajraladi. Bunda yorug'lik vektorining analizator-gacha yetib kelgan tarkibiy qismlari

$$x_2 = A \cos \theta \cos \omega; \quad y_2 = A \sin \theta \cos(\omega - \Delta).$$

ga teng bo'ladi.

Bu yerda $\omega = 2\pi vt + const$.

Analizatorning pp qutblash tekisligi qutblagichning tt qutblash tekisligiga perpendikulyar joylashgan (5.13-rasmga qarang). Analizator tomonidan o'tkazilgan tebranishlar gorizont va vertikal tarkib toptiruvchilarga ajraladi. Vertikal tarkib toptiruvchilar so'nadi, gorizontalk tarkib toptiruvchilar esa interferentsiyalanadi va quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\begin{aligned} x_2 \sin \theta &= 0,5A \sin 2\theta \cos \omega; \quad -y_2 \cos \theta \\ &= 0,5A \sin 2\theta \cos(\omega - \Delta/2). \end{aligned}$$


pp analizator bo'ylab yig'indi tebranishlar

$$\begin{aligned} 0,5A \sin 2\theta [\cos \omega - \cos(\omega - \Delta)] &= \\ -A \sin 2\theta \sin(\Delta/2) \sin(\omega - \Delta/2). \end{aligned}$$

teng bo'ladi.

Uning amplitudasi $A \sin 2\theta \sin(\Delta/2)$ ni tashkil qiladi.

Yorug'likning so'nishi $\sin 2\theta$ yoki $\sin(\Delta/2)$ nolga teng bo'lganda sodir bo'ladi. $\sin 2\theta = 0$ da, bu yerda $p = 0, 1, 2$ da $2\theta = 2\pi p$ bo'ladi, σ_1 va σ_2 ning yo'nalishlari qutblanish o'qlariga parallel bo'ladi.



5.13-rasm. Yasii qutblagichning maydonida yuklangan model: 1– yorug‘lik manbai; 2–qutblagich; 3–model; 4–analizator.

Modelning bunday nuqtalari orqali o‘tgan nurlar so‘nadi. Ekranida λ ga bog‘liq bo‘lmagan har doim qora rangda bo‘lgan polosalar paydo bo‘ladi, ular izoklinlar deb ataladi. Ular bosh kuchlanishlardan birining egilish burchagi doimiy bo‘lgan nuqtalarning geometrik joyi bo‘lib hisoblanadi. Bu nuqtalarning joylashgan joyi qutblagichlar birgalikda aylanganda o‘zgaradi.

$\Delta = 2\pi n$ da, bu yerda $p - 1, 2$, yorug‘likning so‘nishi shu bilan shartlanadiki, bunda yorug‘likning tebranishlarining gorizontalk tarkib toptiruvchilari qarama-qarshi fazada bo‘ladi. Izotrop nuqtalardan tashkil topgan polosalar hosil bo‘ladi, ularda Vertgeym qonuniga muvofiq farq $\sigma_1 - \sigma_2 = \text{const}$ bo‘ladi, uning ortishi esa p ning ortishiga mos keladi. Ular izoxromalar deb ataladi, chunki ular oq yorug‘likdan foydalanilganda qandaydir bir rangli polosaning so‘nishiga ko‘maklashadi.

Agar oq yorug‘likdan foydalanilsa, u holda (5.32) bog‘lanishga muvofiq turlicha to‘lqin uzunligiga ega bo‘lgan yorug‘likning so‘nishi bir paytda sodir bo‘lmaydi. Shu sababli izoxromalar qandaydir qo‘shimcha to‘lqin rangiga ega bo‘ladi. Yurish farqining ortishi binafsha rangdan tortib qizilgacha spektral ketma-ketlikdagi ranglarning to‘lqin uzunliklarining so‘nishiga va ularning kontrastligining kamayishiga olib keladi. Masalan, qora rangni faqatgina nolinchii izoxromada ($\Delta = 0$ va $\sigma_1 = \sigma_2$) kuzatish mumkin, moviy rangga faqatgina birinchi izoxroma ega bo‘ladi, to‘rtinchi tartibdan boshlab faqatgina qizil va yashil ranglarni farqlash mumkin. Shunday qilib, oq yorug‘likdan foydalanish har ikkala oilaning polosalarini ajratish imkonini beradi, chunki monoxromatik yorug‘likda ular

oʻrtasida ranglar farqi kuzatilmaydi va ixoxromaning tartibi ortishi yoki kamayishi koʻrinmaydi. $\sigma_1 - \sigma_2$ ni topish uchun polosaning tartibini va birinchi polosa uchun bu farqni bilish kerak boʻladi.

Kuchlanishlarning konsentratsiyalarini tadqiq qilishda izoxromalarning manzaralari yetarli boʻladi. Izoklinlarni chiqarib tashlashga ($\Delta = 2\pi p$ da yorugʻlikning soʻnishiga) aylana qutblagichlarda modelning har ikkala tomoniga $\Delta = \pi/2$ ga ega boʻlgan chorak toʻlqinli plastinkalarni oʻrnatish bilan erishiladi. Birinchi plastinka dumaloq qutblanishni hosil qiladi, ikkinchi plastinka esa uni yassi qutblanishga aylantiradi. Aylana qutblagichlar maydonning har qanday nuqtasida 0,1 polosagacha aniqlik bilan oʻlchashlarni bajarish imkonini beradi. Ba'zi bir qutblagichlarning konsruksiya usulining tasvirlanishi N.A.Chinenevning ishlarida keltirilgan. Agar yurish farqini kattaroq aniqlik bilan oʻlchash zarur boʻlsa, u holda N.A.Chinenevning kompensatsiya usulidan foydalaniladi.

Modelga qoʻyiladigan yuklama N.A.Chinanev modelining 1 sm qalinligiga 10 ... 20 ta polosani olishni taʼminlashi lozim.

5.7.2. Namunalarning rasmelastiklik va rasmplastiklik usullari

Rasmelastiklik uslubi. Rasmelastiklik usulidan foydalanilganda qutblash-optik qurilmaning qutblagichi va analizatori 0...900 intervalda sinxron ravishda aylantirilganda aniqlanadigan izoklinlar oilasi bosh kuchlanishlar va deformatsiyalarning yoʻnalishlariga mos keladi deb hisoblanadi.

Rasmelastiklik uslubi bilan teshiklar va burchaklarning yaqinida kuchlanishlarning konsentratsiyalarini tadqiq qilishda ayniqsa muhim natijalar olingan. Kuchlanishlar erkin chegarada maksimumga erishadi. Ular optik qurilma uslubi bilan aniqlanadi, chunki bosh kuchlanishlardan biri nolga teng boʻladi. Shu sababli bu ishlarni bajarishda optik usulidan foydalaniladi.

Modelda oʻtkazilgan tadqiqotlarning natijalarini rasmelastiklik uslubi bilan natural poʻlat namunalarga koʻchirib oʻtkazish oʻxshashlik nazariyasi sharoitlarida modellashtirishda mumkin boʻladi.

Ikki o‘lchamli model uchun odatda N.A.Chinenevning (5.37) shartiga rioya qilinadi:

$$\sigma_H = \frac{\sigma_M l_M s_M Q_H}{l_H s_H Q_M}; \quad u_H = \frac{u_M Q_H s_M E_M}{Q_M s_H E_H}, \quad (5.37)$$

bu yerda σ , l , s , Q , u – mos ravishda model (m) va naturaning (n) kuchlanishi, chiziqli o‘lchami, qalinligi, tashqi yuklamasi va ko‘chishi.

Elastiklik masalalarini modellashtirish uchun (masalan, tayyorlanmani deformatsiyalaydigan uskuning kuchlanishlarini aniqlash uchun) mo‘ljallangan ideal material quyidagilarga ega bo‘lishi lozim: minimal sochilish koeffitsiyenti; izoxromalarning tartibi, kuchlanishlar va deformatsiyalar o‘rtasida minimal chiziqli bog‘lanish; minimal optik va mexanik izotroplik; barqaror optik-mexanik tavsiflar; yuqori elastiklik moduli va N.A.Chinenev bo‘yicha yuqori mustahkamlik chegarasi. Real optik-sezuvchan materiallar (OSM) barcha talablarni qanoatlantirmaydi. Ular eksperimentning maqsadiga muvofiq tarzda tanlanadi.

Aksariyat hollarda epoksid smolalari asosidagi polimer materiallar qo‘llaniladi, chunki ular ko‘proq yuqori optik-mexanik xususiyatlarga ega bo‘lib, bu xususiyatlarni plastifikatorlarni kiritish bilan boshqarish mumkin. Ba’zi bir optik-sezuvchan materiallarning tavsiflari N.A.Chinenevning ishlarida keltirilgan.

Deformatsiyalanadigan tayyorlanmaning model materiali sifatida odatda qo‘rg‘oshin yoki uning tellur yoki surma qo‘shilgan qotishmalaridan foydalaniladi, bunda tayyorlanma Ye.P.Unksov bo‘yicha 50% dan kam bo‘lmagan siqish darajasi bilan albatta oldindan deformatsiyalanadi.

Modelning nominal deformatsiya kuchini miqdoriy baholash uchun model tayyorlangan material polosasining $\sigma_0^{1,0}$ qiymatini aniqlash zarur bo‘ladi. U odatda har bir eksperimentdan oldin aniqlanadi.

Rasmelastiklik uslubida $\sigma_0^{1,0}$ kattalik kalibrlash sinovlarida - $b \times s$ kesimli yassi namunani cho‘zishda yoki to‘g‘ri burchakli kesimli to‘sinni sof bukishda yoki diskni diametral siqishda aniqlanadi.

Sinovlarda polosaning tartibi oq va qora maydonlarning ketma-ket navbatlashishi ko‘rinishida qayd qilinadi va yuklashning har bir darajasida yuklamaning mos keluvchi qiymati qayd qilinadi. Cho‘zishda

$$\sigma_1 = Q/(bc); \sigma_2 = \sigma_3 = 0, \quad (5.38)$$

bu yerda Q – yuklamaning ortishi.

Olingan ma’lumotlarni (2) ga qo‘yish bilan $\sigma_0^{1,0} = (\sigma_1 - \sigma_2)s_M/m = Q/(bm)$ deb yozamiz. Besh-oltita yuklashlarning ma’lumotlari bo‘yicha $Q(m)$ grafik quriladi. Bu nuqtalar orqali o‘tkazilgan va Q/m ga teng bo‘lgan to‘g‘ri chiziqning egilish burchagining tangensi kuchlarni va polosaning tartibini o‘lchash xatoligini o‘rtachalashtirish imkonini beradi. Kalibrlash uslubiyati ko‘proq batafsil N.A.Chinenev, A.N.Patrashev va M.V.Storojevning ishlarida keltirilgan.

Yuklama noldan berilgan qiymatgacha oshirilganda polosalarining umumiy soni ortishi va izoxromalar kichik tartiblar tomonga qarab siljishi sababli modelning belgilangan nuqtasida izoxroma polosasining tartibi oldingi polosalarni bevosita sanash yoki grafik ekstrapolyatsiyalash uslubi bilan aniqlanadi (5.14-rasm,a,b). Izoxromalarning tartibi nolinch polosadan boshlab polosalarning manbasi yo‘nalishida sanaladi, yuklama qo‘yilgan nuqta ana shunday manba bo‘lib hisoblanadi.

Modelning yuklanmagan turtib chiqib turuvchi burchaklari sanoq boshi bo‘lib xizmat qiladi, chunki ularda kuchlanishlar nolga teng bo‘ladi, shundan kelib chiqqan holda polosaning tartibi ham nolga teng bo‘ladi. Nolinch polosaning turlaridan biri ularda $\sigma_1 = \sigma_1$ bo‘ladigan izotrop nuqtalar bo‘lib hisoblanadi.

Nolinch polosalari va izotrop nuqtalar oq yorug‘likni qo‘llash bilan aniqlanadi, chunki ular oq yorug‘likda har doim qora bo‘lib ko‘rinadi, qolgan maydon esa rangli bo‘lib ko‘rinadi. Yuklamani o‘zgartirish yoki yorug‘lik to‘lqinlarining ikkita turli rejimlari bilan nurlatish bilan ham xuddi shunday natijaga erishiladi.

Izoxroma polosasining tartibi ma'lum bo'lganda bosh normal kuchlanishlarning farqi (5.32) formula bo'yicha aniqlanadi.

Umumiy holatda modelning butun maydoni bo'ylab τ_{\max} maksimal urinma kuchlanishni aniqlash uchun σ_1 va σ_2 bosh normal kuchlanishlarni ajratish zarur bo'ladi. Bu yassi kuchlangan va bosh normal kuchlanishlar belgisi bo'yicha turlicha bo'lgan yoki erkin konturda maksimal urinma kuchlanishlar bosh kuchlanishlardan qaysi biri konturga urinma bo'yicha ta'sir ko'rsatishiga bog'liq ravishda mos ravishda $\tau_{\max}=(\sigma_1-\sigma_2)/2$ va $\tau_{\max}=\sigma_1/2$ yoki $\tau_{\max}=\sigma_2/2$ bo'ladigan holat uchun o'rinli bo'ladi.

Izoxromning parametri – eng katta bosh kuchlanishning yo'nalishi va Ox o'qning musbat yo'nalishi o'rtasidagi θ burchak bo'lib hisoblanadi. U soat strelkasi yo'nalishiga teskari sanashda $\mp 90^\circ$ intervalda musbat va o'zgaruvchan deb hisoblanadi. Bu holda θ va τ_{xy} urinma kuchlanishlarning belgilari mos tushadi, shu sababli kuchlanishlar (5.39) formulalar bo'yicha aniqlanadi:


$$2\tau_{xy} = (\sigma_1 - \sigma_2) \sin 2\theta; \quad \sigma_x - \sigma_y = (\sigma_1 - \sigma_2) \cos 2\theta \quad (5.39)$$

Izoxrom parametrining boshlang'ich qiymati yoki chegara shartlaridan yoki fizikaviy mulohazalardan kelib chiqish bilan aniqlanadi. Izoklinlar tashqi kuchlar qo'yilgan nuqtalar orqali o'tadi. Simmetriya o'qida izoklinning parametri doimiy bo'ladi (5.14-rasm,c,d). Izotrop nuqta orqali o'tishda izoklinlarning parametrlari 90° ga o'zgaradi.

Agar izotrop nuqta konturda yotmasa, u holda u orqali barcha parametrlarning izoklinlari o'tadi. Agar konturning bir qismida cho'zuvchi kuchlanishlar, qolgan qismida esa - siquvchi kuchlanishlar ta'sir ko'rsatsa, u holda ular konturdagi kuchlanishning nolli qiymati bilan ajratilishi lozim, nolli qiymatga $\sigma_1 = \sigma_2$ ga ega bo'lgan nuqta mos keladi. Yuklanmagan yoki urinma kuchlanishlardan holi konturda izoklinlar konturga normal yo'naladi.

Agar geometrik simmetriya o'qlari izotrop nuqtalar orqali o'tmasa, u holda ular bitta parametrning izoklinlari bo'lib hisoblanadi. Izoklinlarning ma'lum maydoni bo'ylab qayishqoq izotrop jism

uchun bosh kuchlanishlarning trayektoriyalari – izostatlar, ya’ni N.A.Chinenevning bosh kuchlanishlarining yo‘nalishlari bilan mos tushadigan urinma yoki normal chiziqlar quriladi.



5.14-rasm. Simni ekstrapolyatsiyalash bilan bukishga sinovlardan o‘tkazishda izoxromalarning manzaralari (a) va kvadrat tayyorlanmani profil boykalar bilan bosishda A-A kesim uchun chekkadagi izoxromalarni (b) va θ (c) epyurali izoklinlarni (d) aniqlash.

Umumiy holatda kuchlanishlarni ajratish uchun qo‘shimcha eksperimental ma’lumotlar yoki sonli uslublardan foydalaniladi. Sonli uslublarning tasvirlanishi N.A.Chinenevning ishlarida keltirilgan. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi: urinma kuchlanishlarning farqi uslubi, Faylon uslubi, kuchlanishlarni izoklinlardan foydalanmasdan ajratish uslubi, qiya yoritish uslubi, deformatsiyalarning uzluksizligi tenglamalaridan foydalanish uslubi, Laplas tenglamalarini sonli integrallash uslubi va boshqalar.

Rasmelastiklik uslubi bilan Ye.P.Unksovning $\frac{\sigma_{SM}}{E_M} \cong \frac{\sigma_{SH}}{E_H}$ shartiga rioya qilish bilan 3-4% xatolik bilan kontakt kuchlanishlari aniqlanadi. Xususan, to‘g‘ri va teskari bosishda konteynerda, Ye.P.Unksov polosasini siqishda rolikda va V.Ya.Gun uslubi bilan yassi chizishda filerda kontakt kuchlanishlari aniqlangan. Elastiklik sohada ishlaydigan uskunaning modeli epoksid smolasi – optik-sezuvchan material (OSM) dan yoki organik shisha – OSM yopishtirilgan optik sezuvchan bo‘lmagan materialdan (OSBM) ishlangan.

Ye.P.Unksovning ishida bosishda uch qatlamli datchikdan foydalanilgan, uning tashqi va ichki qatlamlari konstruktiv jihatdan mustahkam bo‘lishi uchun OSBM dan, o‘rta qatlamli esa OSM dan ishlangan, har ikkala materialning E va μ qayishqoq doimiylari deyarli teng qilib olingan. Datchik polosasining qiymati bitta polosaga $\sigma_0^{1,0} = 3,25$ MPa.

Monoxromatik yorug‘lik bilan ishlaganda izoklinlarning sifat manzarasi ikkita model yordamida olingan: biri izoklinlarni qayd qilish uchun past optik sezuvchanlikka ega bo‘lgan OSM li, ikkinchisi qora-oq polosalar ko‘rinishidagi izoxromalar manzarasini qayd qilish uchun yuqori optik sezuvchanlikka ega bo‘lgan OSM li. Kontakt kuchlanishlari tanlangan kesimlar yoki bosh kuchlanishlarning trayektoriyalari bo‘yicha muvozanat tenglamalarini integrallash bilan birlashtirilgan izoklinlar va izoxromalarning manzaralaridan foydalanish bilan N.A.Chinenevning urinma kuchlanishlarning farqi uslubi bilan aniqlangan: $\tau = m\sigma_0^{1,0} \sin 2\theta/s_M$, bu yerda θ – izoklinning parametri (σ_1 ning yo‘nalishi).

Rasmelastiklik uslubi bilan hajmiy modellarda optik-sezuvchan yopishtirmalarni qo‘llash, “muzlatib qo‘yish” usuli va N.A.Chinenevning boshqa usullarini qo‘llash bilan uch o‘lchovli kuchlangan holat tadqiq qilinadi.

OSM dan ishlangan yopishtirma shaffof OSBM dan ishlangan modelning tadqiq qilinadigan kesimiga joylashtiriladi. Shuningdek, modelning mos keluvchi bo‘shlig‘iga quyilgan kompaundni polimerlashdan ham foydalaniladi. Yopishtirma imkon qadar simmetriya

tekisligiga joylashtiriladi. Yopishtirmaning qalinligi unda kuchlanishlarning taqsimlanishi bir tekis deb hisoblash mumkin bo'lishi uchun kichik bo'lishi lozim. Polosalarning kuzatiladigan manzarasi faqatgina yopishtirmaning kuchlangan holatini tavsiflaydi, chunki modelning asosiy materiali p'ezooptik effektga ega emas.

Agar bo'ylama va ko'ndalang yopishtirmalar bosh tekisliklarda joylashgan bo'lsa, u holda ular uchun $\sigma_1 - \sigma_1 = m\sigma_0^{1,0}/s_M$ nisbat adolatli bo'ladi.

“Muzlatib qo'yish” usuli murakkab modelning ko'plab kesimlarida kuchlangan holatni o'rganish zarur bo'lgan hollarda qo'llaniladi. $t = 20^\circ\text{C}$ da shishasimon bo'lgan va $t = 120\dots 180^\circ\text{C}$ da qayishqoq (yuqori elastik) holatga o'tadigan polimer materialdan ishlangan modellardan foydalaniladi.

Model qiziguncha tashqi kuchlar tizimi bilan yuklanadi va qayishqoq holat haroratida ushlab turiladi. Model sovutilganda shishasimon faza qotish bilan N.A.Chinenev va Ye.P.Unksovning deformatsiyalangan elastiklik fazasini qotiradi (muzlatadi). Model yupqa yassi namunalarga (tepletlar) qirg'iladi va tadqiq qilinadi. Optik effekt yassi bo'lib hisoblanmaydi, biroq τ_{xz} , τ_{yz} , σ_z tarkibiy qismlar Oz o'q bo'ylab yo'naltirilgan nurga ta'sir ko'rsatmaydi.

“Muzlatilgan” modelni qutblagichning maydonida to'lig'icha tadqiq qilishning iloji yo'q, chunki polosalarning manzarasi nurning yo'lidagi yurishning integral farqini aks ettiradi. Kuchlangan holatning tepletning qalinligi bo'ylab notekis ta'sirini istisno qilish uchun bir nechta o'lchashlar o'tkaziladi, uning qalinligi kamaytiriladi va kuchlangan holatning parametrlarini o'lchash natijalari qirqimning nol qalinligida ekstrapolyatsiyalanadi.

Kuchlangan holatning tarkibiy qismlarining alohida-alohida qiymatlarini olish uchun yordamchi tepletlar ishlanadi. “Muzlatilgan” modellarni tadqiq qilishda kuchlanishlarni ajratish uslubiyati N.A.Chinenevning ishlarida keltirilgan.

Rasmplastiklik uslubi. Shaffof materiallardan ishlangan modellarni qo'llash bilan elastiklik chegarasidan tashqarida kuchlanishlar va deformatsiyalarni tadqiq qilishning qutblash-optik uslublariga *rasmplastiklik uslubi* deb ataladi.

Bu uslub uchun foydalanilgan materiallarning tavsiflari N.A.Chinenev ulardan qisman foydalanganini ko'rsatadi. Kumush, talliyning galloidli tuzlari, ularning qotishmalari va polimerlari istiqbolli deb hisoblanadi, chunki ularda Vertgeym qonuni qayishqoq sohada ham, plastik sohada ham bajariladi. Biroq izoxromalarning sifatini belgilaydigan kvaziizotropik uchun nurning yo'lida 40 tadan kam bo'lmagan ma'lum bir o'lchamli donlar bo'lishi zarur, buni bajarish qiyin. Katta deformatsiyalarga ega bo'lgan qaynoq deformatsiyalash jarayonlarini modellashtirish uchun Ye.P.Unksovning deformatsiyani "muzlatish" uslubini ($130...140^{\circ}\text{S}$; $\mu = 0,5 = \text{const}$) qo'llash to'g'ri bo'ladi.

Rasmplastiklik uslubida foydalaniladigan model materiallari katta deformatsiyalarda optik effekt va deformatsiyaning tavsifi o'rtasida bir qiymatli bog'lanishga, optik effektning "muzlatish" va templetlarga qirqishda yuklama berilganda mexanik tavsiflarga bog'liq ravishda barqarorligiga, past oquvchanlik kuchlanishiga, "muzlatish" haroratlarida turlicha qayishqoqlik modullari va hokazolarga ega bo'lishi lozim.

Rasmplastiklik shartlari uchun optik yurish va deformatsiyalar farqlarining optik-mexanik bog'lanish qonuni Ye.P.Unksovning $\Delta = F(\varepsilon_1 - \varepsilon_2)$ funktsional bog'lanishi ko'rinishida foydalaniladi. Bog'lanishning turi eksperimentlar seriyasi bilan aniqlanadi, bu seriyalar yassi namunalarni bir o'qli cho'zish, silindrik namunalarni bir o'qli siqish yoki Ye.P.Unksov yassi deformatsiyasi sharoitlarida silindrni radial o'tirg'izishni o'z ichiga oladi. Ye.P.Unksov bo'yicha 30% gacha deformatsiya darajasi bilan yassi va chiziqli deformatsiyalash sharoitlarida m/sm optik effekt va $\varepsilon_1 - \varepsilon_2$ va $e_1 - e_2$ bosh deformatsiyalarning farqlari o'rtasidagi (5.35) chiziqli bog'lanish eksperimental yo'l bilan aniqlangan.

Rasmelastiklik uslubidan farqli o'laroq, rasmplastiklik uslubida izoklinni nima belgilaydi – bosh deformatsiyaning yo'nalishimi (burchakni $\theta\varepsilon$ orqali belgilash) yoki bosh kuchlanishning yo'nalishimi (burchakni $\theta\sigma$ orqali belgilash) degan savolga bir qiymatli javob yo'q. Modelning deformatsiyalangan holati va prototipning kuchlangan holatini tahlil qilishning bir nechta yo'llari tavsiya qilinadi.

Kichik deformatsiyalarda bosh kuchlanishlar, deformatsiyalar va izoklinlarning yo‘nalishlari mos tushadi deb hisoblashga yo‘l qo‘yiladi. Vertgeym qonuni (5.36) ko‘rinishida qo‘llaniladi. Kichik elastik-plastik deformatsiyalar nazariyasining bog‘lanishlari va A.D.Tomlenovning deformatsiyalarni birlashtirish shartidan foydalaniladi.

Yassi kuchlangan holatda deformatsiyalarning tarkibiy qismlari mos ravishda

$$\begin{aligned}\varepsilon_1 &= 2m\varepsilon_0^{1,0}/3s_M; \quad \varepsilon_z = \varepsilon_2 = \varepsilon_3 - 2m\varepsilon_0^{1,0}/3s_M; \quad \varepsilon_x + \varepsilon_y = -\varepsilon_3; \\ \varepsilon_x - \varepsilon_y &= (\varepsilon_1 - \varepsilon_2) \cos 2\theta; \quad \gamma_{xy} = (\varepsilon_1 - \varepsilon_2) \sin 2\theta\end{aligned}\quad (5.40)$$

ga teng bo‘ladi,

bu yerda θ – ε_1 ning yo‘nalishi.

Yassi deformatsiyalangan holatda

$$\begin{aligned}\varepsilon_1 &= m\varepsilon_0^{1,0}/2s_M, \quad \varepsilon_2 = -m\varepsilon_0^{1,0}/2s_M; \\ \varepsilon_x &= \varepsilon_1 \cos 2\theta = m\varepsilon_0^{1,0} \cos 2\theta /s_M; \quad \varepsilon_y = \varepsilon_2 \cos 2\theta \\ &= -m\varepsilon_0^{1,0} \cos 2\theta /s_M; \\ \gamma_{xy} &= 2\varepsilon_1 \sin 2\theta = 2m\varepsilon_0^{1,0} \sin 2\theta /s_M.\end{aligned}\quad (5.41)$$

Umumiy holatda deformatsiyalar modelning qirqimini 90 va 45° burchak ostida yoritish yoki “muzlatilgan” modelning uchta qirqimini N.A.Chinenev va Ye.P.Unksov koordinatalar tekisliklarini parallel yoritish ma’lumotlari bo‘yicha aniqlanadi.

Katta monoton deformatsiyalar holatida bosh kuchlanishlar va logarifmik deformatsiyalarning yo‘nalishlari mos tushadi degan yo‘l qo‘yilish kiritiladi. Bu holda izoklinni nima belgilashi – bosh deformatsiyaning yo‘nalishimi yoki bosh kuchlanishning yo‘nalishi belgilashining farqi qolmaydi. (5.4) ko‘rinishdagi Vertgeym qonunini faqatgina yoritiladigan tekislik doimiy yo‘nalishli bosh kuchlanishlar va deformatsiyalar tekisligi bo‘lib hisoblanadigan yassi yoki o‘q simmetrik nominal deformatsiya kuchlarida qo‘llasa bo‘ladi,

$$e_1 - e_2 = m\varepsilon_0^{1,0}/s_M; \quad \varepsilon_1 + \varepsilon_2 + \varepsilon_3 = 0; \quad \varepsilon_3 = \Delta \quad (5.42)$$

bunda oxirgi tenglama muzlashdan chiqarilgan qirqimning mahalliy qalinliklarini o'lchash natijasi bo'lib hisoblanadi, yassi deformatsiyada $\Delta = 0$ bo'ladi:

Datchiklar uchun 10...30 mkm diametrlil N.A.Chinenev simlari yoki 0,0025 mm dan kam bo‘lmagan qalinlikdagi A.N.Patrashev folgalaridan foydalaniladi, folga yassi sirtmoq yoki panjara ko‘rinishida bo‘lib, polimer yoki qog‘oz ko‘rinishidagi izolyatorga yopishtiriladi. Simli datchiklarning bazasi (to‘g‘ri chiziqli qismning uzunligi) 1...100 mm ni, folgali datchiklarning bazasi esa – 0,4...25 N.A.Chinenev mm ni yoki 0,2...150 A.N. Patrashev mm ni tashkil qiladi.

Konstantan (60 Su + 40 Ni), nixrom (80 Ni + 20 Sr) va manganindan (84 Su + 12 Mn + 4 Ni) ishlangan datchiklar uchun k koeffitsiyent va eng chekka ishchi harorat mos ravishda N.A.Chinenev bo‘yicha 2,0 va 400°S; 2,2 va 1000°S; 0,5 va 200°S ga teng.

Tenzoristorlar uchun shuningdek N.A.Chinenev va A.N.Patrashevning karma (74Ni + 20Sr + 3Al + 3Fe) $k = 2,0$; izoelastik (36Ni + 8Sr + 0,5Mo + 55,5Fe) $k = 3,6$; platinovolfram (92 Pt + 8 W) $k = 4,0$; armyur (70Fe + 20Sr + 10Al) $k = 2,0$ va boshqa qotishmalari qo‘llaniladi.

Tenzodatchiklarni (xususan, folgali tenzodatchiklarni) tayyorlash uchun foydalaniladigan qotishmalar A.N.Patrashev bo‘yicha $\pm 5\%$ atrofida eng chekka deformatsiya bilan tavsiflanadi. Bu chegaralar konstruktsiyalarning metall va keramik elementlarini qayishqoq deformatsiyalash diapazoniga mos keladi.

Plastik deformatsiyalarni tadqiq qilish uchun poliamid asosga ega bo'lgan ikki marta bo'shatilgan konstantan folgali panjarali datchiklar qo'llaniladi, ular deformatsiyalarni o'lchashda A.N.Patrashev bo'yicha 20% gacha uzayish qobiliyatiga ega.

Aksariyat tenzodatchiklarda konstantandan foydalaniladi, u 0...8% deformatsiyalar diapazonida doimiy tenzosezuvchanlikka, harorat barqarorligiga ega, unda elastik deformatsiyadan plastik deformatsiyaga o'tishda katta o'zgarishlar kuzatilmaydi. Konstantanning raqobatchisi karma qotishmasi bo'lib hisoblanadi, chunki u toliqish, vaqtda barqarorlik va harorat barqarorligining yanada yuqoriroq tavsiflariga ega, shuningdek haroratlarning yanada kengroq diapazoniga ega.

Qotishmaning kamchiligi – chiquvchi simlarni datchikning kontakt maydonchalariga kavsharlashning qiyinligi, o'lchanadigan eng chekka deformatsiya qiymatining kichikligi bo'lib hisoblanadi.

Izoelastik qotishma yuqori tenzosezuvchanlik va ko'proq yuqori toliqish tavsiflariga ega, biroq haroratga nisbatan o'ta sezuvchan.

Nixrom, platinovolfram va armyur qotishmalari yuqori haroratlar bilan bog'lanadigan o'lchashlarda qo'llaniladi, bunda A.N.Patrashevning oksidlanish jarayonlariga nisbatan barqarorlik muhim bo'lib hisoblanadi.

Folgali va simli datchiklarning asosiy kamchiligi – yelim bor bo'lganligi uchun ko'rsatishlarning yetarlicha barqaror bo'lmasligi bo'lib hisoblanadi.

100% gacha cho'zilishlar bilan deformatsiyalarni o'lchash uchun suyuq metalli tenzodatchiklar ishlab chiqilgan, ular sirtmoq ko'rinishida egilgan va tadqiq qilinadigan ob'ektga mahkamlanadigan rezina naychadan tashkil topgan, naycha simob yoki galliy-indiy-qalay qotishmasi bilan to'ldirilgan. Deformatsiyada naycha bo'shlig'ining hajmi doimiy bo'lib qolaveradi, chunki rezinaning Puasson koeffitsiyenti $\mu \approx 0,5$ ga teng. Biroq cho'zuvchi deformatsiyalarda suyuqmetalli datchikning qarshiligi ortadi, chunki uning uzunligi ortadi va diametri kamayadi. Tenzodatchiklarning bu turi naycha diametrining nisbatan kattaligi tufayli juda kichik elektr qarshiligiga

(1 Om dan kichik) va A.N.Patrashevning ortib boruvchi deformatsiyalariga chiziqli bo'lmagan javob qaytarishga ega.

1960-yillarda paydo bo'lgan pьezorezistiv tenzodatchiklarda asosiy yarim o'tkazgich element o'zida kremniy monokristallidan ishlangan, taglikka mahkamlangan o'ta yupqa to'g'ri to'rtburchak plenkani taqdim qiladi.

Kremniyning elektr qarshiligi konstantaning elektr qarshiligidan 103 marta katta bo'lganligi sababli yarim o'tkazgichli tenzodatchiklarda 102...103 Om diapazonda boshlang'ich qarshilikni hosil qilish uchun panjara konfiguratsiyasi qo'llanilmaydi.

Yassi tekisliklarda bu datchiklar A.N Patrashev bo'yicha 3000 mkm/m gacha eng chekka deformatsiyalarga tortilishi mumkin.


$\Delta R/R$ ning qiymati asosan potentsiometrik (5.20-rasm,a) va ko'prik (5.20-rasm,b) sxemalardan foydalanib aniqlanadi. Potentsiometrik sxema bo'yicha V kuchlanishli tok manbai r ballast qarshilik orqali R datchikka ulanadi. Datchikdagi Y_e kuchlanish quyidagi bog'lanish bilan aniqlanadi:

$$E = \frac{R}{R+r} V \quad (5.75)$$

$\Delta R/R$ qarshilik o'zgarishi kuchlanishning o'zgarishiga aylantiriladi, bu прибор bilan qayd qilinadi. Priborning qarshiligi tenzorezistorning qarshiligidan 100 marta oshiq bo'lganligi sababli datchikning qarshiligi $\Delta R/R$ ga o'zgarganda priborda kuchlanishning o'zgarishi quyidagini tashkil qiladi:

$$\Delta E = \frac{r}{r+R+\Delta R} \frac{\Delta R}{R} E \quad (5.76)$$

0,01 dan kichik deformatsiyalarni o'lchashda va ΔR kattalik maxrajdagi $R + r$ kattalikka nisbatan hisobga olinmaganda ΔE kattalikning bog'lanishi datchikning qarshiligining o'zgarishiga to'g'ri proporsional bo'ladi. O'lchash xatoligi N.A.Chineneva va A.N.Patrashev bo'yicha 2% dan oshmaydi.



5.20-rasm. Tenzorezistorlarni ulashning potentsiometrik (a) va ko‘prik (b) sxemalari: R_i^A – ishchi datchiklar; R_i^k – kompensatsion datchiklar.

Shunday qilib, deformatsiya 2...10% intervalda aniqlanadi. Bunday texnik yechim muvozanatlashni talab qilmaydi, u asosan ΔE signal kichikligi tufayli o‘zgaruvchan tokli kuchaytirgichlardan foydalanish bilan dinamik deformatsiyalarni o‘lchash uchun qo‘llaniladi. Statik deformatsiyani o‘lchashda sxema barqaror oziqlantirish manbaini talab qiladi, chunki ΔE kattalik V ga va haroratni kompensatsiyalashga to‘g‘ri proporsional.

Potentsiometrik sxemaning sezuvchanligi quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$k_{\Pi} = \frac{\Delta E}{\varepsilon} = \frac{r}{r+R} kIR \quad (5.77)$$

bu yerda I – zanjirdagi tok kuchi.

Dinamik deformatsiyalarni o‘lchashda ε kichik bo‘ladi.

Maksimal k_p ni olish uchun katta r da kuchlanishning ortishidan qochish uchun $r \leq 9R$ qilib o‘rnatiladi. Shunda $r/(R + r) = 0,9$ bo‘ladi, kIR ko‘paytma esa, u datchikning tipi va zanjirdagi tok bilan belgilanadi, N.A.Chinenev bo‘yicha 3...700 oraliqda o‘zgarishi mumkin. Chunki $\Delta \varepsilon$ odatda kichik va $k_p = 5...10 V$ bo‘ladi.

Ko‘prik sxema bo‘yicha ΔE ni hisoblash va ko‘prikni muvozanatlash bilan statik va dinamik deformatsiyalar qayd qilinadi. Ko‘prik to‘rtta rezistordan tashkil topadi. Rezistorlardan biri A.N.Patrashev bo‘yicha 120...1000 Om diapazonda boshlang‘ich

qarshilikka ega bo'lgan aktiv dattik bo'lib hisoblanadi, uchtasi esa – doimiy qarshilikka ega. Ko'priknining diagonallaridan biriga V oziqlantirish manbai ulanadi, boshqasiga esa N.A.Chinenev o'lchash pribori o'rnatiladi.

Chiquvchi kuchlanish

$$E = \frac{R_1 R_2 - R_3 R_4}{(R_1 - R_2)(R_3 + R_4)} V \quad (5.78)$$

formula bo'yicha aniqlanadi.

$R_1 R_3 = R_2 R_4$ da ko'prik muvozanatlangan bo'ladi ($E = 0$). A.N.Patrashev ko'prik orqali oqib o'tadigan tok cheksiz katta qarshilikka ega bo'lgan yuklamaga shoxchalanmaydi deb hisoblaydi. Yuklama qo'yilgandan keyin ΔE muvozanat buzilishi paydo bo'ladi, bu R_1 datchik qarshiligining o'zgarishi bilan bog'lanadi. Muvozanatning buzilishi quyidagi formula bo'yicha baholanadi:

$$\Delta E = \frac{R_1 R_2}{(R_1 + R_2)^2} \left(\frac{\Delta R_1}{R_1} - \frac{\Delta R_2}{R_2} + \frac{\Delta R_3}{R_3} - \frac{\Delta R_4}{R_4} \right) \quad (5.79)$$

Ko'prik sxemaning sezuvchanlik koeffitsiyenti

$$k_M = \Delta E / \varepsilon \quad (5.80)$$

ga teng.

Bu formulalarga bog'lanishlar o'rniga qo'yilgandan keyin ravshan bo'ladi, ko'prik sxemaning sezuvchanligi V kiruvchi kuchlanish, aktiv tenzodatchikning $k = \Delta R_1 / R_1 \varepsilon$ sezuvchanlik koeffitsiyenti va $R_1 R_2 / (R_1 + R_2)^2$ ko'prik sxemaning samaradorligiga bog'liq bo'ladi. N.A.Chinenevning ishlarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, boshqa shart-sharoitlar teng bo'lganda ko'prik sxemaning samaradorligi $R_1 = R_2$ da maksimal bo'ladi.

Birinchi ko'prik sxemada R_1 bittayu-bitta aktiv datchik bo'lib hisoblanadi. Sezuvchanlik koeffitsiyenti quyidagi bog'lanish bo'yicha aniqlanadi:

$$k_M = \frac{R_2}{R_1 + R_2} I R_1 k \quad (5.81)$$

Sxema qo'llanilish sohasi bo'yicha potentsiometrik sxemaga o'xshaydi. Uning sezuvchanligi ham $R_2/(R_1 + R_2)$ zanjirning samaradorligiga - $R_2 - 9R_1$ da bu samaradorlik 90% ga teng - va u datchikning sezuvchanligiga bog'liq bo'ladi.

Ikkinchi ko'prik sxemada boshqa shoxchaga $R_2 = R_1$ teriokompensatsiyalaydigan datchik qo'shilgan, u tadqiq qilinadigan ob'ektga R_1 datchikning harorat sharoitlarida o'rnatiladi. $R_2 = R_1$ bo'lganligi sababli bu sxemada zanjirning samaradorligi doimiy bo'ladi va 50% ga teng. Sxemaning sezuvchanligi

$$k_M = 0,5IR_1k \quad (5.82)$$

formula bo'yicha aniqlanadi.

Haroratga bog'liqlikning kamayishidan tashqari bu sxemaning yutug'i shu bilan bog'lanadiki, bu ikkita datchikning deformatsiyalari teng va belgisi bo'yicha qarama-qarshi bo'lgan holatda (masalan, simmetrik kesimli to'sinni bukishda) formuladagi bog'lanishlarga muvofiq chiquvchi kuchlanish ikki martaga oshadi. Bu sxemaning sezuvchanligini oshirish va signalning nohiziqliligini kamaytirish imkonini beradi.

Uchinchi ko'prik sxemada haroratning avtokompensatsiyalanishi ko'prikning bitta shoxchasiga R_1 aktiv va R_2 kompensatsion datchiklarni o'rnatish bilan amalga oshiriladi. Sezuvchanlik koeffitsiyenti formula bo'yicha aniqlanadi va u $R_2 = R_1$ da 50% ni, $R_2 = (4...9)R_1$ da 80-90% ni tashkil qiladi, chunki boshlang'ich muvozanatlash uchun $R_2 = R_1$ shartning bajarilishi talab qilinmaydi.

To'rtinchi ko'prik sxemada $R_2 = R_1$ da to'rtta aktiv datchikdan foydalaniladi. Undan $\Delta R_2 = \Delta R_3 = -\Delta R_2 = -\Delta R_4$ bo'lganda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Barcha datchiklar bitta ob'ektning yuzasiga o'rnatilgan va bir xil muvozanatlangan harorat sharoitlarida joylashgan degan shartda sxemada to'liq harorat kompensatsiyasi va to'liq chiziqlilikka erishiladi. Sxemaning sezuvchanlik koeffitsiyenti $k_M = 2Irk$ ga teng bo'ladi.

Mesdoz konstruksiyasi

Birinchi ko‘prik sxemani qo‘llash afzal ekanligi tez-tez e‘tirof etiladi, chunki u N.A.Chinenevning boshqa sxemalariga qaraganda kamroq sezuvchanlikka ega. Umumiy holatda o‘lchash sxemalarining sezuvchanligini oshirish uchun yuqori kuchaytirish koeffitsiyentiga ega bo‘lgan differentsial kuchaytirgichlardan foydalanish A.N.Patrashevning bir nechta datchiklaridan foydalanishga qaraganda tejamli bo‘ladi deb hisoblanadi.

Ko‘prikni muvozanatlash asosida qurilgan ko‘prik o‘lchash sxemalarining tasvirlanishi N.A.Chinenevning ishlarida keltirilgan.

ε_1 va ε_2 aniqlash uchun ikki o‘lchovli nominal deformatsiya kuchini o‘rganishda uchta yoki to‘rtta datchiklarga ega bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak yoki teng burchakli rozetkalardan foydalaniladi. Rozetkalarining birinchi tipida datchiklar mos ravishda Oxu hisoblash tizimining Ox o‘qiga nisbatan 0, 45, 90° va 0, 45, 90, 135° burchak ostida o‘rnatiladi. Rozetkalarining ikkinchi tipida – mos ravishda 0, 120, 240° va 0, 90, 120, 240° burchak ostida o‘rnatiladi.

γ_{xu} kattalik ikkita qo‘shni datchiklarning ko‘rsatishi bo‘yicha aniqlanadi, yo‘nalishi esa – ular o‘rtasidagi burchakning bissektrisasi bo‘yicha aniqlanadi. Datchiklarning ko‘rsatishlari bo‘yicha deformatsiyalarni hisoblash uchun bog‘lanishlar N.A.Chinenev va A.N.Patrashevning ishlarida keltirilgan. Kuchlanishlar qayishqoqlik nazariyasi formulalari bo‘yicha hisoblanadi.


Uning qayishqoq elementining deformatsiyasi orqali deformatsiyalovchi kuchni aniqlash uchun mo‘ljallangan qurilma mesdoz deb ataladi. U bevosita o‘lchanadigan kuch ta‘sir ko‘rsatadigan zonaga, masalan, shtampning xvostovigining ostiga joylashtiriladi. Mesdozga qo‘yiladigan umumiy talablar chiquvchi signalning o‘lchanadigan yuklamaga chiziqli bog‘lanishining bo‘lishi, ko‘rsatishlarning noaniq o‘rnatishga bog‘liq bo‘lmasligi va hokazolar bo‘lib hisoblanadi.

Mesdozlar elastik elementning shakli (tsilindr, halqa, shar), qo‘llaniladigan datchiklarning tipi (sig‘imli, magnitikqayishqoq,

induktiv va boshqalar), mahkamlaydigan elementlarning konstruksiyasi va hokazolar bilan farq qiladi.

5.21-rasm,a,b da elastik elementning yaxlit va halqa ko‘rinishidagi shakliga ega bo‘lgan, kuchni o‘lchash uchun mo‘ljallangan mesdozlarning sxemalari ko‘rsatilgan, elastik elementlarning yon yuzalariga tenzodatchiklar yopishtiriladi. Ko‘pincha ko‘prik sxema qo‘llaniladi (5.21-rasm,a ga qarang), bunda ikkita aktiv datchik o‘lchanadigan kuchning yo‘nalishi bo‘yicha, ikkita kompensatsion datchik esa – ko‘rsatilgan yo‘nalishga ko‘ndalang qilib yopishtiriladi. Mesdozning elastik yaxlit yoki halqa elementini diametr va balandlikning 0,4...0,5 nisbat bilan ishlash tavsiya qilinadi.

Metallarga bosim bilan ishlov berish jarayonini gidroyuritma bilan jihozlash uchun gidrotizim bilan bog‘langan naychali yoki membranali mesdozlar qo‘llaniladi (5.21-rasm,c,d). Bu hollarda kuch parametrlari ishchi suyuqlikning bosimini o‘lchash yo‘li bilan aniqlanadi. Ikki o‘qli cho‘zish sharoitlarida datchiklar naychanning yuzasiga o‘qqa perpendikulyar qilib, membrana holatida esa – uning markaziga o‘rnatiladi. Bu mesdozlarning o‘lchamlarini tanlash bo‘yicha tavsiyalar N.A.Chinenevning ishlarida keltirilgan.



5.21-rasm. Elastik elementli mesdozlarning konstruksiyalari: yaxlit (a); halqa (b); naychali (c) va membranali (d); 1-element, 2-tenzodatchiklar.


Cho‘zish (siqish) va bukishdan vujudga keladigan deformatsiyalar alohida-alohida qayd qilinadi. Faqatgina R_1 va R_2 ni cho‘zishdan (siqishdan) vujudga keladigan deformatsiyalarni qayd qilish uchun mesdozlar ob‘ekt yuzasining qarama-qarshi tomonlariga joylashtiriladi, datchiklar esa butun sxemalar bo‘ylab o‘rnatiladi.

Pribor faqatgina R_1 va R_2 yig‘indi qarshilikka reaksiya ko‘rsatadi. Faqatgina R_1 va R_2 ni bukishdan vujudga keladigan

deformatsiyalarni qayd qilish uchun pribor ko‘prik shoxchalarining tutash yelkalariga yoki potentsiometrik sxemaning ballasti va datchigining joyiga joylashtiriladi. Bunda chiquvchi signal R_1 va R_2 qarshiliklarning o‘zgarishlar farqiga proporsional bo‘ladi.

Burash deformatsiyasini o‘lchashda tenzorezistorlar to‘sinning o‘qiga nisbatan 45° burchak ostida yopishtiriladi, chunki bosh maydonchalar shu yo‘nalishlarda joylashadi. O‘lchashlar N.A.Chinenev tomonidan ko‘rsatilgan sxemalar bo‘yicha o‘tkaziladi.

Solishtirma kontakt kuchlari bosqichli shtiftga ega bo‘lgan nuqtali mesdozlar bilan aniqlanadi. Kichik bosqichli 1,5...2,5 mm diametrli shtift mesdozning korpusidagi bo‘ylama teshikka har bir tomonga 30 mkm oraliq bilan kiritiladi (5.22-rasm,a). Shtiftning eng katta ichi bo‘sh bosqichining yon yuzasiga tenzorezistorlar yopishtiriladi. Shtift bir paytning o‘zida siquvchi kuch va bukuvchi moment bilan yuklanadi. O‘lchashlarning aniqligini ta‘minlash uchun yuklanmaning ta‘siri ostida mesdozning korpusi va shtift deformatsiyasining bir xilligi korpus gumbazining konussimon shakli bilan ta‘minlanadi. Urinma kuchlanishlarni o‘lchash uchun shtiftli mesdozlarni joylashtirish to‘g‘risida yakdil fikrlar yo‘q. Ye.P.Unksovning ishlarida mesdozning shtiftini shtamp gravyrasining yuzasiga nisbatan burchak ostida joylashtirish (5.22-rasm,b) jarayonlari tasvirlangan.



5.22-rasm. Shtiftli mesdozning umumiy ko‘rinishi (a): 1-shtift; 2-tenzodatchik; va ishqalanish koeffitsiyentining urinma kuchlanishini aniqlash sxemasi (b); 1-kontakt yuzasiga normal yo‘nalgan mesdoz; 2-kontakt yuzasiga egilgan mesdoz; 3-shtamplash plitalari; 4-deformatsiyalanadigan material.

Urinma kuchlanish va ishqalanish quyidagi bogʻlanishlar boʻyicha aniqlanadi:

$$\tau = tg\varphi(\sigma_n - p_\varphi); \mu_{ishq} = \tau/\sigma_n \quad (5.83)$$

Bu yerda σ_n va p_φ mos ravishda perpendikulyar va egilgan sezuvchan elementlardan olingan koʻrsatishlar asosida aniqlanadi.

Eng katta ogʻishishlar kontakt zonasining chekkalarida va oʻlchashlarning nuqtali emasligi sababli kontakt kuchlanishlarining katta gradiyentiga ega boʻlgan uchastkalarda vujudga keladi.

Kontakt kuchlanishlarini tadqiq qilish uchun moʻljallangan nuqtali mesdozlar uslubining turlari folgadagi izlar, oʻlchash teshiklari va sezuvchan plenklar uslublari boʻlib hisoblanadi.

Birinchi uslub shtampning devoridagi teshiklarni oldindan kalibrlangan folga bilan yopish bilan bogʻlanadi. Izlarning oʻlchamlari boʻyicha bosimlar epyuralari quriladi. Ikkinchi uslubda qn mahalliy bosim quyidagi bogʻlanishga muvofiq aniqlanadi:

$$q_n = kh + q_3 \quad (5.84)$$

Bu yerda h va q_3 – shtampning devoridagi teshikka metallning oqish chuqurligi va oqishning boshlangʻich bosimi; k – proporsionallik koeffitsiyenti.

Koeffitsiyentlar q_n maʼlum boʻlganda ikkita kalibrlash sinovlarining maʼlumotlari boʻyicha tenglamalar tizimini yechish bilan aniqlanadi.

Har ikkala uslub ham kontakt zonasida metallning oqish kinematikasini buzadi va katta xatolikka ega. Keyingi uslubda tayyorlanma bilan shtampning boʻshligʻi orasiga boʻshliqlari boʻyoq bilan toʻldirilgan plenka joylashtiriladi. Bosim paydo boʻlganda boʻshliqlar oʻzaro qoʻshiladi, bunda boʻyoq hisobiga plenkaning rangi oʻzgaradi. Kontakt bosimining taqsimlanishi kalibrlash jadvalari va plenkada rangli zonalarining taqsimlanishi boʻyicha aniqlanadi.

Kombinatsiyalangan uslublar

Konkret masalalarni yechish uchun ko‘rib chiqilgan uslublar-ning imkoniyatlaridan kelib chiqish bilan ularni kombinatsiyada qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu ko‘proq to‘liq va ko‘proq ishonchli ma‘lumotlarni olish va eksperimental ma‘lumotlarga ishlov berishni soddalashtirish imkonini beradi. Yassi masalalarni yechishda uslublarni birlashtirishga misollarni ko‘rib chiqamiz.

1. Qattqlik uslubi bilan σ_i aniqlanadi, so‘ngra:

a) mo‘rt qoplamalar uslubi bilan σ_1 va σ_2 ning trayektoriyalari aniqlanadi, kuchlanishlarning o‘zlarini esa $\sigma_1 - \sigma_2 = \sigma_s = \sigma_i$ da muvozanat tenglamalarini N.A.Chinenevning bosh kuchlanishlarining trayektoriyalari bo‘ylab integrallash bilan ajratish maqsadga muvofiq bo‘ladi;

b) OSQ, interferometriya, eritish, mo‘rt qoplamalar yoki muar uslublaridan biri bilan sirg‘alish chiziqlarining manzarasi aniqlanadi. Muvozanat tenglamalarini sirg‘alish chiziqlariga urinmalar bilan hosil qilingan koordinatalar to‘rida integrallash bilan so‘rt aniqlanadi, so‘ngra N.A.Chinenev bo‘yicha σ_x , σ_y , σ_{xu} hisoblanadi;

d) koordinatalar to‘ri, muar, mikrostruktura va OSQ uslublari bilan bosh normal va maksimal urinma kuchlanishlarning trayektoriyasini o‘z ichiga olgan holda deformatsiyalangan holat aniqlanadi, kuchlanishlarning o‘zlari esa – avval aytib o‘tilganidek, yoki $\tau_{xu} = (\sigma_i/2) \sin 2\theta$ ni aniqlash, yoki N.A.Chinenevning muvozanat tenglamalarini yechish bilan aniqlanadi;

2. Deformatsiyalanadigan tayyorlanmaning harorat maydoni turli haroratlarda kalibrlash grafigi bo‘yicha aniqlanadi, u koordinatalar to‘ri uslubi bilan olingan mustahkamlanish parametri va G.D.Del, R.K.Mozberg sovugan metallining qattqligida cho‘zishga sinovlarda kuchlanishlarning intensivligini bog‘laydi;

3. Qutblash-optik uslublar bilan olingan bosh deformatsiyalar va kuchlanishlarni ajratish uchun optik interferometriya uslubi bilan ko‘ndalang deformatsiyalar o‘lchanadi, so‘ngra natijalarga N.A.Chinenev bo‘yicha matematik ishlov beriladi;

4. Optik qutblash va koordinatalar to‘ri uslublarini birlashtirish bilan moddiy zarrachalarning trayektoriyalari va deformatsiyalar aniqlanadi. Kuchlanishlar oqish nazariyasining nisbatlari va G.A.Smirnov-Alyaev muvozanat tenglamalari orqali aniqlanadi;

5. OSQ va muar uslublari bilan mos ravishda tenglamalarning bosh deformatsiyalarning farqini siljishlar bilan bog‘laydigan qismlari aniqlanadi. Ma‘lumotlarning bir paytda qayd qilinishi N.A.Chinenev kalibrlashini talab qilmaydi.

Kitobda plastik oqishda materialning nominal deformatsiya kuchini tadqiq qilishda qo‘llaniladigan uslublarning bir qismigina tasvirlangan. Boshqa uslublar, masalan, dinamik yuklamalar yoki oshirilgan harorat rejimlari sharoitlarida qo‘llaniladigan uslublar N.A.Chinenev, A.N.Patrashev va G.A.Smirnov-Alyaevning ishlarida keltirilgan.

Tadqiq qilishlarning u yoki bu uslubini texnik amalga oshirish bo‘yicha hisoblashlar, kuch, dinamik va konstruktiv sxemalar, sinovdan o‘tkazish vositalarining texnik tavsiflari, o‘ziga xos xususiyatlari va ularning optimal ish rejimlarini tanlash, shuningdek sanoatda konkret masalalarni yechish uchun sinovdan o‘tkazish texnikasidan foydalanish uslubiyati to‘g‘risida tizimlashtirilgan ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladigan materiallar xususan, N.A.Chinenev, A.N.Patrashev, G.A.Smirnov-Alyaeva, Ye.P.Unksov, A.G.Ovchinnikov, P.I.Poluxin, L.V.Prozorov, A.I.Kolpashnikov, A.D.Tomlenov, M.V.Storojev va boshqalarning ishlarida yoritilgan.

Yuqorida aytilganlar munosabati bilan mazkur predmetning asosiy vazifasi metallarga bosim bilan ishlov berish jarayonlari va tayyorlanmalarni olish, prokatlash, turli metall va nometall materiallardan talab qilinadigan shakl va o‘lchamdagi yuqori sifatli tayyor buyumlar yoki mahsulotlarni olish texnologiyalarini ratsional qurish va ularni tahlil qilishning umumiy printsiplial asoslarini ishlab chiqish bo‘lib hisoblanadi.

Plastik deformatsiyalar nazariyasi shu yo‘nalishdagi fan va ilmiy baza bo‘lib hisoblanadi. U turli operatsiyalar bilan metallning shaklini eng katta o‘zgartirish mumkin bo‘ladigan shart-sharoitlar, metallarga bosim bilan ishlov berishning metallarning fizikaviy-

kimyoviy, texnologik va mexanik xususiyatlariga ta'siri, turli operatsiyalarda tayyorlanmalarning shakl o'zgarishining xarakteri, turli operatsiyalar bilan ishlov berishda va metallni plastik deformatsiyalashda metallning plastik deformatsiyalarga qarshiligini ko'rib chiqadi va o'rganadi.

Nazorat savollari

1. Metallarni deformatsiyalash jarayoniga deformatsiya harorati va tezligining ta'siri qanday bo'ladi?
2. Metallarni yoqori oshirilgan haroratlarda deformatsiyalash deganda nimani tushunasiz?
3. Metallarning qaytishi (dam olishi) va rekristallanishi qanday hollarda sodir bo'ladi?
4. Metallarga bosim bilan ishlov berishda deformatsiyaning qanday turlarini bilasiz?
5. Metallarning plastikligiga va deformatsiyalanish qarshiligiga haroratning ta'siri qanday bo'ladi?
6. Issiq deformatsiyani metallarning mexanik xossalari ta'siri bormi?
7. Deformatsiya tezligining deformatsiyaga qarshiligi va plastikligiga ta'siri qanday kechadi?
8. Plastik deformatsiyaning asosiy qonunlari va usullariga nimalar kiradi?
9. Muar uslubi va yorug'lik kvaziinterferentsiyasi hosil bo'lish sabablari.
10. Optik-sezuvchan qoplamalar va strukturaviy-nasllilik materiallar uslublarini tushuntirib bering.

XULOSA

Mazkur darslikda asosan plastik deformatsiyasiga tegishli bo'lgan materiallar, metallar va ular qotishmalarining nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan.

Texnika davri va mashinasozlik sanoatining shiddat bilan rivojlanishi plastik deformatsiya nazariyasining oldiga ko'plab yangi vazifalarni qo'yimoqda, uning qiyofasi esa uzluksiz o'zgarimoqda, shuningdek u ko'p marta qayta ishlanmoqda.

Bir paytning o'zida amaliy plastiklik nazariyasi ham rivojlanmoqda. U metallning bir jinsli uzluksiz izotrop qattiqplastik muhit sifatidagi modeliga tayanadi. Bunda bosh vazifa hisoblash yo'li bilan metalldagi kuchlanishlar va deformatsiyalarni aniqlash hamda bosim bilan ishlash, shtamplash, presslash va prokatlash jarayonlarining kuch parametrlarini aniqlash bo'lib hisoblanadi.

Shuningdek, plastik deformatsiyaning asosiy tabiati, yassi plastik oqish nazariyasining asoslari, metall materiallarni presslash va shtamplash uslublari, yuqorigi va pastki baholash to'g'risidagi teoremlar, deformatsiya harorati va tezligining metallarni deformatsiyalash jarayoniga ta'siri ko'rib chiqilgan va metallar va qotishmalarni plastik deformatsiyalashga ta'siri o'rganilgan. Ishda shuningdek O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy dasturlarga to'liq mos keladigan turli materiallari ham keltirilgan. Bu materiallar muallifning shaxsiy izlanishlarini tavsiflaydigan turli-tuman qiziqishlari, keng bilimlari va chuqur tushunchalari bilan chambarchas bog'lanadi va kitobxonga zaruriy bilimlarni beradi. Mavzu bo'yicha nazorat savollari, xulosalar, glossariy (izohli lug'at) va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

Darslikda metallarning plastik deformatsiyasini tabiati, ularning tarkibi va tuzilishi, turli metall materiallarga ishlov berishning konstruktor va texnolog, shuningdek, metallarga bosim bilan ishlov berish, quymakorlik sanoati va prokatlashga ixtisoslashgan muhandis-mexanik bilishi zarur bo'lgan xususiyatlari va uslublari tahlil qilingan.

Tahlillarning natijalari shuni ko'rsatdiki, turli operatsiyalar bilan zagotovkaning shaklini o'zgartirishning texnologik xarakteri bosim bilan ishlov berishdan keyin olinadigan boshlang'ich zagotovkalar va detallarning o'lchamlari va shakli o'rtasidagi ko'proq xoxlanadigan nisbatlarga olib kelishi, xususan, shu buyumlarning sifati yaxshilanadigan, metall va elektroenergiya sarfi keskin qisqaradigan nisbatlarga olib kelishi lozim.

Yuqorida aytib o'tilgan ma'lumotlar bo'yicha mazkur kitob barcha texnika oliy o'quv yurtlarida professor-o'qituvchilar tarkibi va talabalar, shuningdek, oliy o'quv yurtlarining izlanuvchilari va mashinasozlik korxonalarining muhandis-texnik xodimlari uchun darslik sifatida ham uzoq muddat xizmat qiladi. Unda tavsiya etilayotgan boblar, paragraflar, turli xil zamonaviy va yangi innovatsion materiallar, ayniqsa, plastik deformatsiya, metallarga bosim bilan ishlov berish va prokat maxsulotlari va buyumlarini olish talabalarni nazariy yoki amaliy bilim va ilm olishlarida, shu bilimlarni yaxshi o'zlashtirishlarida katta yordam beradi.

GLOSSARIY

«Plastik deformatsiya» fanidan tayanch soʻzlar va iboralarning izohli lugʻati

Metallarning – Harorat pasaygan sari elektr oʻtkazuvchanligu ortadigan, elektron

taʼrifi – oʻtkazuvchanlikka ega boʻlgan, bolgʻalanuvchan, issiq oʻtkazuvchan va ayliroq moddalar

Metallarning tuzilishi – Hamma metallar va qotishmalar kristall tuzilishga ega ekanligi

Atom-kristall – Kristall panjaralarda atomlar va ionlarni muayyan tartibda

Panjaralar – joylashishi

Kristallografik - Metallardagi kristall panjaraning atomlar zichligi eng koʻp

tekisliklar – boʻlgan tekisligi

Metallarning agregat holati – Qattiq, suyuq va gaz holatlari

Qattiq jismlardagi bogʻlanish turlari – Ion, atom, molekulyar va metall bogʻlanishlar

Birlamchi kristallanish – Metallarni suyuq holatdan qattiq holatga oʻtish jarayoni

Ikkilamchi kristallanish – Qattiq holatdagi metallar kristall panjaralarining oʻzgarishi

Mexanik xossalari taʼrifi – Metallar va qotishmalarning tashqi kuchlar taʼsiriga qarshilik koʻrsatish xususiyati

Tashqi taʼsir etuvchi kuchlar – Bir tekisda taʼsir etuvchi kuchga *statik kuch*, zarb bilan taʼsir etuvchi kuchga *dinamik kuch* va taʼsir etish kuchi oʻzgarib turadigan kuchga esa *oʻzgaruvchan kuch* deb yuritilishi

Metallarning texnologik xossalari – Metallarning kirishuvchanligi, suyuq holatda oquvchanligi, bolgʻalanuvchanligi, payvandlanuvchanligi va ularning kesib ishlanuvchanligi

Deformatsiya – Metallarga qandaydir biror kuch taʼsir ettirilganda shu metallargeometrik shakli va oʻlchamlarining oʻzgarishi

Metallarning elastic deformatsiyasi – Metallarga ta'sir ettirilgan kuch olingandan keyin shu metall asli holiga yoki shakliga qaytishi

Metallarning plastic deformatsiyasi – Metallarga ta'sir ettirilgan kuch olingandan keyin shu metall asli holiga yoki shakliga qaytmasligi

Metallarning emirilishi – Metallarga ta'sir ettirilgan kuch ma'lum chegarara etganda yoki oshgandan keyin shu po'lat namunasining emirilishi

Metallarning sinish turlari – Metallar qovushqoq, mo'rt va toliqish oqibatlarini

Nagartovka – Plastik deformatsiya ta'sirida shu metallning pux-talanishi

Metallarning o'ta yuqori plastikligi – Metallarga ta'sir ettirilgan kuch belgilangan kuchdan oshishi va ularda o'ta yuqori plastiklik hosil bo'lishi va u avvalgi shakliga qaytmasligi

Metallardagi naklyop – Metallarda naklyop juda ko'p siljish yuzalari hosil bo'lishiga va mozaika bloklarining maydalanishiga olib kelishi

Metallardagi ichki kuchlanishlar – Ular birinchi, ikkinchi va uchinchi tur kuchlanishlari

Qotishmalar ta'rifi – Metallar bilan metallarni, metallar bilan metallmaslarni yoki metallmaslar bilan metallmaslarni birgalikda suyuqlantirish orqali hosil bo'lgan jismi

Metall qotishmalar – Ko'p qismi metallardan va qolgan qismi metallmaslardan iboran bo'lgan metall xossalariga ega qotishmalari

Psevdo qotishmalar – Metallarni suyuqlantirmasdan elektroliz qilish, qovushtirish va qattiq holatdan bug' holatiga o'tkazish jarayoni

Plastik deformatsiya jarayonining tahlil usullari – Sirpanish chiziqlarini tahlil qilish, metallardagi kuchlanishlarni sinab tahlil qilish, asosiy deformatsiyalar, masalalar va tenglamalarni tahlil qilish va boshqa usullari

Muvozanat va virtual ish differentsial tenglamalari – Bu tenglamalar alohida-alohida yozilib, ularda asosan kuchlanishlar, hajm

birligidagi kuchlar va chegara elementlarining muvozanat shartlarining ko'rsatilishi

Plastik deformatsiya kuchining pastki va yuqorigi baholarini aniqlash tamoyillari – Pastki va yuqorigi baholarni aniqlash uchun Xillning ikkita ekstremal tamoyillaridan foydalanishi

Yassi plastik oqish holati – Barcha zarrachalar berilgan tekislik bo'yicha parallel harakatlanishi

Sirpanish chiziqlarini matritsa – operator usulida qurish - bu chiziqlar to'rini to'g'ri bo'lgan va to'g'ri bo'lmagan usul bilan qurishi

Oquvchanlik kuchlanishi – Bu σ_s haqiqiy kuchlanish bo'yicha deformatsiyada mustahkamlanish oladigan materialning oquvchanlik chegarasi

Metallardagi sirpanish holatining kechishi – Metall kristall panjarasida sirpanish atomlar ko'proq zich o'ralgan va siljishga qarshilik eng kichik bo'lgan tekisliklar va yo'nalishlar bo'yicha kechishi

Metallardagi egizaklanish – K12 va G12 zich o'ralgan panjarali metallning pl-deformatsiyalanishi sirpanishdan tashqari, egizaklanish bilan ham sodir bo'lishi

Metallarning yassi deformatsiyasi o'zgarishlari – Bu uzun silindrik yoki prizmatik jismda yassi deformatsiyani qizdirish harorati ko'ndalang kesimi bo'ylab o'zgarganda yoki silindr va prizmaning o'qiga parallel chiziqlar bo'yicha o'zgarmaganda vujudga kelishi

Materiallarni presslash jarayonining borishi – Press havol silindriga kiritilgan materiallarni matritsa deb ataluvchi asbobi bilan asbobni ezib siqib chiqarish bilan bog'liq bo'lgan texnologik jarayoni

Materiallarni hajmiy shtamplash jarayonining borishi – Metall zagotovkalarini shtamp deb ataluvchi asbobning pastki palla oyig'iga qo'yib, ustki pallasi bilan zarblab ishlov berish texnologik jarayoni

Godograf tezliklari rejasining ketma-ketligi – Sirpanish chiziqlari to'riga mos keladigan asosiy tezliklar rejasi godograf tomonidan taqdim qilinishi

Deformatsiyalanadigan metallarda qaytish va rekristallanish sodir bo‘lishi – Bunday metallarning harorati oshirilganda ularda mustahkamlanishga qarama-qarshilikka bo‘lgan yangi jarayonlar sodir bo‘lib, natijada qaytish (dam olishi) va rekristallanish jarayonlari

Metallarga bosim bilan ishlov berish jarayonlari – biror bir metall materiallarini ma’lum hajm va bosim bilan ezib-siqib buyum olinishi

Prokat mahsulotlari – biror bir markali metallni qizdirib – suyultirib, avval blyum olish va keyin esa slyab va kerakli zaruriy prokat mahsulotlarini olinishi

Materialning vizioplastiklik uslublarining qo‘llanilishi – bu uslub E.Tomsen tomonidan taklif qilingan bo‘lib, u plastic deformatsiyaning kichik ortish yo‘nalishlari va tezliklar yo‘nalishlariga mos keluvchi koordinata to‘rining og‘ishishlari bo‘yicha oqish tezliklarini aniqlash imkonini beruvchi usuli

Muar uslubining qo‘llanilishi - Muar hodisasi 1874-yilda Rele tomonidan yozilgan bo‘lib, u XX asrning 40-yillarida, mayda va aniq to‘rlarni sanoat miqyosida tayyorlash uchun o‘zlashtirilgandan keyin qo‘llanila borilishi

Qutblanish-optik uslublari - Polyarizatsiyalash, rasmelastiklik, rasmpplastiklik, optik-sezuvchan qoplamalar, golografiya va boshqa uslublari

Namunalar turlari – Bunda ko‘proq metall po‘lat namunalardan va kamroq metallmas namunalardan foydalanilishi

Optik-sezuvchan qoplamalar - bu uslub A.Ya.Aleksandrov tomonidan taklif qilingan bo‘lib, u namuna yuzasiga yaxshi qoplama adgeziya va kichik qattqlik hosil qilishi

Strukturaviy- nasllilik uslublarini turlari - mikrostrukturaviy, qattqlikni o‘lchash, mo‘rt qoplamalar, sirpanish chiziqlari, interferometriya va rentgen uslublari

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullaev F.S., Maxkamov Q.X. Metallarga bosim bilan ishlov berish asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDTU, 2000. - 400 b.

2. Мирбобоев В.А. Металларни босим билан ишлов бериш усуллари ва махсулотлар ишлаб чиқаришнинг технологик жараёнлари. Ўқув қўлланма. – Т.: ТошДТУ, 2001. - 189 б.

3. Лосов М.Г. Теория пластической деформация металлов. Учебное пособие. – Самара.: Изд-во СГАЕУ, 2010. - 175 с.

4. Norxudjaev F.R. Metallshunoslik asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2008. - 165 b.

5. Nurmurodov S.D. Materialshunoslik va konstruksion materiallar texnologiyasi. – T.: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2014. - 287 b.

6. Umarov E.O. Materialshunoslik. – T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2014. - 382 b.

7. William F., Robert M. Metall forning: Mechanice and country cambride. – United kingdom: Metallurgy cambride university press, 2011. - 345 p.

8. Васильев Д.И., Тилкин М.А., Тетерин Г.Р. Основы проектирования деформирующего инструмента. Учебное пособие для металлургических и машиностроительных вузов. – М.: Высшая школа, 2005. - 428 с.

9. Jasob Lubliner. Plasticity theory. Little book. – Californiya.: Pearson education, 2015. - 540 p.

10. Эвстратов В.А. Теория обработки металлов давлением. – Харьков.: Высшая школа, 2006. - 248 с.

11. Колмогоров В.Л. Механика обработки металлов давлением. Учебное пособие для вузов. – М.: Металлургия, 2006. - 688 с.

12. Сторожев М.В., Попов Е.А. Теория обработки металлов давлением. – М.: Машиностроение, 2007. - 423 с.

13. Огородников В.А. Оценка деформируемости при обработке металлов давлением. – Киев.: Высшая школа, 2008. - 124 с.

14. Степаненский Л.Г. Расчеты процессов обработки металлов давлением. – М.: Машиностроение, 2009. - 215 с.
15. Корнеев Н.И. Комка и штамповка цветных металлов. Справочник. – М.: Машиностроение, 2007. - 507 с.
16. Губкин С.И. Теория обработки металлов давлением. – М.: Металлургиздат, 2007. - 247 с.
17. Jones R.M. Deformation theory of plasticity. Buee metall ridje corporation, 2009. - 622 p.
18. Бреханов А.Н. Ковка и объемная штамповка. – М.: Машгиз, 2010. - 177 с.
19. William D., Callister Jr., David G. Rethwisch. Materials science and engineering / wiley and sons. UK, 2014. - 896 p.
20. Ковалов В.Г. Технология листовой штамповки. Технологическое обеспечение точности и стойкости. Учебное пособие для вузов. – М.: Кнорус, 2010. - 224 с.
21. Эвстратов В.А. Теория обработки металлов давлением. Сборник задач и упражнения. – Харьков.: Высшая школа, 2008. - 124 с.
22. Plyoshin A.A. Sheet metall forming processes and die design industrial press. Inc. U.S.: 2nd Revised edition New York, United states, 2014.
23. Рудский А.И., Лунев В.А. Теория и технология прокатного производства. Учебное пособие. – СПб.: Наука, 2010. - 527 с.
24. Donald R. Askeland. Pradeep P. Fulay. Essentials of materials science and enjineering. Sekond edition CEN GAGE Learning, 2009. - 604 p.
25. Григорьев Л.Л. Холодная штамповка. – СП. Политехника, 2009. - 187 с.
26. Константинов И.Л. Технологияковки и горячей объемной штамповки. – М.: ИНФРА-М, 2014. - 239 с.
27. Xaliqberdiev T.U. Mashinasozlik texnologiyasi asoslari. – Т.: O‘qituvchi, 2012. - 490 b.
28. Лавриенко Е.А. Объемная штамповка на автоматах. – М.: Изд-ва МГТУ имени Н.Е.Баумана, 2014. - 277 с.

29. Tilabov B.Q. Materialshunoslik fani bo'yicha laboratoriya ishlari va amaliy mashg'ulotlarni mustaqil bajarish uchun uslubiy qo'llanma. – T.: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2021. - 255 b.

30. Tilabov B.Q. Materialshunoslik va konstruksion materiallar texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma. – T.: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2022. - 301 b.

31. Tilabov B.Q. Materialshunoslik fanidan ma'ruzalar matni. – T.: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2022. - 463 b.

32. www.ziyonet.uz

33. www.ziyo.uz.com

34. www.youtube.com

35. www.twirpx.com

36. www.natlib.uz

37. www.lib.tnu.ru/materialovedenie.doc.898KB.10.02.2022

38. www.journals.elsevier.com/journal-of-materials-science-and-technology

MUNDARIJA

Kirish	3
1-bob. Plastik deformatsiyaning asosiy tabiati	8
1.1. Metallar va ularning tuzilishi	8
1.2. Plastik deformatsiyalar to‘g‘risida umumiy tushincha	16
1.3. Deformatsion kuchlarni aniqlash usullari	24
1.3.1. Deformatsiyalovchi kuchlarni aniqlash	27
1.3.2. Metallarning elastik va plastik deformatsiyalanishi	38
1.4. Metallar va ular qotishmalarining o‘ta yuqori plastikligi	51
1.4.1. Plastik deformatsiya jarayonlarini tahlil qilish usullari	54
1.4.2. Muvozanat va virtual ish differensial tenglamalari	61
1.4.3. Maksimal ishlar tamoyili	64
1.5. Plastik deformatsiya kuchining pastki va yuqorigi baholarini aniqlash uchun asosiy ekstremal tamoyillar	66
2-bob. Yassi plastik oqish nazariyasining asoslari	70
2.1. Plastik oqish holati, kuchlanganlik holati va Genki tenglamasining hosil bo‘lishi	70
2.2. Sirpanish chiziqlarini qurishning matriksa-operator usuli...	79
2.2.1. Sirpanish chiziqlarining umumiy tavsif tenglamalari ...	81
2.3. Metallarning plastik oqishini chaqiruvchi kuchlarni aniqlashning yaqinlashuvchi energetik uslubi	84
2.4. Plastik deformatsiyaning haqiqiy kuchlanish va mustahkamlanish egri chiziqlari	90
2.5. Sirpanish va egizaklanish bilan plastik deformatsiyalanish	97
2.6. Metallarning yassi deformatsiyasi, yassi kuchlanganlik holati va deformatsiyalarni bartaraf qilish usullari	100
3-bob. Metall materiallarini shtampovkalash va presslash usullari	107
3.1. Materiallarni shtampovkalash va presslash haqida umumiy tushirichalar.....	107
3.2. Materiallarni presslash uchun foydalaniladigan asboblari va uskunalari.....	114
3.3. Materiallarni shtamplash, sovuq va issiq holda shtamplash uchun shtamplar va ularning konstruksiyalari	116

3.3.1. Listli materiallarni shtampovkalash usullari	133
3.4. Metall materiallarni erkin kovkalash (bolg‘alash)	141
3.5. Metallarni presslash va shtamplash kuchlarini aniqlash usullari	151
3.5.1. Kuchlarni baholash uslubi	156
3.5.2. Yoqorigi va pastki baholash uslublarining mohiyati...	159
3.5.3. Godografning tekisliklar rejasini ketma-ket qurish ...	169
3.5.4. Yoqorigi va pastki baholash uslublarini rivojlanishi va ularni qo‘llanilishi	171
3.6. Oxirgi elementar uslubi	177
4-bob. Yoqorigi va pastki baholashlar to‘g‘risidagi teoremlar.....	185
4.1. Yopishqoq bo‘lmagan qattiqplastik jismni kvazistatik deformatsiyalash	185
4.2. Tugunlardagi va elementning ichidagi o‘zgaruvchilar...	187
4.2.1. Elementlarni tanlash va konkret shaklni qabul qilish..	191
4.3. Oxirgi elementar usulining differensial va variatsion shakllari	204
4.4. Plastiklikning energetik shartini geometrik ma‘nosi	211
4.5. Asosiy geometrik tadqiqot qilish usublari	214
5-bob. Metallarning deformatsiyalash jarayoniga deformatsiya harorati va tezligining ta’siri	228
5.1. Yoqori haroratlarda deformatsiyalash, metallarning qaytishi va rekristallanishi	228
5.2. Metallarga bosim bilan ishlov berishda deformatsiyaning asosiy turlari	235
5.2.1. Metallarning plastikligiga va deformatsiyalanish qarshiligiga haroratning ta’siri	237
5.2.2. Issiq deformatsiyani metallarning mexanik xossalariga ta’siri	240
5.2.3. Deformatsiya tezligining deformatsiyaga qarshiligi va plastikligiga ta’siri	244
5.3. Materiallarning plastik deformatsiyalarga qarshiligi usuli ...	248
5.4. Plastik deformatsiyaning asosiy qonunlari va usullari ...	252
5.5. Materiallarning vizioplastiklik usullari	265

5.6. Muar usuli va yorug‘lik kvaziinterferensiyasi hosil bo‘lishi-ning natijalari	274
5.7. Elektrogidrodinamik analogiya uslubi	280
5.7.1. Qutblanish-polyarizatsiya – optik usullari	284
5.7.2. Namunalarning rasmelastiklik va rasmplastiklik usullari ..	289
5.8. Optik-seziluvchan qoplamalar va strukturaviy-nasllilik materiallar usullari	300
Xulosa	335
Glossariy.....	337
Foydalanilgan adabiyotlar	341

Tilabov Baxodir Qurbanovich

PLASTIK DEFORMATSIYA

Darslik

B. Q. Tilabov

Plastik Deformatsiya

Toshkent – «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi» – 2023

Muharrir:	Sh.Kusherbayeva
Tex. muharrir:	Sh.Mirqosimova
Rassom:	U.Ortiqov
Kompyuterda sahifalovchi:	D. Bakirova



E-mail: tipografiyacent@mail.ru Tel: 97-450-11-14, 93-381-22-07.

Bosishga ruxsat etildi . .2023.

Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Times New Roman» garniturasida.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog‘i . Nashriyot bosma tabog‘i .

Tiraji . Buyurtma № .

«Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi»

bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent sh., Foziltepa ko‘chasi, 22 b uy.